

FOLKLOR- ETNOGRAFIK ANSAMBLARI

Kasb-hunar kollejlari uchun



«O'QITUVCHI»

www.oqituvchi.uz
124-04-12

ISBN 978-9943-02-114-3



9 789943 021143

FOLKLOR - ETNOGRAFIK ANSAMBLARI

FOLKLOR- ETNOGRAFIK ANSAMBLLARI

Kitabxona kollektivi uchun



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

S. Yo'ldosheva, G. Sattorova

FOLKLOR-ETNOGRAFIK ANSAMBLARI

Kasb-hunar kollejlari uchun qo'llanma

„O'QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT — 2007

Taqrizchilar: *MAMATQUL JO'RAYEV* — O'z RFA Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti Folklor bo'limining mudiri, Filologiya fanlari doktori, professor;
OYXON YOQUBOVA — Toshkent madaniyat kollejining Oliy toifadagi o'qituvchisi.

Mazkur o'quv qo'llanmada mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan folklor-etnografik ansambllarining kelib chiqish tarixi, ular dasturidagi badiiy matnlar folklor san'atining ma'naviy-madaniy, tarbiyaviy-axloqiy tomonlari batafsil yoritilgan bo'lib, u madaniyat xodimlari, oliy o'quv yurtlari, kasb-hunar kollejlari talabalari, folklor-etnografik ansambllari faoliyati bilan qiziquvchi keng kitobxonlarga mo'ljallangan.



KIRISH

FOLKLOR-ETNOGRAFIK ANSAMBLAR TARIXI

Folklor-etnografik ansambli madaniy-ma'rifiy hayotimizda batamom yangi hodisa emas. Folklor asarlarini jamoa bo'lib ijro etish an'anasi ham uzoq tarixga ega. Uzoq o'tmishda guruh-guruh bo'lib xalq sayllarida, ommaviy bayramlarda turli-tuman tomoshalar ko'rsatgan xalq qiziqchilari, qo'g'ir-choqbozlar, dorbozlar, raqqos va xonandalarning ijodiy uyushmalarini folklor-etnografik ansamblining o'ziga xos namunalari deyish mumkin. Chunki folklor asarlarini ommaviy ravishda ijro etuvchilarning aksariyati professional bo'lmay, balki havaskor ijrochilar bo'lib, ularning repertuari ham sof xalqonadir.

O'tgan asrning 20-yillarida Muhiddin Qoriyoqubov va Tamaraxonimlarning bevosita tashabbusi hamda boshchiligida o'zbek etnografik ansambli va mashhur „Ko'k ko'ylak“ ansambli tuzildi. Bu ijodiy ansambl an'anaviy folklori sahnaga ko'chirgan ilk folklor-etnografik ansamblari hisoblanadi. 20-yillarda tuzilgan ansamblar hamda 50-yillarda Urgut shahrida tashkil topgan „Beshqarsak“ erkaklar folklor ansambli o'zining ishtirokchilari tarkibiga hamda repertuarida jamlangan qo'shiqlariga ko'ra rosmiyaning hozirgi folklor-etnografik ansamblar ko'rinishini olgandi. Binobarin, 20-yillarda tuzilgan ijodiy jamoa ishtirokchilarining aksariyati professional ijrochi bo'lmagan. Ammo vaqt o'tib, ularning ko'pchiligi o'zbek milliy san'atining yetakchi namoyandalari bo'lib yetishdi.

30–40-yillarga kelib, respublikamiz ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan o'zgarishlar tufayli folklor-etnografik ansamblarning faoliyati ma'lum darajada susaydi. Bunga sabab, bir tomondan, ansamblarning ish faoliyati davomida ular ishtirokchilari bo'lgan ko'pgina iste'dodlar o'z mahoratlarini oshira borib, professional san'atkor bo'lib yetishdilar. Professional san'atning izchil rivojlanishi natijasi o'laroq, etnografik ansamblarga ma'naviy ehtiyoj kamayganday bo'ldi. Boshqa tomondan, bu yillardagi vaziyat shunday murakkab ediki, ajdodlarimizning

badiiy tafakkuri va estetik qarashlari bilan bog'liq har qanday an'anaga eskilik tamg'asi bosilib chetga surib qo'yilar yoki hukmron mafkura tazyiqi ostida qatag'on qilinardi. O'zbek folklorining ajoyib durdonalari bo'lmish „Alpomish“, „Go'r-o'g'li“ singari yirik xalq dostonlarini esa o'tmish an'alarini targ'ib qiluvchi asarlar sifatida baholashga urinishlar bo'ldi. Xalq qo'shiqlaridagi mungli ohanglar, dardchil satrlar, sevgi-muhabbat mavzusidagi xalq qo'shiqlari „Farovon zamon“ ruhiga mos emas, deb taqiqlandi.

Xalq qalbidan otilib chiqqan quyidagi dardchil

*Oh ururman, oh ururman,
Ohlarim tutgay seni.
Ko'z yoshim daryo bo'lib,
Baliqlari yutgay seni*

satrlaridan tushkunlik ruhi izlandi. Buning o'rniga „xalqlar otasi“ deb ulug'langan „dohiylar“ haqida soxta, sun'iy qo'shiqlar to'qildi.

„Turg'unlik davri“ deb atalmish 60–70- yillarda deyarli barcha sohalarida „mustaqillik“, „xalq talantlarini asrash“ haqida ayyuhannos solindi-yu, aslida milliy ma'naviyatimiz va san'atimizga mafkuraviy zug'um o'tkazish avjida edi.

Aytish o'rinliki, folklor hamma zamon va hamma tuzumlarda ham xalq qalbining oynasi bo'lib kelgan. Shunday ekan, xalqning asrlar mobaynida qalb to'rida saqlab kelgan ijod namunalari, badiiy so'z durdonalari ma'naviyatimizni boyitish uchun suv va havodek zarur. Binobarin, folklor asarining xalqona mohiyatini inkor etish ma'naviyatdan mahrum bo'lish bilan teng.

80-yilga kelib folklor-etnografik ansambllari faoliyatining qayta tiklanishi madaniy hayotimizdagi tahsinga sazovor ijtimoiy hodisa bo'ldi. Ansambllar o'z ishlarini yana qayta boshlashlari an'anaviy folklor taraqqiyotida alohida bosqich sifatida muhimdir. Oradan sal vaqt o'tmay, respublikamizda bunday ansambllarning soni 200 taga yetdi. Ammo bu madaniy hodisa ilmiy asosda o'rganilmay qolaverdi. Ularning tashkil etilish tarixi yoritilmadi. Shu bilan bog'liq holda ansambllar uchun zaruriy amaliy qo'llanma va uslubiy tavsiyanomalar ham kam yaratilgandi. Binobarin, bunday ansambllar repertuarining badiiyati va janr jihatdan rang-barang bo'lishi uchun, shuningdek, borlarini qayta tiklash va yangi folklor-etnografik

ansambllarini tashkil qilishga bel bog'lagan madaniyatimiz jonkuyarlari uchun maslahat, tavsiyalar beradigan qo'llanmalar bo'lishi zarurligini hayotning o'zi talab etmoqda. Ta'kidlash lozimki, ko'pgina folklor-etnografik ansambllari rahbarlarining ma'naviy olami va bilim doirasini kengaytirish, ularni zamon ruhiga moslab tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Bu sohada ularga ilmiy va amaliy yordam berish davr talabidir. Shularni hisobga olib, Respublika Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti „Xalq ijodiyoti“ kafedrasining ilmiy-amaliy kuzatishlari hamda viloyatlarda faoliyat ko'rsatgan folklor-etnografik ansambllarining ijodiy tajribalarini umumlashtirilgan holda ushbu qo'llanma yaratildi.



FOLKLOR-ETNOGRAFIK ANSAMBLLARINING REPERTUARI

Xalq ijodiyotini asrash va rivojlantirishda folklor-etnografik ansambli rahbarlarining bu sohadagi ijodiy iqtidori muhim amaliy ahamiyatga ega. Ijodiy jamoada olib boriladigan amaliy ishlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning badiiy so'z qadrini, musiqiyligini chuqur his qilishiga, xalq qo'shiqlarining eng yaxshi namunalarini tanlay olish va targ'ib qilish qobiliyatiga, shuningdek, shaxsning kamol topishida o'zbek xalq qo'shiqchiligi va raqs san'atining nafini qanchalik teran tushunishiga bog'liq.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti „Xalq ijodiyoti“ fakulteti, „Xalq ijodiyoti“ kafedrası, Milliy konservatoriyadagi „Xalq musiqasi“ kafedralari, Xalq ijodi uylari, shuningdek, folklor materiallarini to'plash va tadqiq qilish ilmiy markazlari folklor-etnografik ansambllari uchun kerakli asarlarni saralashda, xalq ijodiyoti bo'yicha dasturlar tuzishda qimmatli maslahatlar berib kelmoqda. Bu markazlar arxivlarida saqlanayotgan matnlar va chop etilgan xalq qo'shiqlari to'plamlaridan (manbalardan) foydalanish, folklor ansambllarining keng qamrovli repertuarini ta'minlash imkonini yaratmoqda. Chunki xalqning an'anaviy qo'shiqlari qadimiy tarixga ega bo'lib, u jonli og'zaki ijroda ko'proq qishloq joylarida yaxshi saqlangan. Biroq bunday qo'shiqlarning shijoatli ijrochilarini izlab topish, ular kuylagan qo'shiqlar matnini yozib olib, jamoa a'zolariga o'rgatish hamisha ham oson ko'chavermaydi. Ammo bu yo'lda tinmay izlanish lozim bo'ladi. Xalqning eng sara qo'shiqlarini ansamblga jalb qilingan ijrochilarning o'zidan yozib olish mumkin. Bundan tashqari, muayyan hududdagi kekxa avlod vakillaridan o'rganib olingan qo'shiqlarni ijro etgan yosh ijrochilarni yoki shunday qo'shiqlarni bilgan qarindosh-urug'lar va tanish-bilishlarni shu qo'shiqlarni ijro etish uchun ansamblga jalb etish mumkin. Qadimiy an'anadagi qo'shiqlarni xalq orasida tanilgan

ijrochilar guruhi yoki yakka xonandalardan ham yozib olsa bo'ladi.

Ansambl repertuarini yangi xalq qo'shiqlari bilan boyitishda folklor ekspeditsiyalaridan to'plangan matnlar muhim manba hisoblanadi. Chunki ekspeditsiyalardagi jamoa ishtirokchilarining qo'shiqlarni ijro etish borasidagi mahorati, tajriba va ijodiy malakalari, xalq hofizlari, baxshilari bilan bevosita ijodiy muloqotda bo'lish jarayonida muayyan darajada ortadi.

Binobarin, repertuar folklor ansamblining g'oyaviy-badiiy saviyasi va uning professional ijodiy mahoratini aniqlab beradigan ko'zgu hisoblanadi. Shuning uchun repertuarga kiritiladigan folklor asarining badiiy jihatiga va g'oyaviy mazmuniga, qo'shiqlarni tanlashga alohida ahamiyat berish lozim.

Quyidagilar: repertuarning g'oyaviy-badiiy nufuzi, uning ijodiy jamoadagi tarbiyaviy salohiyati; ijrochilarining mahorati va ular san'atidan bahramand bo'luvchi auditoriya repertuar shakllanishining asosiy tamoyillari hisoblanadi.

Shuning uchun repertuarga o'zbek folklorining xilma-xil janrlaridan: diliga yaqin, raqsbop asarlarni, ayniqsa, marosim folklori namunalarini kiritish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, ijrochilik rang-barang usullarining eng maqbullaridan samarali foydalanish, ularni umumlashtirish jamoa ijodiy salohiyatini oshiradi. Aytish o'rinliki, havaskorlik ansambllari tajribasida bir uslubda ijro etiladigan qo'shiqlarga tayanish, shuningdek, turli viloyatlardagi qo'shiqlarni ijro etish usullarini uyg'unlashtirish an'anasi ko'zga tashlanadi. Nazari-mizda bu uslub, an'anaviy folklori rivojlantirishda istiqbolliroqdek ko'rinadi. Biz folklor ansambllarining mujassamlanishini talab qilishga haqlimiz. Shundagina ular xalq qo'shiqlarini ijro etishda Farg'ona, Buxoro, Xorazm, Samarqand va boshqa viloyatlardagi mavjud uslublarni uyg'unlashtira borib, o'zbek milliy madaniyatining nihoyatda boy, serqirra ijodiy imkoniyatlarini namoyish eta oladilar.

Folklor ansambli repertuarida ayniqsa ijro uslubining muayyan tomonlari shakllangan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Ansambl repertuariga an'anaviy xalq og'zaki ijodi namunalari bilan birga (qayta ishlangan yoki mustaqil yaratilgan), mualliflar asarlarining kiritilishi zamonaviy ohanglarni kuchaytirish, shuningdek, milliy qadriyatlar ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bunday yangi qo'shiqlar va mualliflar asarlari vatanpar-

varlik, Vatan istiqboli tuyg'usi bilan to'lib-toshgan hozirgi kunimiz qahramonlarining qalb istaklarini aks ettiruvchi asarlar bo'lib, yoshlar tarbiyasiga alohida ta'sir ko'rsatadi. Unutmaslik kerakki, ko'pincha xalq qo'shiqlarining qayta ishlangan va badiiy sayqal berilgan namunalari aholining estetik didi va badiiy so'zni his qilish ko'nikmasiga, ko'hna musiqa folkloriga nisbatan ko'proq, ma'qul va mos bo'ladi. Shuning uchun folklor etnografik ansambllari repertuari shakllanishining dastlabki bosqichlarida qayta ishlangan qo'shiqlarga shuningdek, qo'shiq mualliflarining folklor uslubida xalq ruhiyatiga mos yaratgan qo'shiqlariga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Bunda folklor ansambli repertuariga mualliflar asarlarini puxta o'ylab, asarga tanqidiy yondashib saralash nihoyatda muhim. Ayniqsa, tanlab olingan materiallar ansambl ijodiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq bo'lishi, ijro etiladigan asar ansamblda shakllangan ijro uslubiga mos kelishi lozim. Esdan chiqarmaslik lozimki, muallif asarlari an'anaviy xalq qo'shiqlarida asrlar mobaynida shakllangan xalqona ruhni o'ziga to'la singdirgan bo'lishi maqsadga muvofiq.

Ansambl u yoki bu viloyatning qo'shiqchilikka xos boy merosidan foydalanishda hamisha unga ijodiy yondashishi lozim. Chunki, muayyan hududda shakllangan milliy an'analarning xususiyatlari, badiiy ifodaning sevimli vositalari mavjudligi, qo'shiqni ijro etishning lokal-hudud farqlari o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Masalan, Xorazm xalq qo'shiqlari sho'x-shodon va o'ynoqi bo'lsa, farg'onaliklarniki zalvorli va vazminroq bo'ladi. Samarqand xalq qo'shiqlarida shiddatli, isyonkor ruh ufurib tursa, buxoroliklarnikida dardchil va nafislik yaqqol bilinib turadi. Xalq qo'shiqlarining ijro usuli va matniy tuzilishiga ko'ra har bir viloyatniki o'ziga xos birbiridan farqlanadi. Ammo, ularning maqsadi bitta — xalq orzu-umidlari, armon-istaklarini izhor etishdir.

Ansambl repertuarini badiiy jihatdan mukammallash-tirishda folklor san'atining badihago'ylik, hozirjavoblik, variantlilik xususiyatlarini ham hisobga olish lozim.

Improvizatsiya — hozirjavoblik va badihago'ylik san'ati xalq og'zaki ijodi badiiy xazinasini shakllantiruvchi asosiy omillardandir. Badihago'ylikni rivojlantirishda folklor ansambllarining o'rni katta. Bu muammo bo'yicha maxsus uslubiy ish olib

borish, turli tavsianomalar yaratish, keng qamrovli, ilmiy-ijodiy izlanishlar asosida ish ko'rish talab qilinadi.

Ma'lumki, xalq qo'shiqlari ijrochiligining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri qo'shiqning, xususan laparlarning raqs-o'yin san'ati bilan bevosita bog'liqligi va uyg'unlashib ketganligidir. Folklor ansamblining rahbari to'y marosim qo'shig'i hisoblangan lapar janrining o'ziga xos tomonlarini hamisha e'tiborga olishi, uning matnlariga zamonaviy ruhni singdirib borishi zarur. Biroq bu uyg'unlikda ham har bir viloyatning hududiy o'ziga xosligi, badiiy xususiyatlari, jo'shqinligi, raqs harakatlarining zalvorliligi keskin farqlanib turadi. Hatto sahnada kiyib chiqiladigan liboslarning o'sha ansambl faoliyat ko'rsatayotgan joyga xos bichimga ega bo'lishi ham ahamiyat kasb etadi. Masalan, buxorocho raqsda zardo'zi kamzul, yengil va etaklariga manzarali kashtalar tikilgan kiyim kiyilsa, farg'o-nacha raqsda oldi ochiq, beli xipcha beqasam besh-bel chopon, Namanganda beli ixcham nimcha-yu, harir ko'ylak kiyiladi. Bordi-yu, raqs guruhi alohida bo'lsa, yanada yaxshi. Chunki qo'shiqchilar bilan raqqosalarning vazifasi va jamoadagi burchi aniq bo'lib, ularning ijodiy faoliyati mazmunan teran bo'ladi.

Folklor-etnografik ansamblarining muhim, o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri folklor asarlarining sahnaviy talqinlarini yaratishdir. Bu ish anchagina qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lib, ansambl rahbarlari va ishtirokchilar an'anaviy ijrochilik xususiyatlari va sahna san'ati qonuniyatlaridan boxabar bo'lishlari lozim bo'ladi. Shuning uchun ansamblning sahnaviy chiqishlarini puxta tayyorlash, konsert dasturi qismlarining o'zaro mintaqaviy va mazmuniy mutanosibligiga erishish lozimdir.

Ansambl dasturini tuzishda guruh rahbari quyidagilarga alohida e'tibor berishi lozim:

— jo'shqin va vazminligi turli-tuman bo'lgan qo'shiqlarning navbatma-navbat ijro etilishini ta'minlash kerak. Ijro etiladigan qo'shiqlarning ohangi yo bir-biriga juda yaqin, yo bir-biridan juda uzoq bo'lgani yaxshi. Bu esa qo'shiqlarning bir me'yorda, ravon yangrashiga hamda dasturning qiziqarli chiqishiga imkon beradi;

— konsert dasturida ayrim xonandalar, laparchi, raqqos va raqqosalarning alohida-alohida chiqishlaridan foydalanib, ijro shaklining usluban rang-barang bo'lishiga erishish mumkin.

Bu konsertning tomoshabinbop va jonli chiqishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, ansambl dasturi murakkab sujet unsurlaridan tuzilishi, ya'ni tarkibida syuita, shuningdek, xalqning biror-bir an'anaviy urf odatlari (hosil bayrami, navro'z, to'y, kelin va kuyov tomonlarning arqon tortib bellashuvi) asosidagi marosim folklori janrlari bo'lishi ham mumkin;

— dasturning avj nuqtasi, ya'ni kulminatsiyasi bo'lishi: mazmunan chuqur, shaklan yirik asar konsert dasturining yo o'rtasida, yo eng oxirida ijro etilishi lozim;

— tomoshabinlarga bilvosita ta'sir ko'rsatish vositalarining boy xazinasidan — xatti-harakatlar, imo-ishoralar, xonandalarining sahnadagi o'zaro munosabati, qo'shiq ijro etib turgan holda sahnaga chiqish va harakatlanish;

— kiyim-kechaklar ansamblning ijro uslubiga, dastur mohiyati va mazmuniga, ishtirokchilarning jinsi va yoshiga mos kelishi kerak.

Folklor-etnografik ansamblari o'z xalqining milliy an'analarini, og'zaki ijodining noyob namunalarini saqlashda, unga sayqal berib yana xalqning o'ziga qaytarishda jonbozlik ko'rsatuvchi ijodiy markazdir. Bir-biriga qo'shni, urf-odatlari musharak bo'lgan Markaziy Osiyo respublikalaridagi folklor-etnografik ansamblari bir-birini takrorlamay, aksincha, biri ikkinchisini to'ldirishga munosib xizmat qilmoqda. Masalan, O'zbekiston, Turkmaniston, Qozog'iston va Qirg'izistondagi folklor-etnografik ansamblarining o'zaro aloqa va munosabatlari buning yorqin dalilidir.

O'zbekistonda, xususan Xorazmda tashkil etilgan „Orazi-bon“, „Avazxon“, „Doston“ kabi ansamblar Turkmanistondagi folklor ansamblari bilan yaqin ijodiy aloqada.

Chunonchi, Buxorodagi To'fa Pinxasova boshchilik qilgan „Nozanin“ Oliyaxon Hasanova boshchiligidagi „Mohi sitora“ ansamblari do'stona munosabat o'rnatgan holda, o'z repertuaridagi ham o'zbek, ham tojik tilidagi laparlarni, musiqasini, raqslarini hamon saqlab kelmoqda. Ayniqsa, „Nozanin“ ansamblining rahbari To'fa Pinxasova tashabbusi bilan qayta tiklangan buxorolik sozanda ayollar ijrochiligi yo'nalishi o'zining rang-barang uslubi bilan, Farg'ona vodiysi yallachiligidan keskin farq qiladi. Ularning ijro uslubidagi doira, qayroq, zang jo'rligidagi sho'xchan qo'shiq, o'ynoqi raqslar tahsinga sazovor. Shunga o'xshash ansambl Tojikiston respublikasida ham bor.

Folklor-etnografik ansambllarining ijro yo'li, repertuar tizimi va folklor xazinasiga yondashish uslubida an'anaga munosabatlari turlicha. Lekin ularning ijro usullari, badiiy mahorat darajalari, folklor an'alariga munosabatlari o'zlari istiqomat qilib turgan hududga bevosita bog'liq ekanligini ham e'tirof etish lozim. Masalan, Janubiy O'zbekiston, Buxoro va Samarqand, Farg'ona vodiysi va Toshkent viloyatlarining o'ziga xosligi, ya'ni kiyimidan tortib, to musiqa asbobining ishlatilishigacha bir-biridan farqlanib turadi.

Hozirgi kunda folklor ansambllarini tuzish ishlari keng avj olmoqda. Bu, albatta, quvonchli hol. Biroq, ular an'anaviy qo'shiq matniga bepisand qarab, uning so'zlarini buzib aytmoqdalar. Ayrim jamoalar mazmunan juda sayoz, zamonaviy shoirlar tomonidan yozilgan ba'zi qo'shiqlarni ham xalq qo'shig'i deb ijro etmoqdalar. Ba'zan esa xalq og'zaki ijodining jonli jarayonidan bexabar, ya'ni folklor va etnografiyaga aloqasi bo'lmagan olimlarimiz jamoalarga noto'g'ri ko'rsatmalar bermoqdalar. Bu kishini ranjitadigan bir holdir.

Xullas, repertuarni shakllantirish va rivojlantirish ishlari folklor-etnografik ansambl ijodiy faoliyatida muhim va asosiy rol o'ynaydi. Ansambl tinglovchi hamda tomoshabinlarning mehr-muhabbatini qozonishi yoki o'z-o'zidan tarqalib ketishi, ko'p jihatdan repertuarga, yanada aniqroq qilib aytusak, uning mazmuniga bog'liq. Folklor ansambl ishining g'oyaviy-estetik yo'nalishi, ijodiy guruhning haqiqiy va to'laqonli kamolotga yetishi asosan repertuarni tanlay bilish mahorati va asarlarning o'ziga xos ba'zi jihatlariga bog'liq. Shuning uchun folklor ansambllari va ilmiy-uslubiy markazlarning rahbarlari repertuarni shakllantirishiga jiddiy masala deb qarashlari va qat'iy tanqidiy munosabatda bo'lishlari zarur. Binobarin, folklor ansambllari o'z oldilarida xalqimizning ko'hna san'atini asrab-avaylash, targ'ib qilish va ijodiy yuksaltirishdek g'oyat ezgu, mas'uliyatli vazifa turganligini yoddan chiqarmasliklari kerak.

MILLIY ISTIQLOL VA FOLKLOR AN'ALARINING TIKLANISHI

Folklor an'analari xalqning turmush tarzi, hayoti, dunyo-qarashi, ruhiy-estetik olami va ichki kechinmalarini yuksak badiiy ifoda ettirgan qadriyatdir. O'zbekistonda sobiq tuzum yillarida xalq ijodiyoti o'zining qadimiy ijrochilik an'alarini

va badiiy merosini muayyan darajada saqlab qolgan bo'lsa-da, o'sha davrning siyosiy qatag'onlari va mafkuraviy tazyiqlari bunday an'anaviy qadriyatlar tizimining ko'pgina uzvlarining poetik tabiatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan edi. Oqibatda, o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyotining ko'pgina qadimiy janrlari, e'tiqodiy qarashlari, tasavvurlari, marosim folklori namunalari, xalq an'analari, sayl va bayramlari bilan aloqador udum va qo'shiqlar, afsona, rivoyat, naqlar unutilayozdi.

XX asrgacha yaratilgan o'zbek marosim folklori janrlari o'zining qadimiy an'analari hamda poetik tabiatini mukammal holda saqlab qolgan edi. Biroq sobiq tuzumning mafkuraviy qatag'onlari natijasida xalqimizning oilaviy-maishiy marosimlar folklorining ko'pgina ko'hna janrlari, masalan, so'z sehriga asoslangan badiha, kinna, olqish kabi janrlari, yil fasllariga aloqador Navro'z, qizil gul sayli, boychechak, „guli surx“, birinchi qo'sh chiqarish bilan bog'liq „shoh moylar“, shuningdek, „yo ramazon“, „barot keldi“, yomg'ir chaqirish, shamol chaqirish va uni to'xtatish maqsadida ijro etilgan qadimiy aytim va qo'shiqlarning matnlari xalq xotirasidan ko'tarildi.

O'zbekistonning istiqbolga erishishi esa benazir iste'dod sohibi bo'lgan ajdodlarimizning og'zaki badiiy ijodi an'analari tiklash, folklor asarlarini keng ommalashtirish, ularning tarixiy kelib chiqishi, janr xususiyatlari, badiiyati va ma'naviy hayotimiz takomilida tutgan muhim o'rnini keng ko'lamda o'rganish uchun yetarli imkoniyatlarni yaratdi.

Mustaqillik tufayli yuzaga kelgan ijodiy erkinlik, ruhiy yangilanish jarayoni folklor asarlarini keng targ'ib qilishga imkon yaratdi. Ayniqsa, marosim folklori, dostonchilik, xalq udumlarini tiklash, shuningdek xalqning havaskorlik ijodiyotini taraqqiy ettirishga keng yo'l ochildi. Unutilgan qadriyatlarni tiklashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, xalqimiz badiiy salohiyatining eng go'zal namunalari o'zida mujassamlashtirgan umumxalq shodiyonasi — Navro'zi olam qo'shiqlari, udumlari qayta tiklandi. Navro'z bayramining kelib chiqish tarixi, taraqqiyot bosqichlari, uning tarkibidagi folklor asarlarining badiiy xususiyatlari, bu bayramning o'tkazilishi bilan bog'liq lokal belgilar, Navro'z bayrami tarkibida qadimdan mavjud bo'lgan ko'pgina asriy udumlar, xususan, „yilboshi“, „qozon to'ldi“, „navro'z go'ja tayyorlash“, „sumalak pishirish“, „hashar uyushtirish“, „arg'imchoq uchish“, „gul sayl“lari kabi qadimiy qadriyatlar yana hayotga qaytdi.

Bahoriy bayram „Navro‘z“da aytib kelingan qadimiy qo‘shiq-
lar to‘planib, ommalashtirilmoqda. Chunki, u qo‘shiqlarda
mehr-oqibat, qut-barakaga bo‘lgan buyuk ishonch, mo‘l hosil
olish g‘oyasi, el-yurt xotirjamligi badiiy talqin qilinadi. Bulun-
g‘ur tumanida tashkil qilingan „Chavqi“ folklor-etnografik
ansambli ijrosida aytilgan „Yilboshi“ qo‘shig‘i ham istiqlo-
l tufayli hayotga qaytgan qadimiy taronalardan biridir:

Odamlar, hoy odamlar,
Bog‘da bitgan bodomlar,
Eshitmadim demanglar,
Bugun bayram yilboshi,
Saylga, ho saylga!

Dehqon dala aylandi,
Ho‘kiz shohi moylandi,
Omoch, mola, cho‘nka tish,
Dehqonbobo shaylandi.

Gul-lolalar ochilsin,
El-u yurtga sochilsin,
Doim tinch zamon bo‘lsin,
El-u yurt omon bo‘lsin!¹

Arpa-bug‘doy sepilsin,
Maysa unib yetilsin,
Dehqon ishi o‘ng kelsin,
Omborlarga don to‘lsin,
Yangi yilda qut bo‘lsin,
Qozon to‘la sut bo‘lsin!

Omad bizga jo‘r bo‘ldi,
Noz-u ne‘mat mo‘l bo‘ldi,
Baxtimizga tinch zamon,
Davr-u davron zo‘r bo‘ldi.

Qadimda ushbu misralarni bahor kelishi bilan, kuzda hosil
mo‘l bo‘lishini umid qilib, ezgu niyatda dalaga don sepgan

¹ A. Musoqulov, M. Jo‘rayev. Xalq navro‘znomasi. „Toshkent
haqiqati“ gazetasi, 1990-yil, 20-mart.

bobodehqonlarimiz el-u yurtga omonlik, tinchlik, farovonlik tilab kuylaganlar. Bu qo'shiqlar navro'z-yilboshi tantanalarining eng nafis qo'shiqlaridan biri bo'lgan. Qo'shiq misralarida el dasturxoniga baraka yog'ilishi, halol mehnatni ulug'lash, ezgu umidlarning maysalanishi, to'kin-sochinlik, oilalar xotirjamligi yurt boyligi ekanligi g'oyasi yetakchilik qiladi.

Bulung'urliklar folklorida navro'zi olam bilan bog'liq qadimiy qo'shiqlarning terma-aytim ko'rinishidagi shakllari hamon saqlangan bo'lib, u „Chavqi“ ansambli ijrosida tarannum etilmoqda.

Navro'z keldi, yoz keldi,
Turna keldi, g'oz keldi.
Yam-yashil chorbog'lardan,
Bulbulday ovoz keldi.

Navro'z keldi bu kecha,
Pishiring navro'z go'ja.
Go'jasi shirin momoga,
Beraylik bir juft jo'ja.

Qaldirg'och qayib uchar,
Qanotin yoyib uchar.
Navro'zda qozon to'lsa,
El-u yurtni baxt quchar.

Xalq ijodiyotining yorqin namunasi bo'lgan — folklor-etnografik ansambllarining ijodiy izlanishlari natijasida juda ko'p marosim qo'shiqlari tiklandi. Ma'naviyatimiz xazinasini qayta boyitishda navro'z va sumalak sayli bilan bog'liq xalq qo'shiqlarining tiklanishi juda muhimdir.

Ma'lumki, navro'z keng omma tomonidan nishonlanadigan umumxalq bayramidir. Shu bois bu bayramning ko'p qo'shiqlari ommaviy ijrochilikka mo'ljallangan. Navro'z bilan bog'liq qo'shiqlarda yurt ozodligi, ma'naviy qadriyatlarimizning elga qaytishi g'oyasi tarannum etiladi:

Navro'z keldi, qut keldi, doshqozonlar osildi,
Navro'z go'ja, ko'k somsa, sumalaklar suzildi.
Boshlarida oq ro'mol, elga tilab omonlik,
Momolar dili shodon — murodi hosil bo'ldi.

Milliy istiqlol xalq badiiy ijodiyotining barcha tur va janrlari qatori marosim folklori, xususan, navro'z turkumi qo'shiqlarining tiklanishi uchun katta imkoniyat yaratdi. Bu imkoniyatlar tufayli asriy qadriyatlar tizimi, bosqichma-bosqich tiklanib, hayotga qaytmoqda. Bu mustaqil diyorumizda kechayotgan hozirgi tarixiy-folklor jarayonining muhim qirralaridan biridir.

AN'ANA VA URF-ODATLARNI YOSHLAR TURMUSH TARZIGA SINGDIRISHDA FOLKLOR SAN'ATINING O'RNI

Dunyo xalqlari ma'naviy madaniyati xazinasiga ulkan hissa qo'shgan ijodkor xalqimizning badiiy so'z sehri bamisoli ko'ngil chashmasidan qaynab chiqqan inju. Xalq qalbining navolari bo'lmish dilrabo qo'shiqlar, an'ana va marosimlarga aylanib, asrlar davomida ajdodlarimiz qadriyatlari xazinasini yuzaga keltirgan. Badiiy tafakkurning betakror mo'jizalarini o'zida mujassamlashtirgan xalq an'analari, rasm-rusumlari, marosim va odatlar, og'zaki poetik ijodiyot namunalari shu muqaddas zaminda yashab kelgan ota-bobolarimiz, iqtidorli va har narsaga chechan momolarimiz ijodiy salohiyatining mahsuli o'laroq shakllangan azaliy milliy qadriyatdir.

An'analar xalqimizning o'zi kabi umrboqiy, qalbi misol mehrdaryo va jonbaxshdir. Yurtimizning har bir go'shasida o'ziga xos marosimlar, oilaviy-maishiy va mehnat bilan bog'liq an'analari, momolarning mehr bulog'idan qaynab chiqqan orombaxsh alla-yu, olqishlar mavjud. Xalq an'ana va marosimlari jo bo'lgan asriy qadriyatlar, ma'naviy ko'zqusiga aylangan qanotli orzular, folklor ijrochilarining ko'p asrlar davomidagi ijodiy faoliyati natijasida poetik jihatdan sayqallanib, barkamollashib kelgan. Kamalak jilosidek dillarga ezgulik baxsh etuvchi qadimiy marosimlar hamda xalq an'alarini chuqur o'rganish, milliy qadriyatlarimiz mohiyatini yanada teranroq anglash va tushunish imkonini beradi.

O'zbekiston xalqlarining tarix sinovidan o'tgan bayram va marosimlari kishilarning o'zaro munosabatlaridagi yaxshi fazilatlarini, chinakam xalqchil, umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiradi. Bunday an'ana va marosimlarda mamlakatimiz xalqlarining milliy ruhiyati, ma'naviyatining qadimiy ildizlari ham

namoyon bo'ladi. Asrlar davomida shakllantirib va rivojlantirib kelingan an'ana va marosimlarda Vatanga sadoqat, kattalarga hurmat, ota-onaga, yetimlarga va qariyalarga g'amxo'rlik, mehmondo'stlik, qon-qarindoshlik va o'zaro yordam, oila sharafiga va ayollar sha'nini saqlash, hayotdan ko'z yumgan uzoq-yaqin kishilar xotirasini yodga olish kabi ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan qadriyatlar mujassamlashgan.

Ajdodlarimiz yaratgan va xalqimiz turmush tarziga singib ketgan an'ana, urf-odatlar ham bevosita folklor san'atida o'z ifodasini topgan. Bu san'at ma'naviyat bo'stonining chamanlarida turfa xil jilvalanadi.

Bugungi kunda folklor san'atining serjilo chamanlari gurki-rab rivojlanib, xalqimizning milliy ongi, milliy g'ururi, milliy iftixori, ma'naviy dunyosi kundan-kunga boyib bormoqda. Milliy ruh, milliy g'ururning tiklanishi bu — rivojlanish bilan bog'liq bo'lgan tabiiy jarayondir. Milliy folklor san'ati an'analarini yanada rivojlantirib, ularni yosh avlod turmush tarziga singdirib borish shu jarayonning muhim qirrasidir.

Folklor san'ati merosi o'zining mazmundorligi, tarbiyaviyligi, umrboqiyligi bilan boshqa san'at turlaridan ajralib turadi. U millat qalbida ezgu niyat va ulug' maqsadlarga intilish, e'tiqod va orzu-armonlarni uyg'otadi. Shuning uchun folklor san'ati avlodning barcha orzu-armonlarini, iymon-u e'tiqodini, pokiza ruhi va xotirasini, jamiyatning ezgu niyatlari aks etgan qadimiy an'analarni o'zida jamuljam etib, kishilar hayotiga qat'iy singib ketganligi bilan ardoqlidir.

O'zbekistonimiz istiqlool quyoshidan bahramand bo'lib mustaqillik nashidasini surmoqda va milliy istiqlool mafkurasini yaratmoqda. Milliy istiqlool mafkurasi esa xalqimizning yillar davomida yaratgan, asrab-avaylab kelayotgan tafakkur xazinasiga, boy qadimiy badiiy merosiga, umumbashariy qadriyatlari, qadimiy an'ana va marosimlarga, milliy madaniyatimiz yutuqlariga suyanadi. Zero milliy axloq va milliy ruhni o'zida asrlar osha ortmoqlab kelayotgan folklor san'ati namunalari benihoya ardoqlidir. U bugungi kunda o'z ortidan millionlab yoshlarni ergashtirayotgan, har tomonlama ibrat maktabi bo'lib kelmoqda. Folklor-etnografik ansambllari omma mehrini qozonib, yoshlar turmush tarziga asta-sekin singib bormoqda. Ularning dasturida mujassamlangan xalq og'zaki ijodi namunalari folklorimizning sahnaviy ko'rinishi sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbek xalqining milliy qadriyatlariga asoslangan urf-odatlarimizning mohiyatini yoshlarga o'rgatishda, ular qalbida mehr va muruvvat chechaklarini undirib-o'stirishda folklor-etnografik ansambllari dasturidan foydalanish ijobiy samara beradi.

So'nggi yillarda folklor-etnografik ansambllar repertuarida milliy qadriyatlar va an'anaviy marosimlarning vositasi bo'lmish mehr-muruvvat, sahovat va insoniy fazilatlarini aks ettiruvchi sahna ko'rinishlari shakllandi. Folklor-etnografik ansambllarining sa'y-harakatlari tufayli unutilayozgan ko'plab milliy qadriyatlarimiz tiklandi.

Masalan, „Boysun“ folklor ansamblining „Oblo baraka“ (ya'ni oxirgi tutam bug'doyni o'rib olish va xirmon ko'tarish marosimi), „Don sepdī“, „Navro'zi olam“, „Lola sayli“, „Shoh moylar“, (dalaga birinchi qo'sh chiqarish marosimi), „Ho'p mayda“ (g'allani yanchish bilan bog'liq udum), „Turna keldi“, „Hosil bayrami“, „Boysuncha yor-yor“, „O'tin yorish“, „Ota sinov“ (nikoh to'yi bilan bog'liq udum), Navoiy viloyatidagi „Yor-yor“, „Kokil to'yi“ (bolani birinchi marta sochini olish bilan bog'liq) dasturi, Andijon viloyatidan „Bedana“, Samarqanddagi „Beshqarsak“ folklor-etnografik ansamblining tayyorlagan sunnat to'yi, Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat institutidagi „Chashma“ folklor ansambli tayyorlagan chaqaloqni poklik suviga solish, qulog'iga azon va takbir aytish, avlodlar shajarasi, guldur-guplar, sanamalar, barhayot an'analar, baxt sinovi dasturi, Jizzax viloyatidagi „Gashtak“ ansambli tayyorlagan nikoh to'yi bilan bog'liq „To'qqiz to'y“ an'anaviy udumi, Toshkent viloyatidagi „To'rg'ay“ ansambli tayyorlagan nikoh to'yi bilan bog'liq „To'y qaytarar“, „Xorazm“ folklor ansamblining nikoh to'yi bilan bog'liq „Non o'pdi“, „Lachak to'yi“ ana shunday qadimiy ma'naviy qadriyatlar silsilasi bo'lmish mehr-muruvvatni tarannum etuvchi an'ana va marosimlarimizni saqlab qolishda o'z hissalarini qo'shganliklari bilan qadrlidir.

Yuzaga kelgan ijodiy erkinlik, ruhiy yangilanish folklor asarlarini hayotga yanada keng targ'ib qilish jarayonini boshladi. Masalan, xalqimiz badiiy salohiyatining eng go'zal namunalarini o'zida mujassamlashtirgan umumxalq shodiyonasi — Navro'zi

olam bilan bog'liq qo'shiqlar, udumlar va marosimlar qayta tiklandi. Navro'z bayramining kelib chiqish tarixi, taraqqiyot bosqichlari, uning tarkibidagi folklor asarlarini badiiy xususiyatlari, bayramni o'tkazilishi bilan bog'liq lokal belgilar ro'yobga chiqdi. Bu sohada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar asosida Navro'z bayramida qadimdan mavjud bo'lgan ko'pgina asriy udumlar, xususan, „Yil boshi“, „Qozon to'ldi“, „Navro'z go'ja tayyorlash“, „Sumalak pishirish“, „Hashar uyushtirish“, „Arg'imchoq uchish“, „Lola sayli“ kabi o'zligimizni tarannum etuvchi qadimiy udumlarimiz yana hayotga qaytdi. Zero, Navro'z marosimlari, udumlari va qo'shiqlarida mehr va muruvvat, oqibat va insoniylik, qut-barakaga bo'lgan buyuk ishonch, mo'l hosil olish g'oyasi, el-yurt xotirjamligining turfa xil tomonlari badiiy talqin etilmoqda.

Folklor-etnografik ansambllari qayerda tashkil qilingan bo'lsa, o'sha yerlik xalqning milliy an'analarini, og'zaki ijodning noyob namunalarini saqlashda, unga sayqal berib, xalqning o'ziga qaytarishida jonbozlik ko'rsatmoqdalar.

Masalan, Toshkent shahridagi „Gavhar“ folklor-etnografik ansambli dasturidan joy olgan „Bolangizga alla ayting onalar“ mavzuidagi dasturida mehr-muruvvat tushunchasi ona allasi orqali tarannum etilgan.

Ona avlod-ajdodlarimizning buyuk davom ettiruvchisidir. „Alla“ ona mehri bilan yo'g'rilgan mayin yurak sadosidir. Bu sado shu qadar serjilo va sermazmunki, uning ta'rifiga so'z ojiz. Allada iltijo-yu sehr, hazinlig-u mehr qolaversa, bu dunyoda eng nozik his-tuyg'ular, ezgu tilaklar mujassam. Chunki, ona allasigina jajji chaqaloqning qalbiga mehr-muruvvat, muhabbat, oqibat, iymon va insof tuyg'ularini singdira oladi.

Tol ichida tanlab olgan,
Toli chovqirim bolam.
Gul ichidan hidlab olgan,
Guli rayhonim bolam, alla yo alla.

Ona allasidan bahramand bo'lgan yurtimiz yoshlari momolari, ota-bobolari yaratgan qadriyatlariga mehr qo'yib, ular an'anasini davom ettiradilar.

Istiqlol yillarida folklor san'atiga kirib kelgan yangi janrlarda milliy istiqlolni madh etish, fidoyi yurtdoshlarimizning

farovon istiqboli uchun olib borilayotgan ezgu ishlarni kuylash asosiy o'rinni egallaydi.

Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida faoliyat olib borayotgan „Boysun“ folklor-etnografik ansambli repertuaridagi „Vatan“ qo'shig'ida har qatra tuprog'i muqaddas bo'lgan ona yurt mehri jo'shib kuylanadi. Xalqimizda „Yordan ayrilgan yomon ammo, Vatandan ayrilgan hammasidan yomon“, — degan naql bor. Quyida Vatan sog'inchi, yurtdan ayriliq tuyg'usi o'rniga boshqa hech qanday tuyg'u malham bo'la olmasligi, uning o'rnini hech narsa bosa olmasligi she'riy misralarda o'z ifodasini topgan.

Biz uchun o'zga Vatan yo'q,
Sen bizga jonsan Vatan.
Bu keng olam uzra tanho,
O'zbekistonsan Vatan.

Yordan ayrilgan yomondir,
Bordan ayrilgan yomondir.
O'g'lisan ozod yurtning
Barchasidan eng yomon,
Yurtdan ayrilgan yomon.

Mazkur qo'shiq aslida professional qo'shiqchilarimiz, mashhur hofizlarimiz tomonidan ijro etilgan va elga manzur bo'lgan. Binobarin, shu qo'shiqning folklor-etnografik ansambli repertuariga o'tishi, birinchidan, mazkur qo'shiqning xalq orasida g'oyat keng yoyilganligini, vatan mehri xalq diliga, har bir yurakka chuqur o'rnashib olganligini ko'rsatsa, ikkinchidan, folklor-etnografik ansamblarining repertuari an'anaviy xalq qo'shiqlari hisobigagina emas, balki muallifi ma'lum bo'lgan, keyinchalik xalq orasida mashhur bo'lib ketgan asarlar hisobiga ham boyib bormoqda.

Masalan:

Amu-Sirning quchog'ida erkalangan bolasi,
Qadim Turon — Turkistonning lola bo'lgan dalasi.
Turkiy tilda suhbat qurgan barcha ellar onasi,
Dashti Qipchoq, Sug'diyona, turkiy Turonim mening,
Qo'sh qanotim, kamolotim, O'zbekistonim mening!

Sirdaryoning yerida,
Qut-baraka dur bo'lsin.

Dehqonlarning yuzida,
Sevinch to'la nur bo'lsin.

Toshkent viloyati, Oqqo'rg'on tumanida tashkil etilgan „To'rg'ay“ folklor-etnografik ansambli o'zining „Bo'z to'rg'ay“ qo'shig'ida istiqlolni zo'r ko'tarinkilik bilan madh etadi:

Bo'z to'rg'ayjon, bo'z to'rg'ay,
Bo'zlamasang ne bo'lg'ay.
Shunday baxtli zamonda,
O'ynamasang ne bo'lg'ay.

Alpomish o'g'lonlaring,
Barchinoydek qizlaring,
Yurtim baxting kuylaydi,
Xushovoz bulbullaring.

Qozon to'la moy bo'lsin,
O'zbekiston boy bo'lsin,
Mustaqil zamon bergan,
Yurtboshim omon bo'lsin!

Ma'lumki, mamlakatimizda 2004-yil „Mehr va muruvvat“ yili deb e'lon qilindi. O'zbek xalqi azaldan bir-biriga, o'zgalarga mehr-muruvvat ko'rsatishga moyil. Mehr-muruvvat ko'rsatish o'zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan. O'zbek o'zi yemay yediradi, kiymay kiydiradi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan folklor-etnografik ansambllari faoliyatida yuksak insoniy fazilat bo'lishi mehr-muruvvatni aks ettiruvchi folklor sahna ko'ri-nishlari ko'payib bormoqda.

O'zbek folklor san'atining yoshlar hayotidan o'rin olishida mana bu ansambllar: „Bo'ston“, „Yor-yor“ (Namangan viloyati) „Omonyor“, „Chodir jamol“ (Farg'ona viloyati), „Bedana“, „Zilol“ (Andijon viloyati), „Gulyor“, „To'rg'ay“, „Zarrin yaproqlar“ (Toshkent viloyati), „Nozanin“, „Mohi Sitora“, „Afshona“, „Mardona“, „Qasri Orifon“ (Buxoro viloyati), „Chavqi“, „Beshqarsak“, „Sarbozi“ (Samarqand), „Gashtak“, „Zeboixon“, „Zovmin Sayqali“ (Jizzax viloyati), „Orazibon“, „Xorazm“, „Doston“ (Xorazm viloyati), „Boysun“, „Bulbuligo'yo“, „Zevari“, „Bilaguzuk“ (Surxondaryo viloyati), „Momogul“, „Hilola“ (Qashqadaryo viloyati), „Keskan terak“

(Navoiy viloyati), „Sayxun yigitlari“ (Sirdaryo viloyati), „Gavhar“ (Toshkent shahri), „Jayxun to‘lqini“, „Besperde“ (Qoraqalpog‘iston Respublikasi) millatlararo umumqadriyatlar bo‘lmish mehr-sahovat, mehr-shavqatni tarbiyalashda, komil insonni voyaga yetkazishda ajdodlar merosini avlodlarga yetkazishda barakali va xayrli ijod qilib kelmoqdalar.

Porloq kelajagimiz sari shunday xayrli ishlar amalga oshirilayotgan bir paytda an‘ana, udum, qadriyatlarimizga mutlaqo yod bo‘lgan ba‘zi oilalarda uchrab turgan salbiy munosabatlar, yoshlar o‘rtasidagi jinoyatchilik, giyohvandlik, fohishabozlik illatlari ko‘ngilga g‘ashlik solmoqda. Bu holatni ba‘zi yoshlarning an‘analarimiz, udumlarimizni bilmaslik, mensimaslik oqibati deb baholash mumkin.

Kezi kelganda shuni ta‘kidlash lozimki, hozirda radio va televideniya orqali berilayotgan musiqa, qo‘shiq, eshittirishlar mazmunining nihoyatda sayozligi tufayli yoshlar yengil-elpi hayotga moyil bo‘lmoqdalar. Ba‘zi yoshlar o‘zbek milliy an‘analariga amal qilishni o‘zlariga or deb biladilar. Hatto o‘z ona tillarida so‘zlashni yoqtirmaydiganlari ham uchrab turadi. Klassik janrlarimiz ayrimlarining nomlarini yoki asarlarini so‘rasangiz yo falon marosimni bilasizmi deya murojaat etsangiz, yelka qisib eshitmagan ekanman deb qo‘yishadi, xolos. Afsus va nadomatlar bo‘lsinki, jamiyatimizda bunday holatlarga tez-tez duch kelasiz. Xo‘sh, ularni qanday bartaraf etmoq darkor.

Bugunlik kunda mustahkam bilimni, milliy qadriyat, ma‘naviy barkamollik, umrboqiy an‘analar va ajdodlar ta‘limotini yoshlar ongiga, turmush tarziga singdirishda folklor san‘atidan foydalanish, shuningdek, maxsus dastur, darslik va qo‘llanmalar tayyorlash muhimdir. Folklor san‘atini maxsus ta‘lim sifatida kollejlarda, musiqa maktablari, san‘at oliy o‘quv yurtlarida o‘qitilishi yoshlarning milliy g‘ururini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ota-bobolarimizdan meros bo‘lib qolgan udum va marosimlarni sahnaga olib chiqib, yana ularni xalqqa qaytarishda folklor san‘ati va uning tuganmas merosidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki:

1. Folklor-etnografik ansambllari xalqimizning urf-odatlarini, e‘tiqodi va umuminsoniy qadriyatlarini namoyon etmoqda. Ular dasturida mujassamlashgan xalq ijodi namunalari folklorning sahnaviy ko‘rinishi sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda.

2. Folklor-etnografik ansambllari xalq ogʻzaki ijodiyoti anʼ-
analarini tiklash va takomillashtirishda yosh avlodni umumin-
soniy qadriyatlar, milliy marosimlarga hurmat bilan qarash,
ularni saqlab qolish, eʼzozlashga oʻz hissalarini qoʻshmoqdalar.

3. Har bir folklor-etnografik ansambllari mustaqil respub-
likamiz turli viloyatlarida faoliyat koʻrsatib, shu xalqning tak-
rorlanmas maʼnaviy-madaniy merosi boʻlmish udumlarini, ma-
rosim va rasm-rusumlarining oʻziga xos xususiyatlarini turfa
xil koʻrinishlarda namoyon etmoqdalar.

4. Folklor-etnografik ansambllari istiqlool tufayli anʼana va
marosimlarimizni bugungi avlodga qadimda ular qanday boʻlsa,
shundayligicha yetkazish, ijrochilik mahoratini koʻrsatish im-
koniga ega boʻldilar.

5. Folklor-etnografik ansambllari oʻz dasturidagi marosimlar,
qoʻshiqlar, rasm-rusumlar, xalq ijodiyotining turli xil namuna-
larini oʻz muxlislariga tanishtirish orqali ona diyorimizning mu-
qaddas anʼanalariga sodiq qolish, uni eʼzozlashni ibrat qilib
koʻrsatishlari ahamiyatlidir.

6. Folklor-etnografik ansambllari dasturining yana bir
ibratli tomoni Vatanimizning boy maʼnaviyatini koʻz qora-
chigʻiday saqlash — eng yuksak axloqiy fazilatlar, umuminsoniy
sifatlar ekanligini uqtirmoqdalar.

Hozirda mavjud folklor-etnografik ansambllari xalq qalbining
oynasi sanalmish xalq ijodiyoti namunalari, turfa xil marosim,
anʼanalari orqali milliy qadriyatimiz, qadimiy anʼana va maro-
simlarimizni tiklab, rasm-rusum va udumlarimizni oʻz
dasturlarida namoyish etish, kelajak avlodga qoldirish uchun
harakat qilmoqdalar.

Shu bois folklor-etnografik ansambllari ota-bobolarimiz
asrlar boʻyi asrab-avaylab kelgan qadriyatlar orqali istiqlool
mafurasini yaratishga, uni oʻquvchi yoshlar turmush tarziga
singdirishga yordam berib, kelajagi buyuk oʻzbek yurtining
haqiqiy egalari boʻlgan har tomonlama yetuk komil insonni
tarbiyalashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda folklor sanʼatini bevosita udum va
marosimlar bilan uygʻunlashgan holda rivojlantirishning oʻz
oʻrni va ahamiyati katta. Zero yetilib kelayotgan barkamol
avlod Oʻzbekistonni jahonga tanitishi, yurtimizning milliy
qiyofasini namoyish etuvchi asriy tafakkur durdonalarini
dunyo xalqlari orasida keng ommalashtirishi zarur.

„GULYOR“ XALQ FOLKLOR-ETNOGRAFIK ANSAMBLI

Niyatimiz, sizni hayolan bir onga O'zbekistonning go'zal bir go'shasi Bo'stonliqqa yetaklash. Bu go'shaning tog' bag'rida ming bir dardga davo turfa gilyohlar bitadi, zilol suvlar tog'dan toshdan toshga urilib, pastga shoshib tushadi. Bo'stonliq o'zining qorli cho'qqilari, bitmas-tuganmas go'zal manzarasi bilan kimlarni o'ziga maftun etmagan deysiz:

Jannat deb xayol surma ey xayolparast,
Go'zallik maskani Ona Bo'stonliq.
Ildizi zabarjad, barglari zumrad,
Jo'shib oqayotir tiriklik suvi.
Qiyos qilgudayin baland tog'larga,
Hayot bag'ishlaydi bo'ston-bog'larga,
Bu bog'da uzayar insonning umri.

Odamlarga hamisha shirin tuyg'ular ulashib kelayotgan bu go'zal maskanning odamlari ham tabiatiga yarasha serzavq.

Serjilo raqs va qo'shiqlar shaydosi onaxonlardan tarkib topgan „Gulyor“ folklor-etnografik ansambli fikrimizga yorqin dalildir. Jamoa a'zolari bo'lmish pir-u badavlat onaxonlar ijro etayotgan xalq durdonalari qo'shiq, lapar, yor-yor, gulyorlari el-yurt ko'nglini xushnud etmoqda.

Qoshingning qarosi yuvsa ketarmu,
Seningdek toza gul bog'da bitarmu?
Seningdek toza gul bog'da bitganda,
So'rab borsam bog'bon menga sotarmu?

Tomchiday shaffof, ko'ngillarni olislarga olib ketuvchi bahoriy mayin shabada singari bu xalq qo'shig'ini tinglar ekansiz, beixtiyor yuzingizda tabassum jilvalanadi. Vujudingizni qachonlardir ona allasiday quyosh yanglig' isitgan, qalbingizda orom va osudalik chashmalari hosil qilgan tanish, qadrdon ohanglar atirgul iforidek mast aylab, qo'shiq vodiylari sari boshlab ketadi.

Bo'stonliq tumani madaniyat uyi qoshida bahoriy chechakday yuz ochgan „Gulyor“ folklor-etnografik ansambli a'zolarining izlanishlari tufayli bu qadimiy xalq qo'shig'i qayta yashay boshladi. Birgina bu emas, ilgari g'azalkentliklar asrlar davomida kuylab kelgan, hozirda ular ijrosidagi „Sada rayhoningga balli“, „Ho, yali-yali“, „Asra qizil gulni“, „Gulyor“,

„O‘lmisham“ kabi qo‘shiqlar minglab san‘at shaydolarini maf-tun qilib qo‘ydi.

Yigirma besh onaxon atlas ko‘ylak, qalami kamzullarining shoyi ko‘ylak etaklarini hilpiratib, zarrin durrachalarini tang‘ib, sahnaga chiqib kelishar, bir-birlariga jo‘rovoz doira chertib qo‘shiqlarni o‘zaro ulab ketishar ekan, to‘lqinlanib ketasiz. Har bandni yangidan boshlaganlarida vujudingiz jimirlab ketadi.

Ansambl a‘zolari 15 yoshdan 75 yoshgacha bo‘lgan ko‘p bolali onaxonlar, kolxozchilar, ishchilar, tarbiyachi, madaniyat xodimi, ziyokor ayollardir.

Ushbu ansamblni tuzish niyati dastlab, shahar madaniyat uyining mutasaddilari tashabbusi bilan 1979-yil avgust oyida „Bo‘stonliq“ jamoa xo‘jaligi dala shiyponida „Qizlar davrasi“ o‘tkazilishdan boshlandi. Badiiy qismda Lazokat Nurimova, Tilla Oripova, Xatima Abdurahmonovalar o‘zlari bilgan xalq qo‘shiqlarini doira jo‘rligida ijro etganlaridan so‘ng, shiyponda o‘tirgan tinglovchilarning qarsaklari uzoq vaqt tinmadi. Shundan so‘ng ko‘p o‘tmay, qo‘shiq ijro etgan ayollar o‘z ansambllarini tuzishga qaror qildilar. Oralaridan doira, rubob chertuvchilar ham chiqib qoldi. Endi ular haftaning har seshanba, payshanba, juma kunlarida ishdan keyin uy ishlarini saranjomlab bo‘lgach, madaniyat uyida Lazokat opa boshchiligidagi unutilayozgan xalq qo‘shiqlarini birgalikda ijro etishni mashq qila boshladilar. Repertuarlarini chiston, laparlar bilan boyitib, mehnatkashlar huzurida konsertlar qo‘yib berdilar.

Oradan uch yil o‘tdi. Bir kuni oqshom endigina o‘z harir pardasini dala paykallari u‘zra tortarkan, hamqishloqlar o‘z sevimli ansambllarini „zangori ekranda“ ko‘rib, g‘oyat xursand bo‘ldilar. „Gulyor“ ansambli haqida hikoya qiluvchi bu telefilm rangli tasvirda suratga olingandi. O‘shanda ansambl a‘zolari „Gulyor“, „Sumbula“, „Yor-yor“, „Tanovar“ singari xalq qo‘shiqlarini ijro etdilar. Folklorshunos olim Malik Murodov ularga „Oq yo‘l“ tiladilar.

Ko‘p o‘tmay, ularning san‘ati televideniya orqali ikkinchi marta namoyish etilganida uni ko‘rib, g‘azalkentliklarning qalblari iftixorga to‘ldi. Bu gal „Gulyor“ ansambli „Asra qizil gulni“, „O‘lmisham“, „Bog‘ shamoli“, „O‘ynang yor, o‘ynang“, „Ho yali-yali“, „Qoshginangning qorasi“, „Nodirajon“, „Ishqingda men devona“, „Bo‘stonliq“ kabi xalq

qo'shiqlarining musiqiy sehrini millionlab san'at muxlislariga yetkazdilar. Ekranda sahna orqasidan ko'ringan Bo'stonliq tumanidagi so'lim qishloqlar, qir-adirlar qo'shiq sadolari bilan hamohang ko'zga tashlanardi.

Tyanshanning qorli cho'qqilari etaklarida yastanib yo'tgan Bo'stonliq tabiatining o'zi bir mo'jiza. Pastda Chirchiq daryosi toshdan-toshga urilib, shiddat bilan jo'shib oqadi. Bir tomonda mevali bog'-rog'lar, yam-yashil uzumzorlar, dam olish maskanlari, ikkinchi tomonda dehqonchilik qilinadigan cheksiz ekin maydonlari ko'zni quvontiradi. Erta tongdan quyosh qoyalar ortidan chiroyli jilmayib chiqib, ona tabiatni zarrin nurlarga burkaydi. „Gulyor“ ansamblining a'zolari ham barcha meh-natkashlar qatori xalq dilidagi kuy va qo'shiqlarni terib olish uchun ishga otlanadilar.

Ansambl 1987- yili xalq ijodiyoti Butunittifoq hamda res-publika ko'rik tanlovlarining sovrindori, 1988- yilda esa „Xalq folklor-etnografik ansambli“ degan sharaflı nomga sazovor bo'ldi.

Hozir ansambl repertuarida yuzdan ortiq raqs va termalar mavjud. Ansamblning badiiy rahbari Lazokat opa qo'lidagi qizil gulni yonidagi ayolga tutqazadi. Gulni olgan ayol bahri-bayt aytib javob qiladi va uni boshqa ayolga uzatadi. Ular aytadigan bahri-baytlar hazil-mutoyibaga moyilligi bilan tomoshabinda katta qiziqish uyg'otadi.

„Aytishuv“ sho'x va o'ynoqi „Xo'sh-xo'sh“ qo'shig'iga ulanib ketadi. Bu qo'shiqda odamlarning uy hayvonlariga munosabatlari, erkalashlari o'z aksini topgan.

Lazokat opa ijro etadigan „Ta'rif“ qo'shig'i esa Bo'stonliq tabiatining ulug'vorligini madh etadi:

Dumalab tushsam xumsan deydi,
Bilib turib, kimsan deydi,
Yilda, bir kelsang, deydi,
Ajoyib bir joyni ko'rdim.

Yakkaxon ijrochilar tomonidan aytiladigan „Kash-kash gul“, „Qoshi qora“, „O'lmisham“, „Lolagulning bargi bo'lay“ qo'shiqlaridan zavqlanmaydigan tomoshabin bo'lmasa kerak. 76 bahorni qarshilagan, 8 farzandning onasi O'g'iljon aya Bara-tovanning raqsiga qarsak chalib, jo'r bo'lishadi.

Navbat to'y marosimi namoyishiga keladi. Doira sadolari ostida sahnaga kelin bilan kuyov chiqib kelishadi. Vatan yo'lida jangda halok bo'lganlar xotirasiga tiklangan yodgorlik poyiga guldasta qo'yishadi. Ansambl ayollari bu ikki yoshga baxt tilab, o'zlarining sevimli o'lanlari „Yor-yor“ni ijro etadilar. Kuyov kelinga gul uzatadi. Doiraning sho'x ovozi kelinni raqsga chorlaydi.

Raqqosalar kelin-kuyovni raqs musobaqasiga taklif qiladilar. Birinchi davrada kelin-kuyov bilan O'g'iljon aya, ikkinchi davrada Homiya opa raqslari tomoshabinni hayratga soladi, hatto qizaloqlar, bolakaylar ham raqsga tushib ketishadi. Rubobda ijro etiladigan „Yor-yor“ lirik kuyiga, lirik qo'shiq ulanib ketib, uzoq davom etadi. Mehnatkashlar madaniy hordik chiqarib, miriqib qo'shiq eshitib, raqslar tomosha qilib dam oladilar.

Onaxonlar „Yor-yor“larning bir necha xillarini, o'zlari yashayotgan hududdagi marosimlarning o'ziga xos ijro usullarini maroq bilan ijro etadilar.

Masalan, Xondayliq „Yor-yori“, Bo'stonliq „Yor-yori“, Xo'jakent „Yor-yori“, „Kelin salom“ singari go'zal urf-odatlarimiz, an'analарimizni ifodalovchi bunday qo'shiqlar to'y-larda, qizlar majlisida va boshqa marosimlarda ijro etilib, xalqimizning o'lmas durdona asarlari qatoridan o'rin olib kelayotir.

Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumani madaniyat uyi qoshidagi „Gulyor“ folklor-etnografik jamoasi o'zining 20 yillik faoliyati davomida ko'plab xayrli ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

O'tgan yillar mobaynida jamoa rahbari Lazokat opa Nurimovaning bevosita sa'y-harakatlari natijasida xilma-xil dasturlar tuzilib, muxlislarga havola etilmoqda. Tinimsiz mehnat va ijodiy izlanishlar Lazokat opani el, xalq hurmatiga sazovor qildi.

Lazokat opa „Ta'rif“ qo'shig'ini yonib, dildan kuylamoqda. Borliqni unutib, o'sha qo'shiq qanotida o'zi ham parvoz etayotganday go'yo. Qo'shiq tugashi bilan davra gulduros qarsak sadolariga to'lib-toshdi. Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat instituti talabalari, professor-o'qituvchilarning „Salamat bo'ling“, „San'atingizga ofarin“ degan ovozlari yangradi... Opa yana sahnaga chiqib ehtiros bilan qo'shiq boshladi. Bunday olqish, uzoq yillardan buyon tingani yo'q. El hurmatiga sazovor

bo'lguncha, Lazokat opa qanchadan-qancha mashaqqatli yo'l-larni bosib o'tmadi, deysiz. Onaxonlar izlanib, tinimsiz xalq orasida yurib, bor qo'shiqlarni jamlab, sayqallab, yangi-yangilarini ijod qilib muxlislar e'tiboriga havola etayotirlar.

Shunday qilib „Gulyor“ ansambli tomonidan xalq og'zaki ijodidagi durdona qo'shiqlar, termalar, o'yinlar bellashuv-aytishuvlarning takrorlanmas namunalari to'plandi. Onaxonlar ijro etayotgan sarchashmalarning me'yoriga yetkazib aytilish mahorati ansambl obro'siga obro' qo'shmoqda. Jamoaning istak va mulohazalar, takliflar daftari sahifalarini varaqlar ekansiz, unda bitilgan xayratlanarli samimiy dil so'zlarini o'qiysiz. Bu dil izhorlari — xalqning didiga mos, unga manzur kuy-qo'shiqlarni tanlab, chiroyli ijro qilishga berilgan yuksak bahodir. Bu yuksak ishonch san'at yo'lida kamol topayotgan mehri daryo onaxonlarga ijodiy kamolot, zavq-shavq bag'ishlaydi.

„Gulyor“ — respublikamizdagi ilk keksa ijrochilar jamoalaridan biridir. Uning qatnashchilari orasida Tilla Oripova, Rixsi O'sarova, Habiba Rahmonova, Rixsi Sharipova, Ma'mura Ortiqova kabi onaxonlarning alohida xizmatlari bor.

Hozirgi kunda ansamblning safi yosh san'atsevarlar hisobiga to'ldirilib, kengayib bormoqda. Ansambl a'zolari o'z mahoratini yanada oshirish yo'lida tinmay mehnat qilmoqda.

„Gulyor“ xalq folklor-etnografik ansambli ijro etgan qo'shiqlardan namunalar:

Gulyor

Ro'molim uchib ketdi,
Daryoning shamoliga,
Bizning yor tashlab ketdi,
O'zganing xumoriga,
Gulyoraxon, jo'ralar-ey, gulyor.

Ro'molim tolim-tolim,
Tol bo'yli mening yorim,
Tol bo'ylidan ayrilib,
O'lmagan mening jonim.
Gulyoraxon, jo'ralar-ey, gulyor.

Tol ekdim xoda bo'ldi,
Marjonim shoda bo'ldi,
Kelmaysizmi, suygan yor,
Marjonim ado bo'ldi,
Gulyoraxon, jo'ralar-ey, gulyor.

Gulyor aytgan tilingdan,
Chakkangdagi gulingdan,
Opaginang aylansin,
Sarviqomat bo'yingdan,
Gulyoraxon, jo'ralar-ey, gulyor.

Lola guling

Lola guling bargi bo'lay,
Doim yoningda o'ltiroy.
Agar bevafo bo'lsang,
Ishqingda kuyib-yonay.

Tog' bag'rida ochilgan,
Qizil lolaning noriman.
O'z ahdida turmagan,
Bir bevafoing yoriman.

Lola guling ham go'zal,
Sog'insam toifi uzar.
Tog' yonida toshar buloq-o,
Toshmagan bizning yurak.

Tog'da ochilgan lolani,
Taqsam ado bo'lmaydi.
Yurakda ko'p armonim,
Aytsam ado bo'lmaydi.

Nodirajon

Ho yorim Nodirajon,
Asta bozorga bormang.
Asta bozorga borsang,
Namozshomda yo'l solmang,
Oh mani yorim Nodirajon.

Doka ro'mol boshimda,
Gajimlari qoshimda.
O'ynamadim, kulmadim,
Tashlab ketdi yoshimda,
Oh mani yorim Nodirajon.

Yorim bo'lsa, teng bo'lsa,
Yurak-bag'ri keng bo'lsa.
Yurak-bag'ri keng bo'lib,
Doim yoningda yursa,
Oh mani yorim Nodirajon.

Ariq bo'yida tollar,
Tollar tagida chollar,
Bu chollar yomon chollar,
O'tgan kampirni poylar.
Oh mani yorim Nodirajon.

Ho, yalla-lo

Bo'stonliq usti buloq, ho yalla-lo,
Qamishlari so'lqildoq, ho yalla-lo,
Qamishi nega kerak, ho yalla-lo,
Gullari bizga kerak, ho yalla-lo,
Childirmani asta chal, ho yalla-lo,
Qo'llaring qavarmasin, ho yalla-lo,
Yoringga aro berma, ho yalla-lo,
Yuraging ezilmasin, ho yalla-lo,
Ro'molim bor mushkulli, ho yalla-lo,
Tikolmadim qish kuni, ho yalla-lo,
Tiksam tikib berayin, ho yalla-lo,
Juma-chorshanba kuni, ho yalla-lo,
Ro'molim ilma-teshik, ho yalla-lo,
Qibladan qo'ydim eshik, ho yalla-lo,
Suv desam sharbat berar, ho yalla-lo,
Ko'z ochib ko'rgan oshiq, ho yalla-lo,
Bo'stonliq bog'ning guli, ho yalla-lo,
Gul lola tog'ning guli, ho yalla-lo,
Sahar turib sayragan, ho yalla-lo,
Bo'stonliqning bulbuli, ho yalla-lo.

Ho nozirim

Qizil gulni uzdilar,
Yuragimga qo'ydilar.
Qizil gulni tafti bor,
O'ynamoqni vaqti bor.
Ho nozirim, nozirim,
Yayrab oldimga keling.

Nozirimni nozi bor,
Bog'ida gulzori bor.
Bog'larda yurmang aka,
Bizning hovlida gul bor.
Ho nozirim, nozirim,
O'ynab oldimga keling.

Yorimsan armonim yo'q,
Kechalar qarorim yo'q.
Boshimga solsang qilich,
Qilichdan toyarim yo'q.
Ho nozirim, nozirim,
Kulib oldimga keling.

Yorimsan-o, yorimsan,
Yorim qayga borasan?
Qosh-u ko'zingni suzib,
Kimni yori bo'lasan?
Ho nozirim, nozirim,
Kimni yori bo'lasan?

Yor meni yomon deydi,
Bilmayman yomonlikni.
Shahringizga mehmonman,
Tilayman omonlikni.
Ho nozirim, nozirim,
Kimni yori bo'lasan?

Xo'sh-xo'sh

Turaqolgin jonivor,
Iyaqolgin jonivor.
Govmishim mani xo'sh-xo'sh,

Saralab yeding o'tingni.
Iyib bergin sutingni,
Govmishim mani xo'sh-xo'sh.

Ola-bula o'ting bor,
Oqar buloq suting bor.
Turaqolgin jonivor,
Iyaqolgin jonivor,
Govmishim mani xo'sh-xo'sh.

Ola sigir ol, — deydi,
Issiq joyga qo'y, — deydi.
Ola sigir sutini,
Asal bilan moy, — deydi.
Turaqolgin jonivor,
Iyaqolgin jonivor,
Govmishim mani xo'sh-xo'sh.

O'rtasidan tirqirab,
Yelinlari sirqirab.
Sen kelasan ayni tush,
Govmishim mani xo'sh-xo'sh.
Turaqolgin jonivor,
Iyaqolgin jonivor,
Govmishim mani xo'sh-xo'sh.

Qora qosh

Qora qosh qayrilma qosh,
Ko'zimga o'tday yonasan.
Shunga jonim fido qilsam,
Sen birovning yorisan.
O'ynang yor, o'ynang,
Yaxshi-yomon gaplariga,
Parvo qilmay o'ynang.

Oshig'im oldimdadir,
Taqdirlarim bir bo'lmadi.
Taqdirni taqdir desam,
Suyganlarim yor bo'lmadi.

O'ynang yor, o'ynang,
Yaxshi-yomon gaplariga,
Parvo qilmay o'ynang.

Gullarim gul vaqtida,
Gulzoridan ayrilmasin.
Har kishi o'z vaqtida,
O'z yoridan ayrilmasin.
O'ynang yor, o'ynang,
Yaxshi-yomon gaplariga,
Parvo qilmay o'ynang.

Yorginam lodonginam,
Ruyanga solsam sani.
Man sog'inganman sani,
Sen ham sog'ingansan mani.
O'ynang yor, o'ynang,
Yaxshi-yomon gaplariga,
Parvo qilmay o'ynang.

Gul-lola

Qizil guling bo'layin, ho yorim, gul-lola,
Hovuchingga to'layin, ho yorim, gul-lola.
Hovuchingga to'lmasam, ho yorim, gul-lola,
Gunohkoring bo'lmayin, ho yorim, gul-lola.
Ko'chadan o'tmang uka, ho yorim, gul-lola,
Bizning hovlida yo'l bor, ho yorim, gul-lola.
Chekkangizga taqqani, ho yorim, gul-lola,
Ochilgan qizil gul bor, ho yorim, gul-lola.
O'zi qaro qoshingga, ho yorim, gul-lola,
O'sma qo'ymasang nima, ho yorim, gul-lola.
O'tkinchi chiroyingga, ho yorim, gul-lola,
Bino qo'ymasang nima, ho yorim, gul-lola.
Osmonda gurillaydi, ho yorim, gul-lola,
To'rg'ay desam bedona, ho yorim, gul-lola.
Chekkangdagi gulingni, ho yorim, gul-lola,
Safsar desam gullola, ho yorim, gul-lola.

Yorg'inchoq

Yorg'inchoq torta-torta,
Toldi mening qo'llarim.

Ikki tosh o'rtasida,
Qoldi mening qo'llarim.

Yorg'inchog'im, yorg'inchoq,
Aylanaylik yorg'inchoq.

Yorg'inchoq dumaloqqina,
Un qilar oppoqqina.

Yorg'inchoq g'ir-g'ir etar,
Mushttakina xamir etar.

Yorg'inchog'im, yorg'inchoq
O'rgilayin yorg'inchoq.

Yorg'inchoq orasida,
Ikki qora tosh.

Yorimdan ayrilibman,
Ko'zdan oqar selob yosh.

Yorg'inchog'im, yorg'inchoq,
Aylanayin yorg'inchoq.

Yorg'inchoqni aylantirdim,
Tosh ustida-yo.

Nomard yorim yor olibdi,
Yor ustiga-yo.

Yorg'inchog'im, yorg'inchoq,
O'rgilayin yorg'inchoq.

„Chiroylik“

Boyg'alcha gul ochildi,
U bahordan nishona.
Binafsha gul ochildi,

U Navro'zdan nishona.
 Gullaringdan ukajon chiroylik,
 Navro'zingdan ukajon chiroylik.
 Oq bo'z otim soy keldi,
 Soy yoqalab yor keldi.
 Binafsha gulni taqib,
 Gul loladay yor keldi.
 Gullaringdan ukajon chiroylik,
 Navro'zingdan ukajon chiroylik.
 Eshik oldi juft terak,
 Juft terakka suv kerak.
 Mening dehqon og'amga,
 Gul loladay yor kerak.
 Gullaringdan ukajon chiroylik,
 Navro'zingdan ukajon chiroylik.
 Daraxt shoxida bulbul,
 Bulbul andoz qiladi.
 Boyg'alcha gulni taqib,
 Qizlar pardozi qiladi.
 Gullaringdan ukajon chiroylik,
 Navro'zingdan ukajon chiroylik.

„GULYOR“ FOLKLOR-ETNOGRAFIK ANSAMBLINING
„NAVRO‘Z“ KO‘RIK-TANLOVIGA TAYYORLAGAN
TEATRLASHTIRILGAN KONSERT SSENARIYSI

„Navro'z“ ko'hna tarixga ega bo'lgan bayram. „Navro'z“ bayrami dehqonlar uchun ekin-tekin, dala, bog' ishlarining boshlanishi bo'lgan. Dehqonlar, bog'bonlar, chorvadorlar qishning rutubatli kunlaridan omon-eson chiqib, bahorning ilk kunlarini quvonch bilan qarshilab, katta dehqonchilik ishlariga tayyorgarlik ko'rganlar. Ariq-zovurlarni tozalaganlar. Otlarini sovutib, aravalarini sozlab, ishga hozirlaganlar. Ho'kizlarni parvarishlab, shoxlarini moylab katta yerga olib chiqishga chog'laganlar.

„Navro'z“ kuni dehqonlar tabarruk keksalardan „Oq fotiha“, „Oq yo'l“ olganlar. Farzandlar ota-onalarining qabrini ziyorat qilganlar. Shogirdlar keksayib qolgan ustozlarini yo'qlab xonadonlarga tashrif buyurib, ko'ngillarini ovlaganlar.

O'ziga to'q oilalar musofir, beva-bechoralarni sovg'alar bilan yo'qlagan. Dosh qozonlarda osh damlab, yurtga berilgan.

Katta sayllar: uloq chopish, kurash, merganlik, kamon otish, kabilar uyushtirilgan. Sayllarda novvoylar issiq nonlar bilan qandolatchilar turli popuk, qandlar, holva, pashmak, novvot, parvarda kabi shirinliklar tayyorlab xizmat qilishgan. Xalqning turmush tarzi, milliy xalq san'atining ajoyib shakllari va turlari, turli musobaqalar bilan e'tiborni o'ziga jalb etuvchi bu bayram xalqning ma'naviy turmushini boyitishga, xalqning go'zal an'analarini asrab-avaylashga qaratilgan.

Navro'z kuni xalq ijodiyoti butun borlig'i bilan yaqqol ko'zga tashlanadi. „Navro'z“ bayramini o'tkazish o'sib borayotgan yosh avlodni xalqimiz ijodiyotining eng yaxshi namunalari misolida tarbiyalashda, uning dunyoqarashini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Bayramona ruh bilan sug'orilgan mehnat tantanasi boshlanadi. Odamlar ariqlarni tozalash, dalalarni tekislash va bog'larni yangi mavsumga tayyorlash ishlari, tabiatning uyg'onish fasli boshlanadi. Bu go'yo o'ziga xos tarzda zaminimizda tinchlikni mustahkamlash va farovon hayotni davom ettirish yo'lidagi umidbaxsh mehnat simfoniyasi bo'lib tuyuladi kishiga.

„Navro'z“ dala ishlari mavsumining boshlanishiga bag'ishlangan bayram. Navro'zning so'nggi kunida dalaga qo'sh chiqarish va yerga urug' qadash marosimi o'tkazilgan. Bu tadbirlar „Ekish sayli“, „Qo'sh oshi“, „Qo'sh chiqarish“ („Qo'sh moyi“) deb atalgan.

„Navro'z“ bayrami o'tkaziladigan joyga har kim o'zi tayyorlagan taomi bilan keladi.

Navro'z dasturxoniga ko'k ildizdan tayyorlangan koki (sallati), yalpiz somsa, yalpiz chuchvara, yupqa, go'ja oshi, yorma oshi, un oshi, kulchatoy, qatlama, qatirma, shirkat oshlar qoyiladi. Navro'z har bir kishining qalbida bir yilga yetadigan yorqin taassurotlar qoldiradi. Navro'z bayramidan keyin odamlar tetiklashgan va kuch-quvvatga to'lgan holda yaxshi kayfiyat, ko'tarinki ruh bilan ishga kirishadilar.

Navro'z nafaqat dam olish balki, qutlug' bayram, insonlar orasida yaxshilik, uyushqoqlik, mehr-shavqat, mustahkam do'stlikni tarannum etuvchi marosimdir.

Bahor butun mavjudot uyg'onadigan fasl. Navro'zda avval bahor darakchilari — osmonni to'ldirib laylaklar uchib keladilar. Ular oppoq qanotlariga yaxshilik va ezgulik, go'zallik, mehr-muruvvat, yashash va yasharishni indirib keladilar.

Bo'stonliq tog' etaklaridagi qishloq yerlari qor suvlaridan qonib ichadi. Ariq bo'ylarida jilg'alar na'masiga qizlar jo'r bo'lib „Navro'z“ darakchisi yalpiz terib, qo'shiq aytadilar, ixlos bilan sochlariga ulama qiladilar, tevarak-atrofga havas bilan boqayotgan kelinchak, bodom guliga tikiladi, undan o'rik guliga mahliyo bo'lib, dovuchcha tugishini orziqib kutadi.

Bo'stonliq binafsha va chuchmomalari esa kelinchakning husniga-husn qo'shib turadi.

Donishmandlardan biri, qayerdagi go'zallik barq ursa, o'sha yerda san'at rivoj topadi degan ekan. Haqiqatan, Bo'stonliq tumani madaniyat saroyi qoshida tashkil etilgan „Gulyor“ folklor-etnografik ansambli fikrimizga dalil bo'ladi. Bu ansambl a'zolari yosh-u qarilardan iborat.

Ansambl ishtirokchilari qishloqma-qishloq, shahar-shahar kezib, xalqning etnografik xususiyatlarini, qadimiy xalq qo'shiqlarini, raqslarini, har bir faslga tegishli o'yin-kulgularini o'rganib, xalqning o'ziga taqdim etadilar.

Bayram kuni yaqin kishilar bir-birlarini yangi yil bilan tabriklashadi, ezgu niyatlar bildiradilar, qiz va kelinchaklar boshlariga gullardan chambaraklar qilib kiyib, orolnadilar. Chuchmomalarni omonlik-somonlik deb ko'zlariga surtadilar. Yigitlar yo'lda qator turishib o'z seviklilariga, qayliqlariga gullar, shirin sovg'alar ulashadilar.

„Navro'z“ Bo'stonliq tumani aholisining qadimdan o'tkazib kelayotgan eng katta sayl bayrami hisoblanadi. 21-mart kunini yangi yil hamda „Hamal oyi“ yil boshi deydi ular. Hamal oyida dov-daraxtlar gullaydi, qo'ylar qo'zilaydi, yer uyg'onadi, urug' sepiladi. O'tlar o'sib, yer yuzi ko'm-ko'k yashil libosga burkanadi. Yalpizlar nish urib chiqadi, chuchmomalar ochiladi, boychechaklar gul ochib bahordan darak beradi. Boyg'alcha, targ'il lola, qizil lolalar lolaqizg'aldoqlar ochilib, qir-adirlarni bezaydi, bularning barchasi bahor tantanasidan nishonadir.

„Navro'z“ taomi deb sumalak, go'ja oshi, yorma oshi pishiradilar. Bo'stonliq tumani dalalarining ko'm-ko'k may-salarga burkanadigan bu pallani hamma orziqib kutadi. Kelinchaklar, qizlar qir-dalalarga chiqishib qo'shiq aytishib, raqs tushadilar, arg'imchoq uchishib xursandchilik qiladilar:

Bugun Navro'z, bugun bayram,
Bugun Navro'z, bugun bayram,
Davraga chiqinglar, davraga.

Bo'stonliqning onalari,
Chiqaveringlar davraga.
Boychechak tog'lar bolasi,
Ko'klamning zarrin nishonasi.

Kelinlar zulfi kamalak,
Kelinlar taqar jamalak.
Bo'stonliqning kelinlari,
Pishiradilar sumalak.

Yal-yal yongan yuzingdan,
Tolmagina bo'yingdan.
Bol tomadi kelinchaklar,
Sumalak degan tilingdan.

Jo'shing qizlar jo'shing,
O'chmasin aql-u xushing.
Bulbulcha bo'lib bulbul,
Sayrasin sayroq qushing.

Ilgari Navro'z sayliga ikki qishloq odamlari— Chimboylik
va G'azalkentliklar o'rtasidagi katta daryodan o'tardilar.

Chimboydan g'altak bilan G'azalkentga.

Pastroqda suv yoyilib oqadigan yerdan esa parom bilan
o'tardilar.

Chimboydan	Parom	G'azalkentga o'tadilar
Uzun yog'och	2 kishi suvni	Uzun yog'och xoda
xoda uchi	tortib, haydab	uchi kurakka
kurakka o'xshaydi.	boradi.	o'xshaydi.

Chimboydan G'azalkentga o'tishda ikki kishi paromni arqon
bilan qirg'oqqa tortib olib, odamlarni qirg'oqqa tushiradi. Shunday
yo'l bilan Chimboyliklar G'azalkentga Navro'z sayliga o'tadilar.

Navro'z kuni erta bilan G'azalkentda sayl boshlanadi. Kar-
nay, surnay chalinadi. Bir kishi: „Saylga kelinglar, saylga, ham-
ma saylga“, deb Navro'z bayramiga chorlaydi.

Chimboylik yigitlar unashilgan qizlariga shoyi qiyiqchalarda
shirinliklar olib keladilar. Bir tomonda qizlar dugonalari yoki
yangasi bilan o'tiradilar. Sochlarini haydar qilib o'rishadi.
Yigitlarning kelayotganini ko'rgan jarchi: „Qaranglar, mehmonlar
kelishayotir, kutib olinglar, kuyovlarni, kutib olinglar“, deydi.

Qizlar ibo bilan o'zlarini chetga oladilar. Qo'shiq yangraydi:

Erta bahor kelibdi

Erta bahor kelibdi,
Navro'z olam bo'libdi.
Navro'z olam to'yiga,
Hamma do'stlar kelibdi.

Gul lolalarni taqib,
O'ynaylik Navro'z saylida

Anorzor-u anjirzor,
Sochni o'rib belga sol.
Kokilni oldingga sol,
Egilib yoningga ko'z sol.

Naqarot:

Olmani bargi taxir,
Choy qilib meni chaqir.
Sen paqirga, men paqir,
Qora ko'zga oshna qil.

Naqarot:

Men bog'ingni burchida,
Sada, rayhon ichida.
Gul lolalarni taqib,
O'ynaylik, navro'z saylida.

Naqarot:

Deydi-yo, deydi

Deydi-yo, deydi-yo,
Bugun, Navro'z deydi.
Eski o'pka - ginalarni,
Qilma hargiz deydi.

Deydi-yo, deydi-yo,
Gul saylim, deydi-yo,
Bu ko'nglimni kimga bersam,
O'z maylim deydi-yo.

Deydi-yo, deydi-yo,
Qo'shiq aytgin deydi-yo,
Qo'shig'ingga baxtginangni,
Qo'shib aytgin deydi-yo.

Deydi-yo, deydi-yo,
Omon bo'ling, deydi-yo,
Pok mehnat-u yaxshilik,
Tomon bo'ling, deydi-yo.

Kelinga bag'ishlab qaynona

Yangi libos yarashgan
Ra'no bo'yingdan o'rgilay.
Piyolaga choy quygan,
Qo'llaringdan o'rgilay,
o-o-o jon gul sanam.

Zargar yasar tillaqosh,
Kelinchaklar taqsin deb.
Duolar qilay senga,
Baxting butun bo'lsin deb,
o-o-o jon gul sanam.

Shirmoy nondek qizarib,
Turgan yuzingdan o'rgilay.
Noz bilan ko'p qaragan,
Shahlo ko'zingdan aylanay,
o-o-o jon gulim gul sanam.

Qaynonaga bag'ishlab kelin

Qaynonamni o'zlari,
Piyolani gullari.
Choy ichganda yarashar,
Qaynonamni qo'llari.

Naqarot:

Qaynonajon, qaynona,
So'zingizdan aylanay.

Qaynonajon, qaynona,
O'zingizdan aylanay.

Qaynonamni yuzlari,
Qora charos ko'zlari.
So'zlaganda yarashgan,
Shirin-shakar so'zlari.

Naqarot:

Qaynonamni uyiga,
Suv sepayin yo'liga.
Kirib kelsa eshikdan,
Gul tutayin qo'liga.

Naqarot:

Yigitlar

Farqni qiyshiq ochmanglar,
Qiyshayib ketar yigitlar.
Sochni kalta qirqmanglar
Qiyolab ketar yigitlar.

Naqarot:

Iroqi do'ppi tikmanglar,
Iroqqa ketar yigitlar.
Bodom do'ppi tikinglar,
Bog'da yursin yigitlar.

Burma kuylak kiymanglar,
Burilib ketar yigitlar.
Kalta ko'ylak kiymanglar,
Tashlab ketar yigitlar.

Naqarot:

Suv oqar-e, suv oqar,
Suv tagidan qum oqar.
Sevganing tashlab ketsa,
Senga kulib kim boqar.

Naqarot:

Kakligim

Bizni bog'da bir kaklik,
Oyoqlari poplik-popuklik.
Bizga bir yor uchradi,
Lafzi shirin vafolik-vafolik.

Otang chaqirdimi kaklik,
Onang chaqirdimi kaklik.
Chamanni qadrin bilmay.
Uchib ketgan nodon kaklik, nodon kaklik.

Kakligim kah-kah uradi,
Sho terakning shoxida.
Oldiga bormay turib,
O'sma tilaydi qoshiga.

O'smasi yomon ekan,
Qulf urmabdi qoshiga.
Va'dasi yolg'on ekan,
Bir kelmabdi yoniga, yoniga.

Kash-kash gul

Yorim to'ni beqasam,
Yoqasiga oy solsam.
Aytganim olib bersa,
Davlatida o'ynasam.
Kash-kash gul — poyash gul jo'rang aylasin.
Qizil gul o'ymoq-o'ymoq,
Kim ekan yorga to'ymoq.
Qaysi nodonning ishi,
Yor olib, yorni qo'ymoq?
Kash-kash gul — poyash gul jo'rang aylasin.
Qizil gulsan barging yo'q,
Ho'p yigitsan yoring yo'q.
Umring o'tib boradi,
Nodonsan, xabaring yo'q.
Kash-kash gul — poyash gul jo'rang aylasin.
Qoshingning qorasiga,

Hol bo'lay orasiga.
Aslo rahming kelmaydi,
Birovning bolasiga.
Kash-kash gul — poyash gul jo'rang aylasin.

Yor-yor

O'kchasini bog'ini bog'ladi qiz, yor-yor,
Ketariga o'zini chog'ladi qiz, yor-yor,
Doka ko'ylak yengiga tut qoqaylik, yor-yor,
Kelin-kuyov ko'ksiga gul taqaylik, yor-yor.

O'ynagin qiz, o'ynagin,
To'y seniki, yor-yor.
Gullar bilan bezangan,
To'r seniki, yor-yor.

Mehnatda o'rnak bo'lgan,
Yor seniki, yor-yor.
Ostonasi mustahkam,
Uy seniki, yor-yor.

Taxta-taxta ko'priksin,
Taxting bo'lsin, yor-yor.
Suyib olgan yoring bilan,
Baxting kulsin, yor-yor.

Hay-hay o'lan, jon o'lan,
Gul keskanim, yor-yor.
Endi ketib borasan,
Teng o'sganim, yor-yor.

Xo'jakent yor-yori

Tokni tokka surdilar, karvon bilan, yor-yor,
Esiz, qizni berdilar, armon bilan, yor-yor.
Obdastaga suv qo'ydim, qaynamaydi, yor-yor,
Onasi o'gay ekan, yig'lamaydi, yor-yor.

Qo'sha qovun ichidan topdim tarvuz, yor-yor,
Hakim bilan yuruvdim, qoldim yolg'iz, yor-yor.

Hakim yolg'iz, men yolg'iz, sochim qunduz, yor-yor,
Haydarim oltin-ko'mish, tugma to'qqiz, yor-yor.

Tokchadagi qatiqni ayron qilgan, yor-yor,
Onasining ko'nglini vayron qilgan, yor-yor.
Chimildiqning bog'ini, bog'ladi qiz, yor-yor,
Onasini ko'nglini dog'ladi qiz, yor-yor.

Aravaning tagiga sepdim kepak, yor-yor,
Olib kelgan qizimning sepi ipak, yor-yor.
Charxingni o'qi sinsa, o'qlar onang, yor-yor,
Erta turib indini, yo'qlar onang, yor-yor.

Xondayliq yor-yori

Xondayliqning qamishi o'qqa loyiq, yor-yor,
Olib kelgan qizimiz bekka loyiq, yor-yor.
Bekka loyiq qizimizga bek qolmagan, yor-yor,
Aravani to'ldirib to'y kelmagan, yor-yor.
Qo'zilarni ma'ratib qo'y kirmagan, yor-yor,
Olib kelgan qo'yingiz ori q ekan, yor-yor.
Terisini olib borib, po'stin qiling, yor-yor,
Iligini olib borib, ustun qiling, yor-yor.
Shildir-shildir qamishga sirg'am tushdi, yor-yor,
Sinamagan yigitga singlim tushdi, yor-yor.
Qo'limdagi qo'sh uzuk mayishadi, yor-yor,
Singlim uchun qovurg'am qayishadi, yor-yor.
Chimildiqni tagidan sichqon qochdi, yor-yor,
Tilla kovush topilmay, kuyov qochdi, yor-yor.
Qochdi-qochdi demanglar, qochgani yo'q, yor-yor,
Qizga loyiq ko'rmana topgani yo'q, yor-yor.

Chimayliq yor-yori

Yor-yor aytsang bunda kel, aytishaylik, yor-yor,
Oq miltiq, qora miltiq aytishaylik, yor-yor.
Oq miltiq, qora miltiq otgan otam, yor-yor,
O'z qizini bilmayin sotgan otam, yor-yor.
O'z qizini o'rniga bodom eksin, yor-yor,
Bodom shoxi larzon bersa, bolam desin, yor-yor,
Onajonim uylarida bir gul edim, yor-yor,
Qafasdagi sayrab turgan bulbul edim, yor-yor.

Onajonim uylaridan ko'chirdilar, yor-yor.
Qafasdagi bulbuljonni uchirdilar, yor-yor.
Olim aka uyidan suqsur uchdi, yor-yor,
Rahmat aka uyiga davlat qo'ndi, yor-yor.
Ota-ona eshigi ipak eshik, yor-yor,
Kirganningda-chiqqaningda silar eshik, yor-yor.
Qayin-bo'yin eshigi tikan ekan, yor-yor,
Kirganningda-chiqqaningda shilar ekan, yor-yor.

Kelinsalom

Tog'-u toshni gul qilgan,
Ikki yoshni bir qilgan,
Avval Xudoyimga salom!

Makkatillo yo'lida,
Joynamozi qo'lida,
Qaynotasiga salom!

O'rnidan turgani eringan,
O'g'il tug'dim deb kerilgan,
Qaynonasiga salom!

Tomga bosgan pechakdek,
Yurishlari chechakdek,
Opasiga salom!

Katta bog'ning anori,
Uyning yongan fanori,
Singlisiga salom!

Tomdan xashak tashlagan,
To'y pulini xarjlagan,
Qaynakasiga salom!

Durrasini dol qo'ygan,
O'ng betiga xol qo'ygan,
Ovsinlariga salom!

Bo'stonliqning yo'lida,
Ikki qo'li rulida,
Shopirlarga bir salom!

Matolarning qiyqimi,
Yigitlarning shilqimi,
Kuyovjo'ralarga salom!

„BOYSUN“ XALQ FOLKLOR-ETNOGRAFIK ANSAMBLI

Boysun tog' etaklari bahor ayyomida yanada fusunkor bo'ladi. Toshidan-toshga urilib, shosha-pisha pastga tomon oqayotgan jilg'alar tovushidan go'yo atrof-muhit uyg'onib, hayot yana boshlangandek tuyuladi. Shunday lahzalarda siz, jilg'alar tovushiga quloq tutganmisiz?.. Bir zum o'tar-o'tmas, jilg'alarining mayin ohangiga o'ynoqi kuylar sasi uyqashib, kishida allaqanday nafis tuyg'ular uyg'otib eshitilganining guvohi bo'lasiz. „Shalola“ ansambli tog' bag'ridan tushayotgan shaloladai odamlarga huzur, zavq-shavq bag'ishlayotganiga ko'p yillar bo'ldi.

Bu yillar „Shalola“ ansambli uchun tajriba to'plash, professional san'at sirlarini o'rganish, xalq ijodiyotining bag'riga chuqurroq kirib borish davri bo'ldi. Ansambl hozirda havaskorlikdan professional darajasiga ko'tarila oldi. U o'z repertuari dasturini yanada kengaytirish maqsadida, o'z tarkibida folklor-etnografik ansamblini tashkil etishga qaror qildi.

Birmuncha vaqt u ansambl ham „Shalola“ deb ataldi. 1988-yilda „Shalola“ uchirma bo'lib, ajralib chiqdi. Endilikda bu folklor-etnografik ansambli o'z mustaqil yo'li va nomiga ega bo'lib, ya'ni „Boysun“ deya ataldi.

„Boysun“ „Shalola“ ansambli huzurida mustaqil ravishda endigina o'z faoliyatini boshlaganda unga omad kulib boqib, 1975- yilda Polsha Xalq Respublikasining Zakapanye shahrida bo'lib o'tgan tog'li o'lkalar XIII xalqaro festivalida ishtirok etib, ikkinchi darajali „Kumush bolg'a“ mukofotining sovrindori bo'ldi.

1977-yil xalq ijodiyoti II Butunittifoq festivaliga qizg'in tayyorgarlik boshlandi. Mazkur festivalning ilk bosqichida va uning yakuniy tadbirlarida ham „Boysun“ yaqqol ko'zga tashlandi. Chunki festivalga tayyorlanish, uni o'tkazish davomida bir qator folklor-etnografik va havaskorlik ansambllariga asos solindi, yuzlab talantlar aniqlandi hamda folklor amaliyotida bir qancha tajribalar to'plandi. Madaniyat muassasalari, ayniqsa, Xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar respublika ilmiy-metodik markazining

ishi birmuncha jonlandi. Buni xalq ijodiyoti II Butunittifoq festivali doirasida o'tkazilgan folklor-etnografik ansambllari, katta ashula ijrochilari va oilaviy ansambllarning respublika ko'rik-tanlovi natijalari isbotladi. Respublikadagi 47 jamoa orasidan „Boysun“ faxrli birinchi o'rinni egalladi.

1987- yili „Boysun“ ansambli o'zbek xalqining qadimiy milliy urf-odatlarini ashula va raqslarda ifoda etib, Afg'onistonning Balx viloyatida bo'ldilar. 1988- yil 12—16- avgust davomida Moskvada bo'lib o'tgan „O'zbekiston kunlari“da o'z ijrochilik mahoratlari bilan tomoshabinlarni xushnud etdilar.

„Boysun“ folklor-etnografik ansambli o'zining betakror, sermazmun, serjilo, o'ynoqi repertuarlari bilan o'z xalqi orasida tez tanilib, shuhrat qozondi. Uning ijrosidagi xalq laparlari, mavsum-marosim qo'shiqlari shinavandalar dilini rom etdi. Mazkur ansambl ijrosi va ijodi haqida markaziy, mahalliy hujjatli film studiyalari bir necha telefilmlar yaratdilar.

1998-yilning 25—26- sentabr kunlari Qo'qon shahrida „Xalq ijodiyotini saqlash va rivojlantirish muammolari“ mavzusida yirik anjuman bo'lib o'tadi. Unda respublikadan va chet ellardan taniqli folklorshunos olimlar, madaniyat va matbuot xodimlari ishtirok etadilar. Anjumanning hay'at a'zolari o'rtasida „Boysun“ ansambli haqida, uning o'ziga xos repertuari, ijro usuli, kiyim-kechagi-yu bezaklari xususida qizg'in bahs-munozara bo'lib o'tib, uning faoliyatiga yuksak baho berildi. 1988-yil dekabr oyida „Boysun“ga „Xalq folklor-etnografik ansambli“ degan faxrli unvon berildi. Bunday yuksak unvonga qisqa vaqt ichida sazovor bo'lish oson kechmadi, albatta.

„Boysun“ ansamblining respublikada tez shuhrat topishining boisi shunda ediki, ansambl Boysun tumanida saqlanib kelayotgan qadimiy an'analarimizni qanday bo'lsa, shundayligicha sahnaga olib chiqib, tomoshabinlar olqishini qozondi. „Boysun“ ansambli dasturi boshqa ansambllar dasturiga nisbatan ancha boy, nozik ta'b va mumtozligi bilan ajralib turardi. Ansambl a'zolarining mahorati bilan O'zbekistonning janubiy tumani — Boysunning qadimdan saqlanib kelayotgan bahor mavsumiga oid marosim folklori o'zining to'liq ifodasini topa olgandi. Shu sababli mazkur ansambl mamlakatda va chet ellarda o'z tomoshabinlarining olqish va tahsinlariga sazovor bo'la olgandi.

Bugun respublikamiz folklor hayoti nihoyatda boy va rang-barang bo'lib, ko'proq teatrlashib borayotganligi, sahnaviy talqini

yildan-yil rivoj topib, alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ilgarilari bir viloyat, bir tuman, bir qishloqqagina xos bo'lgan u yoki bu folklor namunasi hozirda butun mamlakatimiz bo'ylab yangramoqdaki buni hozirgi davr talabi deyish mumkin. Buni respublikamizda folklor-etnografik ansambllari soni bir necha yuzdan oshib ketganligi ham ko'rsatib turibdi. Albatta, hamma ansambllarni bir o'ringa qo'yib bo'lmaydi. Bular orasida „Gulyor“, „Omonyor“, „Nozanin“, „Mohisitora“, „Chavqi“, „Doston“, „Orazibon“, „Dilkushod“ navolari, „Sarboz“ va boshqa ansambllarning o'z o'rinlari bor. Ammo „Boysun“ ular orasida eng mukammali, eng mumtozi sifatida ma'lum va mashhurdir. Chunki bu ansambl o'z repertuarida folklor namunalari va ularning etnografik xususiyatlarini mukammal saqlagan. Keyingi yillarda ansambl ijodiy jamoasi xalqimizning qadimiy qo'shiqlarini, marosim va bayramlarini chuqur o'rganib, uni qayta ishlashga katta e'tibor bermoqda. Ular tog' etaklaridagi hozirda mavjud qator qishloqlarga tez-tez borib turishadi. Yerli aholining qo'shiqlari, raqslari bilan qiziqishib, ularni mukammal o'rganishga harakat qilishadi. Magnit tasmasiga tushirilgan qo'shiqlarning folklor xususiyatlarini, etnografik elementlarini sahna darajasida qayta tiklashadi.

Ansambl ayol va erkaklardan tarkib topgani uchun folklor va etnografiyaning o'ziga xos xususiyatlarini saqlash ham oson kechmoqda. Dasturning o'ziga xosligi uning mavzuviy yo'nalishi bilan ham bog'liqdir. Kundalik turmushning u yoki bu tomonlari san'at tili bilan ifodalanadi. Dehqonlarning yer haydashi, bu jarayonda jonivor bilan muloqoti, xatti-harakatlari, yong'ir chaqirish odatlari tabiiy ravishda mazmunan boy, nafis ohanglar, jo'shqin qo'shiqlar va dilrabo raqslar ila tomoshabin hukmiga havola etilib, yetkaziladiki tomoshabin go'yo bu voqealarda aynan o'zi ishtirok etayotganday bo'ladi.

Ansamblning kiyimlari ham butun ko'rinishi, shakl-shamoyili bilan etnografik xususiyatlarni saqlagan. Erkaklar olocha chopon, oyoqlarida mukki, yoki chorig', boshlarida esa quyosh ramzi ifodalangan boysun do'ppisi. Qadimiy jelak yoki qizil rangli matodan guldor keng ko'ylak, ayollar husniga-husn qo'shib turadi. Ular boshidagi qasaba yoki qadimiy boysuniy do'ppi tog'liq xalqlar libosining betakror namunasidir. Badiiy bezaklari: tillaqosh, buloqi, haykal gardon, turli shakldagi ziraklar, albatta, qadimiyatdan darak beradi. Bu holat jamoaning etnografik-badiiy bo'yog'ini yanada boyitgan.

„Boysun“ folklor-etnografik ansambli yildan-yilga tinimsiz izlanishlar evaziga o‘z repertuarlarini yangidan-yangi dasturlar bilan boyitib kelmoqda. „Hayinchak qo‘shig‘i“, „Ko‘pkari-uloq“, „Sovchilar qo‘shig‘i“, „O‘tin yor“, „Turna keldi“, „Ulijon“ va boshqa qadimiy terma qo‘shiq va raqslar shular jumlasidandir.

„Boysun“ ansamblining mumtoz jihatlarini, uni boshqa ansambllardan ajratib turadi. Ular yaratayotgan har bir dasturining paydo bo‘lishiga mas’uliyat bilan qarab, o‘z takrorlanmas uslublarini namoyon etishga harakat qilib, repertuarlarini tinmay boyitib, yangilab bormoqda.

„Boysun“ ansambli bir necha yillardan buyon o‘z muxlislarini serjilo, nihoyatda maftunkor san’atlari bilan rom etib kelmoqdalar. Darhaqiqat, bu ansambl o‘zining rang-barang dasturi, mohir ijrosi bilan millionlab muxlislar qalbiga kirib borganlari mubolag‘a emas.

Boysun tog‘ etaklarida yashab ijod etayotgan bu jamoa, Surxon vohasining udum, urf-odatlarini, marosimlarini nisbatan buzilmagan holda o‘z ijrosi orqali saqlab kelmoqda. Ayniqsa, o‘zbek va tojik san’atining tutash nuqtalarining o‘ziga xos tomonlarini o‘z dasturida takrorlanmas ijro orqali tarannum etmoqda. Masalan, „Sarak-sarak“ qo‘shig‘ida yosh qizgina va dadasi orasidagi muloqot aniq harakatlar bilan ifodalanadi. Qizcha dadasiga erkalanadi, ota uning turli xil istaklarini bajo keltirishini namoyish etadi. Bunday erkalanish bilan aytilajak qo‘shiqlar ham o‘zbeklarda, ham tojiklarda udum bo‘lgan qo‘shiqlarning bir ko‘rinishi hisoblanadi. Yoki „Bo‘zakam“, ya’ni yo‘qolgan echki haqidagi qo‘shiqda tog‘ sharoitida chorvani podachi boqmaydi, ular erkin o‘tlab yuraverishgan. Tojik tilida kuylanadigan bu qo‘shiqda avvalo, echkisi uyga qaytmagan boboning hasrati, keyin uni topib olgandagi quvonchi yorqin ifodalanadi. Ijro davomida tog‘li xalqlarning turmush tarzidan kelib chiqqan holda milliy urf-odat, udumlar qo‘shiq, raqs, musiqa orqali namoyish etiladi.

Xalq milliy musiqa asboblari — do‘mbira, chak-chak, zilcha, qo‘biz, tanbur, doira, ushpuloq, sibiziq, nay, g‘ijjakkalardan foydalanishganligi ham ijro salohiyatining oshishiga yordam bergan. Aytish o‘rinliki, folklor ansambllarining nufuzini oshirishda, o‘zi yashayotgan hududining kiyimlari, zeb-u ziynatlaridan foydalanish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada „Boysun“ ansamblining kiyimlari ham shu

hududga mos va xosligidan, qadimiyligidan darak beradi. Bu ko'rinish ham tog'liklarning etnografik tarixidan dalolatdir.

Darhaqiqat, birgina Boysunning o'zida 20 xildan ortiqroq do'ppi mavjud (ba'zida do'ppi „kalapo'sh“ ham deyiladi). Masalan, lolagul, to'ldirma shular jumlasidandir. Ularning har birida quyoshning ramziy ma'nosi o'z aksini topgan.

Ayollar jelak, karkasli ro'mol o'rashadi. Bu ro'molni atosan o'zbeklarning „Qo'ng'iro't“ urug'iga mansub ayollar o'rashgan. Ijrochi 16 xil ro'molning barchasini bir yo'la o'rab chiqqanida kamalak jilosi hosil bo'ladi. Bundan tashqari, ayollar jiyakli ko'ylak, yo'l-yo'l chopon kiyadilar. Qizlarning ko'ylagi deyarli qizil, pushti, sariq, to'q qizil matolardan tikiladi. Chunki, qizlar kiygan ko'ylak lolaning uforini namoyon etishi kerak. Kelinchaklar oq g'ijim ro'mol yoki qizil shoyi ro'mol o'rashadi. Bu liboslar, albatta, o'tkazilayotgan marosimga, aytilayotgan qo'shiqqa, ijro etilayotgan raqsga monand ravishda kiyiladi. Shu liboslarga moslashtirilgan holda turli xil taqinchoqlar taqiladi. Masalan, tillaqosh, buloqi, haykal, chordon, turli shakldagi qimmatbaho toshlar va zanjirlar taqiladi. Qiz-juvonlarni yanada ko'rkamroq ko'rsatish uchun sochlariga turli shakldagi sochpopuk, jamalaklar taqiladi. Ko'proq, boysunliklarning o'zlari jamalakning turli xillarini qora ipdan o'rishadi. Bu xususiyatlar jamoagagina tegishli bo'lishidan tashqari, mazkur kiyim-kechak, zebigardon, sochpopuklar yerli xalqning milliy iftixori ham hisoblanadi.

„Boysun“ ijrochilarining tashqi ko'rinishlaridagi bu o'ziga xoslik ma'naviy dunyosinigina boyitib qolmay, balki tomo-shabinni qadimiy urf-odat, marosim va an'analarga bo'lgan hurmat, e'tiborini yanada oshirishda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Dasturining mavzuiy yo'nalishi ham ansamblning o'ziga xosligini ko'rsatib turadi. Har bir qo'shiq, raqs, sahna ko'rinishlari, kundalik turmushning u yoki bu tomonlari san'at tili bilan ifodalanadi. Masalan, qadimdan xalq sayllari jarchilarning chorlov-chaqirig'i bilan boshlangan. Bu ko'rinish „Boysun“ ansambli ijrochilarining badiiy mahorat bilan ijro etilishi orqali namoyish etilmoqda.

Erta bahorda boychechaklar bodrab chiqadi. Yilning birinchi kuni odamlar boychechakni omonlik ramzi deb, ko'zlariga surtib, yangi yil bilan bir-birlarini tabriklab, omad

tilaydilar. „Navro‘z“ qo‘shig‘i xuddi ana shu munosabat bilan aytiladi. Qo‘shiqni jamoa qatnashchisi Davron Abduraimov o‘ziga xos badiiy mahorati bilan ijro etadi. Juma Safiyev tomonidan „Xo‘p mayda“ ashula va raqsi ijro etilganda o‘zbek dehqonining mehnat faoliyati yaqqol namoyon bo‘ladi. Yoki „Uljon“ nomli sahna ko‘rinishida kekxa cholning xohish-istaklari o‘g‘li bilan aytishuvida ifodalangan.

Yog‘ingarchilik bu — rizq-ro‘z. Shu bois yomg‘ir qancha ko‘p yo‘g‘sa, o‘t-o‘lanlar serob bo‘lib, chorvachilikning rivojiga ham katta ta‘sir ko‘rsatadi, bu barchaga ma‘lum. Qadimda tog‘li xalqlar kutilgan paytda yomg‘ir yog‘masa yoki qurg‘oqchilik uzoq davom etsa Allohdan yomg‘ir yog‘dirishni so‘raganlar.

„Boysun“ ijodkorlari doim izlanishda. Umid Turopov ijrosida aytiladigan tog‘da o‘sadigan o‘simlikni madh etuvchi „Lolajon“, „Lolachaga ishim bor“ qo‘shiqlari zahirida so‘z o‘yini yotadi. Ya‘ni Lola— gul, Lola— qiz bolaning ismi.

Sayyora Qosimova aytadigan „Oshpaz qo‘shig‘i“da oshpaz ayol va dehqonlarning hazil-u mutoyibasi orqali yerni haydash, don sepish jarayonlari tasvirlanadi.

„Yorg‘inchoq“ qo‘shig‘i esa Sayyora Qoziyeva ijrosida maromiga yetkazib ijro etilgan. Hozirda Sayyora Qoziyeva havaskorlikdan professional darajasiga ko‘tarildi. „Boysun“ ansamblida faoliyat ko‘rsatib, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist unvoniga sazovor bo‘ldi.

Ansambl dasturidan joy olgan „Ko‘k salla“ kuyi mazmunida tabiatdan ochiq havo so‘raladi, qo‘shiq, kuy usullari raqs harakatlariga mos tushganligi uchun kishini o‘ziga oshno etadi.

„Havor“ dehqon qo‘shig‘i sirasidan bo‘lib, u daladagi hosilni yig‘ib bo‘lingandan so‘ng, eshak va ho‘kizlarga yuklanib, yashash joylariga olib kelingan. Mazkur qo‘shiq yo‘lda kelinayotganda Yaratgandan hayvonlarning oyoqlariga quvvat berishni tilab aytilgan.

„Yangajon“ — novvoy qo‘shig‘i hisoblanib, yanga bilan qaynog‘a o‘rtasida aytiladigan hazil-mutoyiba, xushchaq-chaqlikni, nonning bir necha turlarini sanab o‘tish orqali ijro etiladi. „Yaqqu-yaq“, „Ufu-jaqala“ deya yakuniy qo‘shiqlarga xos tarzda ko‘tarinki ruhda, bayramona kayfiyat bilan kuylanadi. Qo‘shiq matni termalardan iborat bo‘lib, bayram va marosimlarning yakunlarida aytiladigan sho‘x, ommaviy

qo'shiqlar sirasiga kiradi. Qo'shiq musiqa cholg'ulari, chapak adollari jo'rligida ansambl bo'lib kuylash va ommaviy raqs orqali ijro etiladi. Umuman ansamblning har bir qo'shig'i, har bir raqsi ohanglar jo'rligida mukammal bir badiiy asar sifatida ijro etiladi. Ansambl ijrochilari Surxon vohasining udum, urf-odat, marosim va an'analari va klassik merosining chinakam taq'ibotchilari va bilimdonlari hisoblanadilar.

Ayniqsa, ansambl tashabbuskori Abduxoliq Xursandovning nomini alohida ta'kidlash joiz. Chunki, u o'z yurti udumlarining bilimdoni, xalq ijodiyoti san'atining haqiqiy jonkuyarlaridandir. Shu kunga qadar respublikada xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Abduxoliq Xursandovning bevosita rahbarligida 200 dan ziyod xalq qo'shiqlari qayta tiklandi va xalqimiz e'tiboriga havola etildi.

Shuningdek, ansamblning faol, iqtidorli qatnashchilari Chorshanba Boboqulov, Sayyora Qosimova, Juma Safiyev, To'liqin Abdurahmonov, Sayyora Qoziyeva, Salom Rahmonov, Umid Turolov, To'ra Dolxonov, Hamro Haydarov, Ismoil Jumayev, Davron va Bahriddin Qurbonov, Naim Oripov, Rizqi Ravshanov va boshqalarning sa'yi harakatlari bois „Boysun“ boshqa ansamblar orasidan o'zining munosib o'rnini topa oldi.

Boysun tumanida har uch oilaning biri san'atkor hisoblanadi. Xalq san'atini sevis, uni asrab-avaylab to'raligicha saqlagan holda o'z vorislariga yetkazish, o'z elining fidoyilariga nasib etsin!

„Boysun“ qo'shiqlari shaloladay tiniqligicha, tog'larday mag'rur va purviqorligicha, chashma suviday jo'shqinligicha, odamlariday sodda va samimiyligicha xalq qalbidan yanada chuqurroq joy olsin, deymiz.

„BOYSUN“ XALQ FOLKLOR-ETNOGRAFIK ANSAMBLI IJODIDAN NAMUNALAR

Ushbu dasturda asrlar osha meros bo'lib kelayotgan urf-odatlar va inson mehnati bilan bog'liq marosimlarni madh qilish maqsad qilib olingan.

Dastur ma'no va mazmun jihatdan ikki qismga bo'linadi. Birinchi qismi dehqon mehnati bilan bog'liq marosim ko'rinishini ifodalasa, ikkinchi qismi dehqon hosilni yig'ib-terib

olgach, kundalik hayotda uchraydigan sayillar, kechki „Gap-gashtak“ — o‘tirishlarda aytiladigan xalq yaratgan qo‘shiq va raqslardan iborat.

Chorlov

Hamma xalq sayillari va yig‘inlari jarchilarning chorlov-chaqirig‘i bilan boshlangan. Xalqimiz odatiga ko‘ra, odamlarni sayilga chaqirish „Chorlov“ deb atalgan. Chorlovchilar doira ohangida xalqqa quyidagicha murojaat qilganlar:

- Bor ho,
- Kel ho,
- Hamalam ho.
- Yo‘l qo‘yda?
- Tezda chopib kel!
- Yo‘lni topib kel!
- Otang bilmasin!
- Onang bilmasin!
- Akang bilmasin!
- Ukang bilmasin!
- Singling bilmasin!
- Opang bilmasin!
- O‘ynagani kel!
- Quvongani kel!
- Sayilga kel ho-o-o-o!

„Navro‘z“ qo‘shig‘i

Boychechak chiqipti, bugun Navro‘z ekan,
Hamma biri biriga jigarso‘z ekan.
Olam ham barobar, kecha-kunduz ekan,
Boychechak chiqipti, bugun Navro‘z ekan.

Yangi yilingiz muborak bo‘lsin, hoy bobo!
Yangi yilingiz muborak bo‘lsin, hoy momo!
Yangi yilingiz muborak bo‘lsin, hoy Ona!
Boychechak chiqipti bugun Navro‘z ekan.

Hoy bog‘bon bobo, niholga bersin baraka!
Hoy dehqon bobo, dalangga bersin baraka!
Hoy cho‘pon bobo, qo‘rangga bersin baraka!
Boychechak chiqipti, bugun Navro‘z ekan.

„Suz xotin“ (*Sust xotin yoki suv xotin*)

Suz xotin, suzma xotin!
Ko'lankasi maydon xotin!
Yomg'ir yog'dir, ho'l bo'lsin,
Yer-u jahon ko'l bo'lsin,
Maysalar quloq yozsin,
Sut-u qatiq mo'l bo'lsin!
Yomg'ir yog'dir, ko'k bo'lsin,
Qurg'oqchilik yo'q bo'lsin!
Arpa, bug'doy bosh tortsin,
Kayvonilar osh tortsin!
Yomg'ir yog'dir ho'l bo'laylik,
Biz ham senga jo'r bo'laylik!
Ko'klamda o'ynab- kulib,
Ham sho'x-u, ham zo'r bo'laylik!
Yomqir yog'di ho'l bo'ldi,
Yer-u jahon ko'l bo'ldi,
Shaftolilar barg yozdi,
Dunyo to'la gul bo'ldi.
Suz xotin, suzma xotin,
Ko'lankasi maydon xotin!

Lola sayli (*Lolajon*)

Lola, lola, lolajon,
O'sar joying dalada,
Lola, lola, lolajon,
Chidadingmi jalaga?!
Jala yog'sa qo'rqmagin,
Sellar oqsa qo'rqmagin,
Chiroyni ochay deb,
Qizlar taqsa qo'rqmagin!
Sayilimiz sho'x bo'lsin,
Dard-u alam yo'q bo'lsin.
Sen qip-qizil yashnagin,
Oq ko'ngillar to'q bo'lsin.
Yur saylga boraylik,
Lolalarni ko'raylik,
Quchog'imiz to'ldirib,

Lola gullar teraylik!
Yerning qoni lolajon,
Yerning joni lolajon,
Lola sayliga kelib,
Ko'rdik seni lolajon!

Hey lola!

Lolachaga ishim bor, hey lola!
Kissamda kishmishim bor, hey lola!
Kishmish bo'lsa mayliga, hey lola!
Qiz bolada ishim bor, hey lola!
Tom ustida piyola, hey lola!
Ichi to'la gul lola, hey lola!
Nari turing bo'z bola, hey lola!
Uyaladi qiz bola, hey lola!
Tom ustida nelar bor, hey bola?
O'rdak bilan g'ozlar bor, hey lola!
O'rdak ketsin, g'oz qolsin, hey lola!
Dushman o'lsin, do'st qolsin, hey lola!
Yugur-yugur man turay, hey lola!
Boshimni gulga o'ray, hey lola!
Senga kelgan baloga, hey lola!
O'zim ko'ndalang bo'lay, hey lola!

Ho zan-zan

O zan-zan, e zan-zan, qizlar kelodi zan-zan,
Ro'molini yelpitib, jonon kelodi, zan-zan.
Aka, aka, akajon, dorga chiqqim kelodi,
Osmondagi yulduzni, qo'lga olgim kelodi.
O'smani sarolatay, qoshingni qarolatay,
Atlas ko'ylak kiygizib, Boysunni oralatay.
Yorim keldi xushlab, zar kokilini tashlab,
Nozik belini ushlab, shakar labini tishlab.
O zan-zan, e zan-zan, qizlar kelodi zan-zan,
Ro'molini yelpitib, jonon kelodi zan-zan.

„Ololmaysan-a shuginaniya“

<i>Hamma:</i>	Kim oldi-ya, shuginani-ya?
<i>1- raqschi:</i>	Men olaman, shuginani-ya!
<i>Hamma:</i>	Botir bo'lsang, o'zingni ko'rsat!

Shotir bo'lsangga, o'zingni ko'rsat!
G'ajir bo'lsang-a, o'zingni ko'rsat!
Epchil bo'lsang-a, o'zingni ko'rsat!

Ola olmaydi

Hamma: Ololmaysan-a, shuginani-ya!
2 raqschi: Men olaman-a, shuginani-ya!
Hamma: Ololmasang-a, bodi deymiz-a,
Shuni ololmay, qochdi deymiz-a,
Ololmasang-a, bodi bo'lasan.
Qulog'i shalpar, shalpar shodi bo'lasan.

Ololmaydi

1 raqschi: Men olaman-a, shuginani-ya!
Ololaman-a shuginani-ya!
Hamma: Ololmaysan-a shuginani-ya!
Botir bo'lsang-a o'zingni ko'rsat!
Epchil bo'lsang-a o'zingni ko'rsat!
1 raqschi: Mana oldim-a shuginani-ya,
Ololdim-a shuginani-ya.

„Aylansin“

Aylansin yor aylansin,
Qoshlari qaro aylansin.
Shaftolizor ichida,
Bodomqovoq aylansin.
Yaqu, yaqu, yaqu, yaq,
Yaqu, yaqu, yaqu, yaq.
Devor ustiga devor,
Devona bo'lsin akang.
Boshingda Balxi ro'mol,
Ishqingda o'lsin akang.
Yaqu, yaqu, yaqu, yaq,
Yaqu, yaqu, yaqu, yaq.
Tog'lar boshi nurama,
Kiyik shoxi burama.
Boy qizini bermasa,
Boyni balo urama!
Yaqu, yaqu, yaqu, yaq,
Yaqu, yaqu, yaqu, yaq.

Halinchak

Halinchak, ho, halinchak,
Halinchakda kelinchak.
Saltligini sog'ingan,
Kelinchaklar kuyinchak.

Halinchak, ho, halinchak,
Uchavergin kelinchak.
Ko'zga surma yarashar,
Qo'sh chekkaga qo'sh chechak.

Boyga chopon bichdingmi?
Tushda ayron ichdingmi?
Boyni qo'yga jo'natib,
Halinchakda uchdingmi?

Kelinchak, ho, kelinchak,
Uyqung buzsini, „inga“lar.
Ertam-u kech belanchak,
Olib kelsin yangalar.
Halinchak, ho, halinchak,
Halinchakda kelinchak.

Shoxmoylar

Qo'shga ildim yurmasang,
Uchangga turtib qo'yaman.
Yaxshi yursang shoxingga,
Moylar surtib qo'yaman.

Shoxlaring bor shomiyn,
Ko'zlaring bor oynaday.
Sendan bo'lgan bolalar,
To'ti bilan maynaday.

Qo'shni tortgin jonivor!
Tumor taqay shoxingga.
Saratonda ishlagin,
Somon qolar haqqingga.

Qo'shga qo'shdim qo'sh ho'kiz,
Ikkisi ham ish ho'kiz.

O'z ishingni tindirib,
Hovuringdan tush ho'kiz.

Qora molim qobilim,
Qora yerni qoq yorgan.
Mehnatining zo'ridan,
Tepasidan shox yorgan.

O'roqchilar qo'shig'i

Yaqani dasta boyla-yo!
Dastani asta boyla-yo!

Tokchaga qo'y tarog'ing,
Qo'lga olgin qayrog'ing.
Arpa, bug'doy pishibdi-ya,
Charxlab chiqqin o'rog'ing.

Yaqani dasta boyla-yo!
Dastani asta boyla-yo!

O'roqchilar hormasin,
G'alla isrof bo'lmasin.
Qizlardan xabar oling-a,
Nozik beli tolmasin.

Yaqani dasta boyla-yo!
Dastani asta boyla-yo!

O'roqchilar bor bo'lsin!
Baxil nonga zor bo'lsin!
G'ayrat qiling jo'ralar,
Bobodehqon bor bo'lsin!

Yaqani dasta boyla-yo!
Dastani asta boyla-yo!

Bog'lab bosing chanaga,
Qoldirmangiz dalaga.
Somonni bos qo'raga-ya,
Donini to'k o'raga.

Yaqani dasta boyla-yo!
Dastani asta boyla-yo!

Ha, do'rsi

Ha do'rsi, do'rsi, do'rsi-ya,
O'yna, bo'yingni ko'rsin.
Ha, do'rsi, do'rsi, do'rsi-ya,
Aylan belingni ko'rsin.

Qora uzum qorasiday,
Ko'zlaringdan aylanay.
Qizil uzum qiziliday,
Lablaringdan o'rgilay.

Zangi tokning tolasiday,
Bellaringdan aylanay.
Yangi tokning novdasiday,
Qo'llaringdan aylanay.

Do'rsi, do'rsi degan bilan,
Uzum shinni bo'lmaydi.
Shinni, shinni degan bilan,
Og'iz chuchuk bo'lmaydi.

Do'rsi qilib ajrataylik,
Uzumning sharbatini.
Parilarga mengzataylik,
Shu qizning kelbatini.

Yangajon (novvoy qo'shig'i)

Yigit: — Andiringdan yangajon,
Mandiringdan yangajon.
Kulga yopib non yegan-o,
Tandiringdan yangajon.

Yanga: — Andirimmi qaynog'a?
Mandirimmi qaynog'a?
Kulga yopib non yegan,
Tandirimmi qaynog'a?

Yigit: — Qatlama, patir, chapati, changir,
Gajda-yu, mujda-yu, ko'mma-yu, qatir.
Pishir, pishir, yanga non,
Pishir, pishir ko'pgan non.

Undan-da o'tgin yangajon,
Bundan-da o'tgin yangajon,
Orqasini oldirmay,
Nonni yopgin yangajon!

Yanga: — Undan-da o'ting qaynog'a!
Mundan-da o'ting qaynog'a!
Suvga nonni ivitib,
To'yib yuting qaynog'a!

Yigit: — Tandiringni to'basi,
Jebalagan jebasi.
Xamiringni ko'tarsin,
Singlisi yo opasi.
Andiringdan yangajon,
Mandiringdan yangajon.
Kulga yopib non yegan,
Tandiringdan yangajon.

Ulijon

<i>O'g'il</i>	— Har kun kelaymu dadajon?
<i>Ota</i>	— Yo'q, yo'q.
<i>O'g'il</i>	— Palov qilaymu dadajon?
<i>Ota</i>	— Yo'q, yo'q.
<i>O'g'il</i>	— Choyni damlaymu dadajon?
<i>Ota</i>	— Yo'q, yo'q.
<i>O'g'il</i>	— O'choq osaymu dadajon?
<i>Ota</i>	— Yo'q, yo'q.
<i>Ota</i>	— Atrofga qara ulijon!
<i>O'g'il</i>	— Ho'p, ho'p.
<i>Ota</i>	— Aftimga qara ulijon!
<i>O'g'il</i>	— Xo'p, xo'p.
<i>Ota</i>	— Dardimni aytay desam, Andisha bor, ko'nglimdan so'ra ulijon!
<i>O'g'il</i>	— Qo'yni so'yaymu dadajon?
<i>Ota</i>	— Yo'q, yo'q.
<i>O'g'il</i>	— Ilik qoqaymu dadajon?
<i>Ota</i>	— Yo'q, yo'q.
<i>O'g'il</i>	— Ko'rpa to'shaymu dadajon?
<i>Ota</i>	— Yo'q, yo'q.

O'g'il — Yostiq qo'yaymu dadajon?
Ota — Yo'q, yo'q.
Ota — Aftimga qara ulijon!
O'g'il — Ho'p, ho'p.
Ota — Yoqamga qara ulijon!
O'g'il — Ho'p, ho'p.
Ota — Taxmonga qara ulijon!
— Chakmonga qara ulijon!
O'g'il — Ho'p, ho'p.
— Suvlar sepaymu dadajon?
Ota — Yo'q, yo'q.
O'g'il — To'ngak chopaymu dadajon?
Ota — Yo'q, yo'q.
O'g'il — Joylar solaymu dadajon?
— Kampir topaymu dadajon?
Ota — Ha, ha!
O'g'il — Dadajon qarang-qarang,
Shu qizgina barno ekan.
Qomati halim joni,
Ko'zginasi shahlo ekan.
O'g'il — Sovchi bo'lay, asta so'ray,
Rozi bo'lsa, olib beray?
Singiljon qarang-qarang!
Dadam hali qari emas,
Abroil nurin kutar.
Berisi ko'p, nari emas.
O'ylab ko'ring, sinab ko'ring!
Yoqsa agar rozi bo'ling!
Singil — Akajon qarang-qarang!
Dadangiz qari ekan.
Og'zida bir tishi yo'q,
Beri emas, nari ekan.
Nari turing, tayyor bo'ling!
Azroildan hushyor bo'ling!
Ota — Ulijon qara-qara!
Bu juvonmarg asov ekan.
Uylansam o'ldiradi,
Xotin emas, qassob ekan.
Buni yo'qot, mollarni sot!
Boshqani top, og'zingni yop!

- O'g'il* — Dadajon qarang-qarang!
 Momoginam jonon ekan.
 Labidan bol tomadi,
 Har bir so'zi dono ekan.
 Sovchi bo'lay, asta so'ray,
 Rozi bo'lsa, olib beray?
- O'g'il* — Momojon qarang-qarang!
 Dadaginam qari emas.
 Rozi bo'ling to'ylar qilay,
 Berisi ko'p, nari emas.
 O'ylab ko'ring, sinab ko'ring,
 Yoqsa agar, rozi bo'ling.
- Momo* — Ulijon qarang-qarang!
 Dadangiz qari emas.
 Yuzidan nur yog'ilar,
 Berisi ko'p, nari emas.
 O'ylab ko'rdim, sinab ko'rdim,
 Dadangizga rozi bo'ldim.
- Ota* — Ulijon qara-qara!
 Momoginang pari ekan.
 Farishta misol ekan,
 Xotinlarning zo'ri ekan.
 Balli ulim, qo'ylarni so'y!
 O'choqni yoq, qozonni os!
 Balli ulim, suvlarni sep!
 Joylarni sol, to'yni boshla!
- O'g'il* — Ho'p, ho'p, ho'p, ho'p!

Do'ppi

Iroqi do'ppi tikmanglar,
 Yiroqqa ketar yigitlar.
 Bodom do'ppi tikinglar,
 Bog'da yursin yigitlar.

Boqqa kirsam boqadi,
 Bulbul qanot qoqadi.
 Bo'yginangga tasadduq,
 Yurakka o't yoqadi.

Yorim tikkan do'ppisi,
Shaftoli shoxida qoldi.
Chin so'zni bering yorim,
Ko'ngil orada qoldi.

Qiz kokili belida,
Ko'zlar mushtoq yo'lida.
Chevarlikda tengi yo'q,
Ardoq topgan elida.

Iroqi do'ppi tikmanglar,
Yiroqqa ketar yigitlar.
Bodom do'ppi tikinglar,
Bog'da yursin yigitlar.

Vaq-vaq to'ram

Vaq-vaq to'ram bosmang jamolakimni,
Bekora bosasiz zar jamolakimni.
Vaq-vaq dedim tortdim jamolakingni,
Bekora tortmadim zar kokilingni.

Qiz degani buncha nozik bo'lama?
Bir boqishi olti oy oziq bo'lama?
Bir boqishi olti oy oziq bo'lganda,
Suyib osangiz ko'ngli yoziq bo'lami?

Erta bilan mol haydadim dalaga,
Otini aytsam chiqarmikin dalaga?
Otini aytsam chiqmasa gar dalaga,
Borib ayting o'shal nodon bolaga:

Vaq-vaq to'ram bosmang jamolakimni,
Bekora bosasiz zar jamolakimni.

„CHAVQI“ XALQ FOLKLOR-ETNOGRAFIK ANSAMBLI

Bulung'ur tumani markaziy madaniyat uyi qoshida „Chavqi“ folklor-etnografik xalq ansambli tashkil qilindi. „Chavqi“ asli kechasi o'ynaladigan o'yinlardan hisoblangan. Bu o'yin Samarqand viloyatining Bulung'ur, Oqdaryo, Poyariq tumanlarida, Jizzax viloyatining G'allaorol, Baxmal, Zomin tumanlarida yashaydigan aholi o'rtasida keng tarqalgan.

„Chavqi“ o‘ziga xos ko‘ngilyozar etnografik udum bo‘lib, u xilma-xil qo‘shiqqlar, jozibali, serjilo o‘yinlarni o‘z ichiga oladi. U to‘y-tomoshalarda ijro etiladigan o‘yin bo‘lib, ayniqsa, sunnat to‘ylari „Chavqi“ o‘yinisiz o‘tmagan. To‘yga alohida tayyorgarlik ko‘rib, qurigan daraxt g‘o‘lalarini kesib, o‘tin qilingan va tomosha boshlanishidan oldin, olov yoqilgan. Alanga shu‘lasida „Chavqi“ da ishtirok etuvchilar jam bo‘lishgan. To‘yning avj pallasi „Chavqi“ tomoshasi hisoblangan. „Qirq shodi“ qishlog‘idagilar bu bazmni „Chavqi“ deb ataganlar. „Chavqi“ning boshqa xil folklor namunalaridan farqi shundaki, ijroda musiqa asboblari foydalanilmaydi. Qo‘shiq qarsak ohangi orqali boshqariladi.

„Besh qarsak“ O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan, o‘zbeklar orasida keng tarqalgan qadimiy davra o‘yini. Beshqarsak chalinib, o‘yin ritmi hosil qilinadi. Davradagilar so‘zsiz tovush chiqarish orqali, qarsak ohangiga jo‘r bo‘lishadi. Davraga o‘yinchisi tushadi. O‘yinchisi besh-o‘n daqiqa o‘ynab, so‘ngra qo‘lini yerga tekkizmay turib, davraning o‘rtasiga qo‘yilgan nosqovoqni tishida tishlab olib, o‘z san‘atini namoyish qiladi. Talqinchi (baytchi) qarsak ohangiga ashula boshlaydi. Ashula matni xalq termalari asosida tuzilgan bo‘lib, unda xalq qahramonligi, yurtning ozodligi va boyligi kuylanadi, shu bilan birga ba‘zi nuqsonlar tanqid qilinadi. Masalan:

Bundan bordim Chiroqchiga,
Yakkabog‘-u, Qamashiga.
Dala to‘la qo‘y-echkiga,
Chorvaning konini ko‘rdim,
Cho‘ponning zo‘rini ko‘rdim.

Talqinchi o‘z ashulasini tugatishi bilan davradagilar 10 daqiqa „Xum yaxala, xum yaxa“ deb qarsak chaladilar. So‘ngra talqinchi o‘yinchiga qarab, „Ololmaysan“ deydi, o‘yinchisi: „Olarman-ey“ deb shu kuyi 10—14 marta takrorlagach, nosqovoqni tishi bilan oladi va o‘yin tugaydi. Talqinchi boshqacha ritm bilan yana ashula boshlaydi, davraga boshqa o‘yinchisi tushadi. O‘yin ikki-uch soat davom etadi. „Beshqarsak“ Samarqand, Buxoro, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatining to‘y va sayllarida hozir ham o‘tkaziladi. Shularni eshitib, ko‘rib, guvohi bo‘lar ekanmiz, o‘zbek xalq og‘zaki ijodining qamrovi naqadar ulkan ekanligiga, uning xazinasi qanchalar boyligi va ayni choqda, go‘zal va nafisligiga qoyil qolmay ilojimiz yo‘q. Bu bebaho xazina madaniy-ma‘rifiy ishlarimizda qanchalik foyda

berishini, kishilarimizning ma'naviy boyligiga boylik qo'shishga nechog'lik boy manba bo'la olishiga yana bir karra imonimiz komil bo'ladi. Madaniy-ma'rifiy ishlarida xalq badiiy adabiyoti, san'ati qatorida og'zaki ijod namunalaridan ham qanchalik ko'p va o'rinli, maqsadli va oqilona qo'llana bilsak, amalga oshirayotgan tadbirlarimizning mazmuni shunchalar chuqurlashadi, shaklan rang-barang, ta'sirchan, jozibador bo'ladi.

Qadimda bu o'yin kechki paytda qishloq yigitlari tomonidan yerto'lalarda tosh chiroqning xira shu'lasida o'ynalgan. O'yin yigitlarning yuzma-yuz turib aytishuvidan boshlangan. Davrada baytchi, laparchi, askiyachi va qiziqchilar qatnashib, o'yin zehn zakiyligi musobaqasi tarzida davom etgan.

O'yin qarsak uslubida boshqarilib, u bir-biriga yakkaqarsak, beshqarsak, to'qqizqarsak, o'n, o'n birqarsak tarzida namoyish etilgan. O'yinda ijro etilgan baytlar o'ynoqi, hazil-mutoyiba tarzida bo'lib, tomoshabinlar uni qarsaklar bilan olqishlab turgan. „Chavqi“ o'z davrining milliy san'atini namoyish etish vositasi hisoblanib, xalqimizning folklor san'atiga bo'lgan talab va ehtiyojini ma'lum darajada qondirgan. „Chavqi“ o'yini to'ylardan tashqari „Navro'z“ va „Hosil“ bayramlarida ijro etib kelingan.

Darhaqiqat, „Chavqi“ qadimiy „Beshqarsak“ni butun ko'rinishi va nafosati bilan sahnaga olib chiqqan olgan, uni zo'r mahorat bilan ijro etib, tomoshabinlarni qoyil qoldira olgan folklor-etnografik ansambllarining qaldirg'ochidir.

Bulung'ur tuman markaziy madaniyat uyi xalq teatrining rejissori Suvonqur Abduqodirov ko'pdan beri qadimiy qo'shiqlar, laparlar, raqslar, xususan, „Beshqarsak“ o'yinlarini o'rganish, sahnaga olib chiqish, qisqasi, keksa otaxonlar, onaxonlar hali ham xotiralarida saqlab kelayotgan folklor namunalarini to'plab, shu qariyalarning o'zlari ishtirokida folklor-etnografik ansambli tuzish orzusida edi. Bir kuni u shifoxonada davolanayotgan qarindoshining holidan xabar olish uchun keladi. Shu payt ikki-uch samarqandlik qariyalarning qadimgi „Chavqi“ o'yini xususida tortishayotganlari ustidan chiqib qoladi. Qadimda ota-bobolarimizning „Chavqi“ o'yini bo'lar edi, — deya hikoya qilardi, shifoxonada yotgan xasta otaxonlardan biri. Bu o'yinda o'rta gulxan yoqilib, uning atrofida qadimiy termalar, laparlar aytilar, aytishuvlar qilinar, raqs, o'yinga tushilar edi. Hozir ham shu o'yinni biladigan va bajara oladigan qariyalar qishloqlarda, ayniqsa, tog'liklar orasida ko'p.

Buni eshitib, Suvonqulning chehrasida allaqanday xursandchilik alomatlari paydo bo'ldi. U go'yo bir zumda butun orzusiga erishgandek bo'ldi. Suvonqul Abduqodirov shosha-pisha otaxonga savollar bera boshladi. O'zini Abdulla Toshimov deb tanishtirgan bu kishi „Chavqi“ o'yinining o'ziga xos qirralari, nafosati haqida maroq bilan hikoya qilib berdi. U so'zining oxirida bu o'yinni biladigan 10—12 kishining ismi, familiyasini, qayerda turishini va ular bilan qanday muomalada bo'lishligini ham aytib beradi. Shunda Suvonqul Abduqodirovni ko'p yillardan buyon qiynab kelayotgan armoni ro'yobga chiqqandek bo'ldi. U folklor-etnografik ansambl tashkil etish borasidagi orzu-niyatlarini o'rtaga to'kib soldi. O'tirganlarda jonlanish paydo bo'ldi va uni ma'qullashdi. Shunda ulardan biri:

— Jahonga mashhur ajoyib baxshi Fozil Yo'ldosh o'g'li yashab o'tgan bu elda xalq qo'shiq, raqslarini ijro etadigan folklor-etnografik ansambl tashkil qilinishi kerak. Bordi-yu ishni amalga oshirishga kirishilsa, qo'llarini qovushtirib turmasliklarini, imkoniyati boricha yordam berishlarini aytdi. Bu fikrni hamma o'tirganlar ma'qulladilar.

— Axir bolam, bulung'urliklar tomirida Fozil boboday zabardast xalq shoirining qoni jo'shib, oqadi-ya. Shuning uchun aytilgan ansamblning tuzilmasligi ham uyat. Kimda-kim bunday qiyin yumushga qo'lini ursa, xayrli ish qilgan bo'ladi, — deb luqma tashlaydi boshqa birov.

Bu suhbatdan keyin, oradan oylar o'tib, bir kuni Gubdintog' etagidagi sayhonlik qo'ynidan, zabardast Fozil shoirning ovozi uzilib qolgan joyidan qo'shiq yangraydi. O'rtada (maydonda) davra, unda bir guruh yosh-qari erkaklar goh birgalikda, goh birlari kuy chalib, ikkinchilari qo'shiq aytishadi, laparlar kuylashadi. Qarsakka-qarsak ulanib, o'rtada yuz maqom-u xirom aylab yigitlar yigitchasiga raqsga tushmoqdalar. Xullas, hamma yoqni qo'shiqlar, o'zgacha raqs ohanglari, o'yinlari bosib ketgan. Qo'shiq, kuy, raqs avjiga mindi. Keng maydonga minglab yosh-u qari, erkag-u ayol to'ldi.

1980- yillarga kelib Suvonqul Abduqodirov rahbarligida „Chavqi“ folklor-etnografik ansambli tashkil etildi. Ansamblga o'sha davrda „Chavqi“ o'yinini ko'rgan, bilgan va o'zlari ishtirok etgan kishilar taklif etildi.

Ansamblning repertuarida asosan xalq termalari, laparlari va qo'shiqlari mavjud bo'lib, qarsak bilan ijro etiladi. To'p-

langan 500 ga yaqin terma va laparlar g'oyaviy mazmuniga qarab bir necha badiiy turkumlarga ajratildi. Ona Vatan, sevgi-muhabbat, sadoqat va mehr, do'stlik va tinchlik kabi mavzulardagi qo'shiqlar, hazil-mutoyiba, satira va yumorlar ansambl ijro usullari bilan o'z jilosini topdi.

„Chavqi“ repertuarida ikki yuzga yaqin rang-barang mavzulardagi xalq qo'shiq to'rtliklari, laparlari, termalari, shuningdek kuylar va raqslar mavjud. Ansambl repertuari boshdan-oyoq ana shu folklor namunalari asosiga qurilgan bo'lib, ular ijtimoiy, siyosiy yo'nalishi, lirikaga moyilligi, hazil-mutoyiba ruhi bilan yo'g'rilgani, hayotiy, falsafiy, ma'naviy-axloqiylik jihatdan ko'zga tashlanadi. Ularda yerli xalqqa oid soddalik, go'zallik, odamiylik, burch, e'tiqod ulug'langani holda, hayotda, turmushda, kishilar orasida uchraydigan nohaqliklar, yetishmovchiliklar, kamchiliklar, nuqsonlar tanqid ostiga olinadi:

Yulg'ichlarni netamiz?

Tanqid qilib o'tamiz.

Pora olib boy bo'lgan,

Tekinxo'rlar betamiz.

Yana bir misol:

Bog' aylana shaftoli,

Uchgan kimning kaptari?

Aytsam ado bo'lmaydi,

Dilginamning daftari va hokazo.

Shunday qilib, sho'x, quvnoq qo'shiqqa-qo'shiq, laparga-lapar, raqsga-raqs ulanib ketardi. Hasan bobo Qobilov, Eshonqul bobo Arslonov, Sharif bobo Mirzayev, Meliboy aka Rahimov, Ikkinchi jahon urushining II va III guruh nogironlari bo'lishlariga qaramay sahnada o'zlarini erkin, tetik va bardam tutardilar, har bir lapar, termalarni zo'r muvaffaqiyat bilan ijro etib, boshqalarga o'rnak bo'lardilar.

„Chavqi“ folklor-etnografik ansamblining sardori Suvonqul Abduqodirov, 1987-yilda „Yodgor“ bolalar folklor-etnografik ansamblini tashkil etishda jonbozlik ko'rsatdi. Bu haqda: „Jamoamizning maqsadi tarixiy jarayonlar va sobiq tuzum davrida yo'qolib ketgan qadriyat, udum va marosimlarni qidirib topib, tiklash, avlodlarga yetkazib abadiylashtirishdan iborat. Bu sharaflı ishni amalga oshirishda jamoa rahbari Suvonqul Abduqodirov hali juda ko'p ishlarni amalga oshiradi, deb

o'ylayman va unga bu sharaflı ishda oq yo'l tilayman!" degan edi, marhum Melivoy ota Rahimov. Ularnı Alloh o'z rahmatiga olgan bo'lsin!

Bulardan tashqari, Damin bobo To'ylovov, Mamarasul bobo Kulcherayev, Kungir bobo Normurodov, Mamatqul bobo Abdurahmonov, Ismat bobo Ermatov, Abdulla Toshimov, Abdulla Soatov, Urol Nurboyevlar esa mehnat faxriylari bo'lganlar. Shunga qaramay, ular ijrosidagi qo'shiq-raqslar ham juda maroqli, hayajonli, zavq-shavqli va jozibali bo'lib chiqardi.

Aytish o'rinliki, — degan edi, ansamblning badiiy rahbari Suvonqul Abduqodirov, — biz uchun boshqa folklor-etnografik ansambllaridagidek musiqa asboblari zarur emas. Chunki, qadim zamonlardan boshlab biz kuylab kelinayotgan qo'shiq-o'yinlar faqat qarsak bilan boshqarilgan. Har bir qo'shiq-laparning ohangiga moslab yakkaqarsak, uchqarsak, beshqarsak, yettiqarsak va to'qqizqarsakdan foydalanamiz. Qarsaklar bir-biridan chalinish uslubi bilan farqlanadi, albatta. Suvonqul Abduqodirovning bu so'zlaridan „Chavqi“ning repertuarini o'ziga xos tomonlari va originalligini anglab olish qiyin emas.

„Chavqi“ folklor-etnografik ansamblı repertuarida hududga xos xususiyatlarnı, milliy kalorit, mahalliy xalqning fe'l-atvori, yashash tarzi va dunyoqarashi, intilishi, orzu-istaklarini ifoda etuvchi turli janrlar o'z ifodasini topgan bo'lib, biri-ikkinchisiga hamohang va bir-birini mantiqan to'ldiradi. Buni jamoa ijro etgan „Mayda-yo, mayda“, „Taralli-xo“, „Aylanamiz yakdona“, „O'ynang yor, o'ynang“, „Sangina bola“, „Gullola“, „Yallama yorim“, „Sening qadring o'tdi“, „Ikkala marjoningday“, „Chamanda gul ochilibdi“, „Yakdona gul“, „Otam ishchi, onam ishchi“, „Sog'indim“ kabi termalar, laparlar, raqslar, dostonlar parchalaridan bilib olish mumkin. Darhaqiqat, Hasan bobo Qobilov ijrosidagi dutor kuylari, Qo'ng'ir bobo Normurodov, Xursand Boymonovlarning raqslari, uzoq yillar sevimli xalq dostonchi-shoiri Fozil Yo'ldosh o'g'li bilan birga ishlashgan keksa jurnalist Meliboy Rahimov ijrosidagi an'anaviy dostonlardan olingan ayrim parchalar qiziqarli va jozibali bo'lgan.

Fozil Yo'ldosh o'g'liday baxshilar sarkorini tarbiyalab yetishtirgan, uning qo'shiq-dostonlarini ko'p tinglab, bahosini bera olgan, xalq oldiga chiqish va unga manzur bo'la olarli faoliyat ko'rsatayotgan shuningdek, xalq istak-tilaklari, qalb nidosi,

dardini, ayni choqda kelajakka umidi, yaxshi kunlar orzusi ifodalangan folklor namunalari, unutilayozgan qo'shiqlar, laparlar, raqslarni qayta tiklab, ularni yana qayta qalblarga yetkazish borasida kuyib-pishayotgan „Chavqi“ ansambli jamiyat oldida juda katta ma'naviy-madaniy xizmatni o'tamoqda.

Ansambl 1986-yili Respublika Ilmiy-amaliy san'at konferensiyasida ishtirok etib, muvaffaqiyat qozondi. Keyinchalik viloyat va respublikada o'tkazilgan ko'rik-tanlov va festivallarda birinchi, ikkinchi o'rinni egalladi.

Shuningdek, ansambl 1987- yili Moskva shahrida o'tkazilgan O'zbekiston Madaniyati va san'ati kunlari festivalida, 1988- yili avgust oyida Moskvada bo'lib o'tgan Xalqaro folklor festivalida ishtirok etdi va shu yili „Xalq havaskorlik badiiy jamoasi“ unvoniga sazovor bo'ldi.

1999- yili Termiz shahrida „Alpomish“ dostonining 1000 yilligi tantanalarida qatnashib yanada ko'proq muxlislar orttirdi. 2002- yili „Boysun“ tumanida o'tkazilgan „Boysun bahori“ xalqaro festivalida faxrli o'rin olib, YUNESKO xalqaro tashkilotining maxsus sovrini va diplomi bilan taqdirlandi.

Hozirgi kunda jamoa repertuarida „Yil boshi“, „Poda to'p“, „Bozorlik“, „Sumalak“ kabi teatrlashtirilgan badiiy ko'rinishlarni sahnalashtirmoqda. Yangi-yangi xalq termalari va o'yin usullariga sayqal berib o'z dasturini boyitmoqda.

Hayotning shunday o'ziga xos ajib qonuniyatlari bor. Ya'ni, har bir yangilik, har bir xayrli ishning boshlanishi mushkul kechib, u qarshiliklarga uchraydi, to'siqlarga duch keladi. Yangilikni ko'ra olmaydigan, ko'rsa ham o'zini chetga oladigan kishilarning xatti-harakatlari tufayli ba'zi madaniy-ma'naviy dunyomizdagi yangiliklar tug'ilgan zahoti yo'q bo'ladi yoki yarim yo'lda qolib ketadi. Folklor-etnografik hamda oilaviy ansambllar harakati boshlangan paytlarda bunday hollar ko'p bo'ladi, hatto shu kunlarda bunga duch kelish mumkin. Shu bois folklor-etnografik yoxud oilaviy ansambl tuzmoqchi bo'lgan fidoyi kishilarning bu xayrli ishga qo'l urishlari bir joyda rahbarlar tomonidan qo'llab-quvvatlanib, ma'naviy rag'batlantirilib, hatto moddiy baza yaratib berilgan bo'lsa, boshqa joyda buning aksi yuz beradi. Biz folklor-etnografik ilmiy ekspeditsiyalar yoki shaxsiy xizmat safarida bo'lganimizda bunday ko'ngilsizliklarga ko'plab duch kelganmiz. Ya'ni, shunchalik ko'p badiiy havaskorlik ansambllari, uyushmalari faoliyat ko'rsatib turgan bir paytda, folklor-etnografik ansambllariga nima bor?“, „Zamo-

naviy musiqa, adabiyot va san'at, boshqacha so'z bilan aytganda amonaviy madaniyat shu darajada rivojlanib ketgan bir paytda folklor asosida ansambllar tuzishning kimga ham keragi bor?“, „Yoshini yashab, oshini oshab qolgan kekxa momolar, bobolarning sahnaga chiqib, o'yinga tushib, qo'shiq aytishlari kimga ham zavq berardi?“ deganlar ham topildi. Ammo vaqt o'tib, yangilik yengib chiqdi. Respublikamizda boshlangan folklor-etnografik hamda oilaviy ansambllar harakati har qanday qiyinchiliklar, to'siqlar, ta'na-dashnomlarga bardosh berib yengib, o'sib, kamol topa berdi, safarlari ko'payib yildan-yilga ko'ngayib bordi.

Mutaxassislar orasida har qanday ansambl nomlanishidan boshlanib, uning nomidan kelib chiqib yo'nalishi, repertuariga doir fikr yuritish mumkin, degan gap yuradi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, „Chavqi“ folklor-etnografik ansamblining nomlanishi ham, uning repertuari mazmuni va ijro usuli ham o'zaro mos tushgan deyish mumkin. „Chavqi“ning boshqa jamoalardan yana bir farqi shundaki, respublikamizdagi folklor-etnografik ansambllari tarkibi asosan ayollardan yoki ayol va erkaklardan tuzilgan bo'lsa, u ansambl faqat kekxa-yosh erkaklardan tashkil topgan. Shu bois uning repertuarini ko'proq erkaklar aytadigan qo'shiq, to'rtliklar, laparlar, shuningdek, raqslar tashkil etadi.

Ma'lumki, „Chavqi“ juda qadim zamonlardan beri yashab kelayotgan o'zbek xalq o'yinlaridan biri bo'lib, u Samarqandning Bulung'ur, Oqdaryo, Poyariq, Jonboy hamda Baxmal, Gallaorol, Zomin aholisi o'rtasida keng tarqalgan. Mazkur o'yin va uning tarkibidagi elementlar haqida maxsus ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilishi mumkin. Albatta, ansambl masasida gap yuritar ekanmiz, uning ijrosi bilan bog'liq ayrim o'rinlarga qisqacha to'xtalib o'tishni lozim topdik. Ma'lumki, „Chavqi“ murakkab, ko'p planli va beqiyos katta mehnat, topqirlik, ijodiy mushohada talab qiladigan xalq o'yinidir. Unda bir paytning o'zida sho'x kuy, jarangdor qo'shiq, shiddatkor ritm-harakat birlashib, ajib bir manzara hosil bo'ladi. O'yin boshlanishidan avval daraxt kundalarini, g'o'lalarni, balandroq, to'rinarliroq joyga qalashtirib qo'yiladi. So'ngra u yoqiladi va hosil bo'lgan katta gulxan atrofida kishilar davra qilib o'tirib, o'z am'atlarini namoyish qiladilar.

„Chavqi“ asosan, katta to'ylarda, marosimlarda, bayram sayllarida nihoyatda mas'uliyat, diqqat-e'tibor bilan ijro etilgan.

Ba'zi hollarda bir qishloq yigitlari qo'shni qishloq yigitlarini mehmonga chaqirib, zim-ziyo tun bag'rini yorib alangalangan gulxan atrofida bellashish uchun guruh-guruh bo'lib davraga tushganlar. „Chavqi“ avval kurash bilan boshlanib, so'ngra laparchilar, qiziqchilar va o'yinchilarning bellashuviga aylanib ketgan. O'yin qarsak bilan boshqarib borilgan. O'yinlar avjiga chiqqan paytida „yakkaqarsak“, „uchqarsakka“, „beshqarsak“ va „to'qqizqarsak“ o'yinlariga ulanib ketgan. Ba'zan erkaklar ayol kiyimini kiyib ham raqsga tushganlar. Baytchi va lapar aytuvchilar bellashuvida yutib chiqish, tomoshabinlar diqqatini o'zlariga jalb qilish uchun baytning o'ynoqi hajviy tomonlariga alohida e'tibor berganlar. Qishloqning yigit-u chollari qarsak ostida o'yinga tushishlari, ajib bir bayramona kayfiyatni yuzaga keltiradi.

„Chavqi“da qo'shiq, lapar, aytishuv, hatto raqsning tabiiyligi, soddaligi, hazil-mutoyibaga moyilligi, hazil-mutoyibaning goho qo'shiqqa aylanib, badihaviy holatlarda qalblardan qaynab-toshib chiqishi, sayilning yanada jozibali o'tishiga mazmun katta hissa qo'shadi. Bunday paytlarda tong yorishib ketganini hech kim sezmay qoladi.

„CHAVQI“ ANSAMBLI DASTURIDAN NAMUNALAR

„Chavqi“ ansamblining asosiy maqsadi unutilib borayotgan milliy o'yinlarimizni, xalq qo'shiqlari va laparlarini, termalarni qayta tiklashdan iborat.

„Chavqi“ ansamblining dasturida 30 dan ortiq qo'shiq va raqslar milliy-etnografik ijodiyotga asoslangan. Tiklanayotgan o'yin va qo'shiqlar quyidagi tartibda 6 guruhga bo'lib o'rganiladi:

1. Lapar turkumidagi o'yinlar.
2. Yakkaqarsak turkumidagi o'yinlar.
3. Qo'shqarsak turkumidagi o'yinlar.
4. Beshqarsak turkumidagi o'yinlar.
5. Xalq qo'shiqlari.
6. Dutor kuyiga solingan o'yinlar.

1. Lapar turkumiga kirgan o'yinlarda, lapar termalarini ijro etgan kishi, lapar mazmuniga xos harakatlarni o'zi bajarib borgan. Naqarot jamoa tomonidan umumiy qarsak jo'rligida ijro qilingan. Bu turkumdagi o'yinlarga: „Gul shaydo“,

„Chamanda gul“, „Gullola“, „Ikkala marjoning“, „Yorim uyg‘onsin“, „Chamannoringdan“ kabi laparlarni ko‘rsatish mumkin.

2. Yakkaqarsak turkumidagi o‘yinlarda qarsaklardagi pauza (oralik)lar teng bo‘lib, ritmda birxillik hosil qilinadi.

„Layli badaxshon“, „Mayda-yo, mayda“, „Olmacha“, „Yakdona“, „Ho tarali-layli“, „Kichkina bola“, „Sangina bola“ kabi o‘yinlarni shu turkumga kiritish mumkin.

3. Qo‘shqarsak turkumidagi o‘yinlar keng tarqalgan bo‘lib, bu o‘yinlarni asosan baytchi boshqarib boradi. Jamoa qarsak jo‘rligida naqarotni ijro etadi, o‘yinchi-solist qarsak va bayt mazmuniga mos harakatlar bilan o‘yinga tushadi. Qo‘shqarsak turkumidagi qarsaklar faqat ikki xil pazvali qarsaklar chalinishi bilan izohlanadi. Bu turkum o‘yinlarga quyidagilar kiradi.

„Xoy, bola, bola“, „Taralli-ho“, „Gulqaychi“, „Hay yor-yor“, „Yallama yor“, „Zebomxon“ kabilar shular jumlasidandir.

4. Beshqarsak turkumidagi o‘yinlarda qarsak ritmi boshqaruvchi rolga ega bo‘lib, naqarot aytilmaydi. Qarsak avji va jo‘shqin harakat, ichki tuyg‘uni ifoda etuvchi ovoz bilan uyg‘unlashib boradi. „Beshqarsak“ o‘yinlarining hammasida hazilmutoyiba xarakteridagi baytlar aytiladi:

a) bunda qarsaklar soni toq bo‘ladi. Agar qarsak juft tugallansa, ritm oxirida yopiq holat vujudga keladi, jo‘shqinlik pasayadi;

b) toq tugallangan qarsaklar sonini oshirib borish yo‘li bilan murakkab ritmlar hosil qilinadi;

d) qarsaklar tuzilishidagi pazvalar o‘rnini almashtirish yo‘li bilan ritmni o‘zgartirish mumkin. Ta’bir joiz bo‘lsa, toq sonli qarsakni ochiq bo‘g‘inga, juft sonli qarsakni yopiq bo‘g‘inga o‘xshatish mumkin. Barcha mavjudotlar, hayotidagi muhim o‘zgarishlar toq sonlar bilan bog‘liq ekanligini qadimgi yunonlar bilganlar. Toq sonlar biologik soatning raqamlari hisoblangan. Bunga ota-bobolarimiz ham amal qilgan. Masalan, ma’rakamovludlar, urf-odatlarini bajarish 3, 7, 9, 11 sonlari bilan belgilangan. Matematikaning bu o‘yini, beshqarsak turkumidagi o‘yinlarimizga asos qilib olingan. Bu turkum o‘yinlarga:

„Yakkaqarsak“ o‘yini, „Uchqarsak“ o‘yini, „Beshqarsak“ o‘yini, „Yetti qarsak“ o‘yini, „To‘qqizqarsak“ o‘yini, „O‘n bir qarsak“ o‘yini, „O‘n uch qarsak“ o‘yinlarini kiritish mumkin.

5. „Chavqi“ ansambli ishtirokchilari tomonidan xalq termalari asosida aytiladigan qo'shiqlarga:

„Qadring o'tdi“, „Boqqa kirsam“, „Elga xizmat“, „Dardim yomon“, „Aylanay yorim“, „Navo derlar“ kabi qo'shiqlarni kiritish mumkin.

Bu milliy qo'shiqlar yakkaxon ashulachilar tomonidan ijro etilgan. Ijro vaqtida likopchadan yoki belbog'ni kulcha qilib o'rab, likopcha o'rnida foydalanilgan.

6. „Chavqi“ davralarida cholg'u asboblariidan ko'proq dutor va qo'biz foydalanilgan. Xalqimizning milliy qo'shiqlari yoki o'yinlariga dutorchilar kuy bastalab jo'r bo'lishgan. Masalan:

„O'ynasin“, „Gulyor“, „Beshqarsak“, „Yodingda tursin“, „Vaq, vaq, to'ram“ kabilarga dutorda bastalangan kuy, xalqimiz orasida keng tarqalgan.

„Chavqi“ repertuarlariga o'zbek xalqining atoqli dostonchisi Fozil Yo'ldosh o'g'lining she'rlaridan „Kunlarim“ termasiga o'xshatma, dostonlaridan parchalar ham kiritilgan.

„Chavqi“ davrasida ijro etiladigan 200 dan ortiq terma baytlar xalq tilidan yozib olingan.

Termalarni mavzu jihatidan quyidagicha sharhlash mumkin. Termalarning mazmuni mahalliy xalqlarning turmush tarzi va tarixiy rivojlanishidagi jarayonga bog'langan bo'lib, har bir terma to'rtligi hayotiy voqealarga nisbatan hozirjavoblik, xalqchillik, oddiy va teranlik ruhi bilan sug'orilgan. Shuningdek, har bir termada lapar va o'yinga mos keladigan qarsak ritmlar yaratilgan. Bayt naqarotlarini boshqarib borishda yakka qarsakdan 38 qarsakkacha uriladi, qarsak sonlari teng, naqarotlarida esa ritmni almashtirish yo'li bilan turli ohangga solinadi.

„Chavqi“ tomonidan tiklangan terma va o'yinlarga e'tibor bilan qarasak, uning har birida ota-bobolarimizning san'atiga bo'lgan hurmat va yuksak e'tiqodni ko'ramiz.

I

Taralli-ho

Bu termaning naqaroti 5 ga 3 qarsak bilan boshqariladi: naqarot ikki marta takrorlanib, naqarot orasidagi avjda bog'lovchi bir qarsak qo'shiladi, ya'ni 5 ga 3/1, 5 ga 3 tarzida qarsak ritmi hosil qilinadi. O'yin baytchining naqarotni ijro etishidan boshlanib, unga qarsakchilar jo'r bo'lishadi.

2 2 3 4 5

2. taralli-ho, taralli-ho, taralli

1 2 3

lay lay lay /hey!/
1 2 3 4 5

1 2 3 4 5

2. taralli-ho, taralli-ho, taralli

Naqarotning har ikkala qismida ham beshtadan keng oraliq pauzali va uchtdan o'rta keng qarsak uriladi. Ikkala qismni bog'lash uchun oraliq qarsak (bog'lovchi) urilib, naqarot davomida:

$8+1+8=17$ qarsak uriladi.

Terma naqarotidagi so'zlardan qarsak jo'rligida hosil qilingan o'ynoqi kuy, shaxsning ichki dunyosini ifodalaydi. Ya'ni, ko'z o'ngimizda tabiat go'zalligiga shaydo, hayot zavqi bilan to'lib-toshgan kishi namoyon bo'ladi. Termalarning mazmuni ham shunga moslashgan. „Chavqi“ jamoasi bu o'yin davomida quyidagi to'rtliklarni ijro etadi:

Bedananing bolasi,
Yoz ochilar lolasi.
Qirmizi yuz, qora qosh,
Bulung'urning bolasi.

Yuring do'stim o'ynaylik,
Daryolarni bo'laylik.
Qalb to'ridan roz aytib,
Sevgimizni kuylaylik.

Men boray borganimcha,
Yengimni solganimcha.
Yengimni solgan joyda,
Ochilsin guli g'uncha.

El omon-u, el omon,
Baxtim kulib yuraman.
Tinch, farovon zamonda,
Hayot gashtin suraman.

Hoy bola-bola

Bu terma mazmuni va o'yin xarakteri ikkinchi shaxsga qaratilgan. Baytchi va qarsakchilar kuzatuvchi sifatida, dilida g'ubori yo'q yigitchaning sho'x va jozibali harakatlaridan zavqlanadilar. O'yinchi yigitning sha'niga aytiladigan baytlar 3 ga 6 qarsak jo'rligida naqarotga bog'lanib boradi:

Terma baytchining naqarotni aytishidan boshlanadi:

1 2 3

Hoy bola-bola

1 2 3 4 5

Yor-yor, xondon-bola -yor-yor

Naqarotning „Hoy bola-bola“ qismini uriladigan 3 ta qarsak orasida o'rta keng pauza bo'ladi. Keyingi 6 qarsak oralig'ida keng pauza saqlanib, teng uriladi.

Natijada, sho'x harakatni ifodalovchi ohang hosil qilinadi. Bu ohangda xondon bolaning sho'xligi bilan kuzatuvchining quvonchi qo'shilib ketadi, jamoa harakatlari aytilayotgan termalarning mazmuniga monand ravishda davom etadi.

Naqarot 2 marta takrorlanadi.

Baytchi: Qoshing bor-u, qoshing bor,
Qosh ostida ko'zing bor.
Ko'ngillarni rom etgan,
Shirin-shakar so'zing bor.

Naqarot: Hoy bola-bola
Yor-yor, xondon-bola-yor-yor

Baytchi: Olma otdik otganga,
Bog' aylanib o'tganga.
Hazil qilib otibsiz,
Sim karavotda yotganga.

Naqarot:

Baytchi: Dastro'molning burchini,
Popuk solib to'ydiring.
Mehnat qilib bog'larda,
Suymaganni suydiring.

Naqarot:

Baytchi: Qoshingning andozasi,
Samarqand darvozasi.
Qoshingni bir qoqib qo'y,
Jonningning sadag'asi.

Bayt matnining mazmunida, naqarotga qarsak jo'rligida hosil qilingan ohangda, o'yin harakatlarida mahalliy kolorit sezilib turadi.

I GULQAYCHI

(qo'shqarsak)

Bu termada aytiladigan naqarot tor oraliq pauzaga ega bo'lgan „ikkiqarsak“ va keng oraliq pauzaga ega bo'lgan „yetti-qarsak“ ritmi bilan boshqarib boriladi:

Naqarot: Ho, taralli layli-layli,
Baytchi: Qo'limda bor gulqaychi.
Gulqaychini gulga sol,
Adashganni yo'lga sol.

Naqarot:

Baytchi: Bahor o'tib, yoz keldi,
Dehqon ishi soz keldi.
Hisobchida bir gap bor,
Bizga oylik oz keldi.

Ikkala tog'ning orasi.
Yotir quyon bolasi.
Mehnatkashni charchatdi,
Yulg'ichlarning porasi.

Kasalxona eshigi,
Ochilmay yopiladi.
Kasal bo'lsang dori ol,
Chervonga sotiladi.

Do'kan ekan xazina,
Ustiga qo'ydim ozgina.
Xaridordan o'marib,
Yashayapman sozgina.

Ho, do'rma (Qo'shqarsak)

Baytchi: Ariq bo'yida pista,
Pistaning shoxi yuzta.
Hamma: Ho, do'rma, do'rma, do'rma.
Baytchi: Shul ukamni so'rasang,
O'ynab berishga usta.
Hamma: Ho do'rma, ho do'rma,
Qoshin, ko'zingga surma.

Ikki marta aytiladi.

Ho, do'r/ma/, ho do'r/ma/ — keng oraliq pauzali 4 qarsak.
Ho, do'r/ma/ — tor oraliq pauzali uchqarsak.
Ho, hur/ma/ — keng oraliq pauzali ikkiqarsak.
Qoshi/ya ko'z /inga sur/ma/ — keng oraliq pauzali 4 qarsak.

Bog'da bulbul sayraydi,
Tol bargini chaynaydi.
Shul ukamni so'rasang,
Qoshini qoqib o'ynaydi.

Oyqar tog'ning balanti,
Kulishlari g'alati.
G'alat bo'lsa mayliga,
Akasining davlati.

Samarqandning minori,
To'rt burchida tumori.
Shul ukamni so'rasang,
O'yin-kulgi xumori.

El omon-u, el omon,
Tinch va farovon zamon.
Baxtimizni kuylay deb,
Bulung'urdan kelaman.

„Yallama yorim“

(Qo'shqarsak)

Keng tarqalgan qo'shqarsak o'yinlaridan biri „Yallama yorim“ o'yinidir. Bu o'yinda aytiladigan termalar mazmuni hayotiy hodisa va voqealardan olingan ichki his-tuyg'ularning, ruhiy holatlarning izhoriga qaratilgan:

Ariq bo'yida qo'zi,
Qo'zining qora ko'zi.
Yigitlarni mast qilgan,
Qizlarning shirin so'zi.

Bu to'rtlikning oxirgi misrasida fikr yakunlangan bo'lib, qizlar so'zidagi jozibadorlik, nafosat va latofat tufayli huzurlanish zavqi yuzaga chiqadi. Shunday qalbni rom etuvchi ruhiy jo'shqinlik og'ushida qolgan yigit o'z quvonchini o'rtoqlashmoqchi bo'ladi.

Terma to'rtliklari kompozitsion tuzilishi, shakl va mazmuni jihatdan o'ta puxta, ixcham tuzilgan bo'lib, kishi xotirasida qoladi. Bu turkumdagi termalarda yorning latofati va yigitning beg'ubor, samimiy nozik tuyg'ulari uyg'unlashib ketgan.

II

YAKKAQARSAK TURKUMIDAGI O'YINLAR

„Ho mayda“

Biz xalq og'zaki ijodiyotidagi termalarning har birida yuksak badiiylikni, soddalik va ixchamlik va hozirjavoblikni ko'ramiz:

Eshik oldi gul hovuz,
Gul tergal kelgan biz.
Gulni bahona qilib,
Yor ko'rgali kelgan biz.

Bu to'rtlikda bayon etilgan fikrlar, yor jamolining go'zalligi, zilol suv bilan liq to'la hovuz labidagi nafis gullarning chiroyiga uyg'unlashib, singishib ketadi. Oshiq o'z maqsadini to'g'ridan-to'g'ri aytolmay hovuz labidagi gullarni ko'rish bahonasida yor visoliga yetishga intiladi. Oshiq o'z yorining u

yashab turgan joyiga va yorining go'zalligiga monand ekanligini ta'kidlaydi.

To'rtlikning oxirgi misrasida yor vaslini ko'rishga intiq bo'lgan qalb nidosi baralla izhor etilgan. Yuqorida uch misrada aytilgan maqsad uyg'unlashib, lirik sujetni hosil qilgan.

Keyingi to'rtliklarda ham xuddi shunday lirik sujet borligini ko'ramiz, xalqchillik, o'ta ixcham va oddiy fikrlar vositasida maqsadni bayon qilish tamoyillari saqlangan:

O'lma oqib keladi,
Behi qalqib keladi.
Ko'ngil bergan yorginam,
Nurday balqib keladi.

Qizil guling bo'layin,
Hovlichanga to'layin.
Hammaning ko'zi senda,
Ko'z tumoring bo'layin.

Bu o'rinda „tumor“ so'zi orqali oshiq o'ziga aziz bo'lgan ma'shuqasining ko'ngilsiz tasodiflardan g'olib bo'lishni istab, bu istagini „tumor“ so'zida umumlashtirgan, ya'ni yor boshiga tushadigan tashvishlarga qalqon bo'lishni o'z zimmasiga olgan:

Bir yorim bor qora qosh,
Dalada qizlarga bosh.
Qaramasam qaraydi,
Qalbi qalbimga tutash.

Yorning yuzi to'lin oy,
So'zi mayin sariq moy.
Og'izlari o'ymoqday,
Suluv yuzi qaymoqday.

Labchasida xoli bor,
So'zi shakar — boli bor.
Yorim ozod el qizi,
Albatta iqboli bor.

Bu to'rtliklarning har birida chashma suvidek tiniqlik, samimiylik, ishonch va sadoqat singari dil istaklari ifodalangan:

Ho mayda, mayda, mayda
Hollari mayda, mayda

Naqarot bilan boshlanadigan bu o'yin, 9 qarsak jo'rligida va ikkinchi jamoa tomonidan aytiladi. Birinchi va ikkinchi misrada ham teng oraliq pauzaga ega bo'lgan qarsaklar uriladi:

Ho may/da may/da may/da — 4
Hol/la/ri may/da may/da — 5 9

Qarsaklar vositasida bir tekis ohang hosil qilinadi. Natijada yor go'zalligini, xulq-atvorini tarannum qiluvchi lirik tasvirning badiiy ifodasi hosil bo'ladi.

„Olmacha“

„Olmacha“ termasi keng oraliq pauzaga ega bo'lgan sakkiz qarsak ritmiga naqarot jo'rligida boshlanadi:

Olmacha anoringga balli,
Bog'i rayhoningga balli.

„Anoringga“, „rayhoningga“ qofiyasi so'zlardagi „i“ unlisiga tushgan urg'u, avj bilan cho'zilib aytiladi. Shuningdek, naqarot matni har safar ikki marta takrorlanadi va har safar naqarot oldidan „He!!!“ xitobi baland va ko'tarinki ruh beruvchi ohangda jo'shib aytiladi.

„Olmacha“da aytiladigan termalar asosan ishqiy mavzuda bo'lib, yigit o'z mahbubasiga nisbatan bo'lgan ichki ruhiy kechinmalarini yaqinlariga bayon etib, go'yo maslahat so'ragan bo'ladi:

Ariq bo'yida yalpiz,
Qo'ynimda ola tarvuz.
Bizning yordan xat keldi,
Qanday boramiz yolg'iz?

Daryo bordim kechgali,
O'tirdim suv ichgali.
Sevar yordan xat keldi,
Qanotim yo'q uchgali.

Osmonda oying bo'lsa,
Oldingda yoring bo'lsa.
Choynakda choying bo'lsa,
Piyolang o'ynab tursa.

Devor ustida devol,
Devona bo'lay deyman.
Boshida zarli do'ppi,
Ishqida o'lay deyman.

Tol kesganim yo'q edim,
Toldirdi bilagimni.
Yor sevganim yo'q edi,
Yondirdi yuragimni.

Olma guli noparmon,
Izlab seni toparman.
Izlab topsam qo'lingga,
Tilla uzuk taqarman.

Yuqorida keltirilgan termalarda chin sevgiga xos holat o'z ifodasini topgan. Bu holat ramziy o'xshatishlar vositasida aniqlashtirilgan.

So'zlashuv nutqi asosida yaratilgan oddiy misralarga bu qadar chuqur va keng mazmunni singdirish, xalq og'zaki ijodiyotiga xos yuksak san'at ekanligini ko'ramiz.

„Ho layli“

Bu termaning naqaratida 16 yakkaqarsak vositasi orqali ritmik kuy hosil qilinadi:

Ho, /li/lay/li, lay/li — 4
Ho/lay/li/lay/li, lay/li — 4

E, /alla/ e, /alla/ — 4
Qoshingga /bizga/ taral/la — 4

Naqaratning birinchi misrasidagi so'zlar bir xil — pastroq ovoz bilan bog'lanib, ikkinchi misradagi birinchi „layli“ so'zi avjga ko'tariladi. Uchinchi misradagi so'zlar ketma-ket past ohangda (zinapoya shaklida) aytilib, oxirgi misra birinchi misradagi darajaga tenglashtiriladi. To'rttala misra ham ketma-ket ikki misradan takrorlanadi, qarsaklar orasidagi pauzalar kengligi bir me'yorda bo'ladi, natijada osoyishta va mayin kuy hosil qilinadi:

Andijonda oy botar,
Marg'ilonda tong otar.
Ochilgan xotin-qizlar
Paranjini yo'qotar.

Fabrikaning yo'lidan,
Ro'molcha topib, oldim.
Topib oldi demanglar,
Chervonga sotib oldim.

Bedana bo'lib uchding,
Sholipoyaga tushding.
Peshonangdan aynalsang,
Ishchi bolaga tushding.

Daryoning shoxobchasi,
Sepoyaning shoxchasi.
Shu zamonning jannati,
Bizning yorning bog'chasi.

„Sangina bola, omonyor!“

Bu o'yin baytchining termanni ijro etishidan boshlanadi. Bu termanni ijro etish usuli o'ziga xos individuallikka ega. Naqarot matni uch misradan iborat:

Sangina bola, omonyor,
Hay, bola, ha, ha
O'yna ko'zim-a...

Naqarotning „Sangina bola, omonyor“ misrasida aytilmoqchi bo'lgan fikr yashirin ekanligi ko'rinib turibdi. Shuning uchun bu misra mazmunidan va hosil qilingan naqarot ohangidan yengil, beg'araz, samimiy o'pkalash sezilib turadi.

Terma to'rtligi ikkiga bo'lib aytiladi, har bir misra baytchi tomonidan aytilgach, jamoa tomonidan takrorlanib, unga naqarotning birinchi misrasi bog'lanadi:

1-baytchi: Olvon-a, kuylak kiyibsano,
Sangina bola, omonyor,
Hamma: Olvon-a kuylak kiyibsano,
Sangina bola, omonyor.

Naqarotning ikkinchi misrasi baytchi tomonidan ijro etilgach, jamoa tomonidan naqarotning so'nggi ikki misrasi bog'lanadi.

2-baytchi: Yeng uchini qiyibsan,

Hamma: Hay, bola, ha, ha

bu qism 2 marta aytiladi.

O'yna qo'zim-a...

Termaning keyingi ikki qatoriga ham naqarot shu tarzda bog'lanib boradi. O'yinchi ham terma mazmuniga mos keladigan usullar ko'rsatib, fikrni aniqlashtirib boradi.

Naqarotning birinchi misrasidagi „Sangina“ tez aytiladi. „I“ unlisiga tushgan urg'u qisqa va baland talaffuz qilinadi. Keyingi „bola“, „Omonyor“ so'zlaridagi urg'uli tovushlar pastroq va so'zlar bir tekis ohangda aytiladi.

Ikkinchi misradagi „ha, ha!“ undalmalari xitob bilan aytilib, urg'u tushgan „a“ tovushlarining birinchisi cho'ziq talaffuz qilinadi, keyingilari qisqaroq va baland aytiladi. „O'yna ko'zim-a...“ iborasidagi oxirgi „a“ tovushi yakunlovchi ohangda cho'ziq aytiladi. Bu o'yinda ijro etiladigan termalar mazmuni ham naqarot ruhiga bog'lanib ketadi:

Alvon kuylak kiyibsan,

Yeng uchini qiyibsan.

Bizga va'dani berib,

Boshqa yorga tegibsan.

Uyda yotma qirda yot,

Gajagingni menga sot.

Gajagingni sotmasang,

Olma, anoringdan ot.

Men bog'inga bormasdan,

Anoringdan yemasdan.

Ota-onangga chaqding,

Men bir narsa demasdan.

Bordim daryo bo'yiga,

Kirdim yorning uyiga.

Kirgan bo'lsam uyiga,

Sherik bo'lay to'yiga.

Samarqandning soyida,
Saman otlar yeladi.
To'lgan oyga qarasam,
Seni ko'rgim keladi.

„Sangina bola, omonyor“ termasida, naqarot va terma matni jamligini ijro etish davomida 20 qarsak uriladi.

„Yakdona“

„Yakdona“ termasining naqaroti bir xil keng oraliq pauzali qarsak jo'rligida ijro etiladi, 16 qarsak uriladi:

Ay/lanamiz yak/dona,
Hol/lari/dona/dona.
Qiz/lar-a/ o'ynaydi gulbog',
Xush/torlari/de/vona.

Naqarot to'rtligining har misrasida 4 marta keng oraliq pauzali qarsak uriladi. 1-, 3-, 4-misralar bir maromda aytilib, 2-misrasi avj qilib ko'tariladi. Terma o'yinni ijro etish naqarotdan boshlanadi. Naqarotdagi 1—2- va 3—4- misralar alohida 2 martadan takrorlangach, baytchi terma to'rtligini to'liq aytadi, qarsak sokinlashadi. Baytchi to'rtlikni aytib bo'lishi bilan qarsak va naqarot avj bilan takrorlanaveradi.

Aylanamiz yakdona
2 marta aytiladi.
Hollari dona-dona.

Qizlar/a, o'ynaydi gulbog',
2 marta aytiladi.
Xushtorlari devona

Baytchi:

Bog' aylana shaftoli,
Uchgan kimning kaptari.
Aytsam ado bo'lmaydi,
Dilginamning daftari.

Bu o'yinda aytiladigan termalar ishqiy mavzuda bo'lib, oshiq yoriga yurak so'zlarini aytadi. Yigit dilidagi armon kuy-lanadi. Oshiq ma'shuqasining betakallufligidan, kibr-havo, g'ururga berilib, unga qiyo boqmaganligidan ozor chekadi.

Naqarot soʻzlari bilan hosil qilingan kuy orqali oshiq dillarning ruhiy holati berilgan:

Qoshingning qorasiga,
Hol boʻlay orasiga.
Aslo rahming kelmaydi,
Birovning bolasiga.

Ariq boʻyida jiyda,
Jiydaning guli mayda.
Hammaning yori uyda,
Bizning qalam qosh qayda?

Jiyda guli gul emas,
Taqsam chekkamda turmas
Kishi yori yor emas,
Bir dam oldingda turmas,

Osmondagi boʻztoʻrgʻay,
Boʻzlamasang na boʻlgʻay?
Jindekkina jonimni,
Qiynamasang na boʻlgʻay?

III

„BESHQARSAK“ TURKUMIDAGI OʻYINLAR „YAKKAQARSAK“ OʻYINI

(milliy oʻyin)

„Beshqarsak“ turkumidagi milliy oʻyinlar koʻpchilik boʻlib ijro etilgan. Bu turkumdagi oʻyinlar baytchining terma toʻrtliklarni ijro etishidan boshlanadi, oʻyinchi-solist qarsak asosida hosil qilingan ritmga mos ravishda oʻynay boshlaydi.

„Beshqarsak“ turkumidagi milliy oʻyinlarda aytiladigan termalar yengil hazil, yumoristik va hajviy tabiatiga ega. „Yakkaqarsak“da yengil hazildan iborat baytlar aytilgan:

Eshik oldi muzgina,
Muzda oʻynar qizgina.
Kimning yori boʻlasiz,
Chit koʻylakli qizgina.

Terma matni asta tushunarli qilib aytiladi. Qarsakchilar, baytchi o'z terma to'rtligini tugallaguncha, qarsakning tovushini pasaytirib turadilar. Baytchi to'rtlikni tugallashi bilan qarsak va xitob ohangidagi ovoz jo'shqinligi o'yinchiga jo'r bo'ladi:

Bundan bordim besh-beshga,
Sigir oldim o'n beshga.
Suti, qaymog'i sizga,
O'ynab berasiz bizga.

Dallol olar shirinkoma,
Kostum, shimi tirinka.
Yoqalari qayrilma,
Jonim bizdan ayrilma.

Hovlichada tutingiz,
Xurmachada sutingiz.
Boray, desam qo'ymadi,
Ola mo'ynoq itingiz.

Ro'molim bor oy guli,
O'rtasida choy guli.
Qarsak urib topganim,
Sizga bo'lsin choy puli.

Termalar birinchi shaxs nomidan ikkinchi shaxsga qarata aytilgan bo'lib, qarsakda bajariladigan o'yin usullari ham murakkab bo'lmay, hammabopligi bilan ajralib turadi. Bu o'yinda qarsaklar bir xil — keng pauzali oraliq bilan davom etadi va qarsak ritmiga ovoz jo'rli asosida kuy yaratiladi.

O'h! Xax-xax-xax! O'h! Xax! Tarzida uch marta takrorlangach, baytchi o'zining hazildan iborat navbatdagi to'rtligini to'qilgan terma mazmuniga monand harakatlar bilan ijro etadi. Keyin qarsak sho'x harakatlar bilan davom ettiriladi. Shu tarzda gulxan atrofida o'yin davom etaveradi.

„Uchqarsak“ o'yini *(milliy o'yin)*

O'zbek milliy o'yinlariga kiritilgan „Uchqarsak“ o'yini bayt aytilishidan boshlanadi. Ko'pincha baytlarning hazil-mutoibadan iborat bo'lishi, o'yinning jozibali chiqishini ta'minlaydi.

Tomoshabinning xayoli o'yinga jalb etiladi. Hazil-mutoiba, qochiriq fikrlardan tuzilgan termalar tomoshabinda yengil kulgi qo'zg'atadi, ruhiy oziq olish imkonini beradi:

Boqqa kirdim oralab,
Olma uzdim saralab.
Chol yo'rg'alab o'ynasa,
Kampir kular mo'ralab.

Baytchi termani aytayotgan paytda qarsak bir maromda, sekin urib turiladi. Chunki baytlar mazmuni tinglovchiga aniq yetib borishi nazarda tutiladi:

Bulung'urning yo'llari,
Elni bezar gullari.
Boboyiga yarashar,
Kampirining bo'yolari.

Bu to'rtlikning birinchi va ikkinchi misralarida tabiat go'zalligidan zavqlanish hissi o'rin olgan bo'lsa, keyingi ikki misrada hayot sinovlaridan birga o'tib, qadrdon bo'lib qolgan chol-kampirning bir-biriga mehribon va oqibatli, shirin va totuv munosabatlari ko'z o'ngida gavdalanadi.

„Chol yo'rg'alab o'ynasa“ misrasida yo'rg'alash chollar tabiatiga xos bo'lgani uchun yengil kulgi uyg'otadi. Bu holat qarsak ovozi jo'rliги bilan uyg'unlashtiriladi. Qarsaklar quyidagi tarzda bajariladi:

O'h, ha/o'h,/ha — keng oraliqni 2 qarsak,
O'h/xax/xax — o'rta keng oraliqni 3 qarsak.

Keng oraliq pauzaga ega bo'lgan 1—2- qarsaklar bog'lovchilik vazifasini bajaradi.

Keyingi o'rta keng pauzali oraliqqa ega bo'lgan 3- qarsak avjga ko'tariladi va o'yinning asosiy qarsagi hisoblanadi. Xitobli ovoz jo'rligida ritmik ohang hosil qilinadi. Bunday ritmik ohang, harakat va mimikalar bilan to'ldiriladi. Shu tarzda qarsak uch marta takrorlangach, navbat yana baytchiga keladi:

Oyqor tog'ning balandi,
Kulishing buncha g'alati.
G'alat bo'lsa, mayliga,
Boboylarning davlati.

Gul bargini to'kadi,
Borsam otam so'kadi.
U so'kkani — suygani,
Besh kun davron o'tadi.

Beshquvida beshta tol,
Beshovi ham bizning tol.
Karavotning ustida,
Ko'k choy ichgan bizning yor.

„Beshqarsak“ o'yini (*milliy o'yin*)

„Beshqarsak“ ritmi bilan boshqariladigan bu o'yin bayt-chining termasidan boshlanadi. Terma ijro etilayotganda past qarsak bilan jo'r bo'lib turiladi, keyin qarsak ma'lum ritmga solinadi. Bu o'yinda qarsak ritmi murakkablashib boradi, „beshqarsak“ning oldingi uchtasida pauza juda qisqa olinadi, keyin ikki „qarsak“ oralig'i o'rta keng pauzaga to'g'ri keladi:

Ha-ha-ha/uh-ha!

„Beshqarsak“ shu tarzda uch marta takrorlanib, keyingi o'rta keng pauzali „uchqarsak“ bilan galdagi „beshqarsak“ birligiga bog'lanadi:

Ha-ha-ha/uh-ha!
Ha-ha-ha/uh-ha!
Ha-ha-ha/uh-ha!
Ha-xax-xax! Bog'lovchi

Qarsak shu tarzda uch marta takrorlangandan keyin, baytchi navbatdagi termanni aytadi:

Qoshing asli qoradur,
O'sma qo'yganing yolg'on.
Sening uchun men kuygan,
Sening kuyganing yolg'on.

O'yin shunday davom etaveradi. Bu o'yinda qarsakchi ham, o'yinchi ham chaqqon harakatda bo'lishi lozim. Termalar orasida ishqiy-intim mavzular ham bo'lib, yorning e'tiborsizligi va jabridan o'ksinish kabi hayotiy mavjud voqealarga asoslangan. O'yindagi chaqqonlik, ritm-xitobli ovoz jo'rliги bilan shaxsning

ruhiy holati izohlanadi. Qarsakchilarning harakati va qarsak ritmida zardali gina-kudurat, kinoya jihatlarini sezilib turadi:

Osmonda yulduzgina,
Sanasam o'ttizgina.
O'zingga o'zing qilding!
Yotarsan yolg'izgina!

Qoshing orasi cho'tir,
O'smangni qo'ymay o'tir.
O'z kuyganim ozmidi!?
Sen kuydirmay tek o'tir!

Qoshing qora qaylama,
Yorga ko'ngil boylama!
Yorga ko'ngil bog'lasang,
Tashlab ketsa, yig'lama!

Jiyda guli gul emas,
Taqsang chakkangda turmas.
Kishi yori yor emas!
Birdam oldingda turmas.

„Beshqarsak“ turkumidagi o'yinlar oxirida hamma vaqt 4 „qarsak“dan iborat keng oraliq pauzali katta qarsak uch marta takrorlanib, to'rtinchi birlikning birinchi qarsagi zarb berib urilib, yakunlanadi.

„Yetti qarsak“ o'yini

(milliy o'yin)

/Uh-ha!/ — keng pauzali „ikkiqarsak“.
/Ha-ha-ha/ — tor pauzali „uchqarsak“.
/Xax-xax-xax/ — o'rta keng pauzali „uchqarsak“
1 2 3 4 5 6 7
/Uh-ha!/ha-ha-ha/xax-xax-xax/

Bu milliy o'yin ham baytchining termasidan boshlanadi:

Eshik oldini tepdim,
Tepdim-da, gullar ekdim.
Oq yuzingdan bir o'pdim,
Quyruq yegandek bo'kdim.

Qarsakchilar tomonidan urilayotgan „yettiqarsak“ xitobli ovoz jo‘rligida uch marta takrorlangach, baytchi galdagi termani aytadi:

Oshib keldim oq toshdan,
Savdogar bo‘ldim boshdan.
Savdogari qurisin,
Ayrildim qalam qoshdan.

Terma ijro etilayotgan paytda qarsak sekinlashtirilib, terma mazmuni tinglovchilarga aniq yetib borishi lozim. Termalar mazmuni hazil-mutoibaga asoslangan bo‘lib, o‘yinchi termadan anglashilgan mazmunga xos usul qilib o‘ynaydi. Shuningdek, qarsak avjiga chiqqanda hosil qilingan ritmga harakat moslashadi:

Tosh ustidan tom soldim,
Ustida boloxona.
Yor ustiga yor oldim,
Yotishim somonxona.

Hovlimiz zap bo‘ldi,
Taxta ipdan qop bo‘ldi.
O‘yin-kulgi avjida,
Qarsak past, deb gap bo‘ldi.

Oxirgi termadan keyingi „yettiqarsak“ uch marta takrorlangach, katta qarsakni uch marta takrorlash bilan o‘yin yakunlanadi:

Uh-xax-xax-xax/uh, xax/ uch marta Yuh!!! Yakun.

„To‘qqizqarsak“ o‘yini

(milliy o‘yin)

O‘zbek milliy qarsak o‘yinlari orasida „To‘qqizqarsak“ o‘yini keng tarqalgan. Qarsak — ritmik kuy yaratishning cholg‘u asbobisiz turi hisoblanib, juda qadimiydir. Qarsak o‘yinlari ham ma’lum darajada ijtimoiy-siyosiy xususiyat kasb etadi. Chunki, tengsizlik hukm surgan davrda, xalq donolari tomonidan yaratilgan noyob san’at asboblari hukmron sinf tomonidan o‘zlashtirilgan.

Kuy yaratishning eng oddiy usuli, qarsak ritmiga asoslangan. Bu usulni hech kim, hech qachon xalqdan tortib ololmagan.

9—10—11—13, qarsak vositasida qarsaklar orasidagi pauzani almashtirish yoʻli bilan turli ritmlar hosil qilish mumkin.

Oʻzbek milliy „qarsak“ oʻyinlarida aytiladigan baytlar hazil-mutoiba, satirik va yumoristik jihatga ega boʻlib, ularda ijtimoiy hayotda roʻy bergan nuqsonlar, kishilarning feʼl-atvorlaridagi kamchiliklar ochib berilgan.

Qarsak ritmiga ovoz joʻrligi va joʻshqin harakatlarda qiziqchilik, hazil, tanqid, achinish kabi elementlar sezilib turadi. „Qarsakchi“lar butun vujudi bilan, berilib qarsak urganida, ortiqcha tashvishlardan xalos boʻlgan, ruhiy oziq olgan, hordiq chiqargan, oʻzlarini tetik va bardam sezganlar.

„Oʻnqarsak“ oʻyini

(milliy oʻyin)

Bu oʻyin ham keng tarqalgan milliy oʻyinlardan boʻlib, u qarsak ritmiga asoslangan va ayni chogʻda jozibalidir. „Qarsakchi“lar orasidagi pauza ikki xil kenglikda boʻladi:

Tor oraliqli	Tor oraliqli	Keng oraliqli
Ha-ha-ha	Ha-ha-ha	Uh-xax-xax-xax
Ha-ha-ha	Ha-ha-ha	Uh-xax-xax-xax
Ha-ha-ha	Ha-ha-ha	Uh-xax-xax-xax

Qarsakning birinchi va ikkinchi qismlaridagi oraliq pauzalar tor kenglikda boʻlib, uchinchi qismdagi oraliq pauza keng olinadi. Baytchi terma toʻrtligini 10 qarsak uch marta takrorlangach, ijro eta boshlaydi. Bayt soʻzlari sekin dona-dona qilib aytiladi. Barcha qarsak oʻyinlaridagi kabi, bu oʻyinda ham aytiladigan termalar yengil hazil va yumoristik jihatga ega. Oʻyinchining usuli ham terma mazmuni va „qarsak“ ritmi asosida bajariladi:

Ariqcha-yu ariqcha,
Otingiz oʻtmaydi, pochcha.
Mahallamiz qiziga,
Kuchingiz yetmaydi, pochcha.

Ot mindim ola qashqa,
Sakraydi togʻ-u toshga.
Oʻyinchining maqomi.
Kechagidan bir boshqa.

Jo'xorini juldirma,
Poyasiga bildirma.
Ukasini o'ynatib,
Akasiga bildirma.

Eshik oldi ariqcha,
Yiltirab o'tar baliqcha.
Bizga rahming kelmasmi?
Ko'ngling bo'lsa tariqcha.

Oxirgi baytdan keyin 10 qarsak 3 marta takrorlanadi va
„Yakkaqarsak“ ritmiga o'tiladi.

O'h!!! Xax-xax-xax! O'h-xax!

Shu tarzda katta qarsak 3 marta takrorlangach, baytchi
o'yinchiga qarata:

Oh-ho luk, oh-ho chuk — 2 marta aytiladi.

Oh-ho lugatay, oh-ho chuchagay — 2 marta aytiladi.

O'yinchi bir tizza tushib o'tiradi. Qarsakchilar ham
o'yinchiga taqlid qilib, asta-sekin pasayib o'tirish holatini oladi.
Baytchi o'yinchiga qarata:

Oq qog'oz pirillar,
Bo'yin basting dirillar,

deganda, o'yinchi dirillab usulini bajaradi. O'yinchining diril-
lashi „qarsakchi“larning tor pazali „qarsak“ni takrorlashi bilan
bog'lab boriladi. Tor oraliq pazali 3 qarsak 5 marta takrorlanadi:

Baytchi:

Oh-ho bulag'ay,
Oh-ho turag'ay,
Aytganimga yurag'ay,

deyishi bilan o'yinchi o'rnidan darhol turadi-yu o'yin davom
etadi.

„Qarsakchi“lar ham „yakkaqarsak“ ritmini avj bilan uch
bor takrorlashadi va xitobli „o'h!!!“ ovoz jo'rligida urilgan bir
qarsak bilan o'yin yakunlanadi.

O'zbek elatlarining etnografik laparlaridan „Gul shaydo“

(lapar)

Bu lapar,

Ol ko'zim onavar, gul shaydo,

Belingga belbog' olib beramiz

naqarotiga „sakkizqarsak“ jo'rligida boshlanadi. Qarsaklar orasidagi pauza teng bo'lib, naqarotni aytish usuli orqali ohang hosil qilinadi. Naqarot vositasida yaratilgan kuy mazmunida g'amxo'r murabbiylik, mehribonlik tuyg'ulari sezilib turadi. Lapar o'yinchi tomonidan ijro etilib, har bir misrada uning istaklari bayon qilinadi:

Jonim akajonim siz bo'lasiz-a,
Menga toychoq olib berasiz.

Jonim akajonim siz bo'lasiz-a,
Toychoqqa yugan olib berasiz.

Jonim akajonim siz bo'lasiz-a,
Toychoqqa egar olib berasiz.

Jonim opajonim siz bo'lasiz-a,
Egninga to'ncha tikib berasiz.

Jonim opajonim siz bo'lasiz-a,
Belimga belbog' tikib berasiz.

Jonim akajonim siz bo'lasiz-a,
Oyog'imga etik olib berasiz.

Jonim akajonim siz bo'lasiz-a,
Yana nima desam olib berasiz.

Jon bobojonim siz bo'lasiz-a,
Menga jonon olib berasiz.

Baytlar erkin, samimiylik, soddadillik bilan aytiladi. O'yin ham yoshlar harakatini eslatuvchi, yengil usullar bilan ifodalanadi.

„Chamanda gul“

(lapar)

Bu laparning naqaroti ham 2 shaxs — o‘yinchiga qarata aytiladi.

Chamanda gul ochilibdi-ya,
Chakkanga taq, chakkanga.

Naqarot keng oraliq pauzaga ega bo‘lgan „Sakkizqarsak“ jo‘rligida jamoa bilan ijro etiladi.

Naqarot ikki marta takrorlangach, o‘yinchi lapar to‘rtligini ijro etib, uning mazmuniga xos usul qiladi:

Mahallamiz sohibkor,
Olma, uzum koni bor.
Otaginam mehnati,
Bog‘ni qildi hosildor.

Mehnat natijasidan, tabiat sahovatidan, hayot go‘zalligidan zavqlangan yigit boshqalarni ham ana shunday kayfiyatda bo‘lishga undaydi, sodda va beg‘ubor qalb jo‘shqinligini tarannum qiladi:

Uka sizga yo‘l bo‘lsin,
Do‘ppingiz qutlug‘ bo‘lsin!

Sevib ekkan hosilingiz,
Chakkangizga gul bo‘lsin!

Har ikki misra baytdan keyin naqarot ikki marta takrorlanadi:

Bu yer erkinlik bog‘i,
Shodlikdur bog‘ har yog‘i.

Har mevada yonadi,
Baxtimizning chirog‘i.

Olma pishdi nor bilan,
Tersak kerak yor bilan.

Yurtimiz har kishisi,
Mehnat qilar or bilan.

Nihol ekdim o'sayin,
Uch-uchini kesayin.

Nihol hosil beribdi,
Yor kelganda uzayin.

Oxirgi baytdan keyin naqarot 3 marta takrorlanib, lapar yakunlanadi.

„Gullola“

(lapar)

Bu lapar naqaroti keng oraliq pauzaga ega bo'lgan „o'n ikki qarsak“ jo'rligida ijro qilinadi. Lapar termalarida tinch zamon, farovon turmushning gashti, adolat qaror topgan, erkin diyor, insonning baxt-saodati zavq bilan kuylanadi:

Ana gul/lola/mana gul/lola/gul/lola — 6

Qanday/shirin/davri/miz/gul/lola — 6

Naqarot ikki marta takrorlanadi.

Laparchi terma to'rtligini to'liq aytadi va har bir misra oxiriga, hamma tomonidan „gullola“ so'zi radif sifatida qo'shib ijro etiladi:

Baytchi: Bulung'urning yo'llari,

Hamma: Gullola.

Baytchi: Elni bezar gullari,

Hamma: Gullola.

Baytchi: Mustaqillik davrida,

Hamma: Gullola.

Baytchi: Obod bo'ldi cho'llari,

Hamma: Gullola.

Baytchi: Ana gullola, mana gullola, gullola,
Qanday go'zal davrimiz, gullola.

Lapar termasining har bir to'rtligi naqarot bilan qorishib, shu tarzda ijro etilaveradi:

O'zbekiston elimiz,
Kuch-quvvatli belimiz.
Bog' oralab ishlaymiz,
Ochib bahri dilimiz.

Yurtimizning bog'ida
Ko'zim tut yaprog'ida.
Birinchi deb nom oldim,
Pilla to'lgan chog'ida.

Mahallamiz bog'ida,
Olma bilan nori bor.
Mehnatsevar yigitning,
Yuragida ori bor.

Hayotimiz farovon,
Yo'llarimiz charog'on.
Bizga shodlik baxsh etgan,
Ona-yurtim, bo'l omon.

Bog'imizda so'ri bor,
Shu so'rining to'ri bor.
Dangasaga tushganning,
Manglayida sho'ri bor.

Ikkala marjoning

(hazil lapar)

Bu laparda aytiladigan termalar hazil va yengil kulgi jihatiga egadir. Laparning naqaroti yigitlar tomonidan aytiladi. Lapar naqarotini aytish davomida keng pauzali oraliq bilan „O'nikki-qarsak“ uriladi.

Laparchi qiz termani boshlashi bilan „Qarsak“ jo'r bo'ladi. O'yin yengil, iboli harakatlar bilan, lapar mazmuniga mos ravishda davom ettiriladi.

Laparchi qiz:

Siz chiqdingiz, men ham chiqdim dahlizga,
Ikki olma otdim, tegdimi sizga?

Naqarot:

Ikkala/marjo/ningdan/akang/aylansin.
Qizlar/bozoringdan/akang/aylan/sin.

Shu tarzda laparchining har bir baytidan keyin, yigitlar tomonidan jamoa bo'lib qarsak jo'rligida naqarot aytilaveradi:

Tekkan joylarini ko'rsating bizga,
O'zginam tabiblik qilayin sizga.

Aka, ayvoningiz xarisi bormi?
Boshginam og'riydi dorisi bormi?

Aytadilar ikkimizni, oshiq deb
Ayingchi oshiqning nomusi bormi?

Emish, emish, emish degan sizmisiz?
O'kcha baland tufli kiygan sizmisiz?

Moskvadan o'qib qaytgan eliga,
Mayin tovush „Hormang!“ degan sizmisiz?

Qator-qator oynalardan qarayman,
Sanayvermang, ushoq tanga olmayman.

Har qo'limga qizil chervon bermang-chi,
Tanga oldi, degan nomga qolmayman.

Qulog'imda oltin sirg'a turmaydi,
Aka, sizga sira ko'nglim to'lmaydi.

Ko'nglim urgan bilan qorako'z yorim,
Ko'p ichasiz sizda xotin turmaydi.

Yorim uyg'onsin!

(hazil lapar)

Bu laparning termalari ham yengil hazildan iborat bo'lib, yigitlar tomonidan ijro etilgan. Lapar naqaroti qarsak jo'rligida quyidagicha ijro etilgan:

Qich/qir-a/xo'ro/zim, qich/qir — 5
Yo'rim-a/uyg'on/sin, qich/qir — 5
Lab/lari-dan/cho'qib/ol — 4 — 19
Cho'/chib-a/uyg'on-sin/qich/qir — 5

Naqarotning oldingi ikki misrasi ikki marta aytiladi. Keyingi ikki misra takrorlanmaydi. Naqarotning 1—2—4- misralaridagi

oldingi ikki qarsak oralig'i o'rta keng pauzaga ega bo'lib, keyingi qismi va 3-misradagi qarsak oraliqlari keng bo'ladi.

Naqarotdan keyin, laparchi terma to'rtligini to'liq aytadi. Shu tarzda o'yin davom etaveradi:

Poyezd yo'li ulama,
Ulamasa bo'lama.
To'lgan oyda yorimni,
Uyg'otmasa bo'lama.

Soy ichida sakson tol,
Sakrab o'tolmay qoldim.
Qoshi-ko'zingni ko'rib,
Yiroq ketolmay qoldim.

Otangiz attormikan,
Tugmangiz qatormikan.
Ostonada yor tursa,
Sevgani yotarmikan.

Yorim sizda ishim bor,
Kissamda kishmishim bor.
Kishmish bo'ldi bahona,
Sirlashmoqqa xushim bor.

Tog'ning o'ti sarg'aydi,
Bosib oldim to'rg'aydi.
To'rg'ay, desam bedana,
Yorim desam begona.

Oxirgi naqarotgacha:

Cho'chib uyg'onsin qichqir,
Sakrab uyg'onsin qichqir.
Kulib uyg'onsin qichqir,
Quvonib uyg'onsin qichqir.

kabi hazil mazmunli misralarni qo'shib aytish bilan lapar yakunlanadi.

Chamannoringdan-ey!

(lapar)

Bu lapar xotin-qizlar tomonidan ijro etilgan. Laparning naqaroti jamoa tomonidan xor bo'lib, qarsak jo'rligida ijro etiladi. Naqarot so'zlari har termaning har bir misrasi oxiriga qo'shib „to'rtqarsak“ jo'rligida aytiladi:

Baytchi: Qizil gul shona-shona.

Hamma: Chamannoringdan-ey!

Baytchi: Qo'limda angishvona,

Hamma: Bo'ylaringdan-ey!

Baytchi: Angishvona demanglar,

Hamma: Chamannoringdan-ey!

Baytchi: Yordan qolgan nishona,

Hamma: Bo'ylaringdan-ey!

Har bir terma to'rtligi shu tarzda davom ettiriladi:

— Men bog'ingga yuz tutdim,

Kelarmi deb ko'z tutdim.

Kelar-kelmas yor uchun,

Laxta-laxta qon yutdim.

Osmonda pir-pirlaydi,

To'rg'ay desam bedana.

Labingdagi holingni,

Sepkil desam sedana.

Osmondagi bo'zto'rg'ay,

Bo'zlamasang ne bo'lg'ay?

Jindakkina jonimni,

Qiyngamasang ne bo'lg'ay?

Suvga bordim ko'zada,

Qulog'im yor so'zida.

Muncha sevib qolibman,

Mehri bormi ko'zida!?

„Chamannoringdan“, „bo'ylaringdan“ so'zlarida laparchi ijro etgan baytlar mazmuniga bog'liqlik bor. Chunki laparchi ijrosidagi baytlarda qizlar tabiatiga xos iffat va hayo, nazokat va latofat sezilib turadi. Shuning uchun „chamannoringdan“,

„bo‘ylarindan“ so‘zlari qiz bola go‘zalligining bekam- ko‘st-
lipini, yetukligini, sevgilisiga munosib ekanligini ta’kidlab,
ehtonch va umid iplarini quvvatlaydi.

„AVAZXON“ XALQ ETNOGRAFIK ANSAMBLI

„Avazxon“ folklor-etnografik xalq ansambli 1980- yilda
havaskor ansambl sifatida tashkil etilgan.

Dastlab „Avazxon“ ansambliga xalq og‘zaki ijodi dos-
tonlarini sevir aytadigan olti-yetti nafar yigit-qizlar jalb qilindi.
Bular Yo‘ldoshev Sobir, Abdullayev Davlatyor, Ro‘zimetov
Hizomiddin, Yo‘ldosheva Zulfiya kabi yoshlardan iborat bo‘lib,
unga Qalandar baxshi Normatov rahbarlik qilib keldi. O‘tgan
yillar mobaynida ansambl repertuaridan „Tohir va Zuhra“,
„Oshiq G‘arib va Shohsanam“, „Oshiq Mahmud“, „Sayotxon
va Hamro“ kabi xalq dostonlari, shuningdek xalq masxarabozlik
o‘yinlari, lapar aytishuvlar o‘rin oldi.

Ansambl qatnashchilarining dasturidan o‘rin olgan xalq-
sevar ushbu namunalar ansambl a‘zolarini yanada yangi ijodiy
zafarlar sari undadi.

Ansambl ijodiy safarlari davomida muvaffaqiyatga erishuvda
uning sardori, Qalandar baxshi Normatovning sa’y-harakatlari,
hamarali natija berdi.

„Avazxon“ folklor-etnografik ansambli 1987- yilda Toshkent
shahrida o‘tkazilgan Xalq Xo‘jaligi Yutuqlari ko‘rgazmasi medali
bilan taqdirlandi.

1992-yilda Turkmaniston Respublikasining Oshiq Oydin Pir
qadamjosida o‘tkazilgan xalqaro baxshi-shoirilar tanlovida
qatnashib g‘oliblikni qo‘lga kiritdi. Jamoa „Tabiat-96“ viloyat
ko‘rik-tanlovida maxsus diplom olishga sazovor bo‘ldi.

2001-yili „Avazxon“ ansambli Surxondaryo viloyati Termiz
shahrida o‘tkazilgan baxshi-shoirilar va oqinlarning 2- an’anaviy
xalqaro ko‘rik-tanlovida qatnashib faxrli birinchi o‘rinni egallab,
qimmatbaho sovrin sohibi bo‘ldi.

Ansambl bir necha yillardan buyon o‘z mahoratini oshirib,
quda ko‘p muxlislarning e’tiborini qozonganligini hisobga olib,
Madaniyat va sport ishlari vazirligi hay’atining 2004- yil 14-
fevraldagi qaroriga binoan „Xalq havaskorlik ansambli“ unvoniga
sazovor bo‘ldi.

2004-yilning 15—22- may kunlari Surxondaryo viloyati
Boysun tumanida o‘tkazilgan navbatdagi „Boysun bahori“ 3-

ochiq xalqaro folklor festivalida qatnashib Gran Pri sohibi bo'ldi. Tashkiliy qo'mitaning 1-darajali diplomi bilan taqdirlandi.

Hozirda „Avazxon“ folklor-etnografik xalq ansambli yangi dastur ustida ish olib bormoqda. Ular tomonidan Xorazm xalqining etnografik va folklor xususiyatlarini saqlagan holda ijro etilgan laparlari sho'x-shodon o'yinlari, aytishuv va termalari, dostonlari tomoshabinlarga zavq-shavq bag'ishlamoqda.

Boshida cho'girma, egnida zar to'n kiygan xushsurat yoshulli, televideniya ekrani orqali „Oshiq Mahmud“ dostonidan parcha aytar edi:

Oldimizda go'zal chiqdi,
Go'yo qizil gula mangnar.
Ko'rib aqlimni lol etdi,
Sayragan bulbula mangzar.
Sahar ochilar lolasi,
Ko'zlari jonim olasi.
Yorimni dard-u nolasi,
Jonim olgan qiza mangzar.
Mahmudjon der yor kelganda,
Pardani yuzdan olganda,
O'n to'rt kunlik oyga mangzar.

Yo'q, u qo'shiq aytmayapti, u hislar dengiziga g'arq bo'lgan.

Yo'q, sozi simlarini emas, o'zining qalb torlarini chertmoqda. Oshiq Mahmudning emas, o'zining yurak tug'yonini to'kib solmoqda. Yoqimli, baland ovozi ekranga sig'mayotganidan, tomoshabinni yurak-bag'rini o'rtab yuborganidan xabari yo'q. Sozi ovozi pardama-parda ko'tarilib, yuragida armon bo'lgan yorini izlab yurib, nogahon uchratib qolgan oshiq qiyofasida, yer-u ko'kka shodligini qo'shiq qilib sochmoqda.

Qo'shiq muxlislari boshqa kuni uni yana xuddi shu qiyofada ekranda ko'rdilar. Bu gal ham u to'rtta qo'shiq aytdi. Ammo...

Xorazm viloyati televideniyesi orqali shanba oqshomlari berilayotgan „Oshiq Mahmud“ dostoni qo'shiqlarining niho-yasi ko'rinmasdi. Nihoyat ikki oy deganda xorazmliklar oshiq-

matnlar o'z murod-maqsadiga yetgani haqidagi qo'shiqni tingladilar.

Shundan keyin muxlislardan uning nomiga kelayotgan matnlarning sanog'iga yetib bo'lmay qoldi. Qo'shiq shaydolari uning doston aytish san'atini qanday egallagani haqida so'ralardi. Chiqishlarining birida u bu haqda shunday hikoya qilib beradi:

„O'shanda oltinchi sinfda o'qirdim. Xorazm dostonchi va baxshilarning piri Bola baxshi respublika televideniyasi orqali „Go'ro'g'li“ dostonini kuylayotganini ko'rib, hayratlanib qoldim. Dostondagi qiziq lavhalar, personajlarning hayratomuz mavdlk va bahodirliklari ko'z oldimdan o'ta boshladi. Qo'shiq matnlarini qog'oz va qalam olib yozib oldim va ancha vaqt bu qo'shiqlarni rubob jo'rligida aytib yurdim. Hademay oquvchilik yillari ham ortda qoldi. Kundalik turmush tashvishlari bilan qanchalik band bo'lib qolmay, sozini qo'lidan qo'ymadi. Mashq tufayli ovozim sayqal topib, bisotimda qo'shiqlarning soti ortib bordi.

Iste'dod bo'lsa-yu, uni ro'yobga chiqarish uchun maydon, tamol topishi uchun rag'bat bo'lmasa, har qanday kuchli iste'dod ham yillar o'tgan sayin xiralashib, qolib ketaverar edi. Ammo Qalandarning baxtiga tuman rahbarining baxshichilik san'atiga ixlosi baland chiqib qoldi. Ular Bola baxshi Abdullayevning qo'shiqlarini tinglab katta bo'lishgan, bu qo'shiqlarning sehrini hali unutib yuborishmagandi. Bu Qalandarga qo'l keldi. Tuman matbuot jamiyatida ishlab yurar ekan, „Dilnoz“ ashula va raqs ansamblini tuzish haqidagi taklifiga monelik qilishmadi. Ansambl matlubot jamiyatlari badiiy havaskorlarining viloyat ko'rigida qatnashib, birinchi o'rinni oldi. Ansamblning badiiy rahbari Qalandar Normatovning qo'shiq aytish mahorati konkursda ishtirok etayotgan barcha ijrochilar orasida alohida ajralib turdi. Keyin uni xalq tantanalari viloyat ko'rigiga taklif etishdi. Bu konkursda u „Ilg'or“ kuyi bilan qo'shiq ijro etib, konkurs laureati bo'ldi. Hamkorlar orasida u bundan bir necha yil oldin „zangori ekran“da ko'rib, o'ziga g'oyibona ustoz deb bilgan Bola baxshi ham bor edi. Shu kuni u Bola baxshining suhbatini olishga muvassar bo'ldi. Ilk tanishuvdayoq, ota va boladek qadrdon bo'lib ketishdi. U Bola baxshidan „Oshiq G'arib va Shohsanam“, „Avazxon“, „Go'ro'g'li“, „Oshiq Mahmud“ dostonlari

qo'shiqlariga yanada sayqal berib aytish sirlarini mehr qo'yib o'rgandi.

Folklor-etnografik ansambllar taraqqiyoti tarixi shuni ko'rsatadiki, qaysi bir ansamblning badiiy rahbari bilimdon, zukko, topqir, mehnatsevar o'z ishini ustasi, fidoyi, el orasida obro'-e'tibor topgan shaxs bo'lsa, unday ansambl kundan-kun kamol topaveradi. Badiiy havaskorlik uchun yaxshi, bilimdon badiiy rahbar — bu noyob topilma. Qalandar Normatov ham „Avazxon“ uchun shundaylardan hisoblanadi. Ammo Qalandar Normatov o'z-o'zidan yetishib qolgani yo'q. Uning atrofida san'atsevar, talantli Xorazm xalqi bo'lib, qolaversa, zo'r iste'dodlar homiy edilar. Shulardan biri yoshulli-ustoz Qurbonnazar baxshi Abdullayev (Bola baxshi) unga ham otalik, ham ustozlik qildi. Yoshlarning katta g'amxo'ri, murabbiy ustози bo'lmish Bola baxshi Qalandardagi iste'dod uchqunlarini ko'rgach, uni yoniga olib, murabbiylik qildi, rahnamo bo'ldi. Qalandar Bola baxshidan qadimiy xalq dostonlari, birinchi galda Xorazm Go'ro'g'li dostonlarini o'rgandi, kuylash, soz chertish san'atidan ta'lim oldi. U ustozidan o'rgangan birinchi yirik asari „Oshiq Mahmud“ dostonini ustози Bola baxshi yordamida Xorazm televideniyasi orqali kuyladi.

„Oshiq Mahmud“ dostonining yosh ijrochisi, Xorazm vohasida ancha-muncha shov-shuv, bahs-munozaraga sabab bo'ldi.

To'g'ri, bungacha u bir qator qo'shiqlarni ijro etgan bo'lsa-da, hali tilga tushmagan edi. Qalandar baxshini tan olgan, olqishlagan, dil so'zlari bitilgan maktublar oqib keldi. Har qanday iste'dodni asrovchi, qo'llab-quvvatlovchi xalqning, fikr-mulohazalari, yo'l-yo'riq, maslahatlari, qolaversa, tanqidiy qarashlari, bir so'z bilan aytganda teletomoshabinlar bahosi, Qalandar baxshiga ikkinchi ustoz bo'ldi. Natijada, baxshi o'z ustida ko'proq izlanishga, dostonchilikning sir-u asrorlarini mukammalroq egallash, mahoratini o'stirish yo'liga o'tadi. Qadimiy o'zbek, jumladan, Xorazm xalq dostonchiligini, ustoz baxshi shoirlar hayoti va repertuarini, ularning doston kuylash mahorati sirlarini qunt bilan o'rgandi. Ayni chog'da unda xalq ijodini saqlab qolish, rivojlantirish va yanada ommalashtirish yo'lida yanada muhimroq ishlar qilish, ya'ni folklor-etnografik ansambl tuzish istagi tug'iladi. Yosh baxshining bu maqsadini

tuman madaniyat bo'limi xodimlari qo'llab-quvvatladilar. Shundan so'ng Qalandar baxshi Normatov folklor-etnografik ansambl tuzishga kirishadi.

Mana Qalandar baxshining o'zi bu haqda nima deydi:

— Xorazm dostonchi-baxshilar, lapar ijro etuvchilar, xalfalar, qiziqchilarga boy o'lka bo'lishiga qaramasdan, Shovot tumanida bunday san'atkorlar deyarli yo'q edi. Borlari ham o'z o'zicha harakat qilishar, na san'atdan tuzukroq xabardor edilar, na ijroviy mahorat bobida ko'zga ko'ringandilar...

Shu bois oldimizda birgina yo'l bor edi: jamoa zamonaviy qo'shiq-kuylarni ijro etib yurgan yigit va qizlarni jalb etish, xalq ijodiyotidan oz bo'lsa ham xabardor keksalardan to'liq foydalanish edi.

Xorazm xalq ijodi bo'yicha folklor-etnografik ansambl tuzilsa-yu, uning repertuarida usta laparchilar, mohir qayroqchilar, surnayni qoyilmaqom qilib chaluvchi surnaychilar bo'lmasa!? Biz masalaning ana shu tomoniga alohida e'tibor berib, laparchilar, qayroqchilar, surnaychilarni izlay boshladik. San'atning bu turiga havasmand yoshlarni o'rgatdik. Ansamblimiz oldida turgan bunday qiyinchiliklarni bartaraf etishda dastlabki chiqishlardan oq muvaffaqiyatlarga erishuvimizda bizga yelkadosh, rahnamo bo'lgan ustoz san'atkorni eslab o'tishim lozim. Bu ustozlar Qurbonnazar Abdullayev, Masharif ota Rajabov, O'g'iljon opa Jumaniyozovalardir. Bulardan Qurbonnazar Abdullayev Bola baxshi ansambl ishtirokchilariga dostonchilik yo'llaridan, baxshichilik san'atidan ta'lim bergan bo'lsa, Masharif ota Rajabov qiziqchilik nomerlarini tayyorlash va muvaffaqiyatli chiqishda benazir yordam berdi. Xalfachilik san'atini ansambl ishtirokchilariga o'rgatishda O'g'iljon opa Jumaniyozovanning xizmati katta bo'ldi. Ana shu ustozlarning beqaraz samimiy yordami, otalarcha, onalarcha g'amxo'rligisiz „Avazxon“ bir qadam nari siljimas edi.

Ansamblning tez orada og'izga tushib tanilishida Nizomidin Ro'zimetov, Qo'ziboy Bekjonov, aka-uka Feruzbek baxshilar, Mashhurbek Normatovlar, Norbek Abdullayev („Avazxon“ folklor-etnografik ansambl bag'rida kamol topgan Norbek hozirgi kunda „Doston“ folklor-etnografik ansamblining rahbar) kabi baxshilar, xalfa Zulfiya Yo'ldosheva, Ilhom Normatov, Sobir Yo'ldoshev, Ollobergan Ro'zimetov kabi qiziqchilar, Bahrom Allamov, Ergash Hasanov singari

qayroqchilar, surnaychi Hayitboy Toganovlar shular jumlasidandir. Ularning har biri hozirgi paytda folklor san'atining mohir ijrochilariga aylanishgan.

Mana shunday qilib, Shovvotda „Avazxon“ folklor-etnografik ansambli tashkil topdi. Bola baxshining shogirdlaridan biri Qurbonnazar Karimov ansamblga musiqa rahbari, Hayitboy Toganov bo'lamonchi va surnaychi, Nizomiddin Ro'zimetov g'ijjakchi, Davletnazar Abdullayev sozchi-garmonchi bo'lib keldilar.

Aytish o'rinliki ansamblni shakllantirish, bugungi muvaffaqiyatlarini ta'minlash uchun ancha-muncha ter to'kishga to'g'ri keldi. Qadimiy o'yin va raqslarni bayram va sayllarimizda necha o'n yillar avval ijro etgan kishilarni ham-qishloqlarimizdan so'rab-surishtirdik. Xivalik O'g'iljon xalfa yosh qo'shiqchi Zulfiya Yo'ldoshevaga xalfalik sirlarini o'rgat-sa, urganchlik Rajab va Davlatnazar akalar yosh miniaturachi Ilhom Nurmetov va Sobir Yo'ldoshevlarga masxarabozlik o'yinlari va so'zlarini o'rgatdilar. O'zim Bola baxshi ko'magida Nizomiddin Ro'zmetov, Qo'ziboy Bekjonov, Karim Otamurodovlarga hamda o'g'illarim Feruzbek hamda Mashhurbekka doston qo'shiqlari va termalarni aytish yo'llarini o'rgatdik.

Ma'lumki, Xorazmda qo'shiqchilik san'ati o'tgan asrlarda, ayniqsa, keng rivoj topgan bo'lib, biror anjuman, sayldorboz, sozanda va go'yandasiz o'tmagan. Xalq baxshilari yig'inlarida dostonlardan parchalar bilan birga Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Ogahiy g'azallaridan namunalar ijro etganlar va xalq ma'naviyestetik saviyasining o'sishiga, kishilarda yaxshi xulq-atvorning shakllanishiga katta hissa qo'shib kelganlar.

„Avazxon“ ansambli repertuarida biz ana shu an'anaviy ansambllar cholg'u asboblarning hamda ijro usullarining uyg'unligini ko'ramiz. Bu cholg'u asboblari va ijro yo'llari o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa viloyatlarning folklor-etnografik ansambllari repertuaridan tamoman ajralib turadi.

Ansamblning yosh ijrochisi Zulfiya Yo'ldosheva xalfa qo'shiqlarini kuylaganda odam bolasi emas balki, bulbul gul ishqida xonish qilayotgandek bo'ladi.

Bozigron Go'ro'g'li yurtiga necha bor karvon tortib keladi, biroq boj to'lamaydi. Otasiday boshiga cho'girma, egniga zarbof to'n, oyog'iga etikcha kiyib olgan Feruzbek. Bozir

ponning Go'ro'g'lini mensimaganday boj to'lamay kelib-ketishi Go'ro'g'liga alam qiladi. Bir kuni Go'ro'g'li Bozirgonning belganini eshitib, uning yoniga chiqadi. Qarasaki, Bozirgon harvonidagi tuyalarni qo'ltig'iga qisib, daryodan o'tkazib qo'ydi. Uning shu daraja kuchliligini ko'rgan Go'ro'g'li hayratdan yoqasini ushlaydi. Go'ro'g'li Bozirgondan boj o'tash ra'yidan qaytmoqchi ham bo'ladi. Lekin or-nomus va g'urur, mardlik uni yetaklab, Bozirgonning qoshiga olib boradi. U Bozirgon qarshisiga chiqib, unga qarata shunday deydi:

Ola tog'dan yetib keldim qoshingga,
Sen bojingni berib ketgil, Bozirgon.
Bugun qonar bo'lding o'zing qoningga,
Sen bojingni berib ketgin, Bozirgon.

Shunda Bozirgon Go'ro'g'liga yuzlanib, shunday deb turgan ekan:

Sabab bilan keldim Chandibelina,
O'zi o'lmay zakot bermas Bozirgon.
Men kirmanam har odamning so'zina,
Kalla ketmay zakot bermas Bozirgon.

Mashhurbek endi unga jo'r bo'lib, kelgan yeridan davom ettiradi. Tinglovchi ko'z oldida ikki yurtning dovyurak pahlavoni, o'z elining temir qal'asi, ikki g'urur uchrashgandagi hayajonli holat namoyon bo'ladi. Xorazmliklar bu ikki o'smir uyushida mashhur baxshilarning yoshligini ko'rganday quvonadilar. Baxshi va doston aytish san'ati hali uzoq yillar yashab qolishiga ishonch hosil qiladilar.

Ansambl repertuaridan o'rin olgan maqom kuylari, klassik xalq qo'shiqlari, Xorazmning qadimiy raqslari, „Go'ro'g'li va Bozirgon“, „Go'ro'g'li va Xirmondali“, „Oshiq G'arib va Shohsanam“, „Avazxon“, „Oshiq Mahmud“ va boshqa dostonlardan parchalar, turli satirik va yumoristik chiqishlar, lirik va hajviy qo'shiqlar, laparlar ijrosi tomoshabinlar qalbidan chuqur joy oladi. Ansamblning nom qozonib, ko'pgina konkursning g'olibi bo'lib kelayotganining boisi ham ana shunda. Ansamblning yetakchi a'zolarining ahilligi, mehnat-sevarligi, ijrochilik mahoratini tinmay oshirib borishlari, ayni chog'da Qalandar Normatovning fidoyiligi, jonbozligi tufayli „Avazxon“ folklor-etnografik ansambli yil sayin muvaffaqiyatlarni qo'lga kirita bordi. „Avazxon“ folklor-etnografik

ansambl 1983-yil aprel oyida Shahrisabz shahrida bo'lib o'tgan Respublika baxshi-shoirlar ko'rik-tanlovida faol ishtirok etdi. Bu ko'rik-tanlovda ansambl tashkilotchisi va badiiy rahbari Qalandar Normatovga O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining faxriy yorlig'i topshirildi.

Ansambl 1985- yilgi Xorazm viloyatida bo'lib o'tgan oilaviy ansambllar ko'rik-tanlovida faxrli birinchi o'rinni egalladi va birinchi darajali diplom bilan taqdirlandi. Shu yili may oyida ansambl Butunittifoq badiiy havaskorlik ko'rigi laureati bo'ldi.

Darhaqiqat boshlariga xorazmcha cho'girma, egnilariga to'n kiyib olgan, yuzlarida tabassum, quyoshqalb, san'atsevar jamoa ijrosidagi qo'shiqlar kishi qalbini to'lqinlantirmay qolmas edi:

Hamisha navqiron mash'al diyorum,
Bu mani chiroyli Xorazm o'lkam.
Amuna jilovlab to'sdi daryoni,
Gulzorga burkadi sahro burxoni.
Xiva ovozası tutdi dunyoni,
Bu mani chiroyli Xorazm o'lkam.

Qiziqchilarning chiqishlari, zamonaviy terma, xalfa qo'shiqlaridan so'ng navbat an'anaviy xalq dostonlaridan parchalarga keldi:

Go'ro'g'li: Sabab bilan dugon bo'ldik,
Aytjak so'zim shu Bozirgon.
Ikki tanda bir jon bo'ldik,
Aytjak so'zim shu Bozirgon.

Bozirgon: Bergan so'zimda turarman,
Og'am Go'ro'g'li, Go'ro'g'li.
Dushmanlaringni qararman,
Ishon Go'ro'g'li, Go'ro'g'li.

Go'ro'g'li: Go'ro'g'libek boqar yo'la,
Ko'zin tikar sog'a, sula.
Bir yurmasam saning bilan,
Qarorim yo'qdir Bozirgon.

Bozirgon: Bozirgonni so'zi birdir,
Xalfasini kuchli erdir.
Yolg'on so'zlamoqlik ordir,
Og'am Go'ro'g'li, Go'ro'g'li...
Uch patir yopdim zirali,
Og'ajon, bog'a kirali.

O'Imasak davron surali,
Og'amjonni yo'li qayda?
Esada tog'ni shamolli,
Qanday yordamni jamoli.
Boshqa mashati ro'moli,
Og'amjonni yo'li qanday?

Sochlariga popuk taqib olgan bu qiz kuyga monand, iboli
harakatlari bilan ko'z oldingizda jozibali harakat qiladi:

Polvon bo'yi rosh ekan,
Yorim qalamqosh ekan.
Mani qalamqosh yorimning,
Yurak-bag'ri tosh ekan.
Qizil gul duyim-duyim,
Qizil guldayin bo'yim.
Mannan o'zgani desang,
Sarg'aysin rangi-ro'ying.

Muyassar Hasanova lapar kuylariga xirom etayotganida esa
xayolingiz olis-olislarga parvoz qiladi. Musaffolik, mehr-u vafo
qurshovida sezasiz o'zingizni. Qushlarning chug'ur-chug'uri,
yulduzlarning jimir-jimiri, yaproqlarning shivir-shiviri jon rish-
tangizni chertadi.

Gulsara Sultonova nozik qo'llarida torini ko'tarib, qar-
shingizga chiqib kelganida, hayajoningizga yana hayajon qo'-
shiladi. Nafis barmoqlar tor simlarini ohista chertar ekan, billur
jarangiday tiniq ovoz sehri ruhingizga orom beradi.

Nizomiddin Ro'zmetovning duet va dostonlardan olingan
qo'shiqlari ham his-tuyg'ularga boy. Askiyachi-masxarabozlar
Ilhom Nurmetov, Sobir Yo'ldoshevlar sahnaga chiqib kelish-
ganda bolaligingizda ko'rgan g'aroyib tomoshalar qayta jon-
langanday bo'ladi. Ularning qochirimli so'zlari, bir-biriga
qilayotgan hazil-mutoyibalaridan kulaverib, ichaklaringiz
uziladi.

Tomosha davomida ansamblga behudaga „Avazxon“ deb nom
berilmaganini his etasiz. Ular bir qarashda „Avazxon“
dostonidagi mard, botir, jondan aziz eliga fidoyi, suyukli yoriga
madoqatli qahramonlarga juda-juda o'xshab ketadilar.

Ansambl jamoasi tumanda, viloyatda o'tkazilib kelinayotgan
Navro'z va Mustaqillik umumxalq bayramlari „Qo'shiq bayrami“
va boshqa ommaviy tadbirlarda qatnashib, faoliyat ko'rsatmoqda.

Hozirda „Avazxon“ folklor-etnografik xalq ansambli yangi xalq laparlari, o'yinlari, aytishuvlar, dostonlar ijrosi ustida ishlamoqda.

„ORAZIBON“ XALQ FOLKLOR-ETNOGRAFIK ANSAMBLI

Hayot davom etar ekan, bir avlod yaratgan tafakkur durdonalari keyingi avlodlarga meros bo'lib, yanada sayqal topib, mukammallashib boraveradi.

Asrlar osha bizgacha yetib kelgan ma'naviyatimiz durdonalari quyosh nurlari yanglig' sochilgan. Bu hayotbaxsh chashma suvini sipqorganing sayin yurak jilg'alaridan toshib, hayajon daryolariga aylanib boraveradi. Ayollarimiz, ayniqsa, nikoh to'ylarida childirmani chertib o'lan aytganlarida, yuzimizda goh tabassum barq urib, goh kipriklerimizda shabnam yiltirab, yuragimiz tubida nimalardir ro'y berib, o'zimiz ham ularga jo'r bo'layotganligimizni sezmay qolamiz.

Mana shunday zavq-shavqqa to'la, jozibali o'lanlar, go'zal qo'shiq va raqslar keyingi yillarda faol rivoj topayotgan folklor-etnografik ansambllari repertuaridan keng o'rin olmoqda. So'nggi yillarda bu ansambllarni xalqimiz va hukumatimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanishining sababi qadimiy xalq durdonalarining umrboqiyligidan dalolat beradi.

Ha, xalq qo'shiqlari, bu xalqning intilishlari, kurashi, orzu-umidi va xalq donishmandligining badiiy go'zal ifodasidir. Ulug' hind yozuvchisi Robendranat Tagor, „Chinakam baxt—ma'naviy ehtiyojlarimizni qondirish demakdir“ deganda haqlidir.

Keyingi yillarda gurkirab rivojlanayotgan bu ansambllar kishilarning hayot go'zalligiga muhabbatini, bir-birlariga bo'lgan samimiy munosabatlarini, mehr-u sadoqatlarini oshirishga xizmat qilmoqda. Ulardan yana biri yangi tashkil qilingan „Orazibon“ xalq folklor-etnografik ansamblidir.

Ansamblning „Orazibon“ deb nomlanishining o'ziga xos sababi bor. Ansambl o'z dasturini doimo „Orazibon“ laparlarini ijro etish bilan boshlaydi. „Orazibon“ qayroq bilan ijro etiladigan Xorazm xalq qo'shig'i bo'lib, erkaklar raqsining nomidan olingan. Ansambl madaniy-ma'rifiy ishlar maskani xalq ijodiyoti viloyat ilmiy-uslubiy markazida tashkil etilgan. Ansambl dasturidagi murakkablik shundaki, unda qo'shiq, raqs,

musiqa, qayroq, zang asboblari bir vaqtning o'zida o'zaro uyg'unlashtirilgan holda ijro etiladi, bu esa ansamblning o'ziga xos tomonidir.

Ansambl qisqa muddat ichida shon-shuhrat qozondi. 1987-yil 16—17-aprelda Urganchda „Xorazm ohanglari“ deb nomlangan ommaviy xalq sayili bo'lib o'tdi. U tantanaga sho'x raqsga tushib, qo'shiq kuylab, boshdan-oyoq xorazmcha kiyinib, yal-yal yonib „Orazibon“ ansambli ham kirib keldi. Bayram teatr sahnasiga ko'chadi. Shundan so'ng u yerda qo'shiqqa-qo'shiq, kuyga-kuy, raqsga-raqs ulanib, kishi qalbini hayajonga solib to'liqlan-timvchi onlar boshlandi.

Aytish kerakki, „Orazibon“ga repertuar tanlashni hech kim tavsiya etmadi. Hech kim u qo'shiqni yoki bu raqsni ol deb aytmadi. Bularning hammasini xalq ijodiyotidan yaxshigina sabardor bo'lgan ansamblning o'zi hal qildi. Dastur belgilandi, kiyim-bosh tanlandi. Ansamblning rahbari, Xorazm folklorining chuqur bilimdoni va targ'ibotchisi O'zbekiston xalq artisti Karim Rahimovning xizmatlari katta bo'lgandi. Taniqli san'atkor katta mehnat, betinim izlanishlar hisobiga o'z atrofiga xalq urfodatlarini, qo'shiq-kuy va raqslarini sevadigan, qadrlay oladigan yigirma nafar havaskorni to'pladi.

Yaxshimurod Ashurov, Galiya Otamurodova, Jumaniyoz Ro'zimetov, Karim Ismoilov ansamblning jonkuyar a'zolari-dilar. Ular Xorazm vohasi san'atining istiqbolini ta'minlovchi ustozlar edilar.

Shaklan rang-barang, go'zal, mazmunan boy, repertuar yaratish ham o'z-o'zidan bo'lmaydi. Bu yo'lda ansambl fidoyilari viloyatning turli qishloqlariga folklor-etnografik ekspeditsiyalar uyushtirib joylardagi folklorshunos, etnograf, san'atshunos olimlar bilan qizg'in suhbat-munozaralar olib borildi. Ansambl qatnashchilari unutilgan qadimiy xalq qo'shiqlari, kuylari, raqslarini qunt bilan o'rgandilar. Ba'zilarini qayta tiklab, repertuarga kiritdilar.

„Orazibon“ ansambli konsertini ko'rganingizda go'yo san'at maskani Xorazm diyoriga sayohat qilganday bo'lasiz. Sahnada ifodalangan xalq san'atining go'zal namunasi nozikligi-yu, nafosati va ayni chog'da Xorazmga xos sho'x, quvnoq, tarovatli raqslar, sodda, beg'araz tomoshabinni o'ziga jalb etib oladi. Tomoshabin konsertning birinchi ijrosidan boshlab, toxtimasigacha diqqat-e'tibor bilan goh jiddiy, gohi jilmayib tomosha qiladi.

Ansambl ishtirokchilari har bir lapar, qo'shiq va raqslarda folklor xususiyatini saqlash bilan birga etnografik elementlarni ham ifoda etishga harakat qiladilar. Bu avvalo, ularning kiyimlarida, musiqa asboblari, lapar, qo'shiq va raqslarida namoyon bo'ladi.

„Orazibon“ Xorazm vohasining o'ziga xos, serjilo qo'shiqlari, jozibali laparlari, o'ynoqi aytishuvlari-yu, kuy va ohanglarini xalqqa manzur qilib bormoqda.

Ansambl xalq ijodiyoti II butunittifoq festivali doirasidagi ko'rik-tanlovda chiqishlar qilib, ketma-ket g'oliblikni qo'lga kiritib boshladi. Folklor-etnografik ansamblarining Respublika ko'rik-tanlovida g'olib chiqib, birinchi o'rinni egallagach, Moskvaga Butunittifoq folklor bayramida qatnashish huquqini qo'lga kiritdi va u yerda ham folklor shinavandalarining olqishiga sazovor bo'ldi. Aytish o'rinliki „Orazibon“ning har bir chiqishi san'atsevar shinavandalar o'rtasida unutilmas voqea bo'ldi. Ansambl Moskvada Xalq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasining „O'zbekiston“ pavilyonida, shuningdek, Moskvaning „Rossiya“ kinoteatri binosidagi chiqishlarida katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi.

Xorazmda biron-bir tantana, biron-bir marosim, yig'ilish, ommaviy bayram-sayl yo'qki, unda „Orazibon“ qatnashmagan bo'lsin. Xalq ijodining ixlosmandlari, san'atsevarlar hamma yerda uni zo'r olqish, ilhaqlik bilan kutib olardi. Chunki ansambl kishilarga yaxshilik, ezigulik ulashadi, yaxshi kayfiyat baxsh etib, dam olish daqiqalarining ko'ngilli o'tishiga ko'maklashadi.

Ansambl qayerga tashrif buyurib, konsertlar o'tkazmasin, tomoshabinlar har gal uni quvonch bilan kutib olishgan. Ularning maqsadi zamondoshlarimizni qadimiy xalq qo'shiqlari, kuylari va raqslari, an'analariga mehr-muhabbat uyg'otish ruhida tarbiyalash, zamonimizga munosib yigit-qizlar bo'lib yetishishlariga ko'maklashish, hormay-tolmay xizmat ko'rsatishdir. Bu „Orazibon“ folklor-etnografik ansamblining e'tiqodidir.

1988-yili ansamblning folklor san'atini targ'ib qilishdagi mehnatlarini hisobga olib, „Orazibon“ga „Xalq folklor-etnografik ansambl“ degan unvon berildi.

Ansambl repertuari boy va rang-barangdir. Ishtirokchilarning har bir chiqishlarida o'ziga xos originallikka intilish ko'zga tashlanadi. Ular o'zlari yashab turgan Xorazm xalq san'atiga xos

lokal xususiyatlarini ko'rsatishga alohida e'tibor beradilar. Chunki, ansambl Xorazm ijodining nodir namunalarini qaytadan tiklab xalqqa yetkazishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Ular dasturidan „Mavrigi“, „Lachak“ xoreografik suita, „Charx“, „Axtaraman“, „Bizdanam uyoladi“, „Rahm ayla“, „Vatan“, „Xiva dutori“, „Xalfa qo'shig'i“ kabi lapar va qo'shiqlar, jozibali raqslar joy olgan.

Ansambl tuzgan dasturida milliylik, o'ziga xoslikni, milliy kaloritning to'la sayqallanganligi, qadimiy va zamonaviy qo'shiq va raqslarni, xalq laparlarini mutanosib ravishda mujassamlashganligi ko'zga tashlanadi. Masalan, charx yigirish, surnay navosining Xorazmcha uslubi va boshqalar qadimiy folklor namunalaridan hisoblanadi. Bu namunalardan biri „Lachak“ — bu Xorazm ayollarining bosh kiyimi bo'lib, uni 40 yoshdan so'ng kiyiladi. Shu marosimning o'tkazilishi takrorlanmas usulda, zavq bilan tomoshabinga yetkaziladi. Yoki „Mavrigi“ deb nomlangan qo'shiq dastlab Buxorodagi „Nozanin“, Surxondaryodagi „Boysun“ ansamblarida tojikcha variantda ijro etilgan bo'lsa, Xorazmdagi „Orazibon“ ansamblida bu uslubning o'ziga xosligi va o'ynoqi jozibasini ko'rish mumkin. „Mavrigi“ bahr-u bayt aytishning ashula variantidir. Bu uslub juda qadimdan aytilgan bo'lib, O'rta Osiyo xalqlarining ziyrakligini, xushyorligini, zukkoligini belgilaydi.

Ayniqsa, ansambl repertuaridan joy olgan „Xalfa“ qo'shig'i ham faqat shu hududga xos ijro san'atidir. Xorazmda rivoj topgan xalfachilik san'ati juda qadimiy bo'lib, faqat xotin-qizlar tomonidan ijro etilgan. Bu qo'shiqlarda xotin-qizlarning yurak kechinmalari yo'g'rilgan. Satrlardagi joziba, ma'no teranligi, tuyg'ular silsilasi katta-katta risolalarga sig'maydi. Ansambl qalбини to'liqlantirgan his-tuyg'ular bizga ham asta singib boradi. Xalq san'ati — hayot ziynati deganda ana shular nazarda tutilgan bo'lsa ajab emas, eshiting-a:

Olti xalfa biri Oysha,
Hamma baxti qo'sha-qo'sha.
Biri-biriga yarasha,
Ela balli Olti xalfa.
Olti xalfa biri to'ti,
Ojiza bitgan suv o'ti.
Ko'rgina dam etib o'tir,
Ela balli olti xalfa.

Dillarini yayratib,
Sozlarini sayratib.
Yuraklari urari,
Ela balli olti xalfa.

Olti xalfa biri enajon,
Har so'zi dilga darmon.
Bir-biridan qolmagin,
Ela balli olti xalfa.

Olti xalfaning sardori,
El-yurtning sevar yori.
Hamma qo'lda cholar sozni,
Ela balli ojiza xalfa.

deb kuylab jamoa dovrug'ini jahonga yoyilishida faoliyat ko'rsatmoqdalar.

„DOSTON“ XALQ FOLKLOR-ETNOGRAFIK ANSAMBLI

Ma'lumki, Xorazm san'at o'lkasidir. Xorazm xalq qo'shiqlari va raqslarining o'ziga xos jozibasi butun dunyoga ma'lum. Boisi, Xorazmning qadimiy madaniyat markazlaridan biri bo'lib kelganligidir. Uning geografik o'rni, tuzilishi, iqlimi, tabiiy sharoiti yuksak madaniy boyliklar yaratish uchun juda qulay hisoblangan. Xorazm qadimdan Sharq bilan G'arb o'rtasida yirik savdo va madaniy aloqa chorrahasi hisoblanganligi ma'lum.

Xorazmda hozirgi kunda ko'pgina badiiy havaskorlik ansambllari ishlab turibdi. Xiva tuman Ogahiy jamoa xo'jaligida tashkil topgan „Doston“ folklor-etnografik ansambli ular orasida o'z repertuarining rang-barangligi bilan ajralib turadi.

1986-yilda Xiva tuman madaniyat ishlari bo'limi tashabbusi bilan Ogahiy nomidagi jamoa xo'jaligida „Doston“ folklor-etnografik ansambli tashkil qilindi. Ansambl dasturiga o'zbek xalq va Xorazm xalqining o'ziga xos folklor san'ati namunalari kiritildi:

Kuylagayman vohamizning navosini,
To'rt faslini kulgan bahor-u yozini.
Sarvinozlar elga bergan pardozi,
Madh etaylik xalqimizni sho'x sozini.

Qabul aylang qalbimizni sho'x sozini,
Tinglang jo'shqin dostonchilar ovozini.
Biz baxtiyor elni qiz-u o'g'lonlari,
Baxtli yoshlik ayyomimiz davronlari.
Chaman ochgan kelgusimiz bo'stonlari,
Avji baland sozanda-yu xushxonlari.
Qabul aylang qalbimizni sho'x sozini,
Tinglang jo'shqin dostonchilar ovozini.

Ansamblning tashkilotchi va bidiiy rahbari Norbek Abdullayev otasi va boshqa ustoz dostonchi-baxshilar, sozanda-xonandalardan o'rgangan qo'shiqlari va xalq ashularini aytish bilan kifoyalanib qolmadi. Balandroq cho'qqi va kengroq ufqlarga intildi. Uni dostonchilik va xalq qo'shiqlari maktabini davom ettirayotgan san'atkorlar qiziqtirib qoladi. Unutila boshlagan Xorazm xalq termalari, aytishuvlari, ommaviy xalq sayillarida qiro etiladigan laparlar, oto'yinlar, dorbozlar tomoshasi, arqon tortishlar, masxarabozlar chiqishlarini tiklab, ulardan keng foydalanadigan ansambl tuzish fikri uni tinch qo'ymas edi. Bu fikrini otasi Qurbonnazar Abdullayevga aytgan edi, 90 yillik umrining deyarli barchasi san'at og'ushida o'tayotgan ota rozilik beradi. Nihoyat, 1986-yili iyul oyida katta mehnat, izlanishlar hukobiga o'n kishidan iborat „Doston“ folklor-etnografik ansambli tashkil etildi.

Ansambl uchun 1987-yil muvaffaqiyatli yil bo'ldi. Shu yili iyun oyida Respublika baxshi-shoirlar ko'rik-tanlovidan birinchi o'rinni egallab, konkurs laureati degan faxrli nomga sazovor bo'ldi.

„Doston“ ansamblining repertuari rang-barang. Unda Xorazm klassik ashulalari, qadimiy xalq o'yinlari, laparlar, termalar, xalq to'rtlik qo'shiqlari, shuningdek, „Bozirgon“, „Oshiq G'arib va Shohsanam“, „Oshiq Mahmud“, „Avazxon“, „Xirmondali“ kabi Xorazm dostonlaridan parchalar va ulardan olingan qo'shiqlar, turli satirik, yumoristik ashulalar, xorazm xalqlari repertuaridan namunalar o'rin olgandi.

Madaniyat uyi yonidagi mevali daraxtlar bilan qurshalgan maydon o'sha yerda yashovchi xalqning oromgohiga aylantirildi. Xalq sayillari va uchrashuvlarni ana shu oromgohda nishonlash an'anaga aylandi. Bunday tantanalar har gal „Doston“ ansamblining karnay-surnay navolari, qo'shiq sadolari ostida

boshlanardi. Ayniqsa, hosil bayrami kunlari bu bog' tomoshabinlar bilan gavjum bo'lardi.

Davraga qo'shiqchi, torchi, garmonchi, qayroq, doirachi, chiroyli kiyingan raqqosa qiz chiqib qoladi. Qizning egnida xorazmcha uzun, beli ingichka tikilgan yengil oyog'ida qizil tulli, chiroyli lozim. Ko'ylagi havorang harir. Ko'kragiga shokila va tumor osilgan.

Bu bezakli kiyimlar xorazmning milliy libosi bo'lib, dunyodagi xalqlarda bunday chiroyli taqinchog'-u liboslar kam uchraydi. Xorazm raqqosalari kiyadigan bu kiyimlar hamma milliy kiyimlar ichida yaqqol ko'zga tashlanadi. Sochlar mayda o'rilgan, peshanada ukki pari, u shunday jozibali hilpiraydiki, u raqs ijrosining chiroyiga-chiroy qo'shadi. Raqqosa qo'llarida zang bilan shunday muqom qilib o'ynaydiki, u xuddi parvoz qilayotgan qaldirg'ochga o'xshaydi. Xonanda qo'shig'ini kuylaydi, raqqosa qo'shiqning so'zlarining ma'nosini raqsi orqali ifodalaydi.

Ansamblida sevib ijro etiladigan raqslardan biri — mag'aldoq o'yinidir. Bu o'yinni xorazm xalq raqslari ustasi Solay ota Masharipov ijro etganda qiyqiriqlar avjiga chiqardi. Uning egnida movutdan tikilgan keng ko'ylak va ishton, boshida xorazm cho'girmasi. O'yin surnay va doira jo'rligida ijro etilardi. Surnaychi va doirachining egnida ham xorazmcha milliy kiyim: etik, cho'girma, yaktak, belbog'.

Solay ota o'rtani tez aylanib, yuz mimikasida kulgili qiliqlar bilan tomoshabinlarga hazil qilib, har xil obrazlarga kiradi. Musiqa ohangiga goh o'tirib, goh turib o'ynaydi. Shundan keyin uning mag'aldoq otishi boshlanardi. U mag'aldoqni shunday otardiki, bu raqs tomoshabinlarda kulgi uyg'otardi. Goh oyog'ini yoyib, goh qo'lini yoyib tezlik bilan koptokdek gir aylanardi.

Ayniqsa, raqqos „Orazibon“, „Norim-norim“ raqslarini ijro etganida, olqishlar ovozi zalni to'ldirib yuborardi.

Shundan so'ng, davraga masxarabozlar chiqib kelardilar, ularning repertuari asosan kulgili, pantomimik raqslardan, savol-javoblardan tashkil topgan bo'lib, ularda o'tmish sarqitlari, odamlarning salbiy xislatlari o'tkir kulgi ostiga olinardi.

Xorazmda bayram tantanalari bilan ijro etiladigan o'yinlardan yana biri yog'och o'yini hisoblangan. Bu o'yin xalq ansambli repertuaridan o'rin olgan. O'yinchi oyog'iga yog'och

boylab, qo'lida qayroq bilan davraga chiqadi. Davrani aylanib, boshini ohista tebratib, musiqa sadolari ostida qayroq bilan raqsga tushadi. U oyog'iga boylangan yog'och tayoqni goh o'ngga, goh chapga ko'tarib, goh oldinga, goh orqaga murakkab harakatlar qilib, raqs ijro etadi. Yarim o'tirib, elkalarini uchirib, yog'och-oyoqda katta-katta odimlar o'ynaydi. Bir oyoqda cho'kkalab turadi, keyin oyog'ini almashtiradi. Tomoshabinni hayratda qoldirib, ikkala oyog'ini ham baravar oldinga tashlaydi. Qo'lidagi qayroq bilan har xil harakatlar qiladi.

Navbat „Sulg'un“ o'yiniga keladi. Ansamblning keksa ijrochisi Davlat ota hamda uning 64 yoshli o'g'li Rajab Davletov kulgili harakatlar bilan davraga chiqadilar. Birining qo'lida childirma, ikkinchisida hech narsa yo'q. Ikkalasi ham bir xil taymida: boshlaridagi ro'molning uchini parga o'xshatib, kulgili ko'rinishda o'rab olishgan.

Doira taka-taka-tak, gumm-gum, taka-taka-tak, gumm-gum, deb sado berib turadi. Raqqos esa doira usulida har xil usul, qiliqlar qilib, raqsga tushadi. Uning yuz mimikasi o'zgarib, goh tund, goh kulgili tus oladi. Kallasini to'rt tomon burib, ko'rsatkich barmoqlarini yeng uchidan chiqarib, raqibini axtarayotganga o'xshab harakat qiladi. Keyin soqolini tushlab, qars qoqadi. Doirachi Berdiboy Shermatov doira bilan ijroni boshlaydi. Doirani goh o'ngga, goh chapga silkitib, ritmdan chiqmagan holda raqs ijro etadi. Doirani yerga urgan bo'ladi, osmonga irg'itadi. Oyoqlari ham o'ynaydi. Davrada ikki sulg'un ana shunday bir-biridan qolishmasdan hunarlarini ko'rsatadilar.

Rajab Davletovning repertuaridan o'rin olgan „Paka-pak“ raqs ham chuqur mazmunga ega bo'lgan. Shogirdi Yusuf Olloberganov bilan birgalikda ijro etadigan „Gurlanimni go'r“, „Chiprodalli“ qo'shiqlari ham tomoshabinni hayajonga soladi.

Ansambl repertuaridan xalfachilik san'ati ham alohida o'rin olgan. Xalfa Rohatoy Xo'janiyozova ijrosidagi „Sangar“, „Layli deb“, „Axtaraman“ kabi qo'shiqlar, bahor shalolalari yanglig' qalbingizga kirib boradi.

„Oyjamol“ xalq qo'shig'i, ansambl repertuaridagi shoh qo'shiqlardan hisoblanadi. Bu qo'shiqni ansamblning badiiy rahbari Norbek baxshi Abdullayev va Rajab Davletovlar ijro etadilar.

Olisdan geladi muosini isi,
Anavu ko'ringan yorni hovlisi,
Oyjamol-guljamol aylanib galar.

Mo'minlar savdosini cho'g'dilar buzarlal,
Etmagan ishimni mannan gurarlal,
Oyjamol-guljamol aylanib galar.

Qizil gulni eksang sarvinoz bilan,
Soyasinda tursang go'zal yor bilan,
Oyjamol-guljamol aylanib galar.

Bu „Oyjamol“ qo'shig'i Norbek Abdullayev va Rajab Davletovlar ijrosida shu qadar jozibali, dilni yayratuvchi ohangda ijro etilardiki, uni tinglagan paytdagi holatni, ta'rif-tavsif etishga til o'jiz. Bu qo'shiq haqida yozishning o'zi yetmaydi, uni tinglamoq, tinglaganda ham yurak-yurakdan his etib, berilib tinglamoq kerak. Shundagina uning mag'zini chaqish, har bir satri ichiga yashiringan ma'noni anglash mumkin. Bu qo'shiqning tinglar, undagi ma'noni chuqur his qilar ekansiz, ishq-muhabbat lazzati-yu, kuch-qudratiga, hijronning achchiqligi-yu, totliligiga, muhabbat sevishganlar uchun orzu olami ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qilasiz.

„Doston“ ansambli „Oyjamol“ni sevib, yanada dilgir nolalar bilan kuylaydi. Qo'shiq bamisoli qushday qanot qoqib, Xiva qal'alarining baland devoridan oshib, musaffo ko'kka qarab talpinayotganday tuyuladi kishiga. Uni avval necha bor tinglaganlar ham, ilk bora eshitayotganlar ham bir zum hayratga tushadilar, zero dostonchilar muhabbat haqida kuylab, unga yo'liqqan kimsalarning yurak torlarini chertib, keksa-yu yoshning qalb dardlarini yangilayotgandek bo'ladilar.

Bu xalq qo'shig'ini „Doston“ kuylasin-u siz tinglang. Shu birgina qo'shiqning ijro usulini o'ylash, fikrga chorlashga matn bilan qalbni larzaga soluvchi kuyning qanchalar uyg'unlashib, biri ikkinchisini to'ldirishi va uning yangi qirralarini ochishi, ijroning tiniqligi-yu mukammalligiga qarab, „Doston“ ansambli naqadar ilgarilab ketganligiga ishonch hosil qilish mumkin. Ansamblning yetakchi ijrochilaridan Solay ota Masha-ripovning davraga tushganini, o'zining keksaligini ham unutib qo'yib, „Orazibon“, „Norim-norim“ o'yinlarini yosh yigitlardek

ijro etishini ko'rganda har qanday kishi lol qoladi. Shunday qilib, „Doston“ ansambli Xorazm xalq baxshilari, qiziqchilari, laparchi va surnaychilarini o'z bag'riga olib, xalq ijodi durdonalarini, yo'qolib borayotgan voha dostonchiligini tiklash, xalqqa qaytarib berish kabi oliyjanob maqsadlar yo'lida betinim izlanishlar olib bormoqda. Buning uchun uning repertuariga nazar tashlash kifoya. Ansambl repertuarida Xorazm xalq repertuarlari, to'y marosim qo'shiqlari, laparlar, aytishuvlar, termalar, xalq o'yinlari va boshqa folklor namunalari bor. Ayniqsa, Berdiboy Shermatovning doira chertish bilan birga o'rni o'rnida raqqoslarga hamohang harakatlar qilishi Xorazm xalq o'yinlarining o'ziga xos qirralarini namoyon etadi. „Doston“ folklor-etnografik ansamblining repertuarini qiziqchilik, imolshora, xalfachilik kabi san'atlar ham bezab turadi. Ana shunday qiziqchilardan biri Davlat otadir. U xalq orasida „Davlat poqa-poq“ nomi bilan mashhur bo'lgan.

Ansamblida zo'r muvaffaqiyat bilan chiqishlar qilayotgan 64 yoshli Rajab Davlatov ana shu mashhur „Poqa-poq“ning tarzand-shogirdi bo'lib, ota kasbini davom ettirayotganligidan cheksiz baxtiyor.

Vohada keng tarqalgan xalfachilik san'ati ham „Doston“ folklor-etnografik ansambli repertuaridan keng o'rin olgan. Xalfa Rohatoy Xo'janiyozova ijrosidagi „Sangar“, „Layli deb“, „Astaraman“ kabi xalfa qo'shiqlari tahsinga sazovor.

„Doston“ ansamblining tez orada og'izga tushishida, ya'ni Xorazm vohasi, O'zbekistonning barcha hududlari, Turkmaniston, hatto Ukrainada ham nom chiqarib dong taratishda bir qancha omillar sabab bo'ldi, albatta. Mana ulardan ba'zilari.

Birinchidan, Xivadagi madaniy hayot, adabiyot va san'atning kamol topganligi. Halq ijodi, musiqa va raqs ijrochiligi san'atlarining nihoyat darajada kuchliligi va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin. Ta'kidlash joizki, qayerda qadimiy san'at ana kuchli bo'lsa, yangilikka intilish, uning uchun kurash kuchli davom etsa, shu yerda madaniy-ma'naviy hayot kuchayadi, ijodiy hamda ijrochilik jarayoni keng tomir ota boshlaydi. „Doston“ ana shunday joy va ana shunday sharoitlarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Ikkinchidan, ansambl boshida zabardast baxshi, atoqli san'atkor, mashhur ijrochi, sozanda Qurbonnazar Abdullayev

„Bola baxshi“ turdi va unga rahnamolik qildi. U kishini Alloh o‘z rahmatiga olsin. Bola baxshidek san’atkor bosh-qosh bo‘lgach, ansambl erkin qanot qoqib kamol topmasdan qolmasdi. Haqiqatan ham, ustoz-shogirdlik an’alarini munosib davom ettirgan qo‘sh sohil bulbuli Qurbonnazar Abdullayev o‘zining farzandi Norbekni dostonchi qilib tarbiyalashga alohida e’tibor berdi. Farzand-shogird Norbek esa ota-ustozdan o‘rgangan dostonlarini, termalarini o‘sha jo‘shqinlik, zo‘r mahorat, yuksak mas’uliyat bilan ijro etib kelmoqda.

Uchinchidan, ansamblga uyushgan sozanda-yu, xonanda, raqqosa-yu qiziqchilarning repertuar tanlash, ijro mahoratiga intilishlarda o‘zaro fikran yaqinliklari, amaliy hamkorligi, bir so‘z bilan aytganda, bir yoqadan bosh chiqarib faoliyat ko‘rsatmoqdalar.

To‘rtinchidan, „Doston“ folklor ansamblini Xiva tumani va shahar madaniyat bo‘limi, Toshkent Davlat Madaniyat instituti folklorshunos-mutaxassis olimi, marhum, filologiya fanlari doktori, professor Malik Murodov berib ketgan qimmatli maslahatlari uning dasturi yo‘nalishi va amaliy faoliyatiga jamoaga muvaffaqiyat keltirmoqda.

Beshinchidan, mazkur ansamblida yuksak mehnat intizomi asosida ish olib borildi. Darhaqiqat, ansamblning har bir a‘zosi yoshidan qat’iy nazar, astoydil mehnat qiladi, o‘z ijrosi ustida betinim izlanib, mahoratini oshirishga intilmoqda.

Oltinchidan, qo‘lga kiritilgan yutuqlar bilan kifoyalanib qolmay, o‘z ustida yanada ishlash, bugundan ko‘ra ertani ko‘proq o‘ylash, repertuarini tinimsiz yangi asarlar bilan boyita borish ham „Doston“ga xos xususiyatlardandir.

„Doston“ ansambli uchun 1987- yil muvaffaqiyatli yil bo‘ldi. Ansambl baxshi-shoirlar viloyat tanlov ko‘rigida g‘oliblikni qo‘lga kiritdi. Natijada, respublikada o‘tkazilgan baxshi-shoirlar ko‘rik-tanlovida faxrli birinchi o‘rinni egalladi. Shu yili Hindistonda o‘tkazilgan O‘zbekiston madaniyat kunlari festivaliga yo‘llanma oldi.

1988- yili Ukraina Respublikasida o‘tkazilgan „Oltin kuz“ bayramida qatnashib, ukrain qardoshlarimizning olqish va hurmatiga sazovor bo‘ldi. Yana shu yil Ozarbayjon Respublikasining Kirovobod shahrida o‘tkazilgan O‘rta Osiyo, Qozog‘iston, Dog‘iston hamda Kavkazorti baxshi-shoirlarning ko‘rik-

tanlovlari qatnashib zafar qozondi. „Doston“ ansambli 1997-yil Surxondaryo viloyatining Denov shahrida bo‘lib o‘tgan Respublika baxshi-shoirilar ko‘rik-tanlovida qatnashib, faxrli birinchi o‘rinni egalladi. Shu yili Samarqand viloyati Oqtosh shahri, Narpay tumanida bo‘lib o‘tgan baxshi-shoir Po‘lkan tumanidagi 120 yilligiga bag‘ishlangan tantanalarda qatnashib, oliy o‘rin sovrindori bo‘ldi. „Doston“ ansambli 1992-yilli Toshkent shahrida o‘tkazilgan qishloq xo‘jaligi xodimlari qurultoyida o‘z konsert dasturi bilan ishtirok etdi. Ansambl a‘zolari „O‘zbekfilm“ ijodkorlari tomonidan suratga olingan „Xavaga ajrim“ filmida faol ishtirok etib, o‘z san‘at namunalari kinosayohatlariga muhrladi.

1994-yilda Toshkent shahrida o‘tkazilgan „Chashma 94“ folklor bayramida faxrli birinchi o‘rinni egallab qaytdi.

1996-yil iyun oyida „Doston“ ansambliga „Xalq havaskorlik ansambli“ unvoni berildi.

1999-yil may oyida Termiz shahrida o‘tkazilgan „Alpomish“ dostonining ming yilligiga bag‘ishlangan baxshi-shoirilar Respublika ko‘rik-tanlovida oliy o‘rinni olishga muvaffaq bo‘ldi.

2000-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga ko‘ra „Doston“ folklor-etnografik ansambli rahbari Norbek Abdullayevga (Norbek baxshi) „O‘zbekiston xalq baxshisi“ unvoni berildi. Hamisha izlanishda bo‘lgan „Doston“ ansamblining dovrug‘i dunyoga taralib doston bo‘lishiga omad va zafarlar tilaymiz.

„MOMOGUL“ XALQ FOLKLOR-ETNOGRAFIK ANSAMBLI

Qarshi tumani sovxoz klubi qoshida ishchi, nafaqaxo‘r, buspalter, kutubxona mudirasi, qo‘yingchi, hamma soha bo‘yicha ishlovchi onaxonlardan iborat „Momogul“ folklor-etnografik ansamblining tuzilishi ajoyib yangilik bo‘ldi.

1986-yilda Nodira Sayidaminova madaniyat texnikumini bitirib klubga ishga keldi. Klub ishlari ancha jonlandi. 1988-yilning fevral oyida Nodira sovxozning Gubdin qishlog‘iga to‘yga bordi. Shu to‘yda qishloq onaxonlari doira chertib lapar aytishdi, raqsga tushishdi. Ularning sho‘x laparlari-yu o‘yinlarini zavq bilan tomosha qilayotib, Nodiraning ko‘nglida onaxonlar ishtirokida ansambl tuzish istagi paydo bo‘ldi.

Sovxoz ma'muriyati uning tashabbusini qo'llab-quvvatladi. Nodira endi, qishloqma-qishloq yurib, san'atsevarlarni to'play boshladi. San'atsevar onaxonlar o'zlari bilan bor tarixiy kiyim va taqinchoqlarni ham olib kelishdi.

Sovxoz xotin-qizlar qo'mitasi raisasi Muqaddam Mahmudova sovxoz ishchisi Hakimova Salvar, Hamdamova Kichik, Temirova Mumagul, Rasulova Omongul birinchilardan bo'lib ansamblga kelib qo'shilishdi va ansambl repertuarini yanada boyitishga katta hissa qo'shishdi.

Dastlab 5—6 kishidan iborat bo'lgan ansambl, vaqt o'tib, kengayib, 20 kishidan oshib ketdi. Ular o'zaro maslahatlashib ansamblga „Momogul“ nomini berishdi. 1988- yil 21- mart kuni Gubdin qishlog'i shiyponida sumalak bahonasida „Navro'z“ bayrami o'tkazildi. Bayramda „Momogul“ ansambl qizg'in ishtirok etdi. 1988-yil 6- may kuni sovxozda Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari bilan uchrashuv kechasi o'tkazildi. Bu kechaning badiiy qismi „Momogul“ ansamblining dasturi bilan boshlandi.

1988-yil 22-may kuni viloyatda o'tgan folklor ansamblarining II Butunittifoq festivalida ular faxrli birinchi o'rinni egallab, diplom va qimmatbaho buyum va medal bilan taqdirlandilar. Ijrochilardan Zulxumor Nasimova, Temirova Mumagul, Sayidaminova Nodiralarga festival diplomi va esdalik sovg'alari topshirildi.

Shundan so'ng ansambl har shanba va bozor kunlari dala va fermalarga chiqib, dala mehnatkashlariga xizmat qila boshladi. Qolgan kunlari kelgusi chiqishlarga tayyorgarlik ko'rishadi.

Ansamblning qisqa vaqt ichida el nazariga tushishiga, albatta, ansambl ishtirokchilarining san'atga bo'lgan mehri va qiziqishi sabab bo'ldi. Shunday qilib, tuman, viloyatda bo'ladigan har qanday tadbir-tantana ularning ishtirokisiz o'tmaydigan bo'lib qoldi.

Sovxoz ma'muriyati ansamblga yaqindan yordam berdi. Kasaba uyushmasi tomonidan onaxonlarga ansambl uchun zarur kiyim-kechak, doira, ovoz kuchaytirgich va boshqa jihozlar olib berildi. Sovxoz direksiyasi onaxonlarni bir necha bor rag'batlantirdi.

Ansambl repertuarini boyitish maqsadida yangi topilgan laparmi, she'rmi onaxonlar muhokamasiga topshiriladi.

Chaqaloqqa alla aytish va erkalash

Uxla qo'zim, jonim bolam alla,
Orom olgin, ota bolam alla.
Tezroq katta bo'lgin, shakar qo'zim alla,
Omon bo'lgin baxtinga sen, alla.

Xadursa, xadursa, xadursa.
Dadasi bozorga borsa,
Qo'yni biqinidan olsa.
Onasi pazanda bo'lsa,
Bolasi xo'randa bo'lsa.

Chaqaloqqa chakmoncha,
Olib bering dadasi.
Qizga qizil paranji,
Olib bering dadasi.

Ohoy, ohoychi keldi,
Ko'chaga moychi keldi.
Moy gulchasini yitirib,
Qizimga sovchi keldi.

Qizim, qizim degim kelur,
Qirq tuyaga uzum kelur.
Uzumini o'zim yeb,
Yana qizim degim kelur.

Xalq qo'shiqlaridan „Sumalak“, „Uchib-uchib“, „Yakdona
manam“, „Momogul“ qo'shiqlari va bir necha xalq o'yinlari
tomoshabinlarda zo'r qiziqish uyg'otmoqda.

O'yin oxirida baytchi o'yinchiga qarata:

„Kichkina bo'lsin, kichkina!
Kichkina bo'lsin kichkina,
Tariqdan ham kichkina,
Zig'irdan ham kichkina,
Kichkina, kichkina, kichkina!

Kich-ki-naa... deydi. Jamoa baytchiga jo'r bo'lib, uning
harakatlariga taqlid qiladi, ovoz tobora sekinlashadi, oxirgi so'z
cho'ziq aytilib, o'yin yakunlanadi.

Xalq qo'shiqlari.

O'zbek xalq qo'shiqlaridagi har bir to'rtlik mavzu jihatdan xilma-xildir. Ba'zi to'rtliklar mazmuniga hajviy yoki yumoristik bo'yoqlar singdirilgan, o'rinli o'xshatmalar, mubolag'alar ishlatilgan. Ayniqsa, falsafiy xarakterga ega bo'lgan to'rtliklar tinglovchini ma'naviy yuksalishga da'vat etadi:

Qadring o'tdi

(xalq qo'shig'i)

Qizaribman xumoriga,
Boshingdagi ro'molingga.
Yetti daryo muzlab qoldi,
Yelpib o'tgan shamolingga.

Bu to'rtlikdagi visolga intilayotgan yigit yorning qahrli zardasini daryolarni muzlatuvchi sovuq shamolga o'xshatadi va lol qolib chekinadi:

Men boray chandon bilan,
Tish kovladim dandon bilan.
Hayfki umrim o'tdi-ketdi,
Bevafo nodon bilan

to'rtligida mehrsiz nodon yor bilan o'tkazilgan umriga achinadi.

Boqqa borsam

(xalq qo'shig'i)

Bu qo'shiq to'rtliklar hazil-mutoyiba bilan boshlanib, moyil dillarning munosabatini anglatadi:

Boqqa borsam boqasan,
Imlab qoshingni qoqasan.
Men senga nima dedim?
Dadangga borib chaqasan.
Men seni yorim desam,
Orqangda yoring bor ekan.
Ikki yuzing qip-qizil,
Labchangda holing bor ekan.

Keyingi to'rtlikda yigit yengil hazil-mutoyiba orqali maqsadga ko'chadi va go'zal qizning o'z yori bo'lajakligiga chin yurakdan ishonch hosil qiladi:

Qop-qoradur qoshingiz,
O'n to'rtida ekan yoshingiz.
O'n to'rtida bo'lsa yoshingiz,
O'zim bo'lay yo'ldoshingiz.

Qo'lida dasta guli,
Yorim ko'chaning boshida.
Nega kutmasin meni,
Men umrning yo'ldoshida.

Dardim yomon

(xalq qo'shig'i)

Jondan ayrilgan yomonmu,
Yordin ayrilgan yomon.
Yolg'izlikdan kim o'libdi,
Hammadan xo'rlik yomon.

Yorga mehr qo'ygan oshiq sevgan kishisidan ayrilishdan
bora o'limni afzal ko'radi. Lekin u tushkunlikka tushmaydi:
yolg'iz qolishdan qo'rqmaydi. Biroq rahmsiz, takabbur yor
tomonidan xo'rlanganligiga, qadr-qimmatining oyoqosti
qilganiga achinadi, yorning bevafoolidan ozorlanadi:

Gulsapsarni qarang,
Suvga qarab qayriladi.
Bevafo yorni ko'ring,
O'lmay turib, ayriladi.

Sigir sog'ar iydinib,
Sochini yerga tiydirib-a,
Gulyoraxon, bo'ylaringdan, gulyor.

Ukajon dardim yomon,
Boshimni olib ketaman.
Hamma yor shunday esa,
Dunyodin yolg'iz o'taman.

Aylanay

(xalq qo'shig'i)

Bog'ma-bog', bog' aylanib,
Arg'amchi soldim doringga.

Toleyimning yo'qligidan,
Yolg'onchi bo'ldim yorimga.

Toleyim bo'lsa edi,
Yongan chiroq o'charmidi.
Men suyangani tog'u-tosh,
O'rni bilan ko'charmidi!

Bugun uch kun, ne kun bo'ldi,
Uchirdim qarchig'ayimni.
Agar suyunchi kelsa,
Berarman barcha molimni.

Sening ko'rgan saroyingdan,
Otimni qamchilab o'tdim.
Ko'zingni uyquga solib,
Yuzingdan muchchilab o'tdim.

Yor, yor aylanay yorim,
Qo'lingga suv quyay yorim.
Qo'lingga suv quyolmasam,
Shahid o'lsin mening jonim.

Bu misralarda inson qalbidagi nafis hissiyotlarning tiniqligi va uning yuzaga qalqib chiqqanligini, inson go'zalligini ko'ramiz.

Bedavo derlar

(xalq qo'shig'i)

Navo derlar, navo derlar,
Yetimlik bedavo derlar.
Otasi yo'q, onasi yo'q,
Yetimni benavo derlar.

Dunyoda ota-ona mehriga teng keladigan muqaddas tuyg'u yo'q, albatta. Undan judo bo'lgan bolalar dili bir umr yarim bo'lib qolishi aniq. Adolatsizlik ustun turgan jamiyatda yetim holini so'rash amri mahol bo'lgan. Xalqimiz yetim dilidagi tугanmas hasratni quyidagi misralarda ifodalab bergan:

Yetimlik dardi bedavo,
G'ariblikda ado derlar.
Ko'chalarda elida ham,
Tanimasdan gado derlar.

Bunday to'rtliklarda oldingi tuzumlar davridagi yetimlar
hayoti to'laligicha o'z ifodasini topgan.

Otasi o'lmagan kim bor,
Onasi o'lmagan kim bor.
Kishining shahriga borib,
Musofir bo'lmagan kim bor.

Otasi bor, onasi bor,
Baland tog' boshida o'ynar.
Otasi yo'q, onasi yo'q,
Qabr ustida zor yig'lar.

Otam ketdi, onam ketdi,
Endi navbat menga yetdi.
Boshim yostiqqa tekkanda,
Onajonim qadri o'tdi,
Otam qadri juda o'tdi.

Tinglang, tinglang kuylar ayajon

Qo'shig'ingiz tinglab, dilda hayajon,
Ayajonlar bilan yashnar dalajon.
Onajoning hurmat qilgin bolajon,
Tinglang, tinglang kuylar ayajon.
Tinglang, tinglang kuylar ayajon,
Tinglang, tinglang kuylar ayajon,
Tinglang, tinglang kuylar ayajon.

Asrlarga tengdosh xalqim ovozing,
Avlodlarga yetkazaylik benuqson.
Jo'shib-jo'shib kuylaganda ayajon,
Kuy-qo'shiqqa to'lib ketsin keng jahon.
Tinglang, tinglang kuylar ayajon,
Tinglang, tinglang kuylar ayajon,
Tinglang, tinglang kuylar ayajon,
Tinglang, tinglang kuylar ayajon.

Raqsga tushar kichik, Ra'no, Mumagul,
Lapar kuylar xushsurati Omongul.
Ashulasin tinglaganda yayrar dil,
Tinglang, tinglang kuylar ayajon.
Tinglang, tinglang kuylar ayajon,
Tinglang, tinglang kuylar ayajon,
Tinglang, tinglang kuylar ayajon.

Ko'kni quehsin ayajonlar parvozi,
Baland bo'lsin lapar, yalla sho'x sozi.
Qabul aylang Zulxumorning dil rozin,
Tinglang, tinglang kuylar ayajon.
Tinglang, tinglang kuylar ayajon.
Tinglang, tinglang kuylar ayajon,
Tinglang, tinglang kuylar ayajon,
Tinglang, tinglang kuylar ayajon.

**„MOMOGUL“ FOLKLOR-ETNOGRAFIK ANSAMBLINING
„MOMOM AYTGAN NAVOLAR“ NOMLI
TEATRLASHTIRILGAN DASTURI**

Qashqadaryo viloyatida lapar va o'lan aytish san'ati o'ziga xos bo'lib, har bir hududning o'ziga tegishli o'lanlari bor bo'lgan. Qarshi tumanida har bir mahalla uni o'ziga xos yo'l bilan ijro etgan. O'lanlar asosan xalq sayllarida, to'y-ma'rakalarda ijro etilgan. Bugungi kunda biron-bir to'y, ma'raka yo'qki, qadimdan ijro etilib kelinayotgan o'lan yoki laparlari ijro etilmayotgan bo'lsin.

G'alla hosili bayramida xalq sayliga bag'ishlab dastur ijro etiladi. Halq qadimdan g'alla hosili yig'ilib, xirmon uyilgach hosil to'ylari, sayllari o'tkazilgan. Dastur oshpazning hasharchilarni tushlikka chorlashi bilan boshlanadi.

Jarchi: Ehe-he, bugun xirmonimiz g'allaga to'ldi! Hamma hosil to'yiga! Qatnashchilar sahnaga kirib keladilar.

Hasharchi: Iye-ye qaranglar: Muqaddam opa hosil to'yimizni bilib, kelinlarini olib kelayaptilar. Qaranglar boshida tovog'i ham bor. Hoynahoy osh olib kelayotgan bo'lsalar kerak. Ey, kelinglar-kelinglar bugun xirmonimiz to'lib, uyimizga baraka kirdi! Elimizda to'kin-sochinlik bo'ldi. Qani qizginamga o'zim salomnomani aytayin:

„Xush keldingiz!“

(Terma matni)

Oftobi-alvarim xush keldingiz,
Mol-u mulkim sarvari xush keldingiz.
Siz uchun oy-u kun mushtoq edi,
Jon bolam jononasi xush keldingiz.

Avval aytay Parvardigorimga salom,
Jumla olamni yaratgan bire-borimga salom.
Ko'p yashang kelin, quyruq oshang kelin,
To'g'raganingiz quyruq bo'lsin.
Farzandingizni birinchisi o'g'il bo'lsin.

Bijo-bijo, bijo bo'lsin,
Ichi to'la jo'ja bo'lsin.
Alpomishdek o'g'il bo'lsin,
Barchinoydek qizi bo'lsin.

Kelinga atab hasharchi momolar o'z o'lanlarini ijro etadilar:

Bir kuylagim boro,
Jin jiyagi boro.
Nevaramni to'yiga,
Bir o'ynagim boro.
Tosh ustida yotgan qiz-a,
Bo'yni to'la marjon qiz-a.
Marjonini yo'qotib-a,
Malomatga qolgan qiz-a.

Terakni uchginasi-yo,
Pistani puchginasi-yo.
Buncha shirin bo'larkan-ey,
Qizlarni kichkinasi-yo.
Terakni bargi yaproq,
Ko'chani changi tuproq.
Akasi olib bersin,
Boshginasiga zar qalpoq.

Dasturda qadimda ijro etilgan o'lanlar ham o'rin olgan.

Daryoning naryog'ida hayhaylagan,
Otini to'qson qoziqqa bog'lagan.
Otini to'qson qoziqqa bog'labo,
Belida belbog' yo'q, xas bog'lagan.

Belida belbog'i yo'q xas bog'lagan,
Kissasida puli yo'q yor saylagan.
Men og'amdan aylanay,
Qaysi og'amdan aylanay.
Qo'lida bel-ketmoni,
Dehqon og'amdan aylanay.

Olma oqib keladi, po'sti bilan,
Og'ajonim keladi, do'sti bilan.
Og'ajonim kelsalar do'sti bilan,
Oldiga qovun so'yay po'sti bilan.

Anovi tog'ning bag'rida kiyik yotar,
To'rt oyog'ini bag'riga yig'ib yotar.
Bilasanmi, bilmaysanmi boyning o'g'li,
Adras to'ning o'ng'iri kuyib yotar.

Qadimdan o'zbek xalqi xalq sayllarida hazil-mutoyibalarga
boy aytishuvlar ham ijro etishgan.

Aytishuv

Momogul opa:

Olma otgim keladi o'rgilay,
Behini sotgim keladi aylanay.
Shuginagina bobongga o'rgilay,
Bir so'zim aytgim keladi aylanay.

Temir bobo:

Olma guli nopormon aylanay,
Izlab seni toparman o'rgilay.
Izlab seni topganda aylanay,
Chap yuzingdan o'parman, o'rgilay.



Bo'stonliq tumanidagi „Gulyor“ xalq
folklor-etnografik ansambli



Surxondaryo viloyatidagi „Boysun“ xalq folklor-
etnografik ansambli



Samarqand viloyatidagi „Chavqi“ xalq folklor-etnografik ansambli



„Chavqi“ xalq folklor-etnografik ansambli



„Chavqi“ xalq folklor-etnografik ansambli



Xorazm viloyati Shovot tumanidagi „Avazxon“
xalq folklor-etnografik ansambli




„Avazxon“ xalq folklor-etnografik ansambli



Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanidagi „Momogul“
xalq folklor-etnografik ansambli



„Momogul“ xalq folklor-etnografik ansambli



„Momogul“ xalq folklor-etnografik ansambli



„Momogul“ xalq folklor-etnografik ansambli



Toshkent viloyati Oqqo‘rg‘on tumanidagi „To‘rg‘ay“ xalq folklor-etnografik ansambli



„To'rg'ay“ xalq folklor-etnografik ansambli



„To'rg'ay“ xalq folklor-etnografik ansambli



„To‘rg‘ay“ xalq folklor-etnografik ansambli



„To‘rg‘ay“ xalq folklor-etnografik ansambli



Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumanidagi „Bulbuligo‘yo“
xalq folklor-etnografik ansambli



„Bulbuligo‘yo“ xalq folklor-etnografik ansambli



„Bulbuligo‘yo“ xalq folklor-etnografik ansambli



„Bulbuligo‘yo“ xalq folklor-etnografik ansambli



„Bulbuligo‘yo“ xalq folklor-etnografik ansambli



Farg‘ona viloyati Oxunboboyev tumanidagi „Kabutar“
xalq folklor-etnografik ansambli



„Kabutar“ xalq folklor-etnografik ansambli



„Kabutar“ xalq folklor-etnografik ansambli



„Kabutar“ xalq folklor-etnografik ansamblining
xonandasi Yorqin Ahmedov



„Kabutar“ ansamblining „Mahallada xalfana“ sahna dasturi
ishtirokchilari D. Ahmedov, D. Ro‘ziboyev, A. Ro‘ziboyevlar



„Kabutar“ xalq folklor-etnografik ansambli



„Kabutar“ xalq folklor-etnografik ansambli



Buxoro viloyatidagi „Mohi sitora“
xalq folklor-etnografik ansambli



„Mohi sitora“ xalq folklor-etnografik ansambli



„Mohi sitora“ xalq folklor-etnografik ansambli



„Mohi sitora“ xalq folklor-etnografik ansambli

Momogul opa:

O'sma ekdim uyalib, o'rgilay,
Bargi chiqdi buralib, aylanay.
Akasi tezroq, keling, o'rgilay,
Zar choponga o'ralib, aylanay.

Karim aka:

Tomdan tarasha tushdi, o'rgilay,
Zulfingga yarosha tushdi, aylanay.
Zulfingga qaray-qaray, o'rgilay,
Qalpog'im yerga tushdi, aylanay.

Nigora:

Qarshini yo'lida, o'rgilay,
Ilon ko'rdim chulida, aylanay.
Shuginagina akamga, o'rgilay,
Sadqa bo'lsin shu jonim, aylanay.

Onalarimiz yurt farovonligini, xursandchiligi-yu, tashvishlarini, yurak-yurakdan kuylab ijro etishgan. Ansamblda Momogul opa ijro etgan „Ona nidosi“ o'lane ham ezgu niyatlarining izhori bilan ajralib turadi:

Istiqlof bolalari chor atrofga qarashar,
Shunday shirin zamonda, o'ynab kulsak yarashar.
Onaman-u, onaman, bolam uchun yonaman,
Bolam tinchlikda o'ssa, orzularga qonaman.

Tog'da o'sib yetibdi, qarag'ay bilan archa,
Niyati yomonlarni qilamiz parcha-parcha.

Otam mullo, onam mullo,
Men ham bo'lsam deyman mullo,
Qashqadaryosidan o'tib o'qiy deyman Kalamullo.
Qora otlig' qora tunlig' Kuydirgani keldingmi-yo,
Ochilgan lolazorimni, hazon urgani keldingmi-yo.

Hasharchi: Hay o'rgilay, avvallari kelinimiz ham ajoyib laparlar aytardi. Kelinglar, kelin ham bitta lapar aytib bersin.

Hamma: Eshitaylik, eshitaylik.
Qadimiy Qashqadaryo laparlaridan „*Boyvachcha momom*“
lapari ijro etiladi:

Boyvachcha momom huv deydi,
Jom kosaga suv deydi.
Jom kosani suvga to'ldir,
Yuragimga ur deydi.

Yuragimga ur iloyim,
Kokillari muloyim.
Shu kokilni kim ursa,
Xudo bersin iloyim.

Dupur-dupur ot keldi,
Chiqib qarang, kim keldi?
Uzangisi tillodan,
Mani akam keldi.

Podalar keladi bosh-bosh,
Oyog'ida chagil tosh.
Chagil toshni teringlar,
Jom kosaga solinglar.

Naqarot

Ansambl dasturida o'z davrida ustozlardan Gulshod Otaboyeva tomonidan ijro etilgan „Qari navo“ lapari ham o'rin olgan. „Qari navo“ lapari ijro etiladi.

Ansambl ijrosida ijro etilgan „O'lan aytgin“ aytishuvi ham o'ziga xos tarzda aytiladi:

„O'lan aytgin“

O'lan aytgin deganda o'lan aytgino,
O'lan aytgan odamlarni dardi yo'qdiro.

Yigit

Qashqadaryo ul yuzidan oy ko'rinaro,
Qirq kokilli qizlar sochi ham o'rilaro.
Otang menga bermaganin endi bildimo,
Qashqadaryo qizlari boy ko'rinaro.
O'lan aytgin deganda o'lan aytgino,

O'lan aytgan odamlarni dardi yo'qdiro.

Qiz

Sizni sevib soch o'rgan qiz, men bo'lamano,
Bu o'lanni eshitib g'amlar yedimo.
Sochim silang qirq kokilli qiz bo'lamano,
Sizni kutib daryo bo'yida turamano.
O'lan aytgin deganda o'lan aytgino,
O'lan aytgan odamlarni dardi yo'qdiro.

Yigit

G'irot minib daryo bo'yiga boraymu yo,
Onang o'rgan qirq kokiling man silaymu yo.
Sevishingni endi bildim aziz yorimo,
Dunyo bo'ylab o'lan aytib man yuraymu yo.

O'lan aytgin deganda o'lan aytgino,
O'lan aytgan odamlarni dardi yo'qdiro.

Tan sihatlik-xotirjmalik bersin. Dasturxonimizga to'kin-
sochinlik bersin. Qari-yoshlarga imon, umr bersin.
Xirmonimiz yuksalaversin. O'lanlarimiz, laparlarimiz avj olsin,
dunyo bo'ylab kezaversin.

Qarang-qarang kelin keldi,
Yo'lga puta tutinglar.
Quda momo yetib keldi,
Davlatini beringlar.
To'y muborak bo'lsin,
To'ylar muborak bo'lsin.

Dastur davomida sahna bezaklarida viloyatga xos kashtalar
hamda charxpalakdan foydalaniladi.

„GASHTAK“ XALQ FOLKLOR-ETNOGRAFIK ANSAMBLI

1991- yilda G'allaorol tumani markazlashgan madaniyat uyi
qoshida folklor-etnografiya ansambli tashkil etildi.

Ansambl turli kasb egalari bo'lmish H. Utalov, Saidbahrom
Fayzullayev, A. Qorayev, T. O'rinboyev, I. G'afforov, A.G'aybul-
layev va boshqalardan tashkil topgandi. Uning ijro repertuari asosan
mahalliy aholining terma qo'shiqlarini o'z ichiga olgandi. Ansambl
tashkil topgach, ish qizigandan-qizidi.

Jamoa ijodiy guruh a'zolari tumanning chekka qishloqlariga safarlar uyushtirib, tez orada ko'plab xalq termalarining ijrochilari bilan uchrashdilar va ulardan terma qo'shiqlarni yozib olib ansambl repertuariga katta hissa qo'shdilar. „Gulsandiq“, „Zebomxon“, „Tushumda ko'rdim“ kabilar shunday qo'shiqlar sirasidir.

„Gashtak bazmi“ ssenariysi asosida tuzilgan tomosha dasturini muallif S.Fayzullayev Baxmal tumanida 1992- yilda bo'lib o'tgan Respublika folklor ansambllari anjumanida yetib, nufuzli hakamlar hay'atining yuqori baholariga sazovor bo'ldi.

Respublikaning mustaqillik bayrami va Navro'z tantanalarida „Gashtak“ ansamblining chiqishlari shu vaqtgacha namunali, deb baholab kelinmoqda. Ular ijrosidagi „Navro'z“, „Ona yurt qo'shig'i“, „Gashtak“ bazm qo'shig'i, „To'sh marosimi“, „Alyor“, „Jizzaxim“, „Chavgon, ko'pkari“ kabi ko'plab qo'shiqlar, mahalliy aholining shevasida va sahna liboslarida o'ziga xos talqin etilmoqda.

„Gashtak“ ning xalq og'zaki ijodi, urf-odati va marosimlarini puxta o'rganib, ularni keng jamoatchilikka yetkazish borasida olib borayotgan ishlarni inobatga olib 1997- yilda unga „Xalq folklor-etnografik ansambli“ unvoni berildi.

2002 — 2004- yillarda xalqaro YUNESKO tomonidan o'tkazilgan „Boysun bahori“ ochiq festivalida „Gashtak“ ansambli „To'sh“, „To'g'iz tovoq“ deb nomlangan dasturlarini namoyish qilib, faxrli birinchi o'rinni egallab, xalqaro festivalning diplomi va eng katta qimmatbaho sovg'asini qo'lga kiritdilar.

Hozirgi kunda „Gashtak“ folklor - etnografik xalq ansambliga I. G'afforov rahbarlik qilayotir. Uning atrofida iqtidorli Azamat To'galov, Abdusamat G'aybullayev, Ismatilla Umirov singari 30 dan ortiq o'z ansamblining fidoyilari mehnat qilmoqdalar.

TO'QQIZ TOVOQ.

Momo: Bismillahir Rahmonir Rahim! Yoshlarimiz omon bo'lsin, hamma ishni saranjomlab qo'yishibdi. (Momo gapirib sahnaga chiqadi va gapida davom etadi.)

Kamola qizim kelaqol!

Kamola: (sahnaning bir burchagidan sahnaga chiqib keladida)
Labbay buvijonim!

Momo: Baraka top qizim. Endi dasturxonni tayyorlab qand-qurslarni ichkari xonadan olib chiqib qo'y! Mevalardan ham olib kel. Ha, aytganday, yangalaringdan ham xabar olgin-chi, „to‘qqiz tovoq“ taomlari tayyor bo‘libdimi? Bo‘laqolishsin tezroq.

Kamola: Ho‘p bo‘ladi buvijon. Ha, aytganday, „To‘qqiz tovoq“ nima o‘zi? Uni tushuntirib bering.

Momo: — Voy bolajonim-ey. Bu udum qadim-qadimdan otabobolarimizdan qolgan. Kelin tomon pazandaligini, mehmondo‘stligini namoyish qilish uchun „to‘qqiz tovoq“ marosimini o‘tkazishgan. Kuyovning qarindoshlari, kuyovnavkarlari, turli sovg‘a-salomlari bilan ularga javob qaytarishadi.

Kamola: Endi tushundim buvijon. (*sahnadan Kamola chiqib ketadi*)

Momo: Dilshod, bolam kelaqol.

Dilshod: Labbay (*deb sahnaning bir chetidan chiqib keladi*)!

Momo: Hozir mehmonlar kelib qolishadi. Sen mana shu xonaga kirib, choylaridan xabar olib turasan. Ha, aytganday, mehmonlar kelib qolishsa darrov xabar ber. Men mehmonlarning oyoqlariga poyandoz solishim kerak.

Shu paytda karnay-surnay sadolari eshitaladi.

Dilshod: Chiqaqoling, mehmonlar kelishdi.

(*Shu payt onaxon chiqib keladi-da, kuyovning oyog‘i ostiga poyandoz yozadi.*)

Momo: Qadamingiz qutlug‘ bo‘lsin! Xush kelibsizlar!

Dilshod mehmonlarni ichkariga olib kiradi. Mehmonlar o‘tirib olishgach, ulardan biri fotiha qiladi.

Ilohim, ikki yosh baxtli-taxtli, qo‘shganlari bilan qo‘sha qarisinlar. Hayotlari asaldek shirin bo‘lsin! Omin ollohu akbar!

Dilshod: Mehmonlar, qanday choy ichasizlar? Qorami, ko‘kmi?

Mehmonlardan biri: Albatta, ko‘k choy ichamiz-da (Ko‘k choy to‘g‘risida hazil-mutoyiba bo‘lib o‘tadi.) Mehmonlarga choy uzatiladi. Mehmonlar bilan suhbatlashib o‘tirib,

Dilshod: Qani mehmonlar, endi „to‘qqiz tovoq“ marosimini ham boshlasak bo‘ladi — deydi.

Mehmonlardan biri: Ha, albatta.

Shu payt to‘qqiz tovoq taomlari kiritila boshlaydi.

Birinchi bo‘lib: Tog‘asiga atalgan tovoq, ya‘ni *palov* kiritiladi.

Ikkinchi bo'lib: Amakisiga atalgan tovoq *chuchvara* kiritiladi.

Uchinchi bo'lib: Kuyovjo'ralariga 9 ta *tuxum* kiritiladi.

To'rtinchi bo'lib: *Qatlama* kiritiladi.

Beshinchi bo'lib: Turli xildagi mazali *pishiriqlar* kiritiladi.

Oltinchi bo'lib: *Somsa* kiritildi.

Yettinchi bo'lib: Ko'nglingiz oq bo'lsin, kelin-kuyovning hayotlari shirin bo'lsin, deb *shirguruch* kiritiladi.

Sakkizinchi bo'lib: *Manti* kiritiladi.

To'qqizinchi bo'lib: Kuyov uchun *Kuyov jilik* (ilik) olib kiradalar.

Kuyovga keltirilgan ilikli suyakni jo'rasi hammaga ko'rsatib bo'lgach, dasturxonga qo'yadi.

Qani kuyov bola jilikni bo'ling, ichidigisidan totib go'shtidan tanovvul qilib do'stlaringizga uzating, ular ham kuyov bo'lishsin. Kuyov jilikni ikkiga bo'lib, o'zi tanovvul qilganidan so'ng uni jo'ralariga beradi.

Momo: Endi siz qudajonlar to'qqiz tovoqqa javobni qaytaringlar. Bizlarga ko'nglingizdan chiqargan tovoq qarzi sovg'asini beringlar. Rozimisizlar?

Tovoq qarzi, ya'ni turli sovg'alar tovoqlarga solib qaytariladi.

Mehmon: Ha, albatta, biz rozimiz. Faqat biron-bir cholg'u asbobi bormi? (deb so'raydi mehmonlardan biri)

Endi qudalar aytishuvini boshlaymiz, tayyormisizlar!?

Dilshod: Ha, albatta! (deb ichkaridan doira, chandovuz, do'mbira va rubob olib chiqadi)

Sunnatulla boshidanoq doira chalib kirib, Maqsudga jo'r bo'ladi. Mehmonlar o'rnilaridan turib davra qurishib kuy-qo'shiqlarni boshlaydilar. Eng avvalo mehmonlardan biri Xayrulla qo'shiq aytadi.

„Surxondaryoda elatim“

Surxondaryoda elatim,
Alpomish mening avlodim.
Faxrlansam men arziydi,
O'zbekistondayin davlatim.

Naqarot

aha-aha-aha-hey,
ehe-ehe-ehe-hey.
Bir tomonda bobotog',
O'rtada qaynar oy buloq.

Bir tomonida Boysun-e,
Qizlar ro'molin yoysin-ey
aha-aha-aha-hey,
ehe-ehe-ehe-hey.

Mehmonlardan yana biri, Sirojiddin, ikkinchi qo'shiqni boshlaydi.

„Qizgina“

Qizgina, qirmizgina, ko'zimdagi yulduzgina,
Sog'inib kelar bo'lsang, tosh ko'chalar kunduzgina.
Anovi tog'ning chinori bor,
Bo'yingizning tumori bor.
Jonim sizsiz yasholmadim,
Sog'inchimning xumori bor.

Naqarot

Qizgina, qirmizgina, ko'ksimdagi yulduzgina,
Sog'inib kelar bo'lsang, tosh ko'chalar kunduzgina.
Boshimda aylanar dunyo,
Kechasi tog'lar zim-ziyo.
Yig'laganim tog' ham bildi,
Toshlar sendan yaxshimi-yo.

Naqarot bilan tugatiladi.

Mehmonlardan yana biri Nurqobil qo'shiq aytadi.

„Chechajon“

Boqqa kirgan bulbulga,
Hidlagani bir gul kerak.
G'uncha ochgan har gulga,
Sayroqi bulbul kerak.
Bizning bog'da o'nta gul,
Birini tanlab men halak.
Har birida o'n bulbul,
Aylanadi charxpalak.

Naqarot

Jonim checha, chechajon,
Borib ko'ring o'zingiz.

Bo'yniga taqing marjon,
Qaytmasin hech so'zingiz.

Sumbul uning sochlari,
Lablarida bol uning,
Kamon erur qoshlari
O'ng betida hol uning.
So'zlasam dil ovlanar,
Ko'rsa ko'ngil suygudek,
Tovus kabi tovlanar
Dushman ko'rsa kuygudek.

Naqarot

Jonim checha chechajon,
Borib ko'ring o'zingiz.
Bo'yniga taqing marjon,
Qaytmasin hech so'zingiz.

Hushyor bo'ling jon checha,
Shayton yo'ldan urmasin.
Borib keling shu kecha,
Sizni birov ko'rmasin.
Siz kelguncha yurakni,
Hovuchimda tutaman.
Gulga nola kerakmi,
Bulbul bo'lib kutaman.

Naqarot bilan tugatiladi.

Mehmonlardan yana biri Maqsud: — Kelinglar, endi men
bir qo'shiq aytay sizlar maza qilib eshitinglar.

„Azim daryo“

Azim daryoman debon,
Haybatingga ishonmaye voy doda.
Bir kun suving quribon,
Oqmas daryo bo'lursano, alamo.
Yoshlikda mag'rurlanib,
Chiroyingga ishonma.

Bir kun chiroy ketibon,
Quruq savdo bo'lursano, alamo.

Qoshing qaro bo'lguncha-e,
Ko'zing qaro bo'lsa-chi.
Menga yolg'on aytguncha-e,
Yuzing qaro bo'lsa-chi.
Azim daryoman debon,
Haybatingga ishonma, voy doda.

Bir kun suving quribon,
Oqmas daryo bo'lursano, alamo.

Norqobil: Checha, kuyov norozi bo'lyapti.

Momo: Voy o'lay, kimdan norozi, nimadan norozi?

Norqobil: Kuyov bitta qo'shiq aytib bermoqchi.

Momo: Voy qilg'inglar bor bo'lsin, 1 ta emas 10 ta qo'shiq
aytmaydimi. Aytaqolsin!

Kuyov chiqib sho'x qo'shiq aytadi. Ya'ni *Narzulla:*

„Vohay bola“

Jiydaning shoxi larzo, vohay bola yoray,
Osti to'la has-hazon, vohay bola yor-yora.
Kelin-kuyov to'yida, vohay bola yoray,
O'ynab-kulaylik shodon, vohay bola yor-yora.
Vohay bola jon bola, To'ylar bo'lsin yor-yora,
Shunday baxtli zamonda, O'ynab-kulaylik shodon.
Chashma yigit qizlari, vohay bola yora,
Davrada xizmat qilsin, vohay bola yor-yora.

Maqsud: Qani endi momo sizdan ham eshitaylik.

Momo: Mayli bolam to'y to'ydek bo'lsin. Faqat sizlar ham
yordam berib turinglar.

Momo qo'shiq kuylaydi:

Osmonda oylar o'ynasin, Cho'ri chechalar qaynasin.
Davra to'rida jo'ralaro, Belini mahkam bog'lasin.
Tog'dan kelamiz orolab, O'sma teramiz saralab.
Qoshlari qaro suluv qizo, Devordan qarar mo'ralab.

Nima desangiz shergamiz, So'rovga javob aytamiz.
Gapimiz sizga o'tmasa-e, Surma bermangiz qaytamiz.

Mehmonlar: Yashang, barakalla, Momo, endi bizga bir duo
qilangiz, kelinni olib uyga qaytamiz.

Momo: Mayli lekin duo mezbondan. Marosimni oxirida faqat erkaklar duo qilishadi.

Mehmonlardan biri duo o'qiydi. Omin, kelasi yil, kelasi shu oylarga, eson-omon mahalla- kuyimiz, qarindosh- urug'larimiz bilan birgalashib yetib kelish nasib etsin, Ollohu akbar!

Momo: Endi bu 9 tovoqning taomlarini mana shu dasturxonga tugib olinglar taomuli shunday. Endi yuringlar narigi xonada kelinni kiyintirib tayyor qilib turishibdi. Faqat yana ozgina irim- sirimlarini o'tkazib, so'ngra kelinni olib ketasizlar. Qani mening orqamdan yuraqolinglar.

Kuyovjo'ralar yor- yor aytib chiqib ketishadi.

Tamom.

„TO'RG'AY“ XALQ FOLKLOR- ETNOGRAFIK ANSAMBLI

Qadimiy qo'shiqlar, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar va marosimlarni o'rganish, ularni takomillashtirilgan holda xalqning o'ziga qaytarish hamda xalq ijodiyoti durdonalarini kelgusi avlodga meros sifatida qoldirish — folklor-etnografik ansamblarning asosiy vazifalaridan biridir.

2002- yil „Qariyalarni qadrlash yili“ ga bag'ishlab, Qashqadaryo viloyatining Kitob shahridagi madaniyat va istirohat bog'ida folklor-etnografik ansamblarning an'anaviy respublika ko'rik-tanlovi o'tkazilgan edi. U vaqtda endigina tashkil etilgan, ko'proq yosh yigit- qizlardan iborat bo'lgan „To'rg'ay“ folklor ansambli Toshkent viloyatining „Qurama“ elatiga xos bo'lgan to'y marosimi namunalaridan iborat teatrlashtirilgan badiiy-musiqiy dasturni namoyish etdi:

Bo'zto'rg'ay, Bo'zto'rg'ay,
Bo'zlamasang ne bo'lg'ay.
Shunday baxtli zamonda
O'ynamasang ne bo'lg'ay.

(xalq so'zi)

Tomoshabinlar va tanlov hakamlar hay'ati a'zolarida o'zining qiziqarli dasturi bilan yaxshi taassurot qoldirdi, mazkur ko'rik-tanlovning yuqori o'rin sohibi bo'ldi va tanlovning qimmatbaho sovrini bilan taqdirlandi.

Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumani markaziy madaniyat uyi qoshida faoliyat ko'rsatayotgan „To'rg'ay“ folklor- etnografik

ansambli 1997- yilda iqtidorli san'atkorlar Alisher Qurbonov, Botir Mirzayev va Sayyora Sayidaliyevlarning tashabbusi bilan tashkil etilgan. Unda turli kasbdagi o'ttizga yaqin yigit-qizlar faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Mazkur badiiy ansamblning dastlabki tomosha dasturlarini tayyorlashda Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat instituti professori Saodat Yo'ldosheva o'zining uslubiy va amaliy maslahat va ko'maklarini berdi.

Ansambl qatnashchilari Oqqo'rg'on tumanida yashovchi yoshi ulug' momolar va bobolar bilan suhbatda bo'lishib, ulardan shu yerli aholining qadimiy udumlari, marosimlari, xalq qo'shiq va raqslari hamda shu hududga xos bo'lgan liboslar haqida so'zlab, ularni o'rganib, shular asosida tomosha dasturlarini tayyorladilar.

„To'rg'ay“ ansambli qatnashchilari tuman va viloyat mehnat korxonalari, tashkilotlar, o'quv muassasalari va mahalla hamda dala mehnatkashlari huzurida konsert dasturlarini namoyish etib, aholiga madaniy xizmat ko'rsatib kelmoqdalar.

„To'rg'ay“ ansambli respublika miqyosida o'tkaziladigan ko'rik-tanlovlar, festivallar, Navro'z va Mustaqillik singari umum-xalq bayramlariga bag'ishlangan tantanalarda faol ishtirok etib kelmoqda.

2003- yili Toshkent shahrida Alisher Navoiy nomidagi akademik opera va balet katta teatrida Shveysariya elchixonasining O'zbekistondagi Ochiq Jamiyat Instituti — Ko'mak jamg'armasi va O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi bilan hamkorlikda o'tkazilgan „Charx — 2003“ raqs festivalida „To'rg'ay“ folklor ansambli Oqqo'rg'on tumanining „Quvonch“ namunali raqs ansambli ishtirokchilari bilan birgalikda yangi tomosha dasturi tayyorlab qatnashdilar va festivalning rag'batlantiruvchi mukofotiga sazovor bo'ldilar.

Ansamblning badiiy rahbari Alisher Qurbonov bilan bo'lgan suhbatimizda biz o'z hududimizga xos bo'lgan an'analar, urf-odatlar, milliy xalq qo'shiq va raqslari, o'lan hamda aytilishuvlarni tinmay izlab topamiz. Shuningdek, ustozlar, folklorshunos olimlar va mutaxassislar bilan maslahatlashib, tomosha dasturlarimizga tayyorgarlik ko'ramiz. Dasturimiz tayyor bo'lgach, sahnaga chiqamiz. Ansamblimiz qatnashchilari asosan qishloq yoshlari bo'lganligi uchun ularning asosiy ishlaridan bo'sh vaqtlarida yig'ilib mashg'ulotlar o'tkazamiz — degan edi.

Biz xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar respublika ilmiy ustubiyat markazi hamda Toshkent shahridagi G'afur G'ulom nomli madaniyat va istirohat bog'i jamoalari hamkorlikda uyushtirgan „O'lan aytgani keldik“ folklor bayramida ham qatnashishga muyassar bo'ldik. Bu bayram dasturi televideniya ijodiy xodimlari tomonidan tasvirga tushirilib, bir necha bor ekran orqali namoyish etildi. Kelgusida xorijiy davlatlarga ijodiy safarlarga chiqishni ham o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz.

„To'rg'ay“ folklor- etnografik ansambli qatnashchilari o'z ustilarida tinim bilmay ijodiy izlanishlar olib bormoqdalar. Ansambli jamoasining bevosita tashabbuskorligi bilan Oqqo'rg'on tumanida unutilib borayotgan qadriyatlar sahna yuzini ko'rib, xalqqa sayqallangan holda qaytarilmoqda. 2006- yil 11—14 sentabr kunlari Farg'onada bo'lib o'tgan „Alla“ ijrochilarining ko'rik bellashuvida Toshkent viloyatining o'ziga xos „Alla“ qo'shig'ini ijro etib, ansambli qatnashchilari faxrli 3- o'rinni egalladilar.

„Bo'ma solay“ udumi

To'rg'ay qushi sayrab turadi. Sahnaga ikki qatnashchi qizlar qush kiyimida chiqadilar.

1-yigit:

Ehe- hey! Ana qarang to'rg'ay keldi! To'rg'ay!

2-yigit:

O'lkamga bahor keldi,
Yurtimga to'rg'ay keldi.
Ovozindan o'rgilay to'rg'ay,
Barakangdan aylanay to'rg'ay.

1- yigit: Aytishlaricha, bahor kelishi bilan kimda-kim birinchi bo'lib to'rg'ay qushini ko'rsa va unga bir siqim ona yerimiz tuprog'idan tutsa, o'sha kishining oilasiga qut-baraka kirib, yurti tinch, xalqi boy va sihat-salomat bo'lar emish. Shuning uchun to'rg'ayni birinchi bo'lib ko'rishga shoshiling!

2- yigit:

To'rg'ay keldi, chuldirab,
Yigit-qizlar jo'r bo'ldi.
Ukaginam pildirab,
O'ynab keldi, zo'r bo'ldi,

— deydi va davraga yigitlardan birini taklif qiladi, hamma qatnashchilar sahnaga yarim doira shaklida chiqib kelishadi.

Qizlar:

Yurtim bog'iga to'rg'ay,
Sayragani kelibdi.

Yigitlar:

Sihat ila salomat,
Tilagani kelibdi.

Qizlar:

Bog'innga bahor keldi,
Boshingga Xumo keldi.

Yigitlar:

Vatanimiz kuylashga,
Baxtli bir zamon keldi.

Qizlar:

Osmondagi oy bola,
Qoshlari qora yoy bola.

Yigitlar:

Buncha yoqimtoy bola-ey,
Kichkina bola, hoy bola.

Ashula tugashi bilan yigitlardan biri:

Bugun to'y-u, tomosha,
Taralsin tog'lar osha,
Bo'lsin zavq-u, tomosha!

Ey! Qani yigitlar, qani to'yga to'yona? Boshladik! — deydi
va yigitlar lolalarni qizlarga ulashib, ashulani boshlaydilar.

Yigitlar:

To'yingizga to'yona,
Lolalar terib keldik.
Sizlarga Oqqo'rg'ondan,
Bir o'lan olib keldik.

Aylonaman yak dona,
Qo'llari dona-dona.
Qizlar o'ynaydi gulbog',
Xushtorlari devona.

To'yingizga to'yona,
Lolalar terib keldik.

Sizlarga Oqqo'rg'ondan,
Bir o'lan olib keldik.

Tog'lar boshi qurama,
Yangam sochi burama.
Ro'molchani keltirding,
Uydagilar bilama?

— Ha!

— deya qizlar javobni tayyorlaydilar.

Qo'llarida ro'molcha bilan javob qaytaradilar:

Qizlar:

Sizlarga ham o'g'lonlar,
Qutlug' bo'lsin bu ayom.
Lolalarga javoban,
Ro'molchalar armug'on.

— Qizlarning har biri yigitlarga bitta-bitta ro'molchalarini beradilar.

Ushbu ro'molchalarga,
Mehr qo'shib tikilgan.
Har choki, har qatmiga
Ishq otashi bitilgan.

Sizlarga ham o'g'lonlar,
Qutlug' bo'lsin bu ayyom.
Lolalarga javoban,
Ro'molchalar armug'on.
Qo'shiq tugaydi.

Momo:

Yigitlar, ro'molcha bahona aytishuvni boshlaymizmi?
Qani kimdan birinchi boshlaymiz?

1- qiz:

Qoshi, ko'zi kiyik yor,
Bermaysiz hech e'tibor.

1-yigit:

Ro'molchangdan o'rgilay yorim,
Uni tutib yurayin doim.

2- qiz:

Ro'molchamni ko'ring siz,
Sizga pinhon xati bor.

2- yigit:

Dard ko'rmasin qo'llaring,
Oydin bo'lsin yo'llaring.

3- qiz:

Ro'molchamda gul rasmi,
Gul demang, ko'ngil asli,

3- yigit:

Ro'molchang guli dona,
Ishqingda men devona.

Yigitlar qo'shiq boshlaydilar:

Ro'molim bor so'zoni,
Akan ichmas bo'zoni.
Akan ichsa bo'zoni,
Sindiradi ko'zoni.

Bog'da bulbul sayradi,
Tol bargini chaynaydi.
Shul ukangni so'rasang,
Qoshini qoqib o'ynaydi.

Tom boshida yotaman,
Suqsur ko'rsam otaman.
Satang-satang qizlarning,
Kokilidan tortaman.

Momo:

Hoy yigitlar, davramizga qurama tog'ning go'zal qizlaridan kelishgan. Qani o'lanchi qizimizdan eshitaylik.

— Yigitlar, javobga tayyor turinglar — deb aytishuvni boshlaydilar.

Qiz:

O'lan aytsam o'lanim adashmaydi,
Yolg'iz aytgan o'lanim yarashmaydi.
Ikkov-ikkov aytaylik birday bo'lib,
Sabog'ida ochilgan gulday bo'lib.

Yigit:

Ey, Oqqo'rg'ondan kelaman yolg'iz o'zim,
Qo'limda kuk qarchig'ay — bo'tako'zim.
O'lan aytib o'tirgan sariq yuzim.
Bari qizdan yaxshisan, yolg'iz o'zing.

Qiz:

Fasli bahor bog'da gullar ochiladi,
Bu gulshanda gummon bo'lib sochiladi.
Suluv qizga osilmay to'g'ri ayting,
Qiz bolaning barisi bir bo'ladi.

Yigit:

Ey, ot baylovda, kuy jaylovda yayraydi,
Seni ko'rsam kunim kunda yayraydi.
Chochlaringni mayda qilib o'ribsan,
Ko'rgan yigit havas bilan qaraydi.

Qiz:

A-ot yolini beshta-beshta uribmidi?
Bizni elda oralab yuribmidi.
Suluv qizga osilmay to'g'ri ayting,
Suluv qizni bir yerda ko'ribmidi?

Yigit:

Yoshligingda otang seni bermasa,
Qarib qolsam sira seni olmayman.

Yigitlar.

1- yigit: Ana endi, „Bo'ta solish“ udumini boshlaymiz. Qani boshladik.

Solay-solay kimga solay?

Yigitlar: Sochi uzun qizga solay.

1- yigit: Solay-solay, kimga solay?

Yigitlar: Osmondagi oyga solay.

1- yigit: Solay-sola, kimga solay?

Yigitlar: Qoshi qora qizga solay,

— deya yigitlar qizlarning qo'liga bo'ta solib qo'yadilar. Shunda momo:

— Qani kim topadi?

2- yigit: Mana men topaman. Sharti nima?

Momo: Agar topa olmasang uch solim darra yeysan.

2- yigit: Men roziman!

Hamma: Topmaganga uch solim ha-ho'p,

Topmaganga uch solim ha-ho'p,

— Ikkinchi yigit bo'tani topa olmaydi.

Uchinchi yigit:

„Topolmading, qani beri kel bir siylab qo'yay-chi“— deb uni uch solim o'radi.

Momo: Qani, bo'tani kim topadi?

5- yigit: Men!

Momo: Topolmasang besh solim.

Hammasi: Topmaganga besh solim ha-ho'p,

Topmaganga besh solim ha-ho'p.

Beshinchi yigit ham topa olmaydi va u ham besh solimni oladi.

Momo: Oralaringda mardlaring bormi?

6- yigit: Mana men-da!

Hammasi: Topmaganga o'n solim ha-ho'p,

Topmaganga o'n solim ha-ho'p,

Oltinchi yigit bo'tani topadi.

6- yigit: Mana, topdim! Qani, qizlar, mukofotiga nima berasizlar?

Qizlar: Mukofoti bitta laparda!

Yorim nimalar devdim sizga,

Voy, yana nimalar devdim sizga.

Toshkentga boray dedim, borolmadim,

Rohatlar qilay dedim, qilolmadim.

Qoshingni qorasiga aylanay,

Hol bo'lay arosiga aylanay.

Aslo rahming kelmaydi,

Birovning bolasiga aylanay.

Ot minsam ham o'ynayman aylanay,

Minmasam ham o'ynayman o'rgilay.

Yurakdagi yorimni, yana yurakdagi yorimni,

Ming ko'rsam ham to'ymayman o'rgilay.

— Lapar tugaydi va qizlar: „Qani yigitlar! Nima deysizlar?“ deyishadi.

Yigitlar: Ana-ana tinchlik elchisi, Bo'zto'rg'ay:

Naqarot:

Bo'zto'rg'ayjon, Bo'zto'rg'ay,
Bo'zlamasang ne bo'lg'ay.
Shunday baxtli zamonda,
O'ynamasang ne bo'lg'ay.

Atlas ekan ko'ylaging,
Guldek nozik bilaging.
Yurtinga bahor keldi,
Aytgin bo'sa tilaging.

Qozon to'la moy gulsin,
O'zbekiston boy bo'lsin.
Mustaqil zamon bergan,
Yurtboshimiz bor bo'lsin.

Oymomojonim xulla,
Quloqlarda tilla.
Subxon Ollo-yo sizga,
Umr bersin bizga.

Alpomish o'g'lonlaring,
Barchinoydek qizlaring.
Yurtim baxtin kuylaydi,
Xushovoz bulbullaring.

Mana endi kun botdi,
To'rg'aylar uyga qaytdi.
Biz ham endi qaytaylik,
Qo'shiqni tugataylik.

— degan vaqt to'rtta to'rg'ay qushi uchirib yuboriladi.

Bo'zto'rg'ayjon, Bo'zto'rg'ay,
Bo'zlamasang ne bo'lg'ay.
Shunday baxtli zamonda,
O'ynamasang ne bo'lg'ay.

Qo'shiq tugaydi. Hamma karnay-surnay sadosi ostida ta'zim qilib
chiqib ketadi.

Yil boshi udumi

To'rg'ay sayramoqda. Qatnashchilar asta-sekin davraga kirib kelishmoqda. Hamma jam bo'layotgan paytda davraga Orif yonida ikki bola bilan „Boychechak“ qo'shig'ini aytib, raqsga tushib kirib keladi.

Adirlar to'la chechak, biz keldik ucha-ucha,
Boychechagim boychechak, kutib oling hoy checha.
Gimma-gimma guralay, seni ko'zing quralay,
Boychechak olib kelding, senga sadaqa bo'lay.
Boychechak gul aslidir, Navro'z fasli naslidir,
Boychechagim boyiron, gullar ichra ayiron.
Boychechagim bolasi, qulog'ida donasi,
Donasini olay desam, yugurib chiqdi onasi.

Naqarot

Boychechagim boylandi, ko'chama-ko'cha aylandi,
Boychechagim ko'k somsa cho'ntaklarga joylandi.

Naqarot

Hurli bo'ling, nurli bo'ling boychechakday gulli bo'ling,
Kelasi yil shu mahal qush kekilli ulli bo'ling.

Ikki yigit qo'lidagi boychechaklarni davradagilarga ulashadi. Boychechak olganlar suyunchisiga turshak, mayiz, (qizlar) berishadi. Boychechakni olganlar ko'zlariga surtib:

Omon- omon omonlik,
Hech ko'rmaylik yomonlik

deb turadilar. Qo'shiq tugashi bilan yigitlar yana kelib davradagilarga binafsha ulashadilar. Binafsha olgan qizlar xursandchilik bilan binafsha haqida aytilayotgan qo'shiq ohangiga raqsga tushadilar.

Chaman-chaman ochilar bahor chog'i binafsha,
Uni yaxshi ko'radi raqsga tushgan Oyposhsha.

Koptok o'ynab raqsga tushgan 4 nafar qizlar o'rtasiga ikki yigit yangasini olib chiqib yozni ta'riflab, raqs harakati bilan qizlarga qo'shilishadi.

Tog'lar boshi qurama, yangam sochi burama,
Binafshani keltirdim, uyda otang bilama.

Shu orada dehqon bobo chiqib, davradagilarga qarab „yigitla-qizla binafshalar ochilibdi, boychechaklar sochilibdi qani sayilni boshladik bo‘lmasa“ — deb murojaat qiladi. Qizlar birdaniga „Voy, demak Navro‘z kelibdi-da“, deb bir-birlarini tabriklashadi.

Dehqon bobo: Hamma sayilga deydi.

Shunda nog‘ora, karnay-surnay chalinadi. Davradagilar bir-birlarini tabriklab, raqsga tushadilar. Karnay-surnay sadolari ostida yigit-qizlar kirib kelishadi.

Yigitlar: — Hormanglar qizlar.

Qizlar: — Salomat bo‘linglar.

Yigitlar: — Bayram aytishuviga tayyormiz.

Qizlar: — Albatta, o‘zlaridan bo‘lsin.

Yigitlar: — Boshladik bo‘lmasa.

Ogoh bo‘ling odamlar bugun yangi yil kirdi,
Shodon qizlar, juvonlar Navro‘zi olam keldi.
To‘yingizga to‘yona lolalar terib keldik,
Sizlarga Navro‘z oyin mujdasin olib keldik.

Yigitlar qizlarga tergan lolalarini tavoze bilan topshiradilar.
Qizlar javob aytishuvini boshlaydilar.

Sizlarga ham o‘g‘lonlar qutlug‘ bo‘lsin bu ayyom,
Lolalarga javoban ro‘molchalar armug‘on.
Ushbu ro‘molchalarga mehr qo‘yib tikilgan,
Har choki, har qatmiga ishq otashi to‘qilgan.

Qizlar ro‘molchalar topshira boshlaydilar.

1-qiz: — Ro‘molchada gul rasmi, gul demang, ko‘ngil asli

1-yigit: — Ro‘molchani qo‘liga olib:

Ro‘molchang guli dona ishqingda men devona

2-qiz: — Bo‘lding deysiz devona, ro‘molcha bir bahona.

Qosh-u ko‘zi qiyiq yor bermaysiz hech e‘tibor.

Ro‘molchani ko‘ring siz, sizga pinhon xati bor.

Yigit: — Ro‘molchangdan o‘rgilay yorim,

Uni tutib yurayin doim.

Dard ko‘rmasin ko‘zlaring,

Oydin bo‘lsin yo‘llaring.

Qiz: — Ko‘zim qoldi yo‘lingda, ro‘molcham o‘ng qo‘lingda.

Visolga kechikmagin, ixtiyorim o‘zingda.

Yigit: — Baxt menga kulib boqdi, ro‘molcha juda yoqdi.

Qiz: — Aka sizni sevishimni hech kim bilmasin,
Sahrli ro‘molchani boshqasi keltirmasin.

Dehqon bobo: — Aytishuvda, zukkolikda bir-birlaringizdan qolishmadilaring, barakalla, rahmat!

Hammaga qarab:

Rizo bo‘lsin desang gar sendan bobong ajdoding,
Avaylagin asragin sog‘lom bo‘lsin avlodning.
Millating butunligi avlodning zukkoligi,
Har ne kunda ish berar farzandlar donoligi.
Kuch qaynasa jismda, bosh to‘la bo‘lsa aql,
Yaxshi ezgu tilaklar kelar barchaga ma‘qul.
Sog‘lom avlod naslidanmiz ona yurtim O‘zbekiston,
Amir Temur aslidanmiz ajdodlarga sharaf-shon.

Dehqon bobo: — Yigitlarga qarab: — Yigitlar sizlarga sovg‘a olib kelganman.

Yigitlar: — Qanday sovg‘a, bobojon?

Dehqon bobo:

— Qizim Navro‘zoy 3 shart tayyorlab kelibdi. Kimda-kim shu shartlarni bajarsa, qizim Navro‘zoy shu yigitga turmushga chiqishga ixtiyor etadi. Qani mard yigitlar bormi?

Yigitlar:

— Bor, otaxon, qani shartlarni aytinglar. Navro‘zoy sah-naga chiqib keladi, ta‘zim qiladi va shartlarni aytadi.

Navro‘zoy:

Xaloyiqqa yurakdan aytar so‘zim bor mening,
Oy rashk qilar falakdan go‘zal yuzim bor mening.
Men Navro‘z malikasi uchta zo‘r shart qo‘ygumdir,
Men bahorning erkasi, bir g‘olibning suygumdir.
Man-man degan botirlar shartlarimni bajarsin,
Chillak o‘yinda yutib, zo‘r bir to‘nkani yorsin.
Qo‘l siqmachiq o‘yini uchinchi shartim zinhor,
Shu uch shart g‘olibini, men shubhasiz etgum yor.

Yigitlar:

Qutlug‘ poyqadamingga jonim nisor malikasi,
Tilagim bo‘lmoq senga munosib yor malikasi.

Yaxshi-yomon kuningda, keraging bo'lay o'zim,
Seni yurakdan sevmok, bo'lsin yigitlik so'zim.

Yigitlar birma-bir shartlarni bajarishga kirishadilar.

Chillak o'yinida 7 ta yigit qatnashadi. To'nka yorishda 5 ta yigit qatnashadi.

Dehqon bobo: — Yigitlar avlodimizda To'maris, Oybachin, Oysuluv singari mard, pahlavon qizlarimiz o'tgan, manaman degan yigitlarni kurashda yengganliklarini hammamiz yaxshi bilamiz. Hozirgi uch shartimiz orqali shunday sifatlarga ega bo'lgan yigit-qizlarga murojaat etmoqchimiz. Vatanimizga ma'naviy, axloqiy, jismoniy sog'lom yigit-qizlar kerak. Hushyor bo'lasizlar. Uch shartni boshlaymiz.

Navro'zoy chiqib ro'moli bilan belini bog'lab kurash tushishga shaylanadi.

Dehqon bobo: — Shoshma, shoshma qizim, bugun kurash emas, qo'l qisish sharti bo'ladi.

Navro'zoy: — Qani boshladik bo'lmasa.

Navro'zoy yenglarini shimarib, shahd bilan „men tayyor-man“, deydi. Qo'l qisish shartida 3 ta yigit g'olib chiqadi.

Dehqon bobo: — Barakalla yigitlar. Musobaqada qatnashganlarning birortasi Navro'zoyning e'tiboridan chetda qolmaydi. Hammalaringiz sovg'a bilan taqdirlanasizlar. Endi sumalak bilan taqdirlangan yigit, Navro'zoyning sevimli sohibi bo'ladi.

Dehqon bobo: — Barakalla Navro'zoy qizim.

Qutlug' Navro'z to'yiga baxt to'yini ulaylik,

Bugun yayrab yoronlar, bazmi jamshid quraylik.

Yigit-qizlar, raqqosa qizlar lapar aytib raqsga tushadilar.

Omoch haydagandek dehqon bobo davrada yura boshlaydi. 2 ta ayol ho'kiz shoxiga moy surtib, oq durra bog'laydi. Xuddi yer haydagandek harakat tasvirlanadi va qo'shiq boshlanadi. Qo'shiq mazmuniga qarab turli harakatlar qilinadi.

Dehqon dala aylandi, ho'kiz shoxi moylandi.

Omoch mola cho'kka tush, dehqon bobo shaylandi.

Bugun bayram yil boshi yil boshiga el oshi,

Har ro'zg'orning himmati palovi yo so'k oshi.

Bugun bayram yil boshi,

Sayilga ho-sayilga.

Yangi yilda qut bo'lsin, tandir to'la non bo'lsin,
Maysa o'sib yaylovda, sigir tana haydovda.

Yosh kelinchak qovoq idishda so'k oshi olib chiqib idishlarini ko'tarib turganlarga bitta-bitta cho'michdan ovqat solib beradi. Ovqat ichganlar uni juda shirinligini bir-birlariga imo-ishora qilishadi. Qo'shiq tugagach, bir bola chiqib „sumalak pishdi, sumalak pishdi“ — deb davradagilarga e'lon qiladi, shundan so'ng „sumalak“ qo'shig'i yangraydi:

Sumalak jon sumalak,
Qanday asal sumalak.
Barchamizga yil bo'yi,
Tansiq bo'lgan sumalak.
Sen bahorning elchisi,
Yaxshilikning belgisi.
Sen Navro'zning singlisi,
Sumalak jon sumalak,
Qand-u asal sumalak.
Ko'ngillar quv nar biram,
Barchamizga yil bo'yi.
Tansiq bo'lgan sumalak.

„Sumalak“ qo'shig'i aytilayotganda 3 ta qiz piyolada sumalak olib davradagilarga totib ko'rish uchun beradilar. Qatnashchilar sumalakni jimjilog'i bilan yalab ko'radilar. Bitta raqqosa piyoladagi sumalakdan totib ko'rib, qo'shiq mazmuniga qarab harakat qiladi. Uning oldiga 4 nafar raqqosa qizlar raqs harakati qilib kelib sumalak talashadilar. Turli xatti-harakatlar bilan sumalak bazmi tasvirlanadi. Harakatlar tugagach, „Kichkina bola“ ning qo'shig'i yangraydi.

Bog'ingga bahor keldi, boshingga Humo qo'ndi,
Vatanimni kuylashga baxtli bir zamon keldi.
Bog' olmazor ukam, ko'nglida bahor ukam,
Erkin zamon egasi kichkina bola jo'ram.
Tog'da bulbul sayraydi, tol bargini chaynaydi,
Shul ukamni so'rasang, qoshini qoqib o'ynaydi.

Qo'shiqlarning mazmuniga qarab bitta katta, ikkita kichkina bolalar turli xil harakatlar bilan shod xurramligini izhor etib,

raqsga tushadilar. Qo'shiq va raqs nihoyasiga yetgach, „Bo'zto'rg'ay“ qo'shig'i boshlanadi.

Hamma: Bo'zto'rg'ay, jon bo'zto'rg'ay,
Bo'zlamasang na bo'lg'ay.
Shunday baxtli zamonda,
O'ynamasang ne bo'lg'ay.

Yigitlar:

— Gulgul ekan kuylagin gulday nozik bilaging,
Navro'z keldi, gul keldi, aytgin bo'lsa tilaging.

Qizlar:

Qozon to'la moy bo'lsin, O'zbekiston boy bo'lsin,
Mustaqil zamon bergan yurtboshim omon bo'lsin.

Yigitlar: — Subxanollo sizga.

Qizlar: — Umr bersin bizga.

Dehqon bobo: — Qani endi bolalarim hammamiz dalaga, bog'larga otlanaylik, o'z mehnatimiz bilan el-yurt farovonligini yanada yuksaltiraylik. (*Qatnashchilar karnay-sumay, nog'ora sadolari ostida raqsga tushib chiqib ketishadi. Bo'zto'rg'ay sayrash mardonavor ohangga jo'r bo'lib, sayil tugaydi.*)

„To'sh qaytarar“ marosimi

Sahnaga surnay sadolari ostida bir tomondan qizlar chiqishadi. *Momo* hammani to'xtatib, qo'lida turgan tog'orani ko'rsatib:

— Iya, bu to'yxonami, yoki biz adashdikmi?

Qizlar:

— Narigi tomonda yigitlar ko'rinyapti.

Sahnaga kuyovning momosi va yangasi chiqib keladi. Ularni oq poyandoz solib, kutib olishadi. Momoning qo'lida un, yangasining qo'lida qand. Ularni qizlarga ulashadilar.

Doira sadosi ostida sahnaga kuyovjo'ralar kirib kelishadi.

Momo:

— Qani kuyovjo'ralar naqd ikki kecha-yu ikki kunduz qaynatib pishirgan to'shni olinglar. Ko'rsatadi:

— Ey to'xtang, to'shni olib kelgan kuyovjo'raga to'sh haqini beringlar, qani yangasi tezroq aylaning.

Patnis ko'tarib yanga kuyovjo'ralar tomonga qarab yuradi. Yanganing qo'lidagi patnisga to'sh haqi uchun oyna, sandiqcha, taroq, zirak, kavush, g'ijim ro'mol, surmadon beradi.

Kuyovning jo'ra'si chiqib:

— Momojon to'shni-ku oldik, kuyovning to'ni qani?

Yangasi bilan qizlar qo'lida sarpolarni olib chiqib:

— Sarpo haqini kim to'laydi?

Kuyovjo'ra sarpo bergan momosining boshiga ro'mol yopadi.

— Qolganiga qarzdormiz. Bundan yaxshisini kelintushdi kuni ulashamiz.

Kuyovni to'n bilan qutlashadi.

Qadimda bizning viloyatda to'sh ulashish bazmi kuni „Kumush uzuk solish“ o'yini bahonasida yigitlar o'zlariga sevimli yor tanlashgan.

Kuyovjo'ralardan biri:

— Qani yigitlar, kumush uzukni olib bir o'zimizni sinab ko'raylik.

Bir yigit chiqadi va yana (doira sadosi ostida ikki kuyovjo'ra belidagi belbog'ini aylantiradi, eshadi):

— Solay-solay kimga solay, solay-solay sochi uzun qizga solay, solay-solay kimga solay, qoshi qora qizga solay.

Shunda yigitlardan so'raydi:

— Kimga soldim?

Bir yigit chiqib qo'li bilan bir qizning qo'lini ko'rsatadi, topolmaydi. Kuyovjo'ra uch marta belbog' bilan yigitning yelkasiga uradi.

Momo:

— Topolmadilaringmi?

— Ha, topolmadik, — javob beradi kuyovjo'ralar.

— Momojon, to'y bahona yigitlarning qizlarga to'yonasi bor. Qani yigitlar boshladik.

Yigitlar:

To'yingizga to'yona,

Lolalar terib keldik.

Sizlarga Oqqo'rg'ondan,

Bir o'lan olib keldik.

Aylonaman, yak-dona,

Qo'llari dona-dona.

Qizlar o'ynaydi gulbog',

Xushtorlari devona.

Qizlar:

Sizlarga ham o'g'lonlar,

Qutlug' bo'lsin bu to'ylar.

Lolalarga javoban,
Ro'molchalar armug'on.
Ushbu ro'molchalarda,
Mehr qo'shib tikilgan.
Har choki, har qatmiga,
Ishq otashi tikilgan.

Yigitlardan biri:

— Momojon, bugun yana bazmni gul bazmidan boshlaymizmi?

— Hoy kuyovjo'ralar, bugun ro'molcha bahona aytishuvdan boshlaymiz. Dasturxon bilan sarpolarni ichkariga olib kiringlar. Qani kimdan boshlaymiz?

1- qiz: — Qosh-u ko'zi kiyik yor,
Bermaysiz hech e'tibor.

1-yigit: — Ro'molchangdan o'rgilay yorim,
Uni tutib yurayin doim.

2- qiz: — Ro'molchamni ko'ring siz,
Sizga pinhon xati bor.

2- yigit: — Dard ko'rmasin qo'llaring,
Oydin bo'lsin yo'llaring.

3- qiz: — Ro'molchamda gul rasmi,
Gul demang ko'ngil rasmi.

3- yigit: — Ro'molchang gul dona,
Ishqingda men devona.

Yigitlar qo'shiq boshlaydi.

Ro'molim bor so'zoni,
Akan ichmas bo'zoni.
Akan ichsa bo'zoni,
Sindiradi ko'zani.

Bog'da bulbul sayraydi,
Tol bargini chaynaydi.

Shul ukamni so'rasang,
Qoshini qoqib o'ynaydi.

Tom boshida yotaman,
Suqsur ko'rsam otaman.
Satang-satang qizlarning,
Kokilidan tortaman.

Momo:

— Hoy kuyovjo'ralar, davramizga Qurama tog'ining go'zal qizlaridan kelganlar, qani o'lanchi qizlarimizdan eshitaylik-chi!

— Javobiga tayyor turing, kuyovjo'ra, — deb aytishuvni boshlaydi.

Qiz:

O'lan aytsam, o'lanim yarashmaydi,
Yolg'iz aytgan o'lanim yarashmaydi.
Ikkov-ikkov aytaylik birday bo'lib,
Savog'ida ochilgan gulday bo'lib.

Yigit:

Ey, Oqqo'rg'ondan kelaman yolg'iz o'zim,
Qo'limda ko'k qarchig'ay sariq yuzim.
O'lan aytib o'tirgan bo'ta ko'zim,
Bari qizdan yaxshisan yolg'iz o'zing.

Qiz:

O, fasli bahor, bog'da gullar ochiladi,
Bu jannatda gul men bo'lib hur bo'ladi.
Suluv qizga osilmay, to'g'ri ayting,
Qiz bolaning barisi bir bo'ladi.

Yigit:

Ey, ot baylovda, qo'y yaylovda yayraydi,
Seni ko'rsam kunim kunda yayraydi.
Sochlaringni mayda qilib o'ribsan,
Ko'rgan yigit havas bilan qaraydi.

Qiz:

A-ot yolini beshta-beshta o'ribmidi,
Bizni elda oralab yuribmidi.
A-suluv qizga osilib bitib keldi,
Suluv qizni bir yerda ko'ribmidi.

Kuyovjo'ralardan biri:

— Qizlarga qoyil qoldik. Yana bir iltimosimiz bor. Kuyovning ukasiga atab qizlar bitta qo'shiq kuylab berishsin.

Qizlar qo'shiq boshlaydi:

Kichkina bola qanday bola?
Labida mayda xoli bor,
Kichkina bola shunday bola,
Omadi bor, iqboli bor.

Osmondagi oy bola,
Qoshlari qora, yoy bola.
Muncha yoqimtoy bola,
Kichkina bola hoy bola.

Ariq bo'yida pistaori,
Pistaning shoxi yuzta.
Shu ukamni so'rasangiz,
O'ynab berishga usta.

Bog'ingga bahor keldi,
Boshingga humo keldi.
Vatanimni kuylashga-ey,
Baxtli bir zamon keldi.

Bir yigit:

To'rg'ay uchdi chuldirab,
Yigit-qizlar jo'r bo'ldi,
Ukaginam pildirab,
O'ynab ketdi, zo'r bo'ldi.

Qo'shiq boshlanadi:

Bo'zto'rg'ayjon, Bo'zto'rg'ay,
Bo'zlamasang ne bo'lg'ay.
Shunday baxtli zamonda,
O'ynamasang ne bo'lg'ay.

Alpomish o'g'lonlaring,
Barchinoydek qizlaring.
Yurtim baxtin kuylaydi,
Xushovoz bulbullaring.

Gulgun ekan ko'ylaging,
Guldek nozik bilaging.

Bayram bo'ldi, to'y bo'ldi,
Aytgin bo'lsa tilaging.

Qozon to'la moy bo'lsin,
O'zbekiston boy bo'lsin.
Mustaqil zamon bergan,
Yurtboshim omon bo'lsin.

Mana endi kun botdi,
Qarg'alar uyga qaytdi.
Biz ham endi qaytaylik,
Qo'shiqni tugataylik.

Momo:

— Mana, „To'sh qaytarar“ marosimini ham o'tkazib oldik.
Endi nikoh to'yiga marhamat.

Karnay-surnay sadolari bilan yigit-qizlar raqsga tushib,
sahnadan chiqib ketishadi.

„BULBULIGO‘YO“ XALQ FOLKLOR-ETNOGRAFIK ANSAMBLI

Surxondaryo vohasi o'zining tabiati, nabototi, hayvonot olamining xilma-xilligi bilan mamlakatimizda eng go'zal, tafti qaynoq go'shalardan biridir. Qadimda asosan chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan bu yerlik aholi o'ziga xos betakror an'analari, urf-odatlar bilan boshqa vohalardagidan ajralib turgan.

Ta'kidlash joizki, Jo'rchi va unga qo'shni Qumqo'rg'on, Jarqo'rg'on tumani aholisi Juz, Qo'ng'iro't, Do'rmon va boshqa ayrim turkiy qabila vakillaridan iborat bo'lib, ular madaniyati tog', tog'oldi aholi madaniyatidan farqlangan. Bunday tafovut nafaqat kiyim-kechakda, bezakda, taqinchoqda, yurish-turishda, balki o'zaro munosabatlarda, ya'ni lahjalarda, san'at sohalarida ham sezilarli bo'lib, hozir ham shunday. Shu sababli „Bulbuligo'yo“ repertuari Surxondaryoning ayrim tog', tog'oldi tumanlarida tashkil etilgan ansambl repertuarlaridan farqlanadi. Bunday ajoyib, betakror qadriyatlar zamonlar osha bizning davrimizgacha yetib kelgan.

Yuqorida aytib o'tilgan o'ziga xoslikni, bugungi kunda ham anglab olish qiyin emas. Agar siz Sho'rchi va nomlari tilga olingan qo'shni tumanlarda bo'lsangiz, jelak kiygan bobolarni, mulla yoqalik ko'ylak kiygan yigitlarni, g'ijim ro'mol o'ragan, qat-qat

ro‘molli salla kiygan qo‘ng‘irot ayollarini, latiba, nozigardon tomqay, kabi taqinchoq taqqan qiz-u juvonlarni uchratishingiz mumkin. Sho‘rchi aholisining kundalik zamonaviy ro‘zg‘or buyumlari qatorida ko‘za, kadi, keli, jun taroq, kubi, xalaji, jun savob, o‘rmak va boshqa an‘anaviy buyumlar ham o‘rin olgan. Uylariga tashrif buyursangiz bo‘yra, kigiz, kattali so‘zana, zardevor, bug‘joma, tashqarida esa ajdodlardan meros bo‘lib qolgan, daraxtlarga osilgan holginchaklarga ko‘zingiz tushadi.

Bunday misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin.

Demoqchimizki, hozirgi taraqqiyot davrida jadal sur‘atlar bilan rivojlanayotgan radio, televizor, kompyuter, Internet kabi zamonaviy texnikalar amaliyotdan mustahkam o‘rin olayotganligi munosabati bilan iste‘moldan siqib chiqarilayotgan, ajdodlardan meros bo‘lib qolgan kiyim-kechaklar, uy-ro‘zg‘or jihozlari, mehnat qurollari hozirgi kunlarimizda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Ta‘kidlash o‘rinliki, Surxon vohasi, jumladan, Sho‘rchi tumani aholisining o‘ziga xos milliy madaniyati va san‘ati mavjud. Bu yerda ko‘plab dostonchi, jirovchilar, kechani kunduzga ulab ertak aytadigan bobo va momolar bor. Ko‘chalarda shuvilmak, hushtak, sivilg‘a, changovuz chalib yurgan yosh bolalarga ko‘zingiz tushadi. Savog‘ich bilan jun savalayotgan, urmakda gilam to‘qiyotgan, qo‘lida jimjimador xina cho‘p, qamchi tutgan, ot ulovlariga xurjun, to‘rva osib bozorga ketayotgan, qo‘llarida o‘roq, ketmon ko‘tarib borayotgan turli kishilarni uchratasiz. Ular yo‘l-yo‘lakay ajdodlaridan meros bo‘lib o‘tib kelayotgan, bugungi kunda unitilayozgan qo‘shiqlarni xirgoyi qilib boradilar.

Fazilatli davrlar boshlanishi munosabati bilan olimlarimiz, san‘atkorlarimiz, madaniyat xodimlarimiz kattadan-katta hayrli ishlarga qo‘l urib jumladan, ajdodlardan meros qadriyatlarini tiklashga kirisha boshladilar. Mamlakatimizning turli joylarida folklor-etnografik ansambllari tuzila boshlandi.

1982- yili Surxondaryo viloyatining Sho‘rchi tumani madaniyat uyi qoshida „Bulbuligo‘yo“ xalq folklor-etnografik ansambl tashkil etildi. Ansambl faoliyat boshlagan dastlabki kunlardan boshlab, sho‘rchilik Rahmatillo Mo‘minovning xizmatlari katta bo‘ladi. O‘zining chorak asrlik faoliyati davomida ansambl deyarli unitilayozgan 100 dan ortiq qo‘shiq, mahalliy udumlarni tarannum etuvchi raqslarni

qayta tikladi. 103 yoshda vafot etgan marhum Nodir boboning sivil-g'ada ijro etgan: „Kakku“, „Bedana sayrashi“, „Halinchak“, „Tuya to'rtish“, „Yorg'a salom“. U kishining o'g'li Rashid bobo ijro etgan: „Bulbul sayrashi“, „Chaqiriq“, „Andarxayo“, „Xudoga nola“, „Xilila yor“ kuylari nafaqat o'zbek, balki chet el san'atsevarlarini befarq qoldirmadi. Changovuzchi Oysoat Zokirovaning „O'yin bazmi“, „Yor izlab“, „Guli ko'ka“ kuylari; Abduhamid Yangiboyevning „Cho'pon chalish“, „Oh vo“, „Barchinoy“, „Ot chopish“ kuylari; „O'zbekim alplari“, „Qo'shig'im qo'shiq“, „Xo'ppa-xo'p“, „Xut keldi-yo“, „Shoda munchoq“, „Podachi“, „Bibigul“, „Oldimxo-sotdimxo“, „Xazarispand“, „Sumalak“, „Oynomov“, „O'rmagim“, „Juppa toq“, „Jigit pirlari“ va boshqa kuy qo'shiq, raqslari „Bulbuligo'yo“ni baland parvozga chorladi. Ansambl respublika va undan tashqarida bo'lib o'tgan ko'rik bellashuvlari, festivallarida ishtirok etib, ilg'or nufuzli o'rinlarni qo'lga kiritdi. O'tgan yillar mobaynida „Navro'z“, „Mustaqillik“ bayramlarida, 1997- yil Toshkent 12- Xalqaro kinofestivali ochilish hamda 1998- yilgi Turkiyada o'tgan 18 - „Xitit“ festivalida, Al Farg'oniy tavalludining 1200 yillik bayram tadbirida, Buxoro shahrining 2500 yillik, „Alpomish“ dostoni yaratilganining 1000 yilligi, Termez shahrining 2500 yillik yubileyi va boshqa tadbirlarda ajoyib dasturlarni namoyish etib, el olqishlariga sazovor bo'ldi.

2005- yili Tojikistonda o'tkazilgan „Sadoyi dilxo“ 2002—2005- yillarda „Boysun bahori“ Xalqaro qo'shiq festivalida ishtirok etib, nufuzli diplomlarni qo'lga kiritdi.

2006- yili noyabrda Toshkentda o'tkazilgan „Barhayot navolar“ Respublika an'anaviy ko'rik bellashuvida 1-o'rinni qo'lga kiritib, diplom va qimmatbaho sovg'alar sohibi bo'ldi.

„Bulbuligo'yo“ ansamblining yuksak natijalarga erishishida Xayrullo To'raqulov, Muzaffar Bo'riyev, Soatmo'min Aliqulov, Nabi Bahromov; xonandalar Rustam Usmonov, Muhammadi Shoymardonov, Baxtiyor Boboxonov, Muqaddas Sattorova, Gulchehra Turdiyeva, Zilola Xolmo'minova, raqqosalar Rayhona Rahimova, Lobar Jumayeva, Nigora Tursunova, laparchilar Hayitgul Soatova, Qizlarsora Safarova, Halima Qurbonova, Atirgul Qudratova, raqqoslardan Abdurahmon Rahimov, O'ktam Shoyimardonov, Turg'un Muhammadiyev va boshqalar katta jonbozlik ko'rsatdilar.

Ansambl a'zolarining barakali mehnati munosib taqdirlandi. Ansamblning jonkuyar, tashabbuskor, izlanuvchi rahbari

Rahmatilla Mo'minovga „O'zbekiston xalq maorifi a'lochisi“ unvoni berildi. Respublika rahbariyati Rahmatilla Mo'minovni samarali ijodiy mehnati uchun „Fidokorona mehnatlari uchun“ ordeni bilan taqdirladi.

„Bulbuligo'yo“ ansamblining keksa laparchi-qiziqchisi Mengqobil Ismoilov, baxshi-do'mbirachi Abduhamid Yangiboyevlar 2000- yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga muvofiq „Shuhrat“ medali bilan mukofotlandilar. Shuningdek, ansamblning raqs o'rgatuvchisi Shoiri Qurbonova ham 2002-yilda „Shuhrat“ medali sohibasi bo'ldi. Hozirda ansambl „Jayxun ohanglari“ nomi bilan yangi repertuar ustida ijodiy izlanish olib bormoqda.

„Bulbuligo'yo“ xalq folklor-etnografik ansamblining teatrlashtirilgan konsert ssenariysi

I. Qadimdan Surxon vohasi yigit va qizlariga xos usul:

Gijdav-dav, gijdav-gij

Gijdav-dav, gijdav-gij

ni aytib badiiy jamoa avval mungli, so'ngra jo'shqin ovoz bilan sahnaga milliy kiyimlarda kirib kelishdi.

II. 8 ta yigit barcha-barchani sayilga chorlash uchun, ya'ni „Yangi oy“ chaqirig'ini ijro qiladi.

Oyni ko'rdik omon ko'rdik,

Oxiratda imon ko'rdik.

Oyni ko'rdik oy bo'ldik,

Qo'shiqlarga boy bo'ldik.

III. Xalqimizda qadimdan yig'inlar vaqtida bir zumda hammani jim qilish maqsadida aytiladigan „Potiniyo-potini“ da'vatini Parda Boltayev ijro etadi.

Potini-yo potini,

Tomga qo'ydim shotini.

Mennan oldin gapirgan,

Boy bobomning xotini

Hap, ovozingni jop.

Hamma jimib gapirmay turgan paytda bir qiz to'satdan gapirib yuboradi. Unga nisbatan shovqinli izzati qilishadi va At- Termiziy bobomizga bag'ishlab quyidagi qo'shiq ijro etiladi.

3 ta yigit raqsga tushadi.

Termiziylar elidan-o,
Jayxun daryo bo'yidan-o,
Yetib keldik anjumanga,
Qulli bo'lsin bayramingiz.
Arab ajam eliday-o,
Alloma deb nom chiqargan.

Sahna yorishadi. Surnay nolasiga barcha qatnashchilar qo'llariga qo'g'irchoq, ko'za, tayoq, do'mbira, o'roq, urchuq, tovoqlar bilan o'ynab kelishadi. Kuy tugashi bilan bir yigit hammadan ajralib nos chekib, biroz uyquga ketadi. „Surxon saxovati“ qo'shig'i ijro etiladi, bir momo boshchiligida qizlar qo'llarida ko'za va qo'g'irchoq ko'tarishib buloq bo'yiga suvga kelishadi va suv olib o'ynashadi. Ikki qiz cho'pon yigitni ko'rib suhbatlashib bir-biriga yigitning holini so'zlayotganini ko'rib, momo ularni urishib yoniga chaqiradi. Devorlar yonida yigitlar qizlarni ko'rib qolib bir-biriga imo qilib qizlarni poylashadi.

Surxondaryom saxovatim,
Shovullagan Surxondan so'r,
Azim tog'lar salobatin,
Suruv boqqan cho'pondan so'r.

Qizlar o'ynashib sahna chetiga chiqishadi, qo'g'irchoqlarni tuzatib, yigitlarga qarab ularni kuzatishadi. „Qumbosti“ qo'shig'i boshlanadi, yigitlar harakat bilan qo'shiq ijro etadilar:

Yigitlar: Ko'p uxlama uyg'on jo'ra.
Kelin qayerga ketdi,
„Chilla quvdi“ bahonada,
Uydan uch kun ketibdi.

Qum bosishni unutibsan,
Unga javob berdingmi,
Oshga seni ko'ndiramiz,
Ko'nmasang biz qum bosamiz.

Cho'pon yigit: Hoy jo'ralar insof qiling.
Keliningiz qishloqda,
Hali qirdan oshgani yo'q,
Chap ko'l tomon toshloqda.

Yigitlar: Qum bosamiz, qum bosamiz.
Osh qilmasang un bosamiz,
Rozi bo'lsang bo'lding jo'ra,
Yo'qsa mana qum bosamiz.

Yigitlar: Qum bosamiz, qum bosamiz.
Qum bosamiz, qum bosamiz.
Mingga kirgan xo.

Elim-elim elimsiz,
Chor atrofdan kelibsiz,
Chamanning bulbulisiz,
Olloh suygan qulisiz.
Hey go'zal Surxon qizlari,
Chakkasida gullari,
Ular bilan gaplashsa-yo,
Chaqnab turar ko'zlari-yo.

Qizlar:

Adras ko'ylak kiymaymano,
Etagi tor bo'ladi,
Bevafoga tegmayman-o,
Jo'ragim qon bo'ladi.

Eshik oldim majnun tol,
Majnun tolga razm sol,
Men berayin fotiha,
El-u yurtim quloq sol.

qo'shig'iga raqsga tushadi.

II. O'zbek xalqining milliy-madaniy iftixori bo'lgan paxta haqidagi qadimiy qo'shiqqa raqqosa qizlar guruhi jo'shib raqsga tushadilar.

Gullagan paxta dalada,
Ochilgan chaman dalada.
Bulbul sayragan bog'larda,
Sayr etib yurar qizlar.

Jon Odob bilan boqqan qizlar,
Inj-u marjon taqqan qizlar.

Noz-noz etib jilva bilan,
Yigitlarga yoqqan qizlar.

III. 4 ta raqqos yigitlar guruhi unutilib ketgan erkaklar raqs harakatlari bilan ovozli musiqa ritm (marom)iga mos raqsga tushadilar.

Bola-bola, bum-bum, bum bola bum
Bola-bola, bum-bum, bum bola bum
Bola-bola, bum-bum, bum bola bum
Bola-bola, bum-bum, bum bola bum

IV. Kashta tikilgan milliy liboslar kiyib, taqinchoqlar bilan bezangan momolar sallalarini oykichchoq qilib sahnaga chiqadilar.

Momom jepak loshlaydi,
Bo'yniga munchoq tashlaydi.
Uni ko'rgan bolalar,
Asta qo'shiq boshlaydi.

Havolar jovar tov-tovga,
Qo'zilar kelar jaylovga.
Juring qizlar boraylik,
Baxmal jopgan o'tovga.

Bola-bola, bum-bum, bum bola bum
Bola-bola, bum-bum, bum bola bum
Qizil qiya ichida,
Men seni ko'rib qoldim.
Ko'rmasam bo'lar ekan,
Ishqingda kuyib qoldim.

Qo'shig'iga raqs tushadi.

V. 4 ta raqqosa qiz boshlariga tol, yong'oq toboqlar qo'yib, „Ho kishma-kishma“ qo'shig'iga „Iyin“, „Buyin“, „Qosh-u qiz“ raqs harakatlarini ijro etadilar.

Ho kishma, kishma, kishma,
Bir la'li marjon kishma.
Marjonlaring bo'yiningda,
Chechaklaring zulfingda.

Ho kishma, kishma, kishma,
Bir la'li marjon kishma.

Zulfing bor-u, zulfing bor,
Darvozada qulfing bor.
Zulfimga tegmang aka,
Zulfinning egasi bor.

VI. Surxon vohasiga xos unutilib ketgan bola suyish,
erkalatish, qo'shig'ini Qizlarsora momo Safarova Barchinoy
enasiday bezanib ijro etadi.

Qo'shiq oytsam bo'lama,
Qo'shig'ima quloq solama.
Qo'shiq eshitgan bolalar,
Aqli rosa bo'lama.

Hay-hay-hay-hay-hay-hay.....Hay..yo

Jogamdagi julduzim,
Doyradagi kunduzim.
Doiralarday oqqanda,
El-u jurtiga joqqan.
Hay-hay-hay-hay-hay-hay

Hayo desam keladi, tovushingning sozi,

Dashtlarda bo'ladi qo'y bilan qo'zi.
Qo'y keladi qo'zi bilan,
Bir-birining izi bilan.

Hay-hay-hay-hay-hay-hay

Oshiqlar o'ynar ulim bor,
Kashtalar tikar qizim bor.
Oylardan jorig' juzim bor,
Alloh bargan farzandim.

Hay-hay-hay-hay-hay-hay

VII.Xonanda Sitoraxon Oripovaning „Yorim kelar soy bilan“
qo'shig'iga 2 ta raqqos y'igit va 2 ta raqqosa qizlar jilva bilan
raqsga tushadilar.

Yorim kelar soy bilan,
Qo'lidagi nay bilan.
Mingan oti mayishgan,
Kiygan to'ni yarashgan.

Kuyovbegim boy bo'lsin,
Singar oti toy bo'lsin.
Otni minsin oshirib,
Sovrini topshirib.

Hoy bola-bola yor-yor,
Hamdam bola yor-yor.

Shildir-shildir qamishga,
Sirg'am tushib ketdi-yo.
Sinalgan jigita,
Ishqim tushib ketdi-yo.

Chimildig'i chip-chinor,
Ichida bor, bo'y chinor.

Bo'yinga ko'z tegmasin,
Taqib qo'ygin ko'z tumor.

Hoy bola-bola yor-yor,
Hamdam bola yor-yor.

VIII. Ota-bobolarimiz udumiga ko'ra keksa cho'pon o'g'il-
larini chaqirib o'zining meros moyli cho'pon tayog'ini qoldirishi
kerak. Bolalardan birortasi o'z roziligi va xohishi bilan meros
tayog'ini olib cho'ponlik kasbini avloddan-avlodga o'tkazib davom
ettiradi.

Abdurahmon Rahimov juldur cho'pon kiyim va tayog'i bilan
sahnada ushbu urf-odatni ijro etadi.

Yursak gulzor bog' bo'lsin,
Ko'kragimiz tog' bo'lsin.
Mangu gullab yashnagan,
Ona yurtim bor bo'lsin.

Tubadan vuchoq vuydiroy,
Tubal qo'yni so'ydiray.
Tubal qo'yning go'shtiga,
Mehmonlarni to'ydiray.

Hov.....ullarim! Ha...ha.

Bir suruv mol bulama,
Senga bersam bulama yo'q-yo'q,
Cho'pon tayoq qo'linga
Ushlasang, bolam nolima yo'q-yo'q.

Ho kenja bolam Abdurahmon,
Tayoqni senga qoldiraman.
Qo'shiq aytsang jo'shib oyt,
Qo'y-qo'zini qo'shib oyt xo'p-xo'p...

4 ta raqqos yigitlar qo'llarida zarang cho'pon tayoqlari shiddat
bilan „Podachi“ qo'shig'iga raqsga tushadilar.

Podachi pormonachi,
Qo'ltig'ida chonachi.
Oltmish uydan osh ichib,
Obro' topgan podachi.

Osh halol-u osh halol,
Halol mehnat osh halol.

Chorva piri Zangiota,
Ekin piri dehqon bobo.
Qo'llasin, qo'llasin,
Ruhi, pirlar qo'llasin.

Osh halol-u osh halol,
Halol mehnat osh halol.

IX. Bibi qizlar ko'm-ko'k adirga chiqib qo'zigul, ismaloq,
chuchmomalarni terib yugurishib yurganda, bir to'da jigitlar
qizlarni ongnib kelib qoladi va davrada aytishuv boshlanib
ketadi.

Bibi, bibi oh, ho,
Mumi, mumi oh, ho.

Qo'y haydadim qo'rg'onga,
Ot boylajim arqonga.

Yigitlar:

Surxon elim boy bo'lsin,
Qizlari o'ynab kulsin.

Qizlar:

Oynalayin oydanov,
Suv olaman soydayin,
Guja tuydim bug'doyim,
Shuni bergan xudoyim.

Bibi, bibi oh, ho,
Mumi, mumi oh, ho.

X. Qo'llarida do'mbira bilan baxshi Baxtiyor Boboxonov,
Alpomish yurtini kuylaydi va raqqosalar raqsga tushadilar.

Hay yoriy-y-y-y-y....
Aha-aha, umba-umba,
O'zbek deydi elimni,
Qo'lda sumbul sozimni.
Birpas terma qilayin,
Alpomishday elimni.
Oybuloqning bulog'i,
Qirda o'ynar ulog'i.
Sirg'a taqsam yarashar,
Boyvuchchaning qulog'i.

Hey....Bobo Tog'da kun chiqar,
Boysun toqqa kun botar.
Surxonimning qizlarini,
Bulbul sayrab uyg'otar.
Aha-aha, umba-umba,
Aha-aha, umba-umba.

XI. Surxon vohasida qadimdan erkaklar qiziqchilik qilib lapar aytib kelishgan. 78 yoshdagi Mengqobil bobo Ismoilov ijrosida:

O'zbek deydi elimni,
Makkam boyla belingni.

Obod qilgin cho'lingni,
Shirin qilgin tilingni,
Oydin qilgin jo'lingni.

Zombirning zovqi bol bilan,
Vurdakning zovqi qo'l bilan.
Chibinning zovqi qal bilan,
Cho'ponning zovqi mol bilan,
Kampirning zovqi chol bilan.

Yaxshi xotin ro'zg'oringni tuzatar,
Uyga kelgan mehmoningni kuzatadi.
Jomon xotin topganingni jutadi,
Chashmaga mugib uxlob jotadi.

Xiyya-xiyya-xiyya-xiyya,
Xiyya-xiyya-xiyya-xiyya.

Mehmon kelsa oyog'ini uzatadi,
Ko'zlarini uyuradi, betlarini jiyiradi.
Erini ishga buyuradi,
G'azab bilan teriganagni seyiradi.

Jomon erga tiymanglar,
Tirilay o'tga qo'ymanglar.
Jomon bo'lsa erlari,
Qisadida shurlari.

Xiyya-xiyya-xiyya-xiyya,
Xiyya-xiyya-xiyya-xiyya.

Quruq soydan o'tdingmi,
Qurboqadan qo'rqdingma,
Toshloq soydan o'tdingmi,
Toshbaqadan qo'rqdingma.

Tuya boqadi g'alalab,
Jullarga soldim galalab.
Astagina imlasam,
Nega boqirding halalab.
Vohay, vohay, vohay-y-y

Tori ekdim katalab,
Chimchiqlar jesin pataklab.
Vohay, vohay, vohay-y-y

XII. Chilbir cho'lda bir cho'pon, bir qizni yaxshi ko'rib
qoladi. Ishqida kuyib-yonib „Dilga chuchk bo'lurmisan“
qo'shig'ini oh-voy deb ijro etadi.

Muncha kichik bo'lurmisan,
Dilga chuchk bo'lurmisan.
Zarragina holing bor,
Olamni kuydurursan.

Toqqa chiqib tolib keldim,
Lola gullar olib keldim.
Yorginam vasling qumsab,
Mehrim qo'shib olib keldim.

Boz-bozingdan bozingdan-ey,
Qo'lingdagi sozingdan-ey.
Akaginang aylansin-o,
Qoshing bilan ko'zingdan-ey.

Olacha to'n kiymayman-o,
Ola qopga o'xshatib.
Boshqasini suymasin-o,
O'z yorimni qaqshatib.

Yonib keldim eligingdan-o,

Suvsab keldim cho'lingdan-o.
Birgina kosa suv bergin-o,
Tolximchaday qo'lingdan.
Dikir-dikir oynasin-o,
Oyoqqa tikan kirmasin.

XIII. Surxon vohasida qadimdan taraf-taraf bo'lib, yigit va qizlar bir-birlarining gavdasi, bosh, quloq, burun, bo'ynini hazil tariqasida ta'riflaydigan „Oldimxo-sotdimxo“ qo'shig'iga 6 ta raqqosa qizlar va 6 ta raqqos yigitlar qo'shiqqa mos harakatlar qilib raqsga tushganlar.

Oldimxo, sotdimxo, nesini? Nesini?
Boshini, boshini.
Nima qilasiz, nima qilasiz?
Kadi qilamiz, kadi qilamiz.

Oldimxo, sotdimxo, nesini? Nesini?
Bo'ynini, bo'ynini.
Nima qilasiz, nima qilasiz?
Do'mbira qilamiz, do'mbira qilamiz.

Oldimxo, sotdimxo, nesini? Nesini?
Burnini, burnini.
Nima qilasiz, nima qilasiz?
Surnay qilamiz, surnay qilamiz.

XIV. Yosh-u qari biror joyi og'rib bezovtalansa, kinnachi, polchiga borib o'zini silatgan yoki qora xolos qildirgan. Laparchi Mengqobil Ismoilov „Pol ochish“ ni Xayitgul Soatova bilan maromiga yetkazib ijro qiladi.

Xe...Diri-diri diridam,
Diridam, diridam.
Endi ko'ray polingni,
Endi ko'ray holingni.

Xaf...tushey, xaf...tushey! (Aksa urish).

Quruq soydan o'tdingmi?
Qurbaqadan qo'rqdingmi?
Toshloq soydan o'tdingmi?
Toshbaqadan qo'rqdingmi?

Xaf...tushey, xaf...tushey! (Aksa urish).

Ho...toyday tosirdagan momong,
Boytalday gusirdagan momong.

O'n sakkizni tugan momong,
Ajinani tomog'idan buvgan momong.

Oq tovuqni boylab qo'y,
Yigirma besh so'm taylab qo'y.
Boboginangni gapini,
Juraginga joylab qo'y.

Xaf...tushey, xaf...tushey! (Aksa urish).

XV. To'y u hashamga bibotin-u, qiz juvonlar taqinchoqlar taqib, yasanib borishadi, xapaband, nozigardon, tomokay, dardi gozna, mashak-javak va hokazo... „Shoda munchoq“ qo'shig'iga 4 ta raqqosa qizlar taqinchoqlarni ko'z-ko'z qilib jilva-yu ishva bilan raqsga tushadilar.

Qulli-qulli, qulli bo'sin,
To'ylaringiz qulli bo'sin.

Rang-barang shoda munchoq,
Ko'zlari qora munchoq.
Enasiga ovunchoq,
Bo'ynida qadim munchoq.
Ohidil bo'lay senga,
Mohidil bo'lay senga.
Hammaning ko'zi senda,
Ko'z tumor bo'lay senga.

Qulli-qulli, qulli bo'sin,
To'ylaringiz qulli bo'sin.

XVI. Qishlog'-u ovullarda yerli xalq o'z sigirlarini podachi-cho'ponga boqish uchun bergan va enchi to'lagan. Kechqurun podalarni egalariga topshirgandan keyin uyma-uy kirib „Osh halol“ so'ragan. „Podachi“ qo'shig'iga 4 ta raqqos yigit tayoqlar bilan cho'ponlarga xos raqslarni ijro etishadi.

Podachi, parmonachi,
Qo'ltig'ida chonachi,
Oltmish uydan osh ichib,
Obro' topgan podachi.

Osh halol-u, osh halol,
Halol mehnat halol osh.

Chorva piri Zangiota,
Ekin piri dehqon bobo.
Qo'llasin-o, qo'llasin,
Ruhi pirlar qo'llasin.

Osh halol-u, osh halol,
Halol mehnat halol osh.

XVII. Ota-onasi qarindoshlarinikiga qidirib ketadi. Qizaloq yig'lab turgan payt ammasi kelib jibatadi. „Voy-voy jonim“ qo'shig'iga 4 ta raqqosa qiz noz-u karashma bilan raqsga tushadi.

Voy-voy jonim shu jonim,
Bo'ynimdagi marjonim.
Nima bo'ldi o'zingga,
Yosh olibsan ko'zingga.

Yig'lama bas, darding olay,
Kissachangga kishmish solay-yu.
Arabi qo'yning dumbasi,
Aylanib o'tsin ammasi.
Qirmizi choynak shammasi,
O'rgulib ketsin ammasi.

Yig'lama bas, darding olay,
Kissachangga kishmish solay-yu.

XVIII. To'yga mehmonga kelgan „Bibi qiz“ni 6 ta raqqos yigit o'yinga tortadi. Mehmon qiz qo'lida xanjari shiddat bilan raqsga tushib, jigitlardan o'zini himoya qiladi.

Hoy bibi qiz, bibi qiz,
O'ynayvergin bibi qiz.

Xipcha belli bibi qiz,
Sallalari kubi qiz.
Mashaq-javak bo'ynida,
O'ynayvergin bibi qiz.

Qiyo-qiyo boqadi,
O'z eliga yoqadi.

Tinchlik, do'stlik qo'shig'in,
Kuylayvergin bibi qiz.
Hoy bibi qiz, bibi qiz,
O'ynayvergin bibi qiz.

XIX. Yigit va qizlar milliy liboslarda raqs harakatlari bilan momolar kayvoni „Hamal“ qo'shig'iga raqsga tushadilar.

Yilning boshi Hamal-o,
Dehqonlarga amal-o.
Savr, Savr, Savr kirar,
Ekinlarga davr kirar.

Saratonda suv quygin-o,
Asad oyda tek quygin.
Asad oyi oralab,
Sumbulada saralab,
Sumbulada suv sovur,
Sezon oyda kun sovur.

Aqrab kelar hayqirib,
Ayozi chaqirib.
Qavs mahal ekkuncha,
Qovurmoch qil ulam-o.

Jadda yilni chut qilgin-o,
Rejalaring but qilgin.

XX. Bibi Fotimadan qolgan milliy taom Sumalak, Navro'z bayramlarida pishiriladi. „Sumalak“ qo'shig'iga yigitlar va qizlar, momolar qo'llarida tupak, kadi, o'tin, qozon, supra va maysalar bilan raqsga tushadilar.

Sumalak ho Sumalak,
O't yoqar qosh-u malak.

Maysa ekkan o'zimiz,
Suvlar sepgan o'zimiz.

Quvnashib bugun to'yda,
Qadim udum Navro'zimiz.

Doshqozonda momolar,
O't yoqib qarashadi.
Olmasin tagiga deb,
Har onda qarashadi.

Sumalak ho Sumalak,
O't yoqar qosh-u malak.

XXI. O'zbek xalqining milliy iftixori paxta haqidagi qo'shiqqa
4 ta raqqosa qiz muloyim harakatlar bilan raqsga tushadilar.

Gullagan paxta dalada,
Ochilgan chaman dalada.
Bulbul sayragan bog'larda,
Sayr etib yurar qizlar.

Odob bilan boqqan qizlar,
Inj-u marjon taqqan qizlar.
Noz-noz etib jilva bilan,
Yigitlarga yoqqan qizlar.

XXII. Cho'pon yigit bahor fasli ot choptirib qizlar chodiriga
borib „Ot choptirdim odirga“ qo'shig'ini kuylab 2 ta raqqos yigit
bilan raqsga tushadi.

Ot choptirdim odirga,
Men borayin chodirga.
Chodir ichida qizlar,
Ikki yuzi qirmizlar.

Digi-digi, diyda-diyda, dam,
Digi-digi, diyda-diyda, dam.

Odir betida qo'zi,
Qo'zining dulang ko'zi.
Yigitlarni mast qilgan,
Qizlarning shirin so'zi.

Digi-digi, diyda-diyda, dam,
Digi-digi, diyda-diyda, dam.

XXIII. Surxon vohasi tabiatining tog'lari-yu bog'lari, bulbullari-yu baxshisini ta'riflovchi „Ona yurtim Surxondir“ qo'shig'iga raqqos qiz-u yigitlar qizg'in raqsga tushadilar.

Bobotog'im qo'rg'ondir,
Ona yurtim Surxondir.
Bog'bon borki yaxshi bor,
Qizil olma naqshi bor.

Hey.....hey....hey...

Surxonning bulog'i bor,
Lola qizg'aldog'i bor.
Bulbullarni eshitsam,
Yuragida dog'i bor.
Bulbullar uxlab qolsa,
Qo'shiqchi bor, baxshi bor.

Jo.....n.....on.....jon....

Qiyo-qiyo boqadi,
O'z eliga yoqadi.
Bulbul gulga oshiqdir,
Gul bulbulga oshiqdir.
O'zbekiston Vatanim,
Fido etay bu jonim.

XXIV. Vohaning milliy „Bobil taka“ o'yinida 2 yigit sahnada gir aylanadi. Ular bir oyoqlab bir-birlarini quvib tepishi kerak. „Bardam bo'l oshnajan“ qo'shig'ida shu harakatlar namoyon bo'ladi.

Qardam bo'l oshnajan,
Bardam bo'l oshnajan.
Chikka-pakka bo'lmasdan,
Quvib tepgin oshnajan.

Gir aylana quvib tep,
Chir aylana quvib tep.
Mo'ljal bilan raqibingga,
Oyoq silta oshnajon.

Qardam bo'l oshnajon,
Bardam bo'l oshnajon.
Chikka-pakka bo'lmasdan,
Quvib tepgin oshnajon.

XXV. Surxon elining Alpomish-u Barchinoylari, chavandozlari aks etilgan „Suluv qizlar sardori“ qo'shig'iga yigitlar qo'llarida qamchilar, qizlar esa ro'mollar bilan chiqib raqsga tushadilar.

Suluv qizlar sardori,
Qiz juvonlar o'ynasin.
Qoshlari o'sma qo'yib,
Qiz juvonlar o'ynasin.
Hey....ey....ey....ey,
Hey....ey....ey....ey.

Sum-sum tillo, sum tillo,
Suvga solsam botmasin.
Podsho bergan davlatni,
Tepkilasam ketmasin.
Ana qarang Bobotog',
Qaynab yotar Oybulloq.
Chavandozlar ot chopib,
Baxt qushini keltirsin.

Hey...y-y-y
He-he-he-he-he
He-he-he-he-he-hey...

Dindara, dindara, dindara, diy,
Dindara, dindara, dindara, diy.

Biran, biran ikan ikan,
Uchan, uchan, turan turan,
Beshan, beshan, oltan, oltan,
Ovur boltam qayga ketdi.

Tuzga ketdi, qachon kelar,
Bultir kelar, hozir kelar.

Allan, ballan xujan kallan,
Shirin-shakar, kunjut holva.
Kadi kalla, katta salla,
Pista-po'choq, qozon o'choq.
Janda-junda gilam kiyiz,
Cho'mich qoshiq sariq mayiz.

Adin-badin kiprik kadin,
Uzun-burun katta qorin.
Mayda uloq, supra quloq,
Juvon burboy, mulla to'rg'ay.
Olchi-cholchi, oshiq-ma'shuq,
Chikka-pikka, turar-tikka.
Voy-voy-voy-voy,
Voy-voy-voy-voy.
Kel-kel-kel-kel,
Kel-kel jonim-ey.

Dasturda O'zbek xalq so'zlari va termalaridan foydalaniladi.
Muallif — Rahmatilla Mo'minov.

„KABUTAR“ XALQ FOLKLOR-ETNOGRAFIK ANSAMBLI

„Kabutar“ ansambli 1982- yildan buyon faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ansambl dasturidan joy olgan qo'shiq, yalla, udum va marosimlar Farg'ona vodiysining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda yaratilgan. Ijrochilarning qadimiy ustazodalar, san'at darg'alari Ma'murjon Uzoqov, Jo'raxon Sultonov, Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyevalar, Yusufjon qiziq Shakarjonovlarning qiyofasidagi badiiy chiqishlar ansambl dasturi nufuzini yanada boyitgan. Farg'ona vodiysidan yetishib chiqqan san'at darg'alarining ijodi butun jahonga yoyilganligini hisobga olib ansamblning „Kabutar“ deb nomlanishi uning mazmun va mohiyatiga mosligini bildiradi. Ansamblning hozirgi kundagi faoliyati qizg'in davom etmoqda. Qatnashchilar dastlab katta yoshdagilardan iborat bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda u yosh talantlar hisobiga boyib bormoqda.

„Kabutar“ folklor-etnografik ansamblining dastlabki tashkilotchilari Isoq Husanov, Usta Holmat Umarov, Jo‘rabek Ahmedov, Toshmuhammad Yusupovlar edilar. Ular o‘zlarining ko‘p yillik tajribalaridan kelib chiqib, san‘atning nozik sirlarini „Kabutar“ ansambli dasturida tarkib toptirishga intildilar. Hozirgi kunda „Kabutar“ ansambliga Murodjon Sultonov badiiy rahbar.

1991- yilda „Xalq“ unvoniga sazovor bo‘lgan „Kabutar“ ansambli tuman, viloyat aholisiga madaniy xizmat ko‘rsatib kelmoqda. Ansambl tashkil etilganidan buyon u turli janrlarda 100 dan ziyod og‘zaki ijod namunalarini xalqimizga namoyish etdi. 20 dan ortiq teatrlashgan xalq milliy qo‘shiqlari tiklanib bu sahna asarlari bilan Respublika va xalqaro ko‘rik tanlovlarda ishtirok etdi. Ayniqsa, 1989- yilda „Xo‘ja Nasriddin qishloq kezadi“ nomli sahna asari ansamblning xalq olqishini olishga sazovor qildi. Mazkur dastur Farg‘ona viloyati va Respublikamizning Andijon, Namangan, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlarida namoyish etildi. Ushbu dastur o‘z oldiga, unutilib borayotgan xalq qo‘shiqlari, urf-odatlarini va sayillarini tiklash, shu yo‘sinda hamqishloqlarini mazmunli dam olishiga ko‘maklashish. Shuningdek, ansambl qiziqchilik, masxarabozlik, xazil qo‘shiqlar, yallalar orqali turmushimizdagi illatlarni fosh etishni, ularni tag-tomiri bilan tugatilishiga ko‘maklashishni maqsad qilib qo‘ygan. Xo‘ja Nasriddin Sulaymon qori, Yusufjon qiziq va Oxunjon qiziq obrazlari jamiyatdagi mavjud kamchiliklarni ayovsiz fosh qiluvchi hajviyalar bilan xalq qalbiga kirib borilmoqda. Keyingi 10 yil ichida „To‘y bo‘lsin yor-yor bo‘lsin“, „Mahallada Xalfana“, „Omon bo‘laylik“, „Alyor“ kabi xalqning qadimiy milliy qo‘shiqlari, urf-odatlarini aks etuvchi Farg‘onacha uslubdagi tomoshalar sahnaga qo‘yilib, namoyish etiladi.

„Kabutar“ folklor-etnografik xalq ansambli Respublikamiz Mustaqillikka erishgandan so‘ng, bir qator xalqaro va Respublika ko‘rik tanlovlarida hamda festivallarda ishtirok etib, faxrli o‘rinlar va sovrinlarga sazovor bo‘ldi.

2002 - yilda Qashqadaryo viloyati Kitob shahrida o‘tkazilgan Respublika ko‘rik tanlovida ishtirok etib III o‘rinni egalladi.

2004 - yilda „Boysun bahori“ ochiq xalqaro folklor festivalida qatnashdi. Viloyat folklor ko‘rik tanlovlarida doimo I—II o‘rinlarni egallab kelmoqda.

1993 - yildan va hozirgi kungacha O‘zbekiston Respublikasi Mustaqillik bayram tantanalarida va „Navro‘z“ bayramlarida

qatnashib kelmoqda. Hozirda ansambl 30 dan ziyod iqtidorli san'atsevar kishilarni o'zida birlashtirib faoliyat ko'rsatmoqda.

**„KABUTAR“ XALQ FOLKLOR-ETNOGRAFIK ANSAMBLINING
„MAHALLADA — XALFANA“ NOMLI TEATRLASHGAN
TOMOSHA SSENARIYSI**

*Xalfanada xalq bo'lar,
Ancha-muncha muammo.
Farg'onada palovlar,
O'yin-kulgi doimo.*

Sahnaga mahalladoshlar kirib kelgach „Alyor“ qo'shig'i ijro etiladi.

Alyor aytaylik, alyor,
To'y-u bayramlar bisyor.
Farg'ona yurt gavhari,
Shunday o'lka qayda bor.

Ko'hi qofdan keladur,
Sharsharani ovozasi.
Farg'onalik yor uchun,
Bo'ldim jahon overasi.

Naqarot

Olmani nozikligidan,
Ko'rinar durdonasi.
Bargiga shabnam tushib,
Men uning parvonasi.

Naqarot

Abdulhamid:

Xalfana! Xalfana elimizning, millatimizning azaliy rasm-rusumidir.

Bobolardan merosdir,
O'zbegimga ko'p xosdir.
Jo'ralarim so'ylashar,
Do'st yoronlar so'zlashar.

Xalfanada hal bo'lar,
Ancha-muncha muammo.
Qozonlarda palovlar,
O'yin-kulgi doimo.

Biz qilamiz xalfanacha,
Bor boricha yo'q holicha.
To'planadigan joyimiz,
Pishib turgan olisha.

Jo'ralar „Xalfana“ qo'shig'ini aytib to'planadilar.

Xalfanaga kelaylik,
Shirin suhbat quraylik.
Bugun xalfana oshida,
Shodon o'ynab kulaylik.

El oldiga holiso,
Qo'lda borin qo'yishar.
Bir-birini qo'llashib,
Yurt koriga yarashar.

Naqarot

Muruvvatli xalqim bor,
Sahovatli xalqim bor.
Xalfanaga azizlar,
Kimda qanday ulush bor.

Naqarot

Azimsher:

Hoy dehqon bobo bu deyman dehqonchilik mol-ko'l bo'libdi-ku!

Dehqon bobo:

Ey, nimasini aytay bolam, bu yil dehqonchilik barakali bo'ldi!

„Jo'xori ekdim“ qo'shig'i ijro etiladi.

Jo'xori ekdim boshma-bosh, aylonaman,
Choy jo'xori aralash-o aylonaman.

Bizning yorni so'rasalar, yor o'rgilay,
Ko'zlari suzik qalamqosh aytonaman.

Otam mani otdilar aytonaman,
Bir zolimga sotdilar aytonaman.
Bir zolimi qursin yor o'rgilay,
Rangimni sarg'aytdilar aytonaman.

Osmondagi oymikan,
Latofatga boymikan.
Bizning yorni so'rasalar, yor o'rgilay,
Ko'zlari suzik qalamqosh aytonaman.

Jo'xori ekdim boshma-bosh, aytonaman,
Choy jo'xori aralash-o aytonaman.
Bizning yorni so'rasalar, yor o'rgilay,
Ko'zlari suzik qalamqosh aytonaman.

Azimsher:

Abdulhamid! Bu deyman pishirgan guruchingiz devzirami?
Yo-hu urakimi?

Abdulhamid:

Azimsher, bu o'zimizning farg'onacha devzira akasi!

„Dutor zamon zora“ aytishuvi ijro etiladi.

Dutor zamon zora,
Labida dona xol bor.
Sholi eksang pastga ek,
Baland ko'tar polini.
Omon bo'lsak ko'ramiz,
Holixonning holini.

Dutor zamon zora,
Labida dona xol bor.
Qizil gul ekay deyman,
G'unchasiga hayronman.
Yangi yor topay deyman,
Eskisiga xayronman.

Dutor zamon zora,
Labida dona xol bor.
Qizil guling bo'layin,
Hovuchingga to'loyin.
Hammani ko'zi sanda,
Ko'z tumoring bo'loyin.

Dutor zamon zora,
Labida dona xol bor.

Azimsher:

Hoy Erkin aka, qo'shni mahallani ham chorlagan edik, so-
zandalarni, honandalarni yo'qlagan edik.

Erkin aka:

Ana-ana aravalarda kelishyapti:
„Arava-arava gupchakdor“ qo'shig'i sadosi ostida mehmonlar
kirib keladilar.

Arava-arava gupchakdor,
Barxit-baxmal gajakdor.
Tanovoringga qoyilman,
Tanovoringga qoyilman.

Yuring do'stlar o'ynaylik,
Daryolarni bo'ylaylik.
Zamonamiz madhini,
Qo'shiq qilib kuylaylik.

Naqarot

Shaftoli shoxi larzon,
Bo'ynimda dur marjon.
Qiz bola zeb-u ziynati,
Hush odob shirin suxan.

Naqarot

Atlas ko'ylagim dorda,
Yor chaqirar bog'da.
Yor chaqirsalar bog'da,
Men borayin shu chog'da.

„Laqqa shiqildoq“ qiziqchilar chiqishadi.

Xalq maqollari:

Yomonga zavol
Yaxshiga kamol.

Duo bilan el ko'karar,
Yomg'ir bilan yer.

Oz-oz o'rganib dono bo'lur,
Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

So'rab o'rgangan olim,
Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.

Intilganga tole yor.

Bir yigitga qirq hunar oz.

Mehnat — mehnatning tagi rohat.

Yaxshidan ot qolur,
Yomondan dog'.

Yomon otga ming qamchi,
Yaxshi otga bir qamchi.

Azimsher:

Hamyurtlar qczonga yaqin yursang, qorasi yuqar ekan.
Hech adashmanglar, yomonga yaqinlashmanglar.

Mehnatdan kelsa boylik,
Turmush bo'lar chiroylik.

„Larzon gul“ qo'shig'i ijro etiladi:

Qo'y keladi qo'zi bilan larzon gul,
Bir-birini izi bilan larzon gul.
Bir-birini izini ko'r larzon gul,
Farg'onamni qizini ko'r larzon gul.

Ot bog'ladim yong'oqqa larzon gul,
Qo'lim degdi qaymoqqa larzon gul.

Xushyor bo'ling xoy qizcha larzon gul,
Olib qochaman chorboqqa larzon gul.

Yoring bo'lsa sho'x bo'lsa, larzon gul,
Yursa ko'chalar to'lsa, larzon gul.
Do'stlar ko'rib suyunsa, larzon gul,
Dushmanlar kuyub qolsa, larzon gul.

„Oqila tomog'ingdan“ Yalla

Oqila tomog'ingdan akang,
Bodom qovog'ingdan akang.
Noz bilan, ishva bilan,
Qilgan muqomingdan akang.

Naqarot

Ul sarvi qomat bo'ylari,
Olma yanoqdir yuzlari.
Shirin-shakardir tillari,
Murcha muyundir bellari.

Hajringda men jondan kechay,
Sarmast samolarda uchay.
Kelgin belingdan bir quchay,
Hayo iboyingdan akang.

Jon oladur har boqishi,
Devona bo'lgan har kishi.
Dilimga yoqar har ishi,
Noz-u adoyingdan akang.

Osh berish marosimi. „Olma otinjon“

Guruch olsang tanlab ol,
Ichida olasi bor.
O'yinchiga ishonma,
O'n beshta bolasi bor.

Olma otinjon,
Oshga patinjon.

Xalfanada o'ynaydi,
Muhammadaminjon-a.

Naqarot

Suv bo'yida yungika,
Bellari muncha ingichka.
Ingichka deb koyimang,
Endi kirdi o'n uchga.

Naqarot

Suv keladi boshidan,
Tegirmonni toshidan.
Akaginang aylansin,
Ko'zlaringni yoshidan.

Naqarot

Olma otinjon,
Oshga patinjon.
Xalfanada o'ynaydi,
Muhammadaminjon-a.

Qum bosamiz.

Cho'pon yigit: Mayli ko'ndim ziyofatga.

Hamma shovqin bilan kutib olishadi. Bir bola qo'lida tayoq,
davom etadi.

Bola: — Tol tayoq, tolman tayoq,
— Yetmish qo'yni boqqan tayoq.

Ey qizlarjon, qani yigitlar bilan juftmi-toqmi o'yinini o'ynashga
tayyormisizlar?

Qizlar: Ha, ha....

Juftmi-toqmi o'yini boshlanadi.

Yigitlar: — Juftmi-toqmi?

Qizlar: — Juft.

Yigitlar: — Ofarin topishdi!

Qizlar: — Juftmi-toqmi?

Yigitlar: — Toq.

Qizlar: — Bular balo!

Yigitlar: — Polvonlarning avlodimiz,
— Alpomishning zurriyodimiz.

Qizlar: — Ho!

Yigitlar: — Juftmi-toqmi?

Qizlar: — Juft.

Yigitlar: — Qo'llaridagi toshni tashlab topolmadilar!

Momo: — Voy, g'irrom o'ynadinglar!

Yigitlar: — Biz qizlar bilan o'ynaymiz.

O'yin boshi: — O'ynamasang-o'ynama.

— Qani yigitlar, o'zimizni „Dul-dul“ o'yinini o'ynaymiz.
Qani sen o'yna!

Xalq o'yinlaridan „Dul-dul“ o'yini harakat bilan ko'rsatiladi. Orqasidan birdaniga „Dodlama“ kuyi berilib, do'mbirada bobo ijro etadi, raqsida yigitlar va bobo „Bug'doy o'rimi“ raqsini o'roq bilan ijro qiladi.

O'yinning so'zi

Dul-dul
Dul-dul o'yini boshlandi,
Dulga yong'oq tashlaydi.
Ey, jo'ralar kelinglar,
Kim birinchi boshlaydi.

Dodlama: — Kuyi tugashi bilan „Bibigul“ qo'shig'i raqsi bilan ijro etiladi.

Bibigul:

Biy-biy, biy-biy, Bibigul
Bibigul, Bibigul,
Qoshing bilan ko'zing gul,
O'zing bilan so'zing gul.

Naqarot

Chevargina qo'ling gul,
Qulfi-jashil kashtang gul.

„Bibigul“ qo'shig'iga qizlar qo'lida urchuq bilan o'ynashadi. Qo'shiq so'nggida qo'lida tovoq, xamir qilayotgan momo sahnaga

keladi. Sahnada bir bor „Jon kampir“ qo‘shig‘i ijro etiladi, hamma o‘ynaydi. Kampir qo‘lini yuvib harakat qiladi.

„Jon kampir“ qo‘shig‘i

Chol:

— Jon kampir, jon kampir,
Pishdimi jovli patir.
Nega qovog‘ing uyuq
Bunday ochilib gapir.

Kampir:

— Kecha qayda bo‘ldingiz,
Yo boshqani suydingiz.
Yo‘q qatlama, yo‘q patir,
Qilmagayman yuz xotir.

Nabiralar:

— Ranjimang oy momojon,
Gulni oling momojon.
Bobom yaylovda edi,
Biz bilamiz momojon.

Chol:

— Bu qandayin gapingdir,
Hazilingni qo‘ya tur.
Kecha yaylovda edim,
Xafa bo‘lma qo‘ya tur.

Kampir:

Bormagayman siz bilan,
Boring katta yo‘l bilan.
Endi men yolg‘iz o‘zim,
Yurgayman shul chim bilan.

Qo‘shiq tugashi bilan baxshi Barchinoy qo‘shig‘ini boshlaydi.
Bir qiz yakka o‘ynaydi va jo‘r bo‘lib o‘ynashadi.

Qo‘ng‘irot chechana qizlari,
Aql raso o‘zlari.
Qolmasin yosh-u qari,
Surxon alpomishlari.

Barchinoy ko'zi xumora,
Bo'yniga osgin tumora.
Ko'z tegmasin bo'yinga-e,
Begingni qilma ovora.

Qo'shiq tugashi bilan „Bu yil ot muchal yili“ qo'shig'i raqsi bilan ijro etiladi. Yigitlar qo'g'irchoq minib ot o'yin o'ynashadi.

Bu yil ot muchal yili,
Ko'p barakali keldi.
Ot o'ynatgan bolalar,
Qadrin topgan yil keldi.

Naqarot

Aylanayin bobojon, o'rgilayin momojon,
Aylanayin bobojon, o'rgilayin momojon.

Momo, bobo o'ynaydi.

Qaring bo'lsa paring bor,
Ey, yoronlar uyingda.
Bunday hurmat qayda bor,
Faqat o'zbek elimda.

Ming yillarki o'zbekning,
Otlar bo'lgan yo'ldoshi.
Uloq chopish ko'pkari,
Ajdodlarim merosi.

Doiraning ovozig'a, qizlar qoshiq bilan o'ynashadi.

Naqarot

Surnayda „Shingala“ kuyi beriladi. Qo'shiq raqsi bilan ijro etiladi.

Yigitlar:

— Jamalagingga boylanayin,
Yuragingga joylanayin.
Rozi bo'lsang qizgina,
Yoring bo'lib saylanayin.

Qiz:

— Nega meni qiynaysan,
O'z holimga qo'ymaysan.

Maftun qilding o'zingga,
Mayli ko'nay so'zingga.

Surnayda kuy ijro etilib, hamma qo'lida qoshiq, urchuq, tovoq, qo'g'irchoq, tayoq, o'roq, ko'zalar bilan o'ynashadi. Shunday qilib, hurmat ehtirom ila dasturni yakunlashadi.

Ssenariy muallifi O.S.Ahmedov

„MOHI SITORA“ XALQ FOLKLOR-ETNOGRAFIK ANSAMBLI

Qadimiy shaharlardan hisoblangan Buxoro o'zining hayratga soluvchi bebaho tarixiy madaniy yodgorliklari, betakror san'ati bilan ham mashhur va manzurdur. Kishilarga olam-olam quvonch, shodlik baxsh etuvchi, ruhiga sokinlik, qalbiga jo'shqinlik ato etuvchi „Shashmaqom“i, adabiyot va san'ati hamda og'zaki ijod namunalari, dilrabo raqslari azaldan kishilarni maftun etib kelganligi ayon. Buxoro san'ati — moddiy va ma'naviy boyliklari o'zlarining ilk poydevoridan boshlab, do'st-birodarlik asosiga qurilgan, zamonaviy ibora bilan aytganda qon-qardoshlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan. Darhaqiqat, nodir yodgorliklarga birinchi bor tamal tosh qo'yishda ham adabiyot, san'at va ilm-fan rivoji-yu, moddiy va ma'naviy boyliklarining boshqa millat, boshqa mazhab kishilari ham faol ishtirok etganlar. Bu yerda qalblar-qalblarga, dillar-dillarga tutashib, taqdirlar-taqdirlarga qo'shilib ketgan. Shu bois Buxoro do'st-birodarlik timsoli, ota-bobolarimizdan qolgan birodarlik yodgorligi, qon-qardoshlik maskani ekani bilan ham mashhurdir.

Aytish o'rinliki qadimiy kuy-qo'shiqlar, raqslarni ko'z qorachig'idek saqlab qolishda, ularni asrab-avaylab avloddan-avlodga yetkazishda, „Mohi Sitora“ ansamblining alohida o'rni bor.

Hozirgi kunda „Mohi Sitora“ har tomonlama shakllangan, repertuari puxta va boy, musiqa, raqs, libos, qiyofa, ijroda folklor-etnografik ansambli oldiga qo'yiladigan talablarni uddaladi. Ansamblning ko'ngilga orom, dilga zavq baxsh etuvchi har bir qo'shig'idan hayratga tushmagan, u ko'rsatgan folklor-etnografik lavhalar, ko'rinishlardan rohatlanmagan kishi kam topiladi.

„Mohi Sitora“ bugungi kundagi muvaffaqiyatlarga erishguncha o'z boshidan ozmi-ko'pmi qiyinchiliklarni, tashvishlarni o'tkazdi. Xalq ijodining o'ziga xos jozibasi-yu, ma'naviy kamolotini, zamonga hamnafasligi-yu nafosatini tushunib yetmaganlar „Folklor asosida ansambl tuzilarkanmi, bu bo'lmagan gap“, „Davrimiz qanchalik

ilgarilab, madaniyatimiz, san'atimiz gullab-yashnadi, kishilar tamomila boshqacha, demak, ular didiga mos tushuvchi, talabiga javob beruvchi san'at kerak, folklor bo'lsa o'tmish merosi, unda joziba, nafosat nima qilsin", „Nozanin“ ansamblini aynan takrorlaydi, deganlar ham bo'ldi.

„Mohi Sitora“ har qanday qiyinchiliklarga qaramay muvaffaqiyat bilan tashkil qilindi. Biroq, u tez orada obro', shon-shuhrat qozondi. Buni anglamoq uchun ansambl repertuarini ko'zdan kechirmoq, ijrosini kuzatmoq, shuningdek, har bir a'zosining qalbiga chuqurroq nazar tashlamoq lozim. Zero, har qanday ansamblning qiyofasini, dastavval uning repertuari, uning yo'nalishi, xarakteri, ijro usuli, mahorati ramziy vositalardan qay darajada foydalana olganligi, kiyim-kechagi, xalq ichiga kirib uning qalbidan qanchalik joy olgani, zamon bilan qanchalik hamkorligi belgilaydi. Har qanday ansambl u folklor-etnografik yoki oilaviy ansamblmi, uning taqdirini hal qiluvchi, baholovchi, yashashga qobil yoki noqobilligini belgilovchi ayrim mutaxassis (u qanchalik iqtidorli, yuksak bilim egasi bo'lmasin) yo ayrim shaxslar emas, balki keng tinglovchilar ommasi bir so'z bilan aytganda xalqdir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda „Mohi Sitora“ folklor-etnografik ansamblining faoliyati ibratlidir.

Buxoro shahrining viloyat markazlashgan madaniyat uyi qoshidagi „Mohi Sitora“ ansambli ish boshlagan kundanoq o'z dasturini boyitib elga tanildi. U betinim mehnat, izlanishlar evaziga dong taratdi. Ayniqsa, ansambl tashkilotchisi, badiiy rahbari Oliya Hasanova ularga bosh-qosh bo'ldi. Ansamblning kundalik faoliyati, repertuar ustida ishlashi, yumushlari, tashvishlari bilan yaqindan tanishgan har bir kishi, ushbu folklor-etnografik ansambl jamoasining ahil, bir oiladay bo'lib mehnat qilayotganini ko'rib havas qiladi.

Tinimsiz mehnati va izlanishlari evaziga „Mohi Sitora“ folklor-etnografik ansambliga Madaniyat vazirligi yig'ilishining 26 - fevral 1988 - yil 2/6 sonli qaroriga binoan „Xalq havaskorlik badiiy jamoasi“ unvoni berildi. Bu unvon ansamblga yana katta mas'uliyatlar yukladi. Xalq ijodi san'atining zukko bilimdoni Tamara Toshboyeva, folklorshunos olimi Saodat Yo'ldosheva bilan hamjihatlikda ish olib borib jamoaning badiiy salohiyatini oshirishga harakat qildi. Ulardan nazariy bilim hamda amaliy mashg'ulotlar olib, katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi.

Ansambl a'zolari ustoz san'atkorlar To'faxon Pinxasova, Orif Otayev, Rahima Rahimovalardan san'at sirlarini chuqur o'rgandilar. Oliy Hasanova ustozlari Haydar aka Shodiyev, Orif Otayev, O'zbekiston televideniyasining rejissori Tamara Toshboyeva, Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti „Xalq ijodiyoti“ kafedrası mudiri, professor Saodat Yo'ldoshevalarning tinimsiz mehnati va maslahatlari tufayli „Mohi Sitora“ ansamblini kamol toptirdi. Shuningdek, ansamblning badiiy jihatdan shakllanishida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, bastakor Orif Otayevning ham xizmatlari katta.

„Mohi Sitora“ ansamblining ishtirokchilari turli yosh va kasb egalaridan iborat. Bular madaniyat xodimlari, uy bekalari, maktab o'qituvchilari, nafaqaxo'rlar. Ansambl kuylagan xalq qo'shiqlari va raqslarida Buxoro xalqining o'tmishi, buguni va ertasining iqboli namoyon etiladi.

„Mohi Sitora“ ansamblı viloyatda tashkil qilinadigan barcha madaniy-ommaviy va xayriya tadbirlarining doimiy ishtirokchilari hisoblanadi. Ansambl sahnaga chiqishini xalq amaliy san'atining ko'rgazmasi desa bo'ladi. Qatnashchilarning buxorocho zardo'zi ko'ylaklari, qadimiy bichuvdagi kamzullari, do'ppilar, xalqimizning boy madaniy merosi va ma'naviy dunyosini ko'z o'ngimizda gavalantiradi.

„Mohi Sitora“ ansamblı o'tgan yillarda qator qardosh Respublika shaharlaridagi tadbirlarda qatnashib, nufuzli o'rin sohibi bo'ldi. „Orazibon“, „Shalola“, „Chavqi“ kabi o'zbek folklor-etnografik ansamblari qatoridan munosib joy olib, zo'r muvaffaqiyat qozonib, ko'pchilikda juda katta taassurot qoldirdi. Xalqaro folklor festivallarda muvaffaqiyatli qatnashganligi uchun „Mohi Sitora“ folklor-etnografik ansamblı yuksak diplom, sovrin hamda esdalik nishonlari bilan taqdirlandi.

Oliyaxon Hasanovaning sa'y-harakatlari tufayli „Mohi Sitora“ „Mavrigixonlik“ni qayta tiklab, rivojlantirdi. U turkum „Shavod“, „Sarxona“, „Miyonxona“, „Gardon“, „Chorzarb“ xalq termalarini o'z ichiga olgan. Ma'lumki, „Mavrigi“, asosan, buxoroliklar o'rtasida vujudga kelgan bo'lib, uzoq asrlar davomida ijro etib kelingan turkum qo'shiqlar sanaladi.

U qo'shiq va raqslardan tashkil topgan go'zal ohanglar majmuasi hisoblanadi va u buxoroliklarning ijrochilik mahorati hamda ijrochilik xususiyatlarini namoyon etadi.

O'zining mazmunli va serqirra dasturi bilan „Mohi Sitora“ Butunittifoq xalq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasida, O'zbekiston kunlari tantanalarida o'z mahoratini namoyish etib, katta olqishlar, qimmatbaho mukofot va sovrinlarga sazovor bo'ldi.

1988- yilda Oliy opa va uning „Mohi Sitora“ folklor-etnografik ansambli uchun qutlug' keldi. Ansambl Moskvada o'tkazilgan Xalqaro folklor festivalida qardosh xalqlar va jahonning 21 mamlakatidan kelgan san'atkorlar bilan bir qatorda ishtirok etib o'z san'atlarini namoyish etdilar. Bu festivalda ular diplom va esdalik medali bilan mukofotlandilar.

„Mohi Sitora“ ansambli o'ziga xos uslubi va repertuariga ega. Ansamblning xalq orasida ommalashib, obro'-e'tiborga ega bo'lishida jamoa tashkilotchisi va doimiy rahbari Oliyaxon Hasanovanning xizmatlari cheksiz.

Buxoroga kelgan turli chet el delegatsiyalari, aziz mehmonlar „Mohi Sitora“ dasturini chetlab o'tmaydi. Ansambl konsert dasturini tomosha qilgan Hindistonning mashhur kino yulduzi Radj Kapur ham „Mohi Sitora“ning ijro mahoratiga tasanno aytgan.

„Mohi Sitora“ folklor-etnografik ansambli dasturidan joy olgan „Mohi Buxoro“, „Nog'ora“, „Qayroq“, „Zang“, „Ushtur bacha mond“, „Yor omad“, „Uf dilam“, „Chorzarb“, „Orzu“, „Shart“, „Miyonxoni“, „Chashmohi siyoh“, „Murg'ak“, „Gula burdan ba chaman“, „Jon Xasanjon“, „Ba shahri Buxoro“, „Dar bog' anjilast“, „Ko'zlarim senda mudom“, „Yoratman-yoratman“, „Buxoro hazil qo'shiqlari“, „Begimjon“, „Maxvashi nozik badanash orzu“, „Ne-ne dilakam bobo“, „Sebak“, „Jamalagi tillo qizgina“, „Sumalak“ kabi qo'shiqlarni tinglash va ijro usullarini tomosha qilish kishiga olam-olam zavq va quvonch bag'ishlaydi.

Bundan tashqari Oliyaxon Hasanova o'z ansambli dasturiga Buxoroning o'ziga xos raqslarini, udum va marosimlarini kiritgan. Masalan, „Kelin salom“, „Kuyov salom“, „Xinobandon“ beshik to'yi, muchal to'yi marosimlarini jamoa tomonidan mahorat bilan ijro etilganligi ko'pchilikda yaxshi taassurot qoldirgan. Ulardagi ijro uslubining qadimiyligi, badiiy talqini har qanday tomoshabinni sehrlab, hayratga soladi.

Buxoroning milliy urf-odat an'analari, marosim va udumlarini hayotga tadbiq etish, yaxlitligini saqlab qolishda „Mohi Sitora“ folklor-etnografik ansambli xayrli ishlarni amalga oshirmoqda.

Dunyoda inson zoti borki uning yuragida musiqa, qo'shiq va raqsga moyilligi bo'ladi. Sehrli ohanglar og'ushida zavqlanadi.

Ma'naviy barkamollikka erishadi. Ayniqsa, millati, e'tiqodi turish-turmushi turlicha bo'lgan qaysi bir xalqqa qaramang, uning yuragida san'atga, o'yin-kulgiga oshuftalik tuyg'usini his etish mumkin.

Ana shunday san'atga oshuftalik tuyg'usi bilan oshno bo'lganlardan biri Amerikalik yosh san'atkor Teravi Teresu Jeralxonimdir. Ular Oliyaxon Hasanova huzuriga kelib Buxoro raqs san'ati sirlarini puxta o'rganishga jazm etdilar. Ustoz va shogird hamkorligida mashqlar ikki yarim oy davom etdi. Mehmon Oliya opadan Buxoro raqslari bilan birga, o'zbek xalqining mumtoz raqslarini, ya'ni „Munojot“, „Savti munojot“, Buxorochoa usuldagi qayroq, nog'ora, zang, mavrigixonlikni o'rgandi.

Mehmon ustoziga „Raqsa san'atining guli“ deb baho berdi. O'rganganlarini Amerika xalqiga namoyish etib olqish va tahsinlarga sazovor bo'ldi.

Ansamblning repertuari rang-barang, g'oyaviy yuksak va badiiy mukammal asarlarga boy. Uning repertuarida Buxoroning qadimgi va zamonaviy folklorining eng yaxshi namunalari saralab olingan. Buxoroliklarning san'ati nechog'li boy, betakror va dunyo qadar qadimiy ekanligini qishloqma-qishloq, mahallama-mahalla yurib, izlanishlar olib borganimizda yana ham chuqurroq his etdim, — deydi Oliyaxon Hasanova. Xalqimiz san'at shaydosi va fidoyisi. U, ayniqsa, serqirra boy og'zaki ijodga ega. Ota-bobolarimiz, Buvijonlarimiz Buxoroning eng qadimiy mavrchada kuylagan qo'shig'i, laparlarini hamon unutmay, sevib, ardoqlab kuylab kelar ekanlar.

Bunday tabarruk kishilar bilan uchrashib, ularning ijrosidagi noyob folklor asarlarini qo'lda hamda magnitofon lentalariga yozib olib, qunt bilan o'rgana boshladik. Hatto ularning ba'zilaridan ansamblimiz ishtirok etishlarini so'raganimizda, bajonidil rozilik berishdi.

Darhaqiqat, „Mohi Sitara“ Buxoro xalq og'zaki ijodini mukammal o'zlashtirib olish, uning o'ziga xos nafosat, go'zal qirralarini dildan his etish ustida ko'p izlanishlar olib bordi. Ta'kidlash o'rinliki, ansambl tez orada og'izga tushishiga, balki yuqorida sanab o'tilgan omillardan tashqari, xalqning dardi, intilishlari, orzu umidi, kurashi, tarixi, estetik didi, turmushi, ruhiy holati ifodalangan og'zaki ijodga ko'proq murojaat qilishi, matnda, ijroda xalqona ruhni, holatni saqlab, ish tutishi sababchi bo'lgan bo'lsa ajab emas. „Mohi Sitara“ning boshqa folklor etnografik ansamblardan farqi, o'ziga xos tomoni shundaki, uning reper-

tuaridagi o'zbekcha qo'shiqlar, raqslar bilan birga tojik xalq ijodidan namunalar, ya'ni tojikcha qo'shiqlar, raqslar, laparlar, muhammaslar ham ko'plab uchraydi. Shu nuqtayi nazardan „Mohi Sitora“ qo'shiq, kuy, raqs va kiyim-kechakda ramziy, zullisonayn (ya'ni ikki tilli), boshqacha aytganda shir-u shakar ansamblidir. Ansamblning ikki qadimiy qon-qardosh xalqlar o'zbeklar va tojiklar orasida shuhrat qozonishiga yana bir sabab ana shu holat xoh o'zbek folklori bo'lsin, xoh tojik folklori bo'lsin har ikkovining bab-baravar mahorat bilan ijro etilishidadir. Har ikki xalq folklori jozibasini, uslubiy ko'rinishlarini, nafasatini to'laroq saqlash, ularni o'ta zamonaviylashtirmaslik nisbatan qadimiyligini, hayotiyiligini saqlash, zamonamiz talab-ehtiyojlaridan kelib chiqib, ijro etish mazkur xalq ansambliga xos xususiyatlardandir. „Mohi Sitora“ ansambl ijrosida qo'shiqlar, kuylar tinglar ekansiz, raqslar tomosha qilar ekansiz, har ikki xalqning o'tmish hayoti manzaralarini ko'rib turganday, dard-hasratlarini eshitganday bo'lasiz. O'tmish nobop tuzumi tufayli baxti qaro bo'lgan onalarimizning isyonkor ovozini, bevaqt zavol topgan sevgi qurbonlarining fojiona nidolarini eshitayotgandek bo'lasiz. Ayni chog'da bu kuy-qo'shiqlarda, raqslarda bugungi kunning tarovati, istiqbolimizning-istiqboli, mazmundorligi-yu, jozibasi tarannum etilayotganining ham shohidi bo'lasiz.

Bular ansambl repertuaridagi „Mohi Buxoro“, „Nog'ora, qayroq, zang“, „Ushtur bacha mond“, „Yor omadu“, „Uf dilam“, „Chorbzarb“, „Orzu“, „Shart“, „Miyonxona“, „Chashmohi siyoh“, „Murg'ak“, „Gula burudam da giram“, „Yorakam dar xob bedorast“, „Jon modarakam“, „Yallo, yallo, yallo“, „Oromijon biyo“, „Buxorocha mavrigi“, „Gardon“, „1-sarxona, 3- sarxona“, „Ayladi“, „Yallali bobom, yalalum“, „Ey nozanin“, „Hasanjon“, „Begimjon“, „Rafti-nagufti“, „Mehnat bilan“, „Olg'a bos“ kabi qo'shiqlarda o'zining yorqin ifodasini topgan. Ayniqsa, sahnalashtirilgan buxorocha to'ylar, kelin uzatish, beshik to'y marosimlarini o'yin, ashula, vositasida ifoda etib ko'rsatishlari, ular tarkibidagi kuy-qo'shiq, raqsalarining mavzusi, ijro uslubi hamda qadimiy Buxoro xalq ijodi, etnografiyasi va sat'atini o'zida mujassamlashtirgani bilan har qancha tahsinga sazovordir.

„Solnoma“ yor-yori bilan boshlanuvchi dastur „Shoad-sarxoniy“, „Chorzarb“, „Mavrigiy“, „Miyonxoniy“, „Qayroq“, „Zang“ o'yinlari, doira-yu nog'ora sadolari jo'rligida juda jozibali, chiroyli va mazmunli talqin etiladi.

„Mohi Sitora“ buxorocha klassik „Shashmaqom“ usuli va yo‘llari, qadimiy folklorimiz ashula va o‘yinlari, „Mavrigi“ qo‘shiqlari va raqslarini o‘z repertuariga asos qilib oladi. „Mavrigi“ musiqa oqimi bo‘lib, u taxminan 12 - asrlarda Buxoroda dunyoga kelgan.

„Mavrigi“ — asli eroncha qo‘shiq. Eron mavrlari O‘rta Osiyoga asir qilib olib kelingach, asosan, Buxoroda o‘rnashib qolganlar. „Mavrigi“ qo‘shig‘i ham shular bilan birga kelgan. „Mavrigi“ yengil, sho‘x o‘ynoqi bo‘lib, asosan, to‘ylarda ijro etiladi. Qo‘shiq boshlanishida yakkaxon davraning o‘rtasiga chiqib, qo‘liga piyola ushlab, davradagilarga murojaat qiladi. Keyin navbatma-navbat o‘yinga tushib, qo‘shiqlar aytiladi. Ijrochilar qo‘liga, beliga, oyog‘iga zang bog‘lab oladilar. Qo‘llarida likopcha, angishvona, qayroq ushlab, jiringlatib raqsga tushadilar. Qo‘shiqning ta’siri kuchli bo‘lib, barchani o‘ziga jalb etadi, to‘ylarga shodiyonalik ruhini beradi. „Mavrigi“ qandaydir jihatlari bilan Xorazm lazgisiga, Farqona vodiysining „Andijon polkasi“ga, rus chestushkalariga, lo‘li romanslariga ham o‘xshab ketadi.

„Begimjon“, „Ba nozam kuyla“, „Bog‘imda o‘sar gullar“, „Gardon“, „Hasanjon“, „Qosh usmoli-bandoyat man“ kabilar „Mavrigi“ turkumining unchalik to‘la bo‘lmagan ro‘yxatidir.

„Mohi Sitora“ning qiyofasini belgilovchi, uni tom ma‘nodagi folklor-etnografik ansambl ekanligini ta‘minlovchi omillardan yana biri ansamblga tanlangan kastum, ya‘ni kiyim-kechakdir. Ma‘lumki, Buxoroning qadimgi qiyofasini ham, hozirgi hayotini ham kashtalarsiz, ularning qilni qirq yoruvchi nozik, nafis, ammo juda katta mahorat, mehnat, zukkolik va uquvni talab qiluvchi zardo‘zliksiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. „Mohi Sitora“ ansambli masalaning ana shu nozik qirralarigacha e‘tibor qaratgan.

Ansambl kastumi haqiqatan o‘zining milliy koloriti, bezakdorligi, jimjimadorligi bilan ajralib turadi. Buxorocha uslubdagi zarbof ko‘ylaklar, kastumlar, rang-barang matolardan tayyorlangan bo‘lib, ular bu voha an‘anasiga mos bichish-tikish, amaliy san‘at namunalari hisoblanadi. To‘g‘ri „Mohi Sitora“ga o‘xshash ansamblarning libosi borasida mutaxassislar o‘rtasida turli xil qarashlar mavjud. Ba‘zilar ansambl kiyim-kechaklaridagi haddan ziyod hashamdorlik, narxi qimmatligi va hokazolar qoralanib, oddiy xalqqa xos emasligi aytiladi. Biroq har bir folklor-etnografik ansambl o‘ziga xos kiyim-kechagi bilan ajralib turishi lozimligi, chunki, bunda xalq amaliy san‘ati, turmush sharoiti, etnografiyasini anglaitb turishi ham maqsadga muvofiqligi ta’kidlab o‘tiladi.

„Mohi Sitora“ ansamblining san’atsevar, fidoyi, mehnatsevar jamoasining har bir a’zosi o‘z repertuarini boyitish, ijrochilik mahoratini mukammallashtirib borish ustida bosh qotirishi tinim bilmay izlanishlari haqida Oliya Hasanova shunday deydi: — Ansamblimiz hozir repertuarimizni yanada boyitish, unutilib ketgan xalq termalari, laparlari, muhammaslarini izlab topish va o‘rganish, qadimiy o‘zbek va tojik qo‘shiq, raqslarini tiklash va ularni yana hayotga qaytarish, har ikkala xalq etnografik ko‘rinishlarini badiiy ijod yordamida sahnaga olib chiqish ustida jiddiy mehnat qilmoqda. Qisqasi konsert dasturimizni zamon talablariga hamohang bo‘lishiga, ulkan voqealarni boshidan kechirayotgan yuksak didli xalqimizga manzur bo‘lishi uchun butun kuch imkoniyatimizni, ist’dod va qobiliyatimizni ishga solamiz.

„Mohi Sitora“ning kuch-quvvatga to‘lgan, yashash, ijod qilish, ijro ishtiyoqida ter to‘kayotgan har bir a’zosi bilan suhbatlashib, uning tinim bilmas rahbarining yuqorida aytganlari haqqoniy so‘zlar ekanligiga, bu ansamblida so‘z bilan ish birligiga ishonch hosil qilasan kishi.

1990—1992- yillarda Toshkent shahrida o‘tkazilgan „To‘ymarosim qo‘shiqlari ijrochilari“ning Respublika ko‘rik bellashuvida folklor ansambl birinchi o‘rinni, ko‘rik birinchi darajali diplomi hamda qimmatbaho sovrinlarini qo‘lga kiritdi. Ansambl 2000 - yil Fransiya va Germaniyada o‘z san’atini namoyish qildi.

„Mohi Sitora“ o‘zining rang-barang dasturlari bilan Respublika televideniyasining „Ostonasi tillodan“, „Oltin beshik“ ko‘rsatuvlarida faol ishtirok etmoqda.

Ansamblning badiiy rahbari Oliyaxon Hasanovanning xalq ijodiyotini rivojlantirishdagi katta xizmatlari inobatga olinib, 1992-yil „O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist“ unvoni berildi. Shuningdek, opa „El-yurt hurmati“ sovrindori hamdir.

Mohi Sitora qo‘shiqlari.

JAMALAGI TILLO QIZGINA

(Xalq qo‘shig‘i)

Qosh agar payvasta bo‘lsa,
O‘smani gardon qilur.
Yor agar nodon bo‘lsa,
Oshiqni sargardon qilur.

Naqarot

Hoy yallo-yallo qizgina,
Jamalagi tillo qizgina.

Bog' ichida anorsan-e,
Yallo-yallo qizgina.
Qiz desa qizcha borsan-e,
Jamalagi tillo qizgina.

Go'zallikka boysan-e,
Yallo-yallo qizgina.
Shu qizcha manim yorim-e,
Jamalagi tillo qizgina.

Naqarot

Hoy yallo-yallo qizgina,
Jamalagi tillo qizgina.

Gul bo'lsang ham ra'nosan-e,
Yallo-yallo qizgina.
Qizlar ichra barnosan-e,
Jamalagi tillo qizgina.

Mehring bilan yonaman-e,
Yallo-yallo qizgina.
Shu qizcha mening yorim-e,
Jamalagi tillo qizgina.

Naqarot

Hoy yallo-yallo qizgina,
Jamalagi tillo qizgina.

SHISHANI ZARGARGA BERDIM

(Xalq qo'shig'i)

Shishani zargarga berdim,
Kechalar chekdim firoq.

Bir qo'limga sham olibman,
Bir qo'limga shamchiroq.

Shamchiroqning yonganidan,
Yonmagani yaxshiroq.
Bevafo yor bo'lganidan,
Bo'lmagani yaxshiroq.

Ko'kkina kaptar kelodi,
Bo'yni yerga qayrilib.
Men nechun toqat qilayin,
Sevganimdan ayrilib?
Ko'kkina kaptar kelodi,
Kunda-shunda ko'rgani.
Oyda-yilda bir kelarman,
Oy yuzingni ko'rgani.

Yoz kuni ayvonda yotdim,
Oy manim ustimdadir.
Seskanib o'rnimdan tursam,
Oq bilak bo'ynimdadir.

Oq bilakka qo'sh bilaguzuk,
Sadqayi holing bo'lay.
Oy yuzingga oyna-yu ham,
Durrayi toling bo'lay.

OLMANING BARGIDAKKINA

(Xalq qo'shig'i)

Naqarot

Olmaning bargidakkina,
Jiydaning bargidakkina.

Havo-havo dim bo'ldi-e, olmaning bargidakkina,
Eshik ochgan kim bo'ldi-e, jiydaning bargidakkina.
Astagina uyg'otib-e, olmaning bargidakkina,
Olib qochgan kim bo'ldi-e, jiydaning bargidakkina.

Naqarot

Olmaning bargidakkina,
Jiydaning bargidakkina.
Bog' ichida bir ilon-e, olmaning bargidakkina,
Yigit qilichi birgan-e, jiydaning bargidakkina.
Bizga yor salom bersang-e, olmaning bargidakkina,
Tilining uchi birlan-e, jiydaning bargidakkina.

Naqarot

Olmaning bargidakkina,
Jiydaning bargidakkina.

Olma guli gul emas-e, olmaning bargidakkina,
Taqsang-chakkanga turmas-e, jiydaning bargidakkina.
Kishi yori yor bo'lmas-e, olmaning bargidakkina,
Birpas yoningda turmas-e, jiydaning bargidakkina.

Naqarot

Olmaning bargidakkina,
Jiydaning bargidakkina.

Olma guli nofarmon-e, olmaning bargidakkina,
Izlab seni toparman-e, jiydaning bargidakkina.
Izlab seni topganda-e, olmaning bargidakkina,
Lablaringdan o'parman-e, jiydaning bargidakkina.

Naqarot

Olmaning bargidakkina,
Jiydaning bargidakkina.

Gardon

Endi mani yor o'ldirsin,
Shugina juvon o'ldirsin.
Qoshi kamon o'ldirsin,
Pista dahon o'ldirsin,
Shirin zabon o'ldirsin,
Mo'rhamiyon o'ldirsin.
Zulfi siyoh o'ldirsin,
Qoshi qaro o'ldirsin.
Lablarida xol o'ldirsin,
Yonog'ida bol o'ldirsin.

Yuzlari gul o'ldirsin,
Tishlari dur o'ldirsin.
Xipcha miyon o'ldirsin,
G'uncha dahon o'ldirsin.
Sadaf dandon o'ldirsin,
Ofatijon o'ldirsin.
O'ldirsin-o, o'ldirsin!

Ne-ne, Dilakam, Bobo
(*Surudi xalqi*)

- Bobo:* — Vaqti xob kardi, duxtar,
Dillama ob kardi, duxtar.
- Duxtar:* — Ne-ne, dilakam, bobo, (2 marta)
Dardi dilakam, bobo
In darde, ki man doram,
Oxir mekushad manro.
- Bobo:* — Ro'molat giram, duxtar?
- Duxtar:* — Ne-ne, dilakam bobo,
- Bobo:* — Kalapo'shat giram, duxtar?
- Duxtar:* — Ne-ne, dilakam, bobo, (2 marta)
Dardi dilakam bobo
In darde, ki man doram,
Oxir mekushad manro.
- Bobo:* — Marjonat, giram duxtar?
- Duxtar:* — Ne-ne, dilakam, bobo.
- Bobo:* — Go'shvorat xaram, duxtar?
- Duxtar:* — Ne-ne, dilakam, bobo, (2 marta)
Dardi dilakam bobo
In darde, ki man doram,
Oxir mekushad manro.
- Bobo:* — Kamzulat giram, duxtar?
- Duxtar:* — Ne-ne, dilakam, bobo,
- Bobo:* — Kavshakat giram, duxtar?
- Duxtar:* — Ne-ne, dilakam, bobo, (2 marta)
Dardi dilakam bobo
In darde, ki man doram,
Oxir mekushad manro.

Bobo: — Shavharat giram, duxtar?
Duxtar: — Ha-ha, dilakam, bobo,
Bobo: To'yakat kunam, duxtar?
Duxtar: Ha-ha, dilakam, bobo.
Bobo: Dardi dilakam, duxtar.
Duxtar: — Dardi dilakam, bobo.
Bobo: — In darde, ki tu doshti?
Duxtar: — In darde, ki man doshtam.
Bobo: — Hammesh hamin ast, duxtar?
Duxtar: — Hammesh hamin ast, bobo.

Sebak

(*Surudi xalqi*)

Pisar: — Xolakat maro kushtast,
 Nozakat maro kushtast.
 Yak g'amza ba mo kardi,
 Ishvakat maro kushtast.
Duxtar: — Har kas, har kase dorad,
 Xona yorake dorad.
 Yorash dar peshash boshad,
 Aysh-u ishrate dorad.
Pisar: — Sho'xi dilraboyi man.
 Man, ki muhtaloyi tu.
 Dardi man davo sozad,
 Xolaki siyohi tu,
Duxtar: — Ra'no guli bebokam,
 Tu angur-u man tokam.
 Az baroyi yak angur,
 Pechida ba har shoxam.
Pisar: — Yoram bog'chaye dorad,
 Bog'cha mevaho dorad.
 Bayni mevahoyi bog',
 Seb-u ham anor chi omad,
Duxtar: — Pah-pah bo'yi chi omad,
 Yoram nazdi man omad,

Az sayraki bog' omad,
Be yak dona seb omad.

Pisar: — Bog'-u lolazoram hast,
Seb-u ham anoram hast.
Yak bo'saye lutfam kun,
Sebake ba dastam hast.

Bodo-Bodo

(Surudi xalqiyi)

Bodo-bodo-bodo, to'y muborak bodo,
Bodo-bodo-bodo, kelin muborak!

Sari ko'hi baland jufti sitora,
Dilakam shud ba tu sad pora-pora.

Bodo-bodo-bodo, to'y muborak bodo,
Bodo-bodo-bodo, kelin muborak!

Dilakam shud ba tu sad pora-pora,
Xudo kay medihad umri dubora.

Bodo-bodo-bodo, to'y muborak bodo,
Bodo-bodo-bodo, kelin muborak!

Kelincha bozi mekard, mo'yash darozi mekard,
Domodcha bozi mekard, jomesh darozi mekard.

Bodo-bodo-bodo, to'y muborak bodo,
Bodo-bodo-bodo, kelin muborak!

Namak dar dasti man, sho'ri nadorad,
Dili man toqati duri nadorad.

Bodo-bodo-bodo, to'y muborak bodo,
Bodo-bodo-bodo, kelin muborak!

Yusuf man, Yusufi mane

(Surudi xalqi)

Naqarot

Yusufi man, Yusufi mane...
Ey sarvi xazinayi javoni,
Zulayho shuda az g'amat fig'oniy.

Man bori avval mushtoqi ro'yat,
Ba tu qurbon tufayli tori mo'yat.

Naqarot

Yusufi man, Yusufi mane...

Jonam-jigaram, dili nigoram,
Sarvi sumanam, guli bahoram.
Ba dast angushtari doram, nigini tobonash tu,
Ba dil sad mushtari doram, az hama raxshonash tu.

Naqarot

Yusufi man, Yusufi mane...

Koshkeki modarat shahzoda meshud,
Ba tu shiri safed nadoda meshud.
Hamon shiri safed ro'yi zamin hast,
Namedonam, ki Yusufi man kujo shud.

Naqarot

Yusufi man, Yusufi mane...

Ba zindon mondaast Yusufaki man,
Ba koxdon mondaast Yusufaki man.
Ba cho'lho burdaand Yusufaki man,
Ba ko'lho burdaand Yusufaki man.

Naqarot

Yusufi man, Yusufi mane...

Surudi mo'ljar

(Surudi xalqi)

Naqarot

Bacha-bacha bar jonam,
Shodon bacha bar jonam. (2 marta)
Oftob labi xandonash,
Mirzo bacha bar jonam.

Tu bidon, ey pisarjon,
Padarat bo tu shodon.

Tu bidon, ey pisarjon,
Modarat bo tu shodon.
Tinch boshad xalqi jahon,
Hamesha boshem shodon.

Naqarot

Bacha-bacha bar jonam,
Shodon bacha bar jonam. (2 marta)
Oftob labi xandonash,
Mirzo bacha bar jonam.

Chashmi siyohi zog'at,
Modar nabinad dog'at.
Kase, ki dilash so'zat,
Hech nabinad firog'at.

Naqarot

Bacha-bacha bar jonam,
Shodon bacha bar jonam. (2 marta)
Oftob labi xandonash,
Mirzo bacha bar jonam.

Namedonam sozasha,
Mebardoram nozasha.
Qaychi boshad, ki burram,
Zulfhoyi darozasha.

Naqarot

Bacha-bacha bar jonam,
Shodon bacha bar jonam. (2 marta)
Oftob labi xandonash,
Mirzo bacha bar jonam.

Surudi hinobandon

(Surudi xalqi)

Hino, hino mebandat,
Ba dast-u po mebandat.
Agar hino kami kunad,
Qoshi tillo mebandat.

Hino, hino mebandat,
Ba dast-u po mebandat.
Agar hino kami kunad,
Tavqi tillo mebandat.

Hino, hino mebandat,
Ba dast-u po mebandat.
Agar hino kami kunad,
Dastponi tillo mebandat.

Hino, hino mebandat,
Ba dast-u po mebandat.
Agar hino kami kunad,
Soati tillo mebandat.

Hino, hino mebandat,
Ba dast-u po mebandat.
Agar hino kami kunad,
Xalqi tillo mebandat.

Kelini xushro'y ovardem

(surudi xalqi)

Naqarot

Ovardem-u ovardem,
Kelini xushro'y ovardem.

Kelina ovardem asp kati,
Aspi samandi mast kati.
Faranji zarboft kati,
Xalqi hazor toft kati.

Naqarot

Ovardem-u ovardem,
Kelini xushro'y ovardem.

Kelin ovardem gul barin,
Xushovoz bulbul barin.
Sebi Samarqand barin,
Anori Toshkand barin.

Naqarot

Ovardem-u ovardem,
Kelini xushro'y ovardem.

Kelin ovardem ohu barin,
Chashmakosh jodu barin.
Mo'yakosh sumbuli tar,
Nafasosh mushk-u anbar.

Naqarot

Ovardem-u ovardem,
Kelini xushro'y ovardem.

Kelin ovardem — pazanda,
Gulruxsor-u do'zanda.
Zeboyeshon chi boshad,
Nozhoyashon zebanda.

Naqarot

Ovardem-u ovardem,
Kelini xushro'y ovardem.

Gardon

(Surudi xalqi)

Ey joni man, jononi man,
Ey dilbari ra'noyi man,
La'li labat halvoyi man,
Az man charo ranjidayi?

Yak shab turo mehmon kunam,
In jon-u dil qurbon kunam,
Joyi tu dar chashmon kunam,
Az man charo ranjidayi?

Ranjidayi, ranjidayi,
Az man charo ranjidayi?

DAR BOG' ANJIL AST

(Surudi xalqi)

Naqarot

Dar bog' anjil ast, mo nadonistem,
Darho zanjil ast, mo nadonistem.

Sari rohat charog'on ast, guli man-e,
Dar bog' anjil ast, mo nadonistem.
Charo hushat pareshon ast, guli man-e,
Zulfhosh zanjil ast, mo nadonistem.
Yagon harfi bade ba tu naguftem-e,
Dar bog' anjil ast, mo nadonistem,
Charo chashmi tu giryon ast, guli man-e,
Yoram be dil ast, mo nadonistem.

Naqarot

Dar bog' anjil ast, mo nadonistem,
Darho zanjil ast, mo nadonistem.
Siyohi chashmi tu jodu nadorad-e,
Dar bog' anjil ast, mo nadonistem.
Bayozi gardanat ohu nadorad-e,
Zulfhosh zanjir ast, mo nadonistem,
Xudo dodaast ba tu husn-u jamolro-e,
Dar bog' anjil ast, mo nadonistem.
Sanavbar dar kanori jo' nadorad-e,
Yoram be dil ast, mo nadonistem.

CHORZARB

(Surudi xalqi)

Halqa bar dar mezanam, to nisfi shab dar vo nashud,
Nisfi shab az shab guzashtu yori man paydo nashud.

Podshohi shab baromad, bandi dastamro girift,
Hech kase ba misli man dar rohi ishq rasvo nashud.

Az taki dolon guzashtam, na'li kavshat yoftam,
Az baroyi na'li kavshat shishasandug soxtam.

Shishasandug, jon tasaddug, xona mehmon omadast,
Az Buxoroyi sharif yak mohi tobon omadast.

Uf.....Dilam...

(Surudi xalqi)

Naqarot

Uf dilam, uf dilam, uf dilam, uf dilam,
Ba xoli labash moyilam-e, moyilam.

Yak yor doram — gandumgun-e, uf dilam,
Mo'yi sarash az sunbul-e, uf dilam.
Az ishqiyay man bulbul-e, uf dilam,
Sahar ba shohhoi gul-e, uf dilam.

Naqarot

Uf dilam, uf dilam, uf dilam, uf dilam,
Ba xoli labash moyilam-e, moyilam.

Sadqa shavam mo'yhosha-e, uf dilam,
Shona zadam zulfhosha-e, uf dilam,
Surxi zanam labhosha-e, uf dilam,
O'sma kasham qoshhosha-e, uf dilam.

Naqarot

Uf dilam, uf dilam, uf dilam, uf dilam,
Ba xoli labash moyilam-e, moyilam.

Raftam lab-labi daryo-e, uf dilam,
Didam duxtari zebo-e, uf dilam,
G'uncha barin shukuftam-e, uf dilam,
Az bo'yi yori zebo-e, uf dilam.

Naqarot

Uf dilam, uf dilam, uf dilam, uf dilam,
Ba xoli labash moyilam-e, moyilam.

Raftam lab-labi daryo-e, uf dilam,
Didam duxtari zebo-e, uf dilam,
Dar labakash xol dorad-e, uf dilam,
Xolash dilro mebarad-e, uf dilam.

Naqarot

Uf dilam, uf dilam, uf dilam, uf dilam,
Ba xoli labash moyilam-e, moyilam.

Hasanjon

(Surudi xalqi)

Naqarot

Tu yori mane, man yori Hasanjone,
Yori Muhammad Hasanjone.

Sitora bar havo kabki zarrin ast-e,
Xushda angushtarin-u yorash nigin ast-e.
Xudovando, niginashro nigoh dor-e,
Ki yori avval-u oshig'ash hamin ast-e.

Naqarot

Tu yori mane, man yori Hasanjone,
Yori Muhammad Hasanjone.

Sari ko'hi baland jufti sitora-e,
Mani bechora chun kabki ovvora-e.
Ey mardum, xush bigo'yed, xush bigarded-e,
Xudo, kay medihad umri dubora-e?

Naqarot

Tu yori mane, man yori Hasanjone,
Yori Muhammad Hasanjone.

Chashmoni siyoh dori...

(Dar asosi dubaythoi xalqi)

Naqarot

Chashmoni siyoh dori, qurboni tu man,
Xona ba kujo dori, mehmoni tu man.

Az dar, ki daroyi man nigohi tu kunam,
ukajon, qurboni tu man.
Andesha ba chashmoni siyohi tu kunam,
ukajon, mehmoni tu man.
Man mol nadoram, ki zakoti tu kunam,
ukajon, qurboni tu man.
Yak joni aziz doram, ki qurbonat kunam,
ukajon, mehmoni tu man.

Naqarot

Chashmoni siyoh dori, qurboni tu man,
Xona ba kujo dori, mehmoni tu man.

Man ro'yi turo ba mohi tobon nadiham,
ukajon, qurboni tu man.
La'li labi tu ba matjon nadiham,
ukajon, qurboni tu man.
La'li labi tu agar ba dastam oyad,
ukajon, qurboni tu man.
Qimmat haramu bahoi arzon nadiham,
ukajon, qurboni tu man.

Naqarot

Chashmoni siyoh dori, qurboni tu man,
Xona ba kujo dori, mehmoni tu man.

Ro'moli sarat bireshimi shahri Buxor,
ukajon, qurboni tu man.
Husni tu ba monandi guli fasli bahor,
ukajon, qurboni tu man.
Shoyad ki tu raqs kuni ba zarbi dutor,
ukajon, qurboni tu man.
Diydori muboraki tu kard odama zor,
ukajon, qurboni tu man.

Naqarot

Chashmoni siyoh dori, qurboni tu man,
Xona ba kujo dori, mehmoni tu man.

„MUNOJOT“ XALQ FOLKLOR-ETNOGRAFIK ANSAMBLI

Ma'lumki, kelajakni aniqroq tasavvur qilishimiz uchun o'tmishni yaxshi bilmog'imiz darkor. Ayni chog'da tarixni, ma'naviy qadriyat va marosimlarni o'rganmoqchi bo'lgan yoxud o'rganayotgan kishining bag'ri keng bo'lmog'i moziy voqealariga xolis baho bermog'i hamda to'g'ri xulosa chiqarmog'i maqsadga muvofiqdir.

Sir emaski, o'tmish tariximizning ko'p varaqlari bizga hali hanuz qorong'i. O'tmish sari qadam tashlamogchi bo'lar ekanmiz, yo'limizda uchragan o'sha to'siqlar, befarqlik ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi.

Allohga shukrlar bo'lsinkim, yurtimiz uzra istiqlol quyoshi nur sochdi. Ana shu nufuzli shu'laning nurli zarralaridan bahramand bo'lgan har bir kishi ona tuproqning qadr-qiymatini yorqin anglamog'i darkor. Bu, albatta, O'zbekiston uzra istiqlol shu'lasining baralla yoyilgani, mustaqillik sururi davom etayotganligidan. Mustaqillik sharofati ila xalqimiz tarixini, ma'naviy madaniyatini, milliy urf-odatlarini, qadriyatlarini tiklamoqdamiz. Bugungi kunda avlodlarimizga an'ana va marosimlar qanday bo'lsa shundayligicha, yetkazish imkoniyatiga ega bo'ldik. Chunki, jahondagi barcha xalqlar qatori o'zbek xalqining ham betakror rasm-rusumlari, urf-odatlari mavjud. Sirasini aytganda, an'ana va marosimlar bizning qon-qonimizga singib, paydo bo'lishimizdan to so'ngi nafasimizgacha hamrohlik qilgan, ona-Vatanga bo'lgan mehrimizni oshirgan.

Ta'kidlash lozimki, har qanday an'ana va marosimlar avvalo jamiyat, guruh, shaxs hayotidagi muhim biror voqeada o'z aksini topadi. Shu bois marosimni bajarayotgan kishi qalbida muayyan his-tuyg'ular paydo bo'ladi. Marosim ishtirokchilari har vaqt go'zallikni qabul etibgina qolmay, balki uni o'zlari ham ijod qiladilar. Marosim esa bunday ijodiyot uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Zavqli rags, dirlabo qo'shiq va sehrli kuylar ularning tarkib topib shakllanishida yordam beradi.

Xalq qo'shiqlari ijtimoiy hayot tarzimizni ifodalaydi. Ifodaga so'z ojizlik qilganda, qo'shiq yordamga keladi. Xalqimiz didi o'ta nafis, zavqi beqiyosdir. U mehnat qilganda ham, dillarni yayratib yalla aytganda ham, mungli marsiya aytganda ham, shodlanib nuri diydasi, ko'zining oq-u qorasi bolasining boshida parvona bo'lib alla aytib uxlatganda ham, to'y-u tomoshalarda dildan jo'shib,

zavq-shavqqa to'lib alyor-u o'lanlar aytganda ham marosim xususiyatlarini ro'yobga chiqaradi.

Aslini aytganda, qadimiy, hamisha navqiron gulyor-u, alyorlarni xalqimiz o'zining o'tkir tafakkuri, keng tasavvuri, topqir, nozik didi bilan yaratgan, ularga sayqal berib, jilolab kelajak avlodga qoldirgan. Ana shunday, unitilayozgan, lekin bobo va momolarimizning yodida saqlanib qolgan barhayot an'analardan biri „Muchal to'y“ marosimidir. Bu marosim haqidagi dastlabki ma'lumotlar folklorshunos olimi Muzayyana Alaviya, filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Sarimsoqovlarning asarlarida o'z ifodasini topgan. „Muchal to'y“ marosimi shunday folklorshunoslarning ilmiy asarlaridagi ma'lumotlarga tayangan hamda Toshkent viloyatida istiqomat qilayotgan nuroniy otaxon va onaxonlarning hayotiy tajribalaridan olingan hikoyalar asosida qayta tiklab, badiiylashtirildi. Ushbu marosimni tiklab badiiylashtirishda bizga Yuqori Chirchiq tumani madaniyat uyi qoshidagi folklor-etnografik ansambli yaqindan yordam berdi.

Xalqlarda bir yosh bosqichidan ikkinchi bir yosh bosqichiga o'tish doimo to'y marosimi bilan nishonlangan. Kishilar hayotidagi burilish nuqtalari to'y marosimlari vositasida rasmiylashtirilgan. Ana shulardan biri „Muchal to'y“ marosimidir. Bu marosim ko'proq Navro'z bayrami arafasida o'tkazilgan.

„Muchal to'y“ oilaviy tadbir hisoblanib, uni qarindosh-urug'lar, yaqin do'stlar, mahalla-ko'y, qiz yoki yigitning do'stlari birgalikda o'tkazishgan.

Muchal to'yini nishonlash, shunchaki o'tkaziladigan bir tadbir emas, balki inson umrining bir davrdan ikkinchi davrga o'tishi bilan bog'liqdir. Ma'lumki, o'n ikki yildan o'n uchinchi yilga o'tishda muchal yana boshidan takrorlanadi. Ana shu takroriylikning boshlanishi bir muchal hisoblangan. Ya'ni 12—13, 24—25, 36—37, 48—49, 60—61 va hokazo. Ayniqsa, birinchi muchalni ya'ni o'n ikkidan o'n uch yoshga o'tishni boshqalariga nisbatan alohida tantana bilan nishonlaganlar. Chunki, bu bolalikdan o'smirlikka o'tish davri tantanasidir. Bu davrda o'smirlarning tana a'zolarida, dunyoqarashida muayyan o'zgarishlar paydo bo'la boshlaydi. Qadimda inson hayotida bo'layotgan har bir o'zgarishlar alohida bayram yoki marosim sifatida nishonlangan. Shu sababli o'smirlarning hayotidagi o'zgarishlarga asos bo'lgan muhim voqea bolalikdan o'smirlikka o'tish. Muchal to'yini nishonlash maxsus marosim sifatida tantana

qilingan., „Muchal to‘yi“ qanday nishonlanishi mumkin ekanligini „Munojot“ folklor-etnografik ansambli o‘z ijrosida juda mahorat bilan ibratli darajada badiiylashtirilgan holda ko‘rsatib bergan.

Fasllar kelinchagi bo‘lmish bahor borliqqa o‘z sepinı yoygan. Daraxtlarning gullari oq bodroqdek. Majnuntol uzun novdalarini suvga solib, mayin tebranadi. Chirchiq daryosining toshqin o‘zani, Qorasuv anhuri va Hamdam kanalining so‘lim oqimlarini, Xonimtepalikdan kuzatar ekansiz beixtiyor shoir Hamid Olimjonning „Chiroylidir go‘yo yosh kelin, ikki daryo yuvar kokilin“ satrlari yodingizga keladi.

Bu jozibali manzaralar makoni bo‘lmish Kabardan qishlog‘i Yuqori Chirchiq tumanining Oqovul qishlog‘ida joylashgan. Bu qishloq o‘zining sof havosi, xush tabiati bilan, nihoyat qadimiy asori atiqalari va ayni chog‘da zamonaviy ko‘rinishlari bilan yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Qishloqda 28 millat vakillari tinch-totuv, ahil yashaydi, Vatanimiz ravnaqi yo‘lida mehnat qiladi. Ular o‘z baxtini sharaflı mehnatlari tufayli topganlardan. Bir tomonda mevalı bog‘lar, ikkinchi tomonda cheksiz ekin maydonlari ko‘zni quvontiradi. Ana shu joylarda shijoat ko‘rsatib mehnat qilayotganlar orasida „Munojot“ folklor-etnografik ansamblining ishtirokchilari ham bor. Bu ansamblning xonanda va raqqosalari ham qishloq aholisi bilan birgalikda jo‘shqin mehnat quchog‘iga otlanadilar. O‘zlarining kundalik mehnatlari davomida xalq durdonalarini, ya‘ni kishilar dilidagi qadimiy kuy-qo‘shiqlarni saralaydilar. Ansambl ishtirokchilari qayerda o‘z san‘atlarini namoyish etishmasinlar, dasturlarini har gal „Kabardonni yo‘li soz“ qo‘shig‘i bilan boshlaydilar. Bahor faslida erta tongdan quyoshning zarrin nurlari yaproqlar, gullar yonog‘idagi shudring tomchilarida yal-yal yonadi. Bu paytda havo so‘lim va mayin, toza va beg‘ubor, tog‘lar, qirlar, adirlar xuddi yashıl gilam to‘shalganday quyosh nurida tovlanadi. Atrof ko‘m-ko‘k. Bodom daraxti esa xuddi yangi kelinchakdek oq pushti libos kiygan. Ulardan taralayotgan mayin, nafis, kishi qalbini qitiqlovchi xushbo‘y, muattar is esa dimoqqa urulib qalbni sarxush etadi, dil torlaringizni asta chertib o‘tadi. Yuragingiz to‘ridagi yashirin hissiyotlarni qo‘zg‘atib yuboradi. Entikib, to‘yib-to‘yib nafas olasiz va beixtiyor ona zaminga tasannolar aytasiz.

Ansamblning faol a'zolari bo'lgan onaxonlarning yoshlikda san'atga oshuhtaligi hali hanuz ularni tark etmagan. Ulardan qaysi birlarining tarjimaiy holiga nazar tashlamang, o'smirlik yillarida ham tengdoshlari orasida nihoyatda faol, tashabbuskor, boshqalarni ortidan ergashtira oladigan tashkilotchi bo'lganliklarini bilib olasiz. Masalan, Bahriniso aya ansamblni tashkil etishda eng tashabbuskorlardan hisoblanadi. Hozirda ansambl badiiy rahbari. Opa dutor chertishni yoshlikda otasidan, childirma chertishni esa onasidan o'rganib, maktabda o'tkazilgan kechalarda chiroyli kuylar chalgan. Chirchiq daryosining sho'xchan oqishi, Parkent uzumzorlarining oltin rangda tovlanishi, ariqdagi suvlarning shildir-shildir, daraxtlardagi qushlarning chug'ur-chug'uri... ona tabiatning hayratomuz go'zalliklari Bahriniso ayani san'atga, nafosatga oshno etgan.

Qalb tug'yonlarini, hayajonlarini qo'shiq, doira kuylari orqali izhor etish Bahriniso ayaning kundalik odati bo'lib qolgan. Pedagogika bilim yurtida, Pedagogika institutida tahsil olayotgan talabalik yillarida ham opa o'z san'ati bilan do'stlarini xushnud etib yurgan.

Kabardon qishlog'idagi maktabda murabbiylik qilar ekan. Zangori ekranda namoyish qilinayotgan folklor-etnografik ansamblning chiqishlari opa yuragidagi cho'g'ni alangalatib yubordi. Atrofiga san'atga ishtiyoqi baland ayollarni to'pladi. Ular bilan yoshlikda buvilari, onalaridan o'rgangan: qo'shiq, lapar, o'lanlarini tiklashga kirishdi. Tez orada boy va rango-rang repertuar tuzishga muvaffaq bo'ldi. Dasturdan ashulalar, kuy, yalla, raqs, lapar yo'llari bilan ijro etiladigan qo'shiqlar ham joy oldi. Ayniqsa, „Hilila yor“ qo'shig'i yangraganda tomoshabinlar zavq-u hayajonining cheki bo'lmaydi. Xalqning o'lmas ijodi, o'tmishning aks-sadosi, shu bilar birga bugunning ham baland ovozi bo'lib eshitiladi. Keyin musiqiy kuy yangrab, raqqosalardan biri qadimiy „Dilxiroj“ raqsini ijro etadi. Darhaqiqat, raqs tushayotgan Manzura momoning sodda, lekin ma'noli raqs harakatlari tomoshabinni davraga chorlaydi, beixtiyor raqqosa ijrosiga monand qarsak ham chalib yuborasiz. O'zbek maqom kuylari qanchalik uzoq tarixga borib taqalsa, bu raqs ham ana shunday o'zining uzoq tarixiga ega. „Dilxiroj“ maqom kuylariga yaqin muqaddim bilan boshlanadi. O'rta qismida onaxonlar ijrosida maqomlarga xos peshrov kuylanadi, avj qismi shodiyona va tantanavorlik bilan ijro etiladi.

Doirada sochiq, dastro‘mol, belbog‘-u do‘ppilarga sernaqsh kashtalar tikib, gullarning rasmini solib eng yaqin kishisiga sirli atash qadimdan ayollarimizga xos go‘zal fazilatlaridan biri bo‘lib kelgan. Qadim-qadimdan saqlanib kelayotgan bu barhayot an‘analar yosh avlodga meros bo‘lib qolgan. Chiroyli nafis kashtalar, yigitlarning belida yashnab turuvchi qiyiqlar, qiz-juvonlar egnida husniga-husn qo‘shib turuvchi gulli ro‘mollar, kashtali ko‘ylaklarni tikib bitirish uchun qanchalar zehn, ko‘z nuri, mehr muhabbat talab qilinishi yolg‘iz ularning o‘zigagina ayon. Mahorating, hunaring o‘zganing egnida o‘zini ko‘z-ko‘z qilar ekan, tomosha qilib ko‘ngling gul-gul ochiladi.

„Munojot“ ansambli har gal tomosha ko‘rsatishdan oldin sahnani bezashda o‘zlari kashf etib, o‘z qo‘llari bilan tikkan ana shu qadimiy san‘at namunalaridan o‘z o‘rnida ustalik bilan foydalanadilar.

O‘tmishda yaratilgan xalq qo‘shiqlarida insonning ushalmagan orzulari kuylanadi. Ansambl dasturidan o‘rin olgan „Olmacha anor“ qo‘shig‘i kuylanib, raqsida Zohida opa Usmonaliyeva xirom etganda beixtiyor unga jo‘r bo‘lganingizni sezmay qolasiz. Shu tariqa serzavq onaxonlar o‘tmishda ushalmagan orzu va armonlarini bugungi nurafshon kunlarda amalga oshganini qo‘shiqqa solib kuylamoqdalar. Ular inson mehnati shon-sharaf ishiga aylanganligini tarannum etmoqdalar. Ansambl ishtirokchilaridan yana biri qahramon ona Shoiraxon Teshaboyevadir. Serg‘ayrat Shoiraxon opa san‘atga bo‘lgan mehri tufayli uy ishlarini bajarish, farzandlarini halol, pok vijdonli, mehnatsevar, o‘z yurtining sodiq posboni qilib tarbiyalash bilan bir qatorda ansamblda qatnashib xalq qo‘shiqlarini mehr bilan kuylashga ham vaqt topadi. Oila boshlig‘i Mahmud aka kuy va qo‘shiq ixlosmandi. Mahmud aka o‘g‘li Jo‘raboy bilan o‘zlari yasagan nog‘ora va doiralardan taralgan ohanglarning sehri bo‘lakcha. Ayniqsa, bu nog‘ora va doiralar „Munojot“ ansambl ishtirokchilarida o‘zgacha ohang kashf etadi. Qizchalari Dilorom xirom etgandagi tomoshaning zavqi bo‘lakcha. „Yoshligimiz hayot qiyinchiliklari bilan o‘tdi“, — deb hikoya qiladi qahramon ona Shoiraxon opa Teshaboyeva. „U davrlarda bunaqangi madaniyat uylari juda kam edi. Havaskorlik ansambllarida ochilib-sochilib qo‘shiq aytib yurishga bizlarda imkon ham, vaqt ham yo‘q edi. Menga o‘xshab mazkur ansamblda qatnashayotgan dugonalarimga yoshliklarida ayta olmagan ashulasini aytish, tusha

olmagan raqsga tushish imkoniyati endi yetib keldi“, deydi mamnun holda Shoira opa.

Ha, xalqimizga, jamiyatimizga xizmat qiladigan ajoyib farzandlarni tarbiyalash Shoira opa uchun katta baxt hisoblanadi. Farzandlari esa o‘z navbatida mehri daryo, qalbi buyuk onalariga qarata:

„Kunlar oyga, oylar yilga aylanar,
Aylanadi charxi beshavqat.
Yurgancha yuring, turgancha turing,
Osmon-u quyosh, onajon“- deyishadi.

„Biz ona tabiatni qanday muhofaza qilsak, xalqning milliy an‘analari va marosimlarini ham shunday ardoqlashimiz, uni keng rivojlanishini ta‘min etishimiz lozim“, — deydi Munisaxon aya Po‘latxo‘jayeva. U dutorini qo‘liga olib „Jigarpora“, „Tanovar“, „Munojot“ kuyini chalganida tomoshabinlar maftun bo‘lib tinglaydilar. Ansambl qatnashchilarining har birida o‘ziga xos hayotiy tajriba, san‘at va mahorat bor. Salima Qurolovaning quroq ko‘rpa va yostiqlarni mahorat bilan tikishida ham, Komila Tog‘ayevaning nonsavat to‘qishida ham, Mukarram Islomovaning uyalibgina hayo bilan raqsga tushishida ham, Rahima Abdurahmonovaning doirani gumburlatib chalib o‘zbek, tojik, qozoq, tatar tillarida aytgan termalarida ham o‘zgacha tarovat, o‘zgacha joziba bor. „Munojot“ folklor-etnografik ansamblining tashkil etilganiga ham o‘n yildan ortiq vaqt o‘tdi. Onaxonlar o‘zaro maslahatlashib o‘zlarining sevimli kasblarini o‘g‘il va qizlariga, nabira va evaralariga o‘rgatishni lozim topdilar. Bu maqsadni amalga oshirish uchun yangi dastur tuzish kerak. Ana shu maqsadni amalga oshirishda Respublika ma‘naviy Madaniyat targ‘ibot markazi va Toshkent viloyati ilmiy-uslubiyot markazi xodimlari ularga amaliy yordam ko‘rsatdilar.

Xalq dahosila yaratilgan an‘ana va marosim, urf-odatlar, munavvar qo‘shiq yoki dilbar kuy va raqslar hech qachon so‘nmay, asrlar davomida barhayot yashayveradi. „Munojot“ folklor-etnografik ansambli tomonidan ijro etilgan yangi dastur „Muchal to‘yi“ marosimi ham ortiqcha bezaklarsiz o‘z muxlislariga havola etiladi. Unga odilona baho berish siz azizlarga havola.

Muchal to'yining rejasi

1. Tadbir o'tkaziladigan joyni bezash.
2. Taklifnoma va e'lonlar, afishalar chiqarish.
3. Qatnashchilarning sonini aniqlash.
4. Ijodiy tadbir ishtirokchilarining iqtidorlilarini tanlab olish.
5. „Muchal to'yi“ bo'layotganlarni aniqlash va ularni tabriklovchilarning ishtirokini ta'minlash.

Yuqori Chirchiq tumani madaniyat uyi qoshidagi „Munojot“ folklor-etnografik ansambli ijro etgan „Muchal to'yi“ marosimining dasturi

1. To'yga chaqirish — Rahima Abdurahmonova, Komil Yo'ldoshev.
2. To'y qizni olib kirish — Shoirra Teshaboyeva, Manzura Rahimxo'jayeva, Dilrabo Teshaboyeva.
3. Aytishuv — Holida Pardaxo'jayeva, Obidjon Muhammedov.
4. Karnay-surnay navosi — Umid Saidjonov, Alisher Nazirov, Akmal Dadajonov.
5. Xush ko'rdik — Bahriniso Pardaxo'jayeva.
6. Kabardanni yo'li soz — hamma.
7. To'y liboslarini kiygizish — Manzura Rahimxo'jayeva.
8. Ko'ylak taqdim etish — Mukarram Islomova.
9. Do'ppi berish — Komila Tog'ayeva.
10. Kamzul berish — Zohida Usmonaliyeva.
11. Lozim berish — Zulfiya Najmiddinova.
12. Tilla kavush sovg'a qilish — Rahima Abdurahmonova.
13. Qizning sarposini maqtash — Shoirra Teshaboyeva.
14. Qizning boshidan sochqi sochish — Salima Mirzajonova.
15. To'y qizning bo'yi baravar oq mato o'lchash — Umri opa Saydinova.
16. Odamlarga tuz va shirinlik tarqatish — Umri opa va Dilrabo.
17. Ho laylo qo'shig'i — hamma.
18. Taroq sovg'a qilish — Farrux Umarov.
19. To'y qizning sochini o'rish — Manzura Rahimxo'jayeva.
20. O'rilyotgan soch va qiz maqtovi — Shoirra Teshaboyeva.
21. Igna, ip, angishvona sovg'a qilish — Salima Qurolova.

22. Tojik xalq termalaridan ijro etish — Rahima Abdurahmonova.
23. Quticha taqdim etish — Obidjon Muhammedov.
24. Kichkinajon qo'shig'i va raqsi — Samandar Pardaxo'jayev.
25. Gul berish — Mukarram Ismoilova.
26. Tanovar qo'shig'i va raqsi — Munisaxon Po'latxo'jayeva, Mukarram Ismoilova.
27. Oyna sovg'a qilish — Muattar Teshaboyeva.
28. Do'ppi qo'shig'i va raqsi — Kamoliddin Yo'ldoshev.
29. Sochiq sovg'a qilish — Salima Mirzaxo'jayeva.
30. Hilila yor qo'shig'i ijrosi — hamma, raqsda Zohida Usmonaliyeva.
31. Ro'molcha sovg'a qilish — Mohichehra Normatova.
32. Olmacha anor qo'shig'i — hamma, raqsda Zulfiya Najmiddinova.
33. Tilla sirg'a sovg'a qilish — Manzura Rahimxo'jayeva.
34. Dilxiroj — Munisaxon Po'latxo'jayeva, Bahriniso Pardaxo'jayeva, raqsida Manzura Rahimxo'jayeva, Ahmad Teshaboyev.
35. To'y qiz haqida ashula — Shoirra Teshaboyeva, raqsda Dilrabo Teshaboyeva.
36. Isiriq tutatish — Umri opa Saydinova.
37. Fotiha o'qish — Umri opa Saydinova.
38. Karnay-surnay navosi — ishtirokchilarning hammasi qatnashadi.

Hurmatli _____

Abdulla Qodiriy nomli Toshkent davlat madaniyat instituti Sizni „Muchal to'yi“ amaliy-badiiy anjumaniga taklif etadi.

Anjuman 1999- yil 15- iyul kuni soat 13.30 da institut Madaniyat saroyida o'tkaziladi.

Mazkur anjumandan ko'zlangan maqsad qadim ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan urf-odat, marosim, an'analарimiz bo'lmish ma'naviyatimiz sarchashmasini yoshlar qalbiga singdirish va ularni qadrlashni o'rgatish.

**Qadim avlod-ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan urf-
odatlarimiz, marosimlarimiz, qo'shiqlarimiz asrlar osha yashab,
bizgacha yetib keldi. Siz ana shunday ma'naviyatimiz
sarchashmasidan bahramand bo'lay desangiz**

BARHAYOT AN'ANALARIMIZ

mavzusida o'tkaziladigan

MUCHAL TO'YI

nomli badiiy musiqiy xalq marosimini tomosha qiling

Bu ko'hna xalq udumi, qo'shiqlari, laparlari, raqs guldastasini
Sizlarga Yuqori Chirchiq tumani madaniyat uyi qoshidagi
„MUNOJOT“ folklor-etnografik ansambl a'zolari taqdim etadi.
Ansambl badiiy rahbari Bahriniso aya Pardaxo'jayeva.

Tomosha qiling, o'rganing, faxrlaning.

Tashkiliy qo'mita.

„Muchal to'yi“ marosimining badiiy matni

Muchal to'yi uchun maxsus joy ajratiladi. Sahna qadimiy kashtachilik san'ati namunalari bilan bezatilib so'zana, palak, dorpech, sandiq, ko'rpalar bilan jihozlanadi. Bu jihozlangan xonada faqat muchal to'yi bo'layotgan qizning katta oyisi mehmon kutib turadi. Bu ishni „Munojot“ folklor-etnografik ansambli boshlig'i Bahriniso aya Pardaxo'jayeva bajaradi.

Tomoshagohda o'tirgan odamlar orasidan sahnaga yog'ochdan yasalgan otni minib ansambl qatnashchisi Kamol chiqib keladi. Sahna tomon yurib boradi. Kamolning egnida yaktak, boshida do'ppi, oyog'ida mahsi yoki etik, belida atlas belbog', qo'lida qamchi bo'ladi. Yog'och ot chiroyli qilib yasatiladi, ustiga bahmal yopiladi. Ot qamchi ham maxsus tayyorlanadi. U tomoshagohda yig'ilganlarga qarab xitob qiladi.

To'y bo'ldi-yu, to'y bo'ldi,
Tog'am katta qo'y so'ydi.
Sababini bilvoldim-ov,

Dilraboga muchal to'y bo'ladi.
 Unda o'ynab kulamiz,
 Kuylab-kuylab yuramiz.
 Kabardanni soyi bor,
 Daraxtlari xuddi dor.
 Holidaxon kelinglar,
 Dilraboning to'yi bor.
 Tomga sepdim sedana,
 Terib yesin bedana.
 Muchal to'yga kelinglar,
 Nurga to'lsin to'yxona.
 To'yga aytaman G'irotda,
 Ot to'rvasi banotdan.
 Mingan o'tim to'ybichoq,
 Yol-quyrug'i bir quchoq.
 Muchal to'yli qizchaga,
 Gul keltirar quchoq-quchoq.
 Qizlarxon-u Hilola,
 Lolaxon-u Zilola,
 Momoxon-u Gullola,
 Dilraboning to'yida,
 O'ynab-kulib yayranglar,
 Doira chalib kuylanglar.
 Nurga to'lsin to'yxona,
 Daka-dum bak, daka-dum bak,
 Daka-duma dum bak.
 Navbatni sizga berdim,
 Doira chaling Rahima xola.

Shundan keyin ikkinchi tomondan Rahima doira chalib to'yga taklif qiladi. Doira va qo'shiq ovozi eshitgan bolalar asta-sekin Kamolning orqasidan sahnaga chiqib boradilar. Ketayotganlarida bir-birlaridan so'rashadi: „Nima dedi, muchal to'yi dedimi?“ Dilraboning „Muchal to'yi“ ekanmi, yuringlar bo'raylik, bir o'ynab kelaylik, deb Kamolga ketidan o'g'il bolalar, Rahima orqasidan qizlar ergashadilar. Qizlar atlas ko'ylak, lozim, do'ppi kiyishgan. Sochlarini jamalak qilib mayda o'rishgan. Sochlarining uchida oq pilik o'rilgan. Ba'zilar esa sochini to'g'ri tarab maydalab o'rib, iroqi do'ppi kiyganlar. Bolalar esa oq yaktak, beqasam chopon, ba'zilar dumaloq do'ppi, ba'zilar esa

marg'ilon do'ppisini, ba'zilari duxoba do'ppi kiyishgan. Oyoqlariga amrikon pistonli etik yoki mahsi, bellariga turli xil matodan tikilgan belbog' olishib, Kamolning orqasidan yurib borishadi.

Rahima qo'shiq aytib, doira chalib sahna tomon yura boshlaydi:

Kabardanning yo'llari,
Toshloq yo'li,
Odamlari so'raydi,
Kimning to'yi?
So'rasa so'ramasa,
Muchal to'yi.
Gul yuzli, qalam qoshli,
Qizning to'yi.
Kelinglar do'stlarim,
Muchal to'yiga,
Boringlar do'stlarim,
Muchal to'yiga.
Dilrabo kabardanlik,
Qosh-u ko'zi maqomlik.
Yurishlari xo'p chaqqon,
O'zi hammaga yoqqan.
Kelinglar do'stlarim,
Muchal to'yiga,
Boringlar do'stlarim,
Muchal to'yiga.
Tomga sepdim sedana,
Terib yesin bedana.
Muchal to'yiga kelinglar,
Nurga to'lsin to'yxona.
Kelinglar do'stlarim,
Muchal to'yiga.
Yuringlar qizlarim,
Muchal to'yiga.
Qizim-qizim qiz kishi,
To'yiga kelar ming kishi.
Ming kishining biriman,
To'yida o'ynab kulaman.
Kelinglar do'stlarim,
Muchal to'yiga.
Boringlar do'stlarim,
Muchal to'yiga.

Dilraboning boshida dumaloq duxoba do'ppi, sochi jamalak qilib mayda o'rilgan, uchida piligi bor. Chitdan tikilgan gulli ko'ylak. Oyog'ida kavush. Oyisi — Shoiri opa va momosi Manzura aya qadimiy Toshkent ayollari kiygan liboslarda sahnaga chiqadilar.

Davruga muchal to'yi bo'layotgan qiz Dilrabo, uning onasi Shoiri opa, katta oyisi Manzura aya kirib kelishadi. Shoiri opa qo'lida childirma bilan ashula aytib kiradi.

Suv keladi boshidan,
Hazratimni qoshidan,
Onaginang aylansin,
Seni muchal yoshingdan.
Tom boshida yo'ng'ichqa,
Akasi beli ingichka,
Ingichka deb g'am yemang,
Endi kirdi o'n uchga.
Suv keladi boshidan,
Hazratimni qoshidan,
Onaginang aylansin,
Seni muchal yoshingdan.
Olma pishganda keling,
Tagiga tushganda keling,
Orqa sochi jamalak,
Beliga tushganda keling.
Dilrabojon to'yingni,
Boshlab yuboray dedim.
Holidaxonni o'ynatib,
Tomosha qilay dedim.

Sahnaning bir tomonida Rahima boshchiligidagi qizchalar, ikkinchi tomonida Kamol boshchiligidagi yigitchalar saf tortib turishadi. O'rtada muchal to'yi bo'layotgan qizning onasi va katta oyisi turadi. Hamma jam bo'lgandan keyin Obid chiqib Holidaga qarata gapiradi. Holida unga javob beradi. Ular to'yni aytishuvdan boshlab berishadi:

Murod: — Holidi qoqvosh,

Holida: — Labbay vosh.

Murod: — Tuyang qayda?

Holida: — Ola tog'da,

Murod: — Nima yeydi?
Holida: — Yantoq.
Murod: — Nima beradi?
Holida: — Moy.
Murod: — Moy qani?
Holida: — Moydonda.
Murod: — Qatig'i qani?
Holida: — Qatlonda.
Murod: — Suti qani?
Holida: — Sultonda.
Murod: — Muchal to'yli qizchaga
nog'orami, tog'orami,
karnaymi, surnaymi?

Holida va barcha qizlar: — Hammasi.

Shundan so'ng karnay-surnay, nog'ora bazmi boshlanadi. Sho'xchang ohang sadosi ostida sahnaga to'ylash uchun opa-singil, amma-xola, qarindosh-urug', oshna-og'aynilar kirib kelishadi. Mezbonlar bilan mehmonlar ko'rishishadi. Ular bir-biri bilan o'zaro so'rashib, o'z o'rinlariga o'tirishi bilan karnay-surnay, nog'ora ovozi tugaydi. Mehmonlar o'z o'rinlariga joylashib so'ng Umri opa (Kayvoni xotin) duoyi fotihaga qo'l ochadi:

„Iloho omin, ko'taringlar bilaklaringni, xudoyim bersin tilaklaringni, to'y deb kelganlarning boshi to'ydan chiqmasin, muchal yoshga kirgan qizimning besh muchasi sog' bo'lsin! Shu to'yni o'ynab kulib o'tkazib olaylik Allohu Akbar!“.

To'y qizning buvisi hammaga qarab: „Xush ko'rdik mehmonlar, xush ko'rdik. Qani qizimning bu kungi muchal to'yini yaxshilab o'tkazaylik. Bu kun hech kim, hech qayoqqa shoshilmaydi, nabiramni to'yida kun botgandan tong otguncha bazm qilamiz“, deydi.

Salima opa: „Qani bo'lmasa, Shoiraxon, Rahimaxon, doirani chaling, men qo'shiq aytaman. Bahriniso aya, bir o'zimning Kabardan qishlog'imiz haqida ashula aytaaylik“, deydi.

Mukarram: To'g'ri, Zulfiya aya bir yo'rg'alang, hammaning havasi kelsin. Ular qizchalarni davraga chorlab o'yinga tushishadi.

Kabardanning yo'li soz

Kabardanning yo'li soz, yalla jonim, yalla,
Qo'limda o'ynaydi g'oz, yalla jonim, yalla.
Qizlari qizil gilos, yalla jonim, yalla,
Yigitlari ishqivoz, yalla jonim, yalla.
Qizil guling bo'laylik, yalla jonim, yalla,
Qisimingga to'laylik, yalla jonim, yalla.
Uyingga mehmon kelsa, yalla jonim, yalla,
Xizimatingda bo'laylik, yalla jonim, yalla.
Qizil guling hovlingda, yalla jonim, yalla,
Man taqmadim davringda, yalla jonim, yalla.
Man taqmasam davringda, yalla jonim, yalla,
Hayron qolsin hovlingda, yalla jonim, yalla.
Qoshing qaro qayloma, yalla jonim, yalla,
Yorga ko'ngil bog'lama, yalla jonim, yalla.
Yorga ko'ngil bog'lasang, yalla jonim, yalla,
Tashlab ketsa yig'lama, yalla jonim, yalla.

Bahriniso aya ijrochilarga qarab: „Rahmat, rahmat. Ko'p yashanglar, Doimo sog' bo'linglar“, deydi.

Karomat opa: Endi to'y qizimga sarpolarni kiygizaylik. Amma-xolalari muchal to'yiga atab olib kelgan o'zlarining sovg'alarini topshirsin. Ko'raylikchi qaysi biri chiroylik sarpo olib kelishdiyin.

Dilraboni o'rnidan turg'azib momosi ko'ylak kiygizishga tayyorlanadi. Oyisi — Shoir a opa opasi Rahima bilan qo'shiq ayta boshlaydi:

Oq tongni oq qilaylik,
Ko'k tongni ko'k qilaylik,
Bugun muchal to'yida,
Tonggacha o'ynab kulaylik.
Ro'molim bor ming pullik,
O'rtasi qizil gullik.
Muchal yoshli qizchaning,
Ko'ylagi bodom gullik.
Voy qani, qani, qani-yo,
Oppoq ko'ylagi qani?
Voy qani, qani, qani-yo,
Oppoq ko'ylagi qani?
Mukarram ammasi:—

Voy mana-mana, mana-yo,
Oppoq ko'ylagi mana.
Voy mana-mana, mana-yo,
Oppoq ko'ylagi mana.

Mukarram o'yinga tushib, o'tirganlarga oq ko'ylakni yozib ko'rsatib, qizning momosi, ya'ni Manzura ayaning qo'liga beradi. Manzura aya ko'ylakni uch marotaba surtib, yerga qoqib:

—Yoqasi moyli bo'lsin,
Etagi loyli bo'lsin,
Ko'ylak bir yilda to'zisin,
O'zichi ming yil yursin,

deb qizga ko'ylak kiygizadi. Ko'ylakning chiroyli ekanligini ko'rgan qizning dugonalari yugurib, Dilraboning oldiga borishadi. Ko'ylak kiygizilayotganda Shoira opa:

— Ho dursi, dursi, dursi,
Kiya qol hamma ko'rsin.
Ho dursi, dursi, dursi,
Kiya qol hamma ko'rsin,—

deb qo'shiq aytib turadi. Ko'ylakni Manzura momo kiygizib bo'lgandan so'ng hamma baravariga:

— Ho yaxshi, yaxshi, yaxshi,
Oq ko'ylagi ko'p yaxshi.
Ho yaxshi, yaxshi, yaxshi,
Oq ko'ylagi ko'p yaxshi, — deb ashula aytishadi.

Komila opa bir qadam oldinga chiqib qo'lidagi iroqi do'ppini maqtab ashula aytadi:

Dilrabo o'zi-o'zi,
Do'ppisi yo'rma to'zi.
Yo'rma to'zi yarashgan,
Qizlar unga qarashgan.
Boqqa kirgim kelodi,
Gullar tergim kelodi.
Muchal to'yli qizchaga
Do'ppi bergim kelodi.

Shoira opa Komila opaga qarab:
—Voy qani, qani, qani-yo,
Chiroyli do'ppisi qani.

Voy qani, qani, qani-yo,
Yangi do'ppisi qani, — deb murojaat qiladi.

Komila opa o'yinga tushib kelgan holda. — Ha mana, mana, mana-yo, yangi do'ppisi mana, — deb momosiga do'ppini beradi. Momosi bir qo'liga yangi do'ppini ola turib, nevarasining boshidagi eski do'ppini ikkinchi qo'liga olib:

— Bu eski-yu, bu yangi,
Do'ppi chirisin, nevaram qolsin.
Nevaramni umri ming yillik,
Do'ppining umri bir yillik,

— deb yangi do'ppini nevarasining boshiga kiygizadi. Rahima, Manzura momo nevarasiga do'ppini kiygizib bo'lgandan so'ng:

— Ho dursi, dursi, dursi,
Kiya qol hamma ko'rsin.
Kiyim bo'lsin jamoling,
Jamolingga kamoling.
Boshginang bo'lsin porloq,
G'am sendan bo'lsin yiroq.
Ho dursi, dursi, dursi,
Kiya qol hamma ko'rsin, — deb qo'shiq aytadi.

Do'ppi kiygizilib bo'lgandan so'ng hamma birgalikda:

— Ho yaxshi, yaxshi, yaxshi-yo,
Yangi do'ppisi yaxshi.
Ho yaxshi, yaxshi, yaxshi-yo,
Yangi do'ppisi yaxshi, — deb qo'shiq aytishadi.

Zohida opa qo'shiqni davom ettiradi:

Olma tergim keladi,
Behi tergim keladi.
Muchal to'yli qizchaga,
Kamzul bergim keladi.
Kimxob kamzul boylansin,
Xolasi undan aylansin.
Kimxob kamzulni kiyib,
O'yinga tushgani shaylansin.

Shoira opa:

Nevaram tirik,
Kamzul bir yillik, nevaram yuz yillik.

Dugonalaringga ko'rgizgin,
Kiya-kiya to'zdirgin qizim,
— deya kamzulni kiygiza boshlaydi.

Rahima qo'shiq boshlaydi:

— Ho dursi, dursi, dursi,
Kiya qol hamma ko'rsin.
Ho dursi, dursi, dursi,
Kiya qol hamma ko'rsin.

Kamzulni kiyib bo'lgandan so'ng, hamma birgalikda:

— Ho yaxshi, yaxshi, yaxshi-yo,
Kimxob kamzuli yaxshi.
Ho yaxshi, yaxshi, yaxshi-yo,
Kimxob kamzuli yaxshi, — deb kuylashadi.

Shoira opa qo'shiq boshlaydi:

— Oq tongni oq qilaylik,
Ko'k tongni ko'k qilaylik.
Bugun muchal to'yida,
Tonggacha o'ynab kulaylik.
Voy qani, qani, qani-yo,
Oppoq lozimi qani?
Voy qani, qani, qani-yo,
Oppoq lozimi qani?

Zulfiya xolasi lozimni olib chiqib, to'y qizning momosiga beradi. Momosi:

— Oq qizim, oydin qizim,

Endi kiyib ol lozim — deb lozim kiygizadi. Shunda qizchalar, Dilraboning dugonalari lozim kiyganda birov ko'rmasin, — deb uni aylana shaklida to'sib oladi. Momosi Dilraboga lozimini kiygizayotganda Rahima qo'shiq aytadi:

— Childirma chalolmayman,
Qo'limni ololmayman.
Dilraboni to'yidan,
Hech yoqqa ketolmayman.
Ho dursi, dursi, dursi,
Kiya qol hamma ko'rsin.
Ho dursi, dursi, dursi,
Kiya qol hamma ko'rsin.

Momosi Dilraboga lozimini kiygizib bo'lgandan so'ng qizlar yana joylariga borishadi. Joylariga ketayotib:

— Ho yaxshi, yaxshi, yaxshi,
Oppoq lozimi yaxshi.
Ho yaxshi, yaxshi, yaxshi,
Oppoq lozimi yaxshi, — deb qo'shiq aytishadi.

Shoira opa yana qo'shiq boshlaydi:

— Oq tongni oq qilaylik,
Ko'k tongni ko'k qilaylik.
Bugun muchal to'yida,
Tonggacha o'ynab kulaylik.
Gulgun ekan ko'ylaging,
Gulday nozik bilaging.
Bugun muchal to'yingda,
Tilla kavush kiyvolgin.
Voy qani, qani, qani-yo,
Tilla kavush qani?
Voy qani, qani, qani-yo,
Tilla kavush qani?

Rahima opa tilla kavush olib chiqib momosiga beradi. Momosi tilla kavushni kiygizayotib:

— Dikir-dikir o'ynasin,
Oyog'iga tikan kirmasin
Tilla kavush kiyib,
Qizlar bilan o'ynasin, — deydi.

Rahima qo'shiq boshlaydi:

Mening singlim hiloli,
Kavushlari tilloli.
Tilla kavush yarashgan,
Qizlar unga qarashgan.
Ho dursi, dursi, dursi,
Kiya qol hamma ko'rsin.
Ho dursi, dursi, dursi,
Kiya qol hamma ko'rsin.

Dilrabo tilla kavushni kiyib bo'lgandan so'ng hamma birgalikda:

— Ho yaxshi, yaxshi, yaxshi-yo,
Tilla kavushi yaxshi — deb qo'shiq aytishadi.

Shoira opa qizning sarposini maqtaydi va qo'shiq aytadi:

— Dilrabo dilim derman,
Sayroqi tilim derman.
Onasining quvvati.
Shugina qizim derman.
Dilraboxon oy qiz,
Kulgiga ko'p boy qiz.
Kulcha yuzli shirmoy qiz,
Sho'xliklari sho'x soy qiz.
Aylanaman oyimdan,
Suv olaman soyimdan.
Hamisha men xursandman,
Shuni bergan xudoyimdan.
Dilraboxon qizimning,
Aqli ziyoda bo'lsin.
O'n to'rt kechali oydan,
Husni ziyoda bo'lsin.
Qo'lidan choy ichganda,
Oltin piyola bo'lsin.
Ketidan dugonalari,
Doimo piyoda yursin.

Qizning boshidan kayvoniylar xotin bilan ammalari sochqilar
sochishadi. Dilraboning ammasi turshak, yong'oq sochadi.
Ularni sochayotib:

— Qizim, qizim, qiz kishi,
To'yga keldi yuz-yuz kishi.
Dur-u davolar bo'lsin,
Kechgacha to'ylar bo'lsin-o.
Ammalari tanga sochib,
Ho barakalla desin-o.

Kayvoniylar hola qizning buvisi Bahriniso ayaga qarab:

— Qani buvijonisi qizimga atagan oq surp bilan tuzni olib
keldingizmi, beraqoling — deb uni oladi. Surpni qizning bo'yi
baravar o'ldiraydi, qolganini yirtib olib o'tirganlarga beradi.
Bo'yiga teng qilib yirtilgan surpni va tuzni Bahriniso aya bera
turib, „...Bu oqliqni mozorga bering, doim yo'li oq bo'lsin.
Momosi Dilraboning eski kiyimlarini zoriqqanlar bo'lsa berib
yuboring, kiyishsin, nabirangizga o'xshab yurishsin. Tuzni berib
yuboring, tuz nasibasi bu dunyodan uzilmasin. Qarindosh-
lariga tuzni tarqatamiz. Tuzli-ta'mizli qiz bo'lsin deb olqish

qilinglar“, deydi. Dilrabo tuzni oq matoga tugilgan holda ko‘ylagining etagiga olib o‘tirganlarning oldiga boradi. Kayvoni xotin tuzlarni qarindosh-urug‘larga, oq qandni esa Dilraboning dugonalariga va o‘rtoqlariga ulashadi. So‘ngra Bahriniso aya — qizimning hayoti shirin-shakar bo‘lsin. Qizimning dili hech qachon g‘am, ko‘zlari nam ko‘rmasin, doimo o‘ynab-kulib, ko‘chalarni to‘ldirib yursin, — deydi. Tuz va qandlarni tarqatib bo‘lgach, Dilrabo va kayvoni xotin o‘z joylariga borib o‘tirishadi. To‘y qizning ukasi unga taroq olib kelib sovg‘a qiladi.

— Sochlaringni taragin,
Har tomonga qaragin.
O‘zingdan kattani ko‘rganda,
Hurmat bilan qaragin.

Shoira opa, mana qizimizga ukasi taroq sovg‘a qildi. Qizimizni sochini o‘ramiz. Qadimda muchal yoshiga yetgunga qadar qizchalarning sochini jamalak soch qilib o‘rardik. Mana Dilrabonikidaqa. Endi Dilrabo ham muchal yoshiga yetib, balog‘at yoshiga qadam qo‘ydi. Endi sochini chiroylik qilib o‘rib qo‘yish kerak.

— Qani qizimizni sochini kim o‘radi?

Hamma o‘tirganlar — man o‘raman, man o‘raman, — deb Shoira opaga xitob qilishadi. — Yo‘q o‘zim o‘raman nabiramni sochini. Menga o‘xshab sochlari qo‘lon, umri uzun, uvali-juvali bo‘lib yursin. Qani taroqni olib keling. Siz sochiga pilik o‘rab turing ammasi. Bitta-bittadan berasiz. Sochga pilik o‘ralsa, pilikka yetib olaman deb soch tez o‘sadi-da, — deya Manzura momo soch o‘ra boshlaydi. Salima opa sochga taqish uchun pilik hozirlab, Manzura momoga uzatib turadi. Shoira opa soch o‘rish bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘shiq aytadi:

Qizim, qizim, qizomadi,
Nega sochi uzomadi.
Yuvmadi, taramadi,
Shundan sochi uzaymadi.
Oq qizim, oppoq qizim,
Oyga o‘xshaydi yuzing.
Ko‘kdagi yulduz kabi,
Porlab turadi ko‘zing.
Tog‘dagi barra qiyodek,

Qoshlaringdan o'rgilay.
Sada rayhon dastasiday,
Men bo'yingdan o'rgilay.
Qizil gulning shoxida,
G'unchalari ham bordir.
Dilraboning sochida,
Piliklari ham bordir.

Naqarot:

A hayla, hayla, hayla,
Kokilin belga tashla.
A hayla, hayla, hayla,
Jonim qizim-a hayla,
Qora ko'zim-a hayla.

Manzura momo nabirasining sochini o'rib bo'lganidan
so'ng, nabirasining sochini qo'llariga tutamlab olib:

— Dili, dili, dilidan,
Sochlari uzun belidan.
Oyda quloch, kunda tutam,
Senga kuyov, menga palov.
Men sochlaringga boqaman,
Zulfigga tilla taqaman.
Ko'zlaring buncha xumor,
Sochlaringda o'ttiz tumor.
Oyda quloch, kunda tutam
Senga kuyov, menga palov,

— deb aytadi. Hamma Dilraboning sochiga qarab, „Muncha
chiroylik soch o'ribsiz, qo'lingiz dard ko'rmasin, yuzga kirib
Dilraboning sochini yuzta qilib o'rib yuring“, deyishadi.

Mukarram: Qani bir o'yin-kulgi qilaylik. (Manzura momoga
qarab) — Siz boshlaysizmi, men boshlaymi?

Manzura momo: Mayli men boshlay qolay bo'lmasa.

(Xalq qo'shig'i)

Yor ko'ksingga taqib ol,
Chechaklar bo'layin-o.
Oshiq nigohingni sol,
Ipaklar bo'layin-o.

Naqarot:

Ho layli-yu, ho layli,
Bog'da rayhoning bo'lay.
Bir yaxshiga bir yomon,
Mayli yomonning bo'lay.
Chorbog'ingda sochilgan,
Bodomlaring bo'layin.
Ayvoningda qaldirg'och,
Salomlaring bo'layin.
Ariq labida shivit,
Shivitni suvga ivit.
Biz tanlagan akam-o,
Qarqaraday bir yigit.

Naqarot:

Qo'shiq tugagach Salima opa o'rnidan turib: — Men ham qizimga olib kelgan sovg'amni beray endi, — deydi. Salima opa qo'lida o'zi chiroyli qilib tikkan igna, ip, angishvona soladigan to'rvani olib keladi. Kelayotib she'r boshlaydi:

Ignani uchginasi,
Pistaning puchginasi.
Buncha ko'hli bo'larmi?
Qizlarning yoshginasi.
Qizim, qizim, qizim-a,
Qizim keltir uzum-a.
Uzumingni osib yey,
Mayizingni bosib yey.

Sovg'ani topshirayotib Salima opa: — Mana ip, igna bilan chiroyli sochiqlar, so'zanalar tikib sepingga igna kirmasin, ehtiyot bo'l, tikayotganingda barmog'ingga angishvona taqib olsang igna qo'lingga kirib joningni og'ritmaydi. Qadimda qizlar kelinlik sepini o'zlari tikib, uylarini jihozlashgan. Bu momolardan qolgan udum, sen uni davom ettirgin, — deydi.

— Sarposini o'zi tikkan qizning dovrug'i hamma yoqqa yetib, uzoqlardan sovchi kelarmish, — deb Rahima ham xalq termalaridan aytadi:

Dilraboxon deydilar,
Qandga qo'shib yeydilar.
Marg'ilondan sovchi kelsa,
Qimmatbaho deydilar.
Ho kishta, kishta, kishta,
To'ylari bo'lsin qishda.
Asaddi gulning jamoli,
Boshida ipak ro'moli.
Ipak ro'moli yarashgan,
Sovchilar unga qarashgan.
Ho kishta, kishta, kishta,
To'ylari bo'lsin qishda.

Qo'shiq tugagach, to'yi bo'layotgan qizchaga jiyani Murod quticha sovg'a qiladi.

— Quticha-quticha,
Qutichada billurcha,
Qutichaning ichida,
Senga atalgan zirakcha,

— deb qutichaning ichini odamlarga ko'rsatib, undan zirakni olib Manzura momoga beradi. Manzura aya zirakchani olib hammaga ko'rsatib, Dilraboga qarab: — juda chiroyli ekan, qani qizim taqib qo'yay senga, — deb zirakni taqib qo'yadi. To'y qizining o'rtoqlari „Kichkina bo'ling“ ashulasini aytishadi:

Kichkina bo'ling, kichkina,
Tariqdanam kichkina.
Kichkina bo'ling, kichkina,
No'xotdanam kichkina.
Qarsak chalib bolalar,
Davra qurib yayraydi.
Kichkina bo'ling raqsiga,
Hamma bir-bir o'ynaydi.
Kichkina bo'ling, kichkina,
No'xotdanam kichkina.
Kichkina bo'ling, kichkina,
Tariqdanam kichkina.
Dangasalar bir tomon,
Bilimdonlar bir tomon.
Dangasa deb nom olgan,

El ichida ko'p yomon.
Kichkina bo'ling, kichkina,
No'xotdanam kichkina.
Kichkina bo'ling, kichkina,
Tariqdanam kichkina.
Dangasalik ko'p yomon,
Yaxshilar bo'lsin omon.
Kichkina bo'ling, kichkina,
No'xotdanam kichkina.
Kichkina bo'ling, kichkina,
Tariqdanam kichkina.

„Kichkinajon“ qo'shig'i tugagach, Mukarramga navbat keladi. Mukarram — qani endi menga navbat beringlar, — deb Dilraboga qarab:

Tasma tasadduq bo'yingga,
O'yinchi kelsin to'yingga.
O'yinchilar kelmasa,
O'zim o'ynayman to'yingda.

Qani Munisaxon aya „Tanovar“ni chaling, o'zim bir o'yinga tushay — deb, Munisaxon ayaga xitob qiladi. Shundan so'ng Bahriniso aya doirada, Munisaxon aya dutorda „Tanovar“ni zavq bilan ijro etishadi.

Dilraboning dugonasi oyna olib kelib berayotib: — Oynaga qarab ruxsoringni ko'rib tur, yuzingni toza saqlab, hamisha qarab tur, deb she'r o'qiydi. Keyin onaxonlar „Do'ppi“ qo'shig'ini aytishadi. Kamol o'yinga tushadi.

„Do'ppi“

Bozordan oldim bir tup o'rik,
Oldimga keldi qoshi kerik.
Bir gumonim qoshi kerik,
O'shalar olgan do'ppini,
O'shalar bersin do'ppini.
Bozordan oldim bir bog' piyoz,
Oldimga keldi Mamaniyoz.
Bir gumonim Mamaniyoz,
O'shalar olgan do'ppini,
O'shalar bersin do'ppini.

Bozordan oldim bir bog' poxol,
Oldimga keldi paxmoq soqol.
Bir gumonim paxmoq soqol,
O'shalar olgan do'ppini,
O'shalar bersin do'ppini.
Bozordan oldim bir piyola qaymoq,
Oldimga keldi oyog'i maymoq.
O'shalar olgan do'ppini,
O'shalar bersin do'ppini.

Ijro tugagach, Zulfiya opa Dilraboga sochiq olib kelib sovg'a qilish uchun oldiga yaqinroq boradi. Mana qizim sochiq, yuzingni artib yurgin, yuzlaring oyday, o'zing qirchillama toyday bo'lib yurgin:

To'y-to'y bugun, to'y bugun, to'ylay keldim,
O'sha ro'mol boshga o'rab, o'ynay keldim.
To'yginangga kelturib Dilraboxon,
Senga atab gulli sochiq tika keldim.
Qo'limdagi uzugim,
Ziragingga bog' bo'lsin.
Senga keltirgan sochiq,
Uyingga chiroy bo'lsin.
Zargar yasar tillaqosh,
Dilraboxon taqsin deb.
Men senga sochiq berdim,
Baxting baror bo'lsin deb.

— Umring uzoq, rizqing ulug' bo'lsin, — deb Zulfiya opa o'tirganlarga qarab: — qani „Hilila yor“ni chalinglar, bir o'ynab beray, — deydi.

„Hilila yor“

Hilli-hilli yorim uyg'onsin,
Hilli-hilli yor, hilli-hilli.
Sochlari beliga cho'lg'onsin,
Hilli-hilli yor, hilli-hilli.
Ro'moli uchdi ketdi
Hilli-hilli yor, hilli-hilli.
Daryoning shamoliga,
Hilli-hilli yor, hilli-hilli.

Xayolim uchdi ketdi,
Hilli-hilli yor, hilli-hilli.
Yorginam jamoliga,
Hilli-hilli yor, hilli-hilli.
Mashina tikdim ayvonda,
Hilli-hilli yor, hilli-hilli.
Ikki ko'zim narvonda,
Hilli-hilli yor, hilli-hilli.
O'ynamadim kulmadim,
Hilli-hilli yor, hilli-hilli.
Ichim to'la armonda,
Hilli-hilli yor, hilli-hilli.
Ro'molimni olibsan,
Hilli-hilli yor, hilli-hilli.
Olib dorga solibsan,
Hilli-hilli yor, hilli-hilli.
Ro'molimni bera olmay,
Hilli-hilli yor, hilli-hilli.
Uvolimga qolibsan,
Hilli-hilli yor, hilli-hilli.

Dilraboning dugonasi Gulnora ro'molcha olib kelib,

— Oy qiz, oylar qiz,
Ro'molcha deb yig'lar qiz.
Oppoqqina qo'liga,
Ro'molchani ushlar qiz,

— deb she'r aytib ta'zim bilan Manzura momoga uzatadi. Zohida opa: — „Ro'molchani o'zing to'qidingmi Gulnora? Dilraboga ham o'rgatib qo'ygin. Yur birga raqsga tushamiz qizim. Qani „Olmacha anor, men senga xumor“, — deb ijrochilarga xitob qiladi. Qo'shiq boshlanib, Zohida opa qizlar bilan raqsga tushadilar.

Naqarot:

Olmacha anoringga balli, toza rayhoningga balli.

Ot minsam ham o'ynayman, minmasam ham o'ynayman,
Sevib tekkan yoringa, ming boqsam ham to'ymayman.

Naqarot:

Atlas ko'ylagim yengi, mani yuragim kengi,
Dunyoni gir aylanib, topmadim o'zim tengi.

Naqarot:

Ro'molimni yuvdirdim, tol yog'ochga ildirdim,
Yaxshi ko'rgan yorimni, qaroqchiga oldirdim.

Naqarot:

Aylandim men bog'ingdan, kuydim seni nozingdan,
Kecha-kunduz yig'layman, mungli chalgan sozingdan.

Naqarot:

Olmacha anoringga balli, toza rayhoningga balli.

Manzura momo o'rnidan turib, qo'liga tilla jig'ani olib
Dilraboga qarab:

Qizim-qizim qiz bahosi,
Oyisi bo'lsin sadag'asi.
Bugun muchal to'yingda,
Olib keldim oy jig'asi,

— deb uni Dilraboga kiygizadi. Dilrabo ta'zim bilan sovg'ani boshiga kiyib oladi. O'tirganlarga qarab Manzura momo: — „Qani „Dilxiroj“ni chalinglar. Nevaramning to'yida bobosi bilan dildan o'ynab kulaylik. Hoy chol qayoqdasiz, o'rningizdan turing, nabirangizning to'yida bir o'yinga tushaylik ikkalamiz, kela qoling“, — deb cholni sahnaga taklif qiladi. Chol sahnaga chiqqach, ular birgalikda „Dilxiroj“ga raqsga tushadilar. Birozdan so'ng, Kamol holidani raqsga taklif qiladi. Momo va bobo nabiralari bilan birgalikda raqsga tushadilar. Raqs tugagandan so'ng, Manzura momo Dilraboning oldiga kelib uni raqsga tortadi va undan: — „Qani qizim, endi sen ham bir chiroyli o'yinlarga tushib ber. O'rtoqlaring ko'rsin. O'yinga tushishni bilasanmi o'zi?“ — deb so'raydi. U shoira opaga qarab: — qizimga mos bir chiroyli qo'shiq ayting, o'yinga tushib beradi, — deydi. Shoira opa qo'shiq aytadi, Dilrabo o'yinga tushadi.

Qoshingni qarosi yuvsa ketarmu,
Saningdek toza gul bog'da bitarmu.
Aningdek toza gul bog'larda bitsa,
So'rab borsak bog'bon otang pulga sotarmu?

Naqarot:

Laylo, laylo, Laylola bo'lmang,
Dadasi sizga bermaydi, ovora bo'lmang.
Behi pishmay mazasi hech totilmaydi,
Bu zamonda qizlar pulga sotilmaydi.
Sovchi qo'yib, sovchi bo'lib kelgan bo'lsang,
Qizimiz yosh hali, pulga sotilmaydi.

Naqarot:

Xom o'ylamang, yerda qolgan qizimiz yo'q,
Bir qiz tugul, senga berar tuzimiz yo'q,
Qiz palaxmon toshi deysan, o'ylab gapir,
Bu gapingga chidaydigan yuzimiz yo'q.

Naqarot:

Yuzlaringga qarasam ko'zim qamashur,
To'lgan oy husningga hamma qarashur.
Sarvdek qomatingga qarashsa ham,
Oq badanga oq ko'ylak juda yarashur.

Dilrabo o'yinga tushib bo'lgach, Kayvoni aya isiriq tutatib
keladi va Dilraboga qarab: — O'zim o'rgilay sendan, bo'ylaringga
bo'y tumor, ko'zlaringga ko'z tumor. Qani isiriq solib yuboray,
ko'z tegmasin senga iloyim, — deydi.

— Isiriqning donasi,
Shu qizimning shonasi.
Isiriq dona-yu dona,
Tutunidan to'lsin xona.
Kuya qolsin hasadli ko'z,
Ko'cha qolsin g'arazli ko'z.
Ko'chsin-ko'chsin gulga ko'chsin,
Oqsin-oqsin ko'lga oqsin,
Qizginam kulib boqsin.
Isiriq-isiriq, chatnasin isiriq,
Isiriq-isiriq portlasin isiriq,
Qizimga ko'z tegmasin,
Yomon ko'zlar yo'qolsin!
Balo-qazo yo'qolsin,
Qizginam omon qolsin,

— deb qizning boshidan isiriq aylantiradi. O'tirganlarga qarab:

Ming xil dardga davo isiriq.
Bemorlarga shifo isiriq.
G'arazli ko'z tog'larga ketsin,
Ko'chay desa gullarga, bog'larga ko'chsin!
Oqay desa suvlarga oqsin,
Hammaga baxt kulib boqsin!
Isiriq, isiriq ismon isiriq,
Ming dardga darmon isiriq,

— deb Kayvoni aya isiriqni hammaga tutib chiqadi. Qizlar va bolalar Umri opaning oldiga kelib kurakdagi isiriqqa do'ppilarini tutishadi. Umri opa esa: — Olinglar bolalar, sizlarga ham ko'z tegmasin. Ota-onalaringning ardog'ida bo'linglar, — deb ularga ham isiriq tutunini haydaydi. Zalda o'tirganlarga ham isiriq tutunini haydaydi. Kayvoni Umri opa isiriqni bir chekkaga qo'yib: — Vaqt ham allamahol bo'ldi, endi to'yni tugatsak ham bo'ladi. Nima dedingiz, — deb Bahriniso ayaga qaraydi. Bahriniso aya yana biroz o'tirsak bo'lardi-ya, deb afsuslanadi. Umri opa hammaga qaraganicha fotihaga qo'l ochib, duo qiladi:

Bismillahir rohmanir rohim.

Bismillahir rohmanir rohim — hamrohinglar bo'lsin,
Qulhu Allohu Ahad — qo'rg'oninglar bo'lsin,

Qani bo'lmasa ko'taringlar bilaklaringni,

Alloh bersin tilaklaringni, to'y deb kelganlarning boshi to'ydan chiqmasin, muchal to'yli qizimning besh muchali sog' bo'lsin, yegani go'sht-u yog' bo'lsin, bobosining yaratgani bog' bo'lsin! Shu yerda o'tirganlarning yeganlari osh bo'lsin, yostig'i to'la bosh bo'lsin. Endigi safar Dilraboning nikoh to'yiga kelaylik. Go'shangaga chiroyli kelin bo'lsin, ilohim karnaylatib, surnaylatib to'y qilaylik, boshimiz to'y-u tomoshadan chiqmasin. Muchal to'ylarimiz hamisha tinchlikda-omonlikda o'tsin. Tan sihatlik, xotirjamlik bo'lsin. Yurtimizga tinchlik bersin, dini Islomga quvvat bersin. Safarlarga ketgan bolalarim sog' borib, salomat kelsin. Befarzandlarga farzand ato etsin. Qarzdorlarning qarzig'a najot bersin, yaxshilikni ato qilsin, yomonlikni xato qilsin, sarg'aytirib yotqizmasin, mo'ltaytirib o'tqizmasin, do'stga zor, dushmanga xor, nomardga muhtoj qilmasin. Iloho omin, deb o'tirgan nuroniy onaxonlar, dilbar opa-singillar, qora qosh, qora ko'z ukalarim qatorlaringdan xato bo'lmanglar. Bir-biringlardan kam bo'lmanglar. Ko'zinglar nam, dilinglar g'am

ko'rmasin. Yurtboshimiz omon bo'lsin, hokimlar ekkani archa bo'lsin, qizlarning kiygani parcha bo'lsin, cho'ntagi to'la pul bo'lsin, o'choq to'la kul bo'lsin, ombor to'la don bo'lsin. Avvalam bor, shu manzil-u makonlardan o'tgan ketganlarni Xudo rahmati-jannati qilgan bo'lsin. Vujudlariga zahmat tegmasin, besh muchanglar sog'-u salomat bo'lsin. Hammaning uyi to'y-xona-murodxona bo'lsin. Karnaylatib, surnaylatib to'y ko'ringlar, g'am ko'rmanglar. Allohu Akbar!

Fotiha o'qilgach, karnay-surnay, nog'ora bazmi boshlanadi. Oldin kattalar, keyin yigitcha va qizchalar birgalikda o'yinga tushishadi. Biroz o'tgach, hamma bir saf bo'lib tizilib tomoshabinlarga ta'zim qilishadi.

„QASRI ORIFON“ XALQ FOLKLOR-ETNOGRAFIK ANSAMBLI

Kogon tuman Madaniyat uyi qoshida tashkil etilgan „Qasri Orifon“ folklor-etnografik ansambli dasturi tub aholi marosim, urf-odatlarini, qo'shiq va raqslarini o'z ichiga olib, ijro etayotgan ansambllardan biridir. Ayniqsa, uning „Qizil gul sayli“ nomli dasturi o'ziga xosligi bilan muhimdir. Bu dastur buxoroliklarning har yili bahor paytida an'anaviy tarzda o'tkazilib kelinayotgan „Guli surx“, ya'ni „Qizil gul“ saylida ijro etilgan ijod namunalaridan biridir.

Ulug' ajdodlarimizdan biri hazrati Bahovuddin mozori yonida har bahorda o'tkaziladigan „Guli surx“ saylida an'anaviy guruh-guruh bo'lib, to'planishadi. Xalq bir-birini bahor ayyomi bilan tabriklab, lolalar taqdim etadilar. Bundan tashqari „Qizlar bozori qaydadir“, „Olmaning bargi mayda“, „O'ldirsa yor o'ldirsin“, „Adoq-adoqa Dilbar“, „Dilbari yagonamiding“, „Aka mana dona-dona sho'rak“, „Yog'ma yomg'ir, mehribonim yo'ldadir“, „Kissamda kishmishim bor“ kabi qo'shiqlar yigit-qizlar tomonidan ijro etiladi. Bu ajdodlar merosining yorqin namunasidir, albatta.

„Qasri orifon“ folklor-etnografik ansambli istiqloldan so'ng, ajdodlarimiz tomonidan yaratilib, bizning kunimizgacha yetib kelgan, ba'zilar unitilayotgan milliy qadriyatlarimiz namunasiga sayqal berib qayta tiklamoqda.

Ansaml o'z atrofiga folklor san'atining haqiqiy fidoyilarini birlashtirgan. Ular o'z hududida yashayotgan keksa kishilar, xalq ijodining ixlosmandlari bilan uchrashib, ulardagi ijod namuna-



„Mohi sitora“ xalq folklor-etnografik ansambli



„Mohi sitora“ xalq folklor-etnografik ansambli



„Mohi sitora“, „Munojot“ xalq ansamblarining Madaniyat institutidagi ijodiy uchrashuvi



Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumanidagi „Munojot“ xalq folklor-etnografik ansambli



„Munojot“ xalq folklor-etnografik ansambli



Toshkent shahridagi „Gavhar“ xalq folklor-etnografik ansambli



„Gavhar“ xalq folklor-etnografik ansambli



„Gavhar“ xalq folklor-etnografik ansambli
Madaniyat institutida



„Gavhar“ xalq folklor-etnografik ansambli



„Gavhar“ xalq folklor-etnografik ansambli



„Gavhar“ xalq folklor-etnografik ansambli rahbari
Oyxon Yoqubova va Mamlakatxon



„Gavhar“ xalq folklor-etnografik ansambli



Buxoro viloyatidagi „Qasri-orifon“ xalq
folklor-etnografik ansambli



„Qasri-orifon“ xalq folklor-etnografik ansambli



Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanidagi „Qizg‘aldoq“
bolalar xalq folklor-etnografik ansambli



„Qizg‘aldoq“
bolalar xalq folklor-
etnografik ansambli



„Qizg‘aldoq“
bolalar xalq folklor-etnografik ansambli



„Qizg‘aldoq“ bolalar xalq folklor-etnografik ansambli



„Qizg‘aldoq“ bolalar xalq folklor-etnografik ansambli



Toshkent shahridagi „Kamalak“ xalq folklor-etnografik ansambli



„Kamalak“ xalq folklor-etnografik ansambli



„Kamalak“ xalq folklor-etnografik ansambli



Yangiyo'l shahridagi „Zarrin yaproqlar“ xalq folklor-etnografik ansambli



„Zarrin yaproqlar“ xalq folklor-etnografik ansambli



A. Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutining
„Chashma“ xalq folklor-etnografik ansambli



Qarshi shahridagi „Arab gullari“ xalq
folklor-etnografik ansambli



Toshkent iqtisodiyot universitetining „Qo'ng'iro't“
xalq folklor-etnografik ansambli



„Qo'ng'iro't“ xalq folklor-etnografik ansambli



Toshkent pedagogika kolleji „Toshkent sarchashmasi“
xalq folklor-etnografik ansambli



„Toshkent sarchashmasi“ xalq folklor-etnografik ansambli



Toshkent shahar Sirg'ali tumanidagi Tibbiyot kolleji
„Marvarid“ xalq folklor-etnografik ansambli



Namangan pedagogika kolleji „Dilnovo“
xalq folklor-etnografik ansambli

larini yozib olishga harakat qiladilar. „Guli surx“ saylida bevosita ishtirok etgan nuroniy otaxonlar, zukko otaxonlar xotirasida saqlanib qolgan badiiy tafakkur durdonalarini yig‘ib „Qizil gul sayli“ degan yangi dasturni yuzaga keltirdilar.

Qadimda xalq sayillari an‘anaviy chorlov bilan boshlangan. Jarchilar qishloqma-qishloq yurib, sayil boshlanganligini ma‘lum qilganlar.

„Qasri orifon“ ansambli tomonidan tayyorlangan dasturda „Qizil gul“ saylining barcha xususiyatlari namoyon bo‘lgan. Unda sayil jarchilar chorlovidan boshlanadi. Doira sadolari ostida sahnaga jarchi kirib keladi. Ko‘klam iforidan dili quvonchga to‘la jarchi hammani „Qasri orifon“ qishlog‘ida o‘tkazilayotgan xalq sayliga chorlaydi.

Jarchining yangroq ovozini eshitgan xalq „Qasri orifon“ qishlog‘idagi sayilgohga oqib kela boshlaydi.

Qozonlarda bahor taomlarining eng lazzatlisi — sumalak qaynaydi, ko‘ksomsa, ko‘k chuchvara kabi turli xil pishiriqlar dasturxonga tortiladi. San‘atkorlar karnay-surnay sadolari ostida qo‘shiq aytib mehmonlarni kutib oladilar.

Kishilar qalbini quvonchga to‘ldiruvchi qizil gullar haqida qo‘shiqlar kuylanadi. Har bir gulning o‘ziga xos ifori, benazir sifatlari madh etiladi:

Bahovuddin gullari,
Xushxondir bulbullari.
Sizga taz‘im qiladi,
Majnuntol sumbullari.
Odamlari orasta,
Navro‘z guli payvasta.
Bahovuddinga keling,
Tengi yo‘qdir qiyosda.
Nozbo‘y gulni ardoqlab,
Qalamqoshlar deydilar:
Gulga ozor bermanglar,
Bag‘ritoshlar, deydilar.

„Qizil gul“ sayliga kelgan yigit-qizlar bir-birlarini gul bilan tabriklab, o‘zaro aytishuvni boshlaydilar. Aytiladigan o‘lan va laparlarning mavzusi, asosan, gulga bag‘ishlanadi.

„Qasri orifon“ folklor-etnografik ansambli ana shu xalqning an‘anaviy marosimini o‘z dasturiga kiritgan. Unitilayozgan bu

marosim sayqallanib, sahna ko‘rinishi orqali yana xalq hukmiga havola etiladi:

Yigit. Tomga chiqdim tol uchun,
Ari tutdim bol uchun.
Gul sayliga keldim men,
Bir qalamqosh bor uchun.

Qiz. Bog‘ingizda ari bor,
Yuraklarning zori bor.
Barno yigit bir qarang,
Yoningizda pari bor.

Gul haqidagi bunday laparlar respublikamizning turli viloyatlarida nikoh to‘yi marosimi sifatida o‘tkaziladi.

Buxoro viloyatida o‘tkaziladigan „Qizil gul“ sayli dehqon va chorvadorlar uchun yangi mehnat mavsumining boshlanish davri sifatidagi ko‘rinishi „Qasri orifon“ ansambli tomonidan sahnaga olib chiqilib, xalq hukmiga havola etildi. Ular tayyorlangan „Qizil gul“ sayli dasturida cho‘pon tayog‘ining topshirilish lavhasi ham borki, bunda ajdodlarimizning chorvachilik bilan bog‘liq qadimiy udumlari aks ettiriladi. An‘anaga ko‘ra „Qizil gul“ saylida tajribali cho‘ponning o‘z kasbini yaxshi o‘rgangan o‘g‘liga cho‘pon tayog‘ini topshirish marosimi o‘tkaziladi. „Qasri orifon“ ansambli ijrosida ana shu ko‘hna marosim mehnat jarayoni bilan bog‘liq sayqallangan holatda o‘ziga xos ijroda namoyish etilgan. „Qizil gul“ sayliga atalgan yigit-qizlar bellashuvidan so‘ng momolar sahnaga o‘qlov, elak, supra, xamir qoradigan tog‘ora olib chiqib aralashtirish jarayonini ko‘rsatishadi.

Masalliq tayyorlash jarayonida quyidagicha qo‘shiq kuylanadi:

Suprachada dumalagan somsa onamdan aylanay,
Suprachada dumalagan qoqi xolamdan aylanay,
Suprachada dumalagan Xichi momomdan aylanay.

Qadimdan buxoroliklarning momolari, zukko xotin-qizlari „Qizil gul“ sayliga katta tayyorgarlik ko‘rishgan.

Momolar nabiralariga turli xil ko‘katlar terib kelishni buyurganlar. Qizlar qir-adirlarga chiqib turli xil giyohlarni terib kelishgan. Ularni terish jarayonida qo‘shiqlar yangragan. An-

sambl tomonidan sevib ijro etiladigan qo'shiqlardan biri „Doira chaling“ qo'shig'idir:

Bahor fasli bo'lakcha-da,
Bugun bayram har o'lkada.
Doira chaling balli qolay,
O'ynab bering yalli qilay.

Xichi tering, xichi tering,
Qoqi tering, qoqi tering.
Ismaloq, shapaloq quloq,
Ko'k somsalar qaynoq-qaynoq!

Terib kelingan yalpiz, ismaloq, xichi, otquloq, qoqio'tlardan bahoriy taomlar pishirilgan. Bahor dasturxoniga ko'k somsa, ko'k chuchvara, ko'k mantilar tortilgan. Momolar o'z nabiralriga „omonlik-somonlik, hech ko'rmaylik yomonlik“ deb, baxt tilab taomlarni tanovul qilganlar. Dasturxon atrofida qizg'in suhbat va o'yin-kulgi boshlangan. Sayil arafasida balog'at yoshidagi qizlar to'planishib, qizaloqlar sochiga tol-bargaklar, chuchmomalardan gulchambarlar yasab taqib yurganlar. Ularga kelinchaklar qo'shilishib, qo'llariga xina, qoshlariga o'sma qo'yishgan. Ularning qo'llariga xina qo'yish jarayonida aytiladigan qo'shiq „Qasri-orifon“ ansambli dasturidan joy olgan bo'lib, qatnashchilar uni maroq bilan ijro etishadi.

Qizlar.

- Xino-xino qo'yamiz,
- Qo'lga xino qo'yamiz.
- Agar xino bo'lmasa,
- Tillo suvi qo'yamiz.

Yigitlar.

- Xino-xino qo'yasiz-ey,
- Bizni shaydo qilasiz-ey.

Qizlar.

- O'sma-o'sma qo'yamiz,
- Qoshga o'sma qo'yamiz.
- Agar o'sma bo'lmasa,
- Ko'm-ko'k o'tdan qo'yamiz.

Yigitlar.

- O'sma-o'sma qo'yasiz-ey,

— Bizni shaydo qilasiz-ey.

Qizlar.

— Surma-surma qo'yamiz,

— Ko'zni shahlo qilamiz.

— Agar surma bo'lmasa,

— Ko'm-ko'k o'sma qo'yamiz.

Yigitlar.

— Surma-surma qo'yasiz-ey,

— Bizni shaydo qilasiz-ey.

„Qasri orifon“ folklor etnografik ansambli „Qizil gul“ sayli dasturining yakuniy qismi Buxoro folklor san'atining sara namunalarini o'z ichiga olgan qo'shiq va raqslardan iboratdir. „Jim-jima“ qo'shig'i bu vohaning qadimiy folklor san'atiga aloqador milliy qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Jamoa a'zolari bu qo'shiqni nihoyatda mahorat bilan jo'shqin, ko'tarinki ruhda ijro etganlar:

Bog'da bulbul sayraydi-ey, hoy-hoy-a momo jim-jima,

Bobo sayliga keldi-ey, hoy-hoy-a momo jim-jima.

Qizil gullar sayliga-ey, hoy-hoy-a momo jim-jima,

Dillar biram yayraydi-ey, hoy-hoy-a momo jim-jima.

Doshqozonda sofi osh, hoy-hoy-a momo jim-jima,

Hidi urar dimoqqa-ey, hoy-hoy-a momo jim-jima.

Damlama palov dam yesin-ey, hoy-hoy-a momo jim-jima,

Qo'y go'shti dumbali bo'lsin, hoy-hoy-a momo jim-jima.

Ichida sabzi mo'l bo'lsin, hoy-hoy-a momo jim-jima,

Ichida mayiz ko'p bo'lsin, hoy-hoy-a momo jim-jima.

Kampir yeb mazza qilsin, hoy-hoy-a momo jim-jima,

Bobolar yeb ko'k choy ichsin, hoy-hoy-a momo jim-jima.

Yosh-u qari baxtiga, hoy-hoy-a momo jim-jima,

Yurtboshim omon bo'lsin.

„Qizil gul“ saylida ijro etiladigan bu qo'shiqda odamlarning bahorga intiqligi, sayilda insonlarning orzu-umidlari ro'yobga chiqishiga bo'lgan ishonch aks ettiriladi. „Qizil gul“ saylining o'ziga xos xususiyatlari, o'tkazish tartibi, uning udumlari, kekxa onaxonlar, nuroniy otaxonlarning, yosh-u yalanglarning sayilga qatnashib, bahorga eson-omon yetib kelganliklariga shukronalik aytishlari tarannum etilgan.

Biz „Qasri orifon“ folklor-etnografik ansambliga milliy qadriyatlarimizni rivojlantirishlarida omad va zafarlar tilaymiz. „Qasri orifon“ folklor-etnografik ansamblining „Qizil gul“ sayli nomli dasturi ssenariysi. Sahnaga uzra Buxorocha doira usullari yangraydi. Sahnaga jarchi chiqib keladi.

Jarchi: Odamlar-u odamlar!
Bog'da bitgan bodomlar,
Eshitmadim demanglar.

Bugun Buxoroyi sharifda, „Qasri orifon“ da „Qizil gul sayli“ bo'ladi. Sayilda qandolatchilar, hunarmandlar, san'atkorlar, mard-u maydon yigitlar, lobar qizlar ishtirok etadilar. Ham-mangizni sayilga taklif etamiz. Sahnaga birin-ketin qo'llarida hunarmandchilik buyumlari bilan ansambl ishtirokchilari kirib keladilar. Doira usuli o'zgaradi va shahd bilan qo'shiq ijro etiladi:

1. Qo'shiq: „Az Buxoro omadem“

Sinaxo chog omadem,
Xo layli, layli, layli.
Chonam da tu layli,
Murchamiyon duxtarak,
Chigarkabob omadi.

Naqarot:

Man mevaram ba bozor,
Gapama bigu Churajon.
Xalqa tillo ovarda,
Ba gushakat andozam.

Qo'shiq tugagach, sahna ijrochilari bozor ko'rinishini namoyon etishadi. Ijro davomida „Xush kelibsiz qizil gul sayliga“ deb nomlangan qo'shiq ijro etiladi.

2. Qo'shiq: „Gul sayliga“

Bahovuddin gullari,
Xushxondir bulbullari.
Sizga ta'zim etadi,
Majnuntol sumbullari.

Odamlari orasta,
Navro'z guli payvasta.
Bahovuddinga keling,
Tengi yo'qdir qiyosda.

Noybuy gulni ardoqlab,
Qalam qoshlar deydilar.
Gulga ozor bermangiz,
Bag'ri toshlar deydilar.

Qo'shiqdan so'ng sahnaga cho'pon ota qo'shiq aytib shogir-
dini chorlaydi va cho'ponlik tayog'ini topshiradi. Bu bilan sayilda
ustoz-shogird odatlari ko'rsatiladi.

3. Qo'shiq: „Cho'pon qo'shig'i“

Bobo: Mehnat qilib bir umrga,
Bo'lmadim birovdan kam.
Umrin yo'li to'ldi nurga,
Shohdek yashadim men ham.

O'g'li: Qo'ychivonlik bobo meros,
Suygan yerim, qir-adir.
Cho'ponlikka qo'yib ixlos,
Topdim elda zo'r qadr.

Bobo: Bugun senga bermoqdaman,
Bobom tutgan tayoqni.
Mendan ortiq asra bolam,
Ko'paytirgin tuyoqni.

O'g'il: Qo'y-qo'zilar yursa yayrab,
Shodlanaman, jo'shaman.
Har biriga ming bor qarab,
Zavqiga-zavq qo'shaman.

Bobo: Mehnatsevar, halol bo'lsang,
Xalqing boshing silaydi.
Keksa otang senga bugun,
Baxt-u omad tilaydi.

O'g'il: Suruv meni jon-u tanim,
Pisand emas chang-to'zon.
Chorva desam qaynar qonim,
Charchamayman hech qachon.

Bobo, o'g'il: Qo'ychivonlik bobo meros,
Suygan yerim qir-adir.
Cho'ponlikka qo'yib ixlos,
Topdim elda zo'r qadr.

Abdulla Kenja she'ri.

Ushbu qo'shiq nihoyasiga yetgach, qizlar bir tomonda o'tirib o'sma, surma, xino qo'yib, qo'shiq kuylashadi, yigitlar ularga nisbatan o'z munosabatlarini ko'rsatib, qizlarga jo'r bo'lib, qo'shiq kuylashadi.

4. Qo'shiq: „Xino-xino qo'yamiz“

Qizlar: Xino-xino qo'yamiz,
Qo'lga xino qo'yamiz.
Agar xino bo'lmasa,
Tillo suvin qo'yamiz.

Yigitlar: Xino-xino qo' yasiz-ey,
Bizni shaydo qilasiz.

Qizlar: O'sma-o'sma qo'yamiz,
Qoshga o'sma qo'yamiz.
Agar o'sma bo'lmasa,
Ko'm-ko'k o'tdan qo'yamiz.

Yigitlar: Surma-surma qo' yasiz-ey,
Bizni shaydo qilasiz.

Yigit qizga qarata qo'shiq kuylaydi, hamma unga jo'r bo'ladi, qiz raqsga tushib o'z munosabatini bildiradi.

5. Qo'shiq: „Olma otdim“

Olma otib olsam sani,
Tillo jamalaging qani.
Bo'ylaringdan o'rgilay,
Buncha kuydirasan mani.

Oqarib oydinda yotsam,
Oy mening to'g'rimdadir.
Seskanib ko'zimni ochsam,
Qo'lgining bo'ynimdadur.

Men ko'changdan o'taman,
Gul ko'tarib, ham yo'talib.
Gar meni sevsang agar,
Chiqqin ukangni ko'tarib.

Shundan so'ng gul haqida yigit-qizlar bahri bayt aytishadi.

Yigit: Tomga chiqdim tol uchun,
Ari tutdim bol uchun.
Gul sayiliga keldim men,
Bir qalam qosh bor uchun.

Qiz: Bog'ingizda ari bor,
Yuraklarning zori bor.
Barno yigit bir qarang,
Yoningizda pari bor.

Yigit: Guli surxu-safed bahor du dastame,
Miyoni sad juvon dil bashumo bastame.

Qiz: Gulni gul dermu kishi,
Gulning tikoni bo'lmasa.
Yorni yor dermu kishi,
Yorning vafosi bo'lmasa.

Yigit: Noz bo'y guli ardoqlar,
Qalamqoshlar deydilar.
Gulga ozor bermangiz,
Bag'ri toshlar deydilar.

Qiz: Men gul edim sen bulbul eding,
Gulcha fasli yodingda tursin.
Sen dil eding men ko'ngil edim
Bo'sa fasli yodingda tursin.

Bahri bayt tugagandan so'ng sahnaga o'qlov va xamir, elak, supra ko'tarib ayollar, qizlar chiqishadi va ko'k somsa tayyorlashni ko'rsatib berishadi.

6. Qo'shiq: „Doira chaling, doira chaling“

Bahor fasli bo'lakcha-da,
Bugun bayram har o'lkada.
Doira chaling balli qilay,
O'ynab bering yalli qilay.
Qiychi tering, qiychi tering,
Koki tering, koki tering.
Ismaloq shalpangquloq,
Ko'k somsalar qaynoq-qaynoq.

7. Qo'shiq: Buxorcha qo'shiq

Ey yor-yor-yor-e abruyat dumi more,
Ayo ey nozanin xastam gulomat.
Begir dastam bo-bar baloyi bomad,
Bu-bin baloy bom xi kas naboshad.
Bi dex bo'sa ba man vaz zarrin labonad.

Nigori nozanin axli bu gardame,
Saramro gar buri az tu nagardame.
Saramro gar buri bo xanjari tez,
Ba xun javlon kunam gardi bu gardame.

Nigori nozanin shishtas labi juy,
Gula az obkashida laborat buy.
Gula az obkashida buy nadorat,
Diliman toqati duri nadorat.

Saram bar kurai oxangaronast,
Dilam baloi xar du xoxarast.
Agar xurdi bo man nozi rasonad,
Kalontar bulbuli shirin zabonast.

8. Qo'shiq: „Hoy-hoy momo jim-jima“

Bog'da bulbul sayraydi-yey, hoy, hoy-a momo jim-jima,
Bobo sayilga keldi-yey, hoy, hoy-a momo jim-jima.
Qizil gullar sayliga-yey, hoy, hoy-a momo jim-jima,
Dillar biram yayraydi-yey, hoy, hoy-a momo jim-jima.

Doshqozonda sofi osh, hoy, hoy-a momo jim-jima,
Hidi urar dimoqqa, hoy, hoy-a momo jim-jima.
Damlama palov dam yesin, hoy, hoy-a momo jim-jima,

Qo'y go'shti dumbali bo'lsin, hoy, hoy-a momo jim-jima.
Ichida sabzi mo'l bo'lsin, hoy, hoy-a momo jim-jima,
Ichida mayiz ko'p bo'lsin, hoy, hoy-a momo jim-jima.
Kampir yeb mazza qilsin hoy, hoy-a momo jim-jima,
Bobolar yeb ko'k choy ichsin, hoy, hoy-a momo jim-jima.
Yosh-u qari baxtiga hoy, hoy-a momo jim-jima,
Yurtboshim omon bo'lsin, hoy, hoy-a momo jim-jima.

Ssenariy yozuvchisi:

Bahriddin Roziqov.

„ZARRIN YAPROQLAR“ XALQ FOLKLOR-ETNOGRAFIK ANSAMBLI

Xalqimizda har faslning o'z gashti bor degan ajoyib naql bor. Darhaqiqat, bunga diqqat bilan qaralsa yana bir bor amin bo'lasan kishi.

Oltin kuz. Keng yo'l chetidagi yo'lkadan bir-bir qadam bosib yurar ekansan, zarrin yaproqlar xuddi bir-birlari bilan shivirlashayotgandek, o'zlarining sir-asrorlaridan so'zlashayotgandek tuyuladi.

1985-yil Yangiyo'l shahri Madaniyat uyi qoshida tashkil topgan xalq folklor-etnografik ansambliga „Zarrin yaproqlar“ deb nom berildi. „Zarrin yaproqlar“ xalq folklor-etnografik ansambli, o'zining tashkil topgan dastlabki kunlaridan e'tiboran ko'hna tariximiz qatlarida asrab-avaylab kelinayotgan yor-yor, lapar, aytishuv, doston va termalarni yig'ishga kirishdi va ijro etisha boshlashdi. Ansamblga madaniyat uyi kekxa xodimlaridan biri Xatira opa Nu'monova boshchilik qila boshladi.

O'zining mahoratli ijrosi tufayli ansambl tezda xalqqa tanildi.

1986- yili Xatira opadan so'ng, ansamblga rahbarlikni Karima opa o'z zimmasiga oldi. Shundan so'ng ansamblga yoshlar ham jalb etildi. Ansambl Yangiyo'l shahri va uning atrofida yashovchi kekxa avlod vakillaridan 200 dan ziyod qadimiy qo'shiqlarni yozib olib, o'z dasturini boyitdi. Bu qo'shiqlarda Vatanga muhabbat, sevgi, sadoqat, oila, axloq kabi insoniy fazilatlar tarannum etilgan.

„Zarrin yaproqlar“ aʼzolarining ijrosidagi „Olma pishganda keling“, „Zarrin yaproqlar“, „Qizlar“, „Qop-qoralar“, „Omon yor“, „Olmacha anoring“, „Keldi ochilur chogʻing“, „Jonim bolam“, „Ul parivash“, „Baxt yetaklab“ va boshqa oʻnlab ashula va termalar ansamblga katta shuhrat va obroʻ keltirdi.

„Zarrin yaproqlar“ aʼzolari „Paranjidan to hozirgacha“ adabiy-musiqali kechada vodiy ayollarining madaniy hayotda tutgan oʻrnini maroq bilan ijro etdilar. Sahnada qadimiy ariyalar ijro etildi. Sahna soʻngida Karima opa chiqib ozod Sharq qizini qutlaydi va „Ona maktubi“ qoʻshigʻini kuylaydi. Oʻn farzandni tarbiyalab voyaga yetkazgan Karima opa oʻzi ixlos qoʻygan sanʼatga farzandlarini ham jalb qildi. Vatanni, onani ulugʻlovchi qator qoʻshiqlari tuman, viloyat va respublika rahbariyati tomonidan yuqori baholanib diplomlar, faxriy yorliqlar bilan taqdirlandi.

„Zarrin yaproqlar“ ansamblining elga tanilishida Karima opa bilan bir qatorda, laparchi Rizvonbibi Shokirova, xalq termalarini mohirona ijro etgan Raʼnoxon Hayitova, Soliya aya Rohatova, Zuhra Iminjonova, Zeboxon Aliyeva, Tojixon Boymirzayeva, Nortoqi Qodirova, Zulayho Ortiqaliyeva, Nishonoy Solihonova, Sharofat Qodirova, Mavluda Raimjonova, Soatoy Hojiboyeva va ansambl boshqa bir qator aʼzolarining xizmati katta boʻldi.

„Zarrin yaproqlar“ xalq folklor-etnografik ansambli oʻzining qiziqarli chiqishlari bilan mamlakatimizdagina emas, balki sanʼatsevarlarning olqishiga sazovor boʻldi. Ansambl xalqimizning ardoqli va suyukli bayramlari „Navroʻz“, „Mustaqillik“ bayramlarida oʻzining rang-barang repertuarlarini namoyish etdi. U 1989- yili Qozogʻiston Respublikasining Chimkent viloyatida oʻtkazilgan Oʻzbekiston kunlarida oʻzining saralangan qoʻshiqlarini ijro etib, tomoshabinlar mehrini qozondi.

„Zarrin yaproqlar“ xalq folklor-etnografik ansambliga qadriyatlarni tiklash va ommalashtirish yoʻlidagi tinimsiz mehnati va izlanishlarini eʼtiborga olib unga „Xalq ansambli“ unvoni berildi.

Zarrin yaproqlar

Yorimning hovlisida gilosi koʻpdir,
Atlas koʻylak obermasa iloji yoʻqdir.
Agar yaxshi koʻrsalar olib berarlar,
Minib yurgan otlarini sotib berarlar.

Zarrin yaproqlar zar aylagil yor,
Mendek vafodor yorga rahm aylagil yor.

Yorimning bog'chasida arpabodiyon,
Yorimning o'zi yaxshi, onasi yomon.
Onasining gaplari ko'ngilga armon,
Yorginamning so'zlari yurakka darmon.
Zarrin yaproqlar zar aylagil yor,
Mendek vafodor yorga rahm aylagil yor.

O'yna, qizginam

Olma otdim daryoga, qalqidi-yu cho'kmadi,
Yorginamning o'tlari lovilladi, o'chmadi.
O'yna, qizginam, o'yna, xipcha belginam o'yna,
Kokillaring silkitib, mujgon qizginam o'yna.
Oyim qizning yurishi, ostonada turishi,
Sevgan yori kelganda qah-qah urib kulishi.

Naqarot:

Ko'p oh urma ozarsan, ko'p o'ylama, to'zarsan,
Sabr qilgin, singiljon, murodingga yetarsan.

Qizlar o'ynasin

Atirgulning so'lganiga yig'layman,
Yuragimning kuyaniga yig'layman.
Mahallada shuncha yigitlar turib,
Begonaga berganiga yig'layman.

Qizil gul aytadur ochilaman deb,
Chiroylining chakkasiga sanchilaman deb,
Chiroylining chakkasiga sanchilib olib,
Bevafoning oyog'ida yanchilaman deb.

Ro'molimning uchiga shahar boyladim,
Yurakni yurakka qo'yib bog'ladim.
Yurak bilan yurakning farqi bor ekan,
Sevganiga tekkanlarning baxti bor ekan.

Qizil gul ochilur g'unchama-g'uncha,
Mani otam qo'ymadilar ochilmaguncha.

Meni otam qo'yganida ochilgunimcha,
Xizmatida bo'lar edim to o'lgunimcha.

O'ynang qizlar, o'ynang, ko'rgani keldik,
Sizlar bilan davron surgani keldik.

Olinglar do'stlar

Olma shoxi ilg'andi,
Sochim belga cho'lg'andi.
Arzing bo'lsa aytgin uka,
Nega ranging sarg'aydi.

Olinglar, do'stlar, (qizlar) olinglar,
Bizning bog'da gullar bor.
Aravaning iziman,
Bir dehqonning qiziman.
Orqam to'la zar kokil,
Ming tillaga arziyman.

Naqarot:

Eshik oldi mayda tol,
Meni tolim bo'lsa-chi.
Mehnatsevar dehqon bola (yigit),
Mening bolam (yorim) bo'lsa-chi.

Naqarot:

Qizil olma orasida,
Uya solgin parranda.
Suyganini (ketmonini) ololmaydi,
Yo'lda qolgan koranda.

Oyposhsha

Osmonda oy botmasin,
Qilichda qon qotmasin.
Oyposhshani o'ldirganlar,
Murodiga yetmasin.

Sabzini to'g'rab qo'ydi,
Yog'iga belab qo'ydi.

Oyposhshani o'ldirib,
Qoniga belab qo'ydi.

Oyposhshaning o'zlari,
Qo'llarida bo'zlari.
Zolimlarning qo'lida,
Termiladi ko'zlari.

Zolimning devoli,
Devolida chumoli.
Chumolicha bo'lmadi,
Oyposhshaning uvoli.

Kelintushdi marosimi

Oddiygina xonadon. Bo'lajak kuyovning onasi turmush o'rtog'ini ishga kuzatmoqda. Poyabzalini artib qo'yish uchun uni qo'lga oladi va birdan kulib yuboradi.

Ona: Voy, adasi, poyabzalingizning ichida sabzi yotibdi!

Ota: Rostdanmi?

Ona: Mana, ko'ring.

Ota kulib yuboradi.

Ota: Tavba, o'g'limiz birpasda katta yigit bo'lib qolibdi-da, uylanmoqchiga o'xshaydi.

Ona: Ha, adasi! Ota-bobolarimizdan qolgan ajoyib urf-odatlarimiz bor. Agar qiz bola turmushga chiqmoqchi bo'lsa, damlangan palovga pichoq sanchib qo'yar ekan. O'g'il bola uylanmoqchi bo'lsa, otasining oyoq kiyimiga sabzi tashlab qo'yar ekan.

Ota: Qani, o'g'limizning o'zini chaqiraylik-chi. Balki ko'z ostiga olib qo'ygan qizi bordir. Bir so'raylik-chi.

Ona: Ha, to'g'ri aytasiz dadasi. Ishqilib tagli-zotli qizmikan! Axir Amir Temur bobomiz ham kelin olayotganlarida yetti pushtini so'rab-surishtirib olgan ekanlar! Shu payt farzandlarga xos odob bilan biroq uyalibroq o'g'il keladi. U uyalinqirab yerga tikilgan holda.

Yigit: Ha, bor. O'ziyam oy desa oydek, kun desa kundek, chiroyi bor. Ota-onasi ham bizning oilaga mos.

Ona: Onasi nima ish qilar ekan o'sha huriliqo qizning?

Yigit: Unaqa qiynalmang onajon. U qizning onasi Madaniyat

uyidagi bichish-tikish to'garagida rahbar bo'lib ishlaydi. Qizlarga kasb-hunar o'rgatadi.

Ota: O'g'lim, agar qaroring qat'iy bo'lsa, qayerda turishlarini ayt, akang bir borib kelsin.

Yigit: „Go'zal“ ko'chasidagi Hakimbekning qizi.

Ona: Xudo xohlasa ertaga sahar boraman.

Yigit: Iye, sovchilikka ham saharlab boradimi?

Ona: Sovchilik, ya'ni qulchilikka saharlab boriladi.

Xo'rozlar qichqirib, tong otgach, bulbullar sayragan chog'da kelinning eshigini supurgani boraman. Agar uyiga kirgizsa moyillik belgisi bo'ladi, bolam.

Ota: Gaplaring ma'qul onasi. Mayli, men endi ishga boraqolay.

Kelishilganday ona saharlab, supurgi olib yo'lga tushadi. Qiz xonadoni eshigini supura boshlaydi. Shu payt ichkaridan qizning onasi darvoza tomon kelar ekan:

— Darvozani saharlab ochib qo'yay. Saharlab ochib qo'yan uyga hayr-baraka kirib keladi. Darvozani ochib tashqariga chiqqach hovli eshigini supurayotgan Anvarjonning onasiga ko'zi tushadi. Hayron bo'lib.

Ayol quda: Keling egachi, qadamlaringizga hasanot!

Ikkalasi tavoze bilan turishadi, hol-ahvol so'rashadi. Uyga kirishadi.

Qizning onasi: Dilrabo qizim Anvarjon degan bir yigit to'g'risida og'zidan bol tomib maqtaganida ko'nglimdan bir gap kechgan edi. Siz qulchilikka kelgan ekansiz, biz bir kengashib javob qilamiz. Axir kengashli to'y tarqamas deydilar.

Yigitning onasi: Mayli egachi, biz qancha desangiz shuncha kelib eshik supuraveramiz. Axir qizi borning nozi bor deganlar. Ketsa ikki kalish, besh supurgi ketar.

Yigitning onasi joyidan qo'zg'alib suv ichish bahonasida o'choq boshiga qarab yuradi. Saranjomlikni ko'rib ichida qanoat hosil qilar ekan, sarishta ekan, deb qo'yadi.

Onasi ham tuzukkina ekan. Axir xalqimizda „Onasini ko'rib qizini ol“ degan maqol bejizga aytilmagan, deb qo'yadi, o'ziga o'zi.

Shu payt Dilrabo choy ko'tarib ichkariga kirib keladi. Odob bilan choyni uch marotaba qaytarib, choy uzatadi.

Yigitning onasi: Yashavor o'g'lim, diding chakki emas ekan o'g'lim (labini pichirlatib qo'yadi).

Choy ichgach, yigitning onasi xayrlashib ketayotib, endi qachon kelay deydi.

Qizning onasi: „Qani, otasi bilan maslahatlashaylik-chi, javobini aytib yuborarmiz“, deydi.

Unashtirish udumi boshlanadi. Bu udumni ansambl o'zi maromiga yetkazib bajargan.

Toshkent viloyatida qadimda o'lan aytish musobaqasi o'tkazilgan. Qiznikiga kuyovjo'ralar kelishganlarida qizlar bilan aytishuv musobaqasi bo'lib o'tgan, agar musobaqada yigitlar yutib chiqsagina kelinni olib ketishga ruxsat berilgan.

Kelinning yangasi kuyovjo'ralarni chaqirib yigitlarga patnida qo'lda to'qilgan ro'mol, ikkita non, oq qand, mayiz (tarelkaga solingan bo'ladi) olib kelib, birinchi kuyovga juft nonni tishlatadi, keyin kelinga tishlatadi. Ro'molchani, oqqandni kuyovjo'raga, mayizni qizlarga beradi. Yigitlar tillari shirin, yo'llari oq bo'lsin, qizlar mayizday yumshoq tabiatli bo'lsinlar deydi. Qani endi yigitlar o'lan aytishni boshlanglar deydi. Bir yigit ro'molchani silkitib o'lan boshlaydi:

O'lanni man aytaman bunday qilib,
Tegirmonda tortilgan unday qilib.
Boshla-boshla dedingiz boshlay yangam,
Qaldirg'och qanotiday qoshli yangam.
Ayting qizlar aytishaylik.

Qiz: Og'ajonim hovlisi past-pastgina,
Bog'iga gul ekibdi yaydastgina.
Gulidan uzay desam tikoni bor,
Ayting og'a aytishaylik.

Yigitlar o'langa javob topisholmaydi. Mayli, biz yutqazdik, nima shartlaring bor? Chiroylik qo'shiq-da, deyishadi qizlar.

Yigitlar qo'shiq aytishadi, qizlar o'yinga tushadilar:

1- yigit: Serkalarining boshida shoxi bordir,
Har bozorni o'zini narxi bordir.

2-yigit: Qiz bolaning barisin birday dema,
Qiz bola bilan qiz bolaning farqi bordir.

Ayting singlim aytishaylik.
Qizlar o'zi kim desangiz?

1-qiz: Saratonda tog'dagi qorday bo'lar,
Yarashqli qatorda piriday bo'lar.

2-qiz: Singil bo'lsang aytib ber, oxun og'a,
Yaxshi-yomon farqlari qanday bo'lar?

Aytamiz, oldin bir lapar aytib bering. Men lapar aytolmayman, uyalaman. O'rnimga singilcham aytadi.

Yigitlar. Mayli, eshitaylikchi. Kichkina qiz o'lan aytadi.

1-yigit: Toshkentning bir bozori uymoq bozor.
Yigit mardi ming-minglab qo'y boqtirar.

2-yigit: Qiz bolaning yaxshisi tushib qolsa,
Oting boylab oldingda o'ynab turar.

1-qiz: Yigitlarning mingani jiyron-chibir,
Qayoqdagi shumliklar biydan chiqar.

2-qiz: Ha. Qiz bolani yaxshisi tushib qolsa,
Tol chiviqday buralashib uydan chiqar.

Yigit: Qoyil, biz yengildik!

Qiz: Nima qilasizlar?

Bir yigit: Men „Maymunjon“ o'ynataman.

Qiz: Qani ko'raylikchi mahoratingizni. Yaxshi o'ynaganga chiroyli do'ppi yoki qiyiqcha sovg'a.

Yigit: Ko'kan keldi deganda ko'kan keldi,
Xo'rozlarning ichida dakang keldi.
O'lan aytish bahona chiroyli qiz,
Seni quchib o'pmoqqa akang keldi.

Qizlarni qo'lidan birini ushlamoqchi bo'ladi. Yigitning qiligidan jahli chiqqan yangasi:

Uyat, o'lan aytganning oti o'chsin,
O'tkir qaychi tiling uchini kessin.

Qizlarga yomon soʻz aytgan oʻngmay qolar,
Quruq yogʻoch quchoqlab umri oʻtsin.

Yigitlar: Hazil, hazil, kechiring deyishadi. Qani yangajon oʻzingiz bir qoʻshiq ayting qanaqasidan boʻlsin. Qozoqchami yoki tojikcha. Mana endi biz oʻynaymiz deb yigitlar raqsga tushadilar.

Yigit: Oʻzi boʻlsam koʻzingdan oʻzi boʻlsam,
Yilqi ichida yugurgan boʻzi boʻlsam.
Bu dunyoda bearmon ketar edim,
Qiz bolaning ogʻzidan soʻzi boʻlsam.

Qiz: Qoʻlimda bor uzugim gʻumdona bos,
Oshiq boʻlsang oyogʻing mardona bos.

Yigit: Oshqlik qiz-yigitning ishi ekan,
Oshqlikka teng kelmas zar-u olmos.

Qizlar javob topolmay qolishadi.

Yigitlar: Yutqizdilaringmi!? Qizlar xohlar-xohlamas „Ha“ deyishadi.

Yigit: Boʻlmasa kelinni beringlar.

Yangasi, hozir kiyintirib olaylik. Qizga birinchi katta oyisini koʻylagini kiygazib irim-irim qilishadi. Keyin yangasi tikkan oq krepdishin koʻylagini kiygizishadi. Oq harir roʻmoli, mahsi-kalish yoki tugma kamzul, tillaqosh taqishadi. Keyin yor-yor, karnay-surnay sadosi ostida chiqib kuyovnikiga borishadi. Eshikni tagida oʻt yoqilgan boʻlib, yigit kelinni oʻt atrofidan uch marta aylantirib olib ketadi. Hamma birdaniga hormang kuyov, hormang kuyov deb baqiradi.

Kichkina bola chiqib men katta boʻlib uylansam Anvar akamga oʻxshab kelinni koʻtarib olib ketaman. Ilohim niyatingga yet bolam. Qizchalar, hamma qatnashchilar kibizi q kuyi sadosi ostida xush kelibsizlar deb salom berishadi.

„Gavhar“ xalq folklor-etnografik ansambli

Urushdan keyingi yillar edi. Xalq xoʻjaligini qayta tiklashga bel bogʻlagan oʻzbekistonliklarning shijoatini, ruhiyatini koʻtarish maqsadida mamlakatning turli joylariga guruh-guruh sanʼatkorlar gastrolga borishardi.

O'sha yillari Navro'z kunlarining birida Toshkent viloyati, Parkent tumanining Yangibozor qishlog'iga mashhur san'atkorlar Muhiddin Qoriyoqubov, Halima Nosirova, Gavhar Rahimova boshchiligidagi san'atkorlar kelishadi. Konsert chog'ida birdaniga bir yosh qizaloq ham raqsga tushib ketadi. U endigina 15 yoshni qarshilayotgan, 8-sinf o'quvchisi Oyxon edi. Ustoz san'atkorlarning nigohi Oyxonning mohirona raqs harakatlariga tushadi. Konsert nihoyasida Halima Nosirova Oyxonni quchib, o'pib uning tushgan raqsini mamnuniyat bilan qarshilab, Oyxonning ota-onasi rizoligi bilan Toshkentga olib ketadi.

„Gavhar“ xalq folklor-etnografik ansamblining rahbari Oyxon Yoqubova o'sha damlarni esga olar ekan, shunday deydi: „Halima opadek ulug' san'atkor bilan birgalikda o'tgan kunlarim bilan behad faxrlanaman. Bu kunlar menga nafaqat san'at maktabi, balki hayot maktabi ham bo'ldi. Dastlab opaga oddiygina hamroh bo'lgan bo'lsam, keyinchalik ular bilan yonma-yon turib, konsertlar berdim. Oyxon opa o'z ijod yo'liga nazar tashlar ekan, ustozlari Halima Nosirova, Muhiddin Qoriyoqubov, Gavhar Rahimova, Kommuna Ismoilovalarning nomlarini hurmat bilan tilga oladi“.

Folklor ansambli tuzish ishtiyoqi qalbiga tinchlik bermagan paytlarda ustozlarning har qaysisi bilan dildan suhbatlashardi. Ular u boshlagan xayrli ishga rag'batlantirishar edi. O'shanda u Halimaxonim huzuriga oshiqdi.

— Hayrli ishga qo'l uribsiz. Xalq an'analariga hayot baxsh etish bu zarhal tarixni qayta tiklash bilan barobar — deyishdi ustozlari Komil Yashin bilan Halimaxon. — Bizdan nima yordam kerak, marhamat!

— Kiyim-kechak, taqinchoqlarimiz kam, busiz esa biz ishni boshlay olmayapmiz, — dedi Oyxon opa yuragini ochib.

Halimaxon biroz o'ylanib qoldi. Keyin Oyxon opani ichkariga taklif qildi. Sandiq ustidagi ko'rpalarni olib, uni ochishdi. Oyxon opa ne ko'z bilan ko'rsinki, bu Halimaxonim konsert bergan, rollar o'ynagan paytlardagi kiygan ust-boshlari, taqinchoqlari... Halimaxonim bor bisotini shogirdi oldiga qo'ydi.

— Hammasi senga, sening ansamblingga! Olinglar, ishlataveringlar.

Uyog'iga ham qarab turmasmiz, — dedi.

Oyxon opaning ko'zlariga yosh qalqigandek bo'ldi. U bu ko'ylaklardan o'ziga yarashganini kiyib, taqinchoqlarini taqib,

necha bor sahnaga chiqqan edi. Halimaxonim o'shanda ham bugungidek oliyhimmat edi.

Oyxon opa Halimaxonim bisotini yig'ishtirib, qayta sandiqqa joyladi. Hech narsa olmadi. Ona ranjigandek bo'ldi.

— Hali bular ansambldan ham muhimroq ishlarimizga asqotadi, opa — dedi Oyxon kulib. Vaqti kelib uy muzeyingizni tashkil etamiz.

Ustozga shogirdning ezgu niyatlari xush keldi chog'i, g'ubori yozildi. Endi uni ansambl dasturi qiziqтира boshladi. Shogirdi bu haqda so'zlagan sayin, ustozni yayrardi.

— Unutilayotgan kuy-qo'shiqlarni tiklayotganingiz juda yaxshi bo'libdi, — dedi Halimaxonim. Xalq an'analari shunday bir ummonki...

Halimaxonim beixtiyor kuylab yubordi. Yuz bor, ming bor kuylagan qo'shig'ini, go'yo birinchi bor aytayotgandek, jo'shib kuylardi:

Shamol eshik ochadi,
Yorim pista sochadi.
Sochma desam sochadi,
Sochadi-yu qochadi...
Yoki

Yor degan tillaringdan o'rgilay,
Tillaringdan qand-u novvot sochiladi...

— Xalq termalaridagi oddiylilik, unga yo'g'rilgan samimiyat, pokiza tuyg'ular ifodasiga bir e'tibor bering, Oyxon, — dedi hamon hayajon bilan ustoz. Ansambl dasturidan o'rin olgan o'zbek xalq qo'shiq, lapar va o'lanlarni eshitganlar hech qachon loqayd qolmaydilar, balki beixtiyor ularga qo'shilib kuylab yuboradilar:

Oynadan qarang, yor noz uyquda yotarmikan,
Yorga qilgan nolishim, uyqudan uyg'onganmikan.
Qoshingni qarosi yuvsan ketarmu,
Saningdek toza gul bog'da bitarmu.
Sochim uchi qo'ng'iroq yozilguncha tarayman,
O'n gulimdan bir gulim ochilguncha o'ynayman.

Xalq ijodiyoti durdonalarini avaylab, asrab, xalqimizga manzur qilganlarnigina xalqimiz doim ardoqlaydi.

San'atda katta mahorat va tajriba orttirgan Oyxon Yoqubova 1988-yil Toshkent shahar Mirobod tumani G'afur G'ulom nomli Madaniyat uyi qoshida „Gavhar“ xalq folklor-etnografik ansambliga asos soladi. Jamoaga 8 yoshdan 80 yoshgacha bo'lgan xotin-qizlar jalb etildi. Uning dasturlaridan joy olgan xalq og'zaki ijodining rang-barang ko'rinishlarida xalqimizning azaliy an'analari, udumlari, turmush tarzi keng o'rin olgan.

„Gavhar“ ansambli a'zolari ijrosida tomoshabinlarga havola etilgan „Abdullajon“, „Aka, chekmang!“, „Sumalak“, „Soch-popuk“, „Navro'z“ kabi qator xalq qo'shiqlari san'at shina-vandalarida katta taassurot qoldirdi.

Ansambl katta ijodiy izlanishlar, tinimsiz mehnat evaziga 100 dan ortiq xalq termalari, laparlari, aytishuvlari, yallalari, yor-yorlari va boshqa an'ana hamda urf-odatlarini teatrlashtirib, „Zangori ekran“ orqali tomoshabinlar hukmiga havola qildi. Namangan viloyatida bo'lib o'tgan „Gul sayillari“da va boshqa bir qator viloyatlarda ajoyib chiqishlar uyushtirdi. Ansambl Respublika miqyosida o'tkaziladigan „Alla“ ko'rik-tanlovida nufuzli o'rinni egalladi. Xalqimizning sevimli bayramlari Mustaqillik, Navro'z, Mehrjon bayramlarida rang-barang dasturlari bilan muntazam qatnashib kelmoqda. Milliy an'ana, urf-odat, udumlarimizni keng targ'ibot qilib kelayotgan „Gavhar“ ansambli 1988-yili „Xalq havaskorlik ansambli“ degan faxrli unvonga sazovor bo'ldi.

O'z yurtida shuhrat topgan „Gavhar“ xalq folklor-etnografik ansamblining qiziqarli xalqchil ijodi chet ellarda ham o'z muxlislarini topdi. Ansambl ijodiy safar bilan Amerika, Avstriya, Italiya, Turkiya, Hindiston kabi xorijiy davlatlarda bo'lib qaytdi.

„Gavhar“ xalq folklor-etnografik ansambli ijrosida unutilayozgan yoki unutilgan milliy udumlarimiz sayqallanib, san'at-sevar xalqimizga havola etib kelinayotir. U targ'ib qilib kelayotgan ayrim udum va marosimlarga to'xtalib o'tishni joiz deb bilamiz.

Tong saharlab yoki oqshomlari ona allasiga quloq tutganmisiz. Ona allasi faqat chaqaloq orom olishi uchungina aytilmaydi.

Alla — ona muhabbatining, fidoyiligining ifodasidir. Alla mehr-muhabbat, muqaddas qudrat sabog'ini beruvchi qo'shiqdir. Qadimdan onalarimiz o'z farzandlariga beshik va belanchaklar boshida o'tirib, uni uxlatish, ruhiyatiga orom berish maqsadida kuylab kelganlar. Bugungi nurafshon kunlarda ham ona allasi o'z qiymatini kamaytirgani yo'q:

Onajonining gul bog'i alla,
Onajonining zo'r bog'i, alla.
Alla aytib, uxlatayin alla,
Qo'shiq aytib uxlatayin, alla.
G'am-u hasrat bo'lmasin, alla,
Gul yuzing hech so'lmasin, alla.
Qadamingdan gul unsin, alla,
Alam, kulfat kul bo'lsin, alla.

Ilohiy ta'sir kuchiga ega bo'lgan bu ohangda onaning quvonch-u shodliklari, baxt-u iqboli, orzu-umidlari tarannum etib kuylanadi. „Gavhar“ folklor-etnografik ansambli ko'p yillik tarixga ega bo'lgan bunday qo'shiqlarni tiklab, sayqallab, yana xalqimizga taqdim etayotgan fidoyilardan biridir. Xalq ijodi sarchashmalarini asrab-avaylab, ijro etib kelayotgan jamoa ishtirokchilari, turli kasb egalaridirlar. Ular orasida oddiy ishchilar, xizmatchilar, o'qituvchi, talaba va mehnat faxriylari bor.

Ular milliy qadriyatlarimizni, urf-odatlar va go'zal an'analarni targ'ib etishda jonbozlik ko'rsatmoqdalar. Ularga ko'p yillik ish tajribasiga ega bo'lgan Oyxon opa Yoqubova bosh bo'lib kelmoqdalar.

„Gavhar“ folklor-etnografik ansambli dasturidan joy olgan „Beshikka solish“ udumidagi turfa xil an'analar bilan bog'liq sahna ko'rinishlari yosh onalar uchun hayot maktabidir.

„Chaqaloqni beshikka solish“ udumi bilan bog'liq ko'hna udumlarni ijro etish boshlanadi. Chiroyli bezatilgan beshikni Oyxon olib chiqishni buyuradi. Ikki kishi beshikni olib chiqayotgan joyda to'xtatilib, „Hay-hay qizlarim, beshikni bir kishi ko'taradi, bir beshikni ikki kishi ko'tarishi behosiyat“, deydi. Qani, beshikni hamma anjomlari taxt bo'lsa, bolani olib chiqinglar. Iroda, qizim sen darrov Umri xolangga ayt isiriqni olib kelsin.

Umrixon, qani, oldin bolamga, beshikka, so'ngra uylarga isiriq tutating, uydagi turli ins-jinslar chiqib ketsin:

Isiriq-isiriq,
Xozon usmon isiriq.
Har balo-yu har qazoni,
Yo'q qiluvchi isiriq.

Endi nonni boshiga qo'yamiz, rizq-ro'zli, nondek aziz-u mukarram bo'lib, yursin. Oyna qo'yamiz yo'li oydin, farovon bo'lsin.

Pichoq qo'yamiz, so'zi o'tkir bo'lsin. Tariq sepamiz, serfarzand, serdavat bo'lsin. Taroq qo'yamiz, hayotidagi chigalliklarni to'g'ri yozib yuborish uchun. Endi nabiraginamni beshikka solishdan oldin aytimi bor, sizlar ham o'rganib olinglar:

Beshik egasi keldi,
Bobovlari qochsin.
Bolaginam orom olsin,
Unib-o'sib katta bo'lsin.

Oyxon opa chaqaloqni qo'liga olib o'tirganlarga murojaat qilib, „Bunday qo'yaymi, o'ngdan qo'yaymi?“, deb qanday joylashtirishni so'raydi. Chaqaloq noto'g'ri tarafga yo'naltirilgan bo'lsa, qatnashchilar „yo'q-yo'q, o'ngga, o'ngdan soling ishi doimo o'ngdan kelsin“, deb javob beradilar. Bola beshikka solib belanadi.

Oyxon opa otalik-onalik, rizqlik-ro'zlik, nasibalik bo'lsin. Beshik bolasi bek bolasi deydilar. Beshikda yotgan bolaning qo'l-oyog'i chiroyli, qaddi-qomati kelishgan bo'ladi.

„Beshik to'yi“ udumi

Uni deyarli barcha biladi. Ammo uning kelib chiqish tarixini ko'pchilik ko'z oldiga keltira olmaydi. Albatta, ko'z oldingizda xalqimizning ko'hna tarixi namoyon bo'ladi. Mana yov qo'lidan omon qolib, changalzorda ko'zi yorigan ona...

Sahnada voqealar rivoji „Alla“ bilan hamohang davom etadi:

Avji sahar bo'libdi, bolam-ov alla,
Ichim g'amga to'libdi, alla-yo, alla.
Qaddim meni gulday so'libdi-yo, alla,
Jonim bolam alla-yo, alla.

Oyxon opa faqat xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plabgina qolmay, yoshlarni tarbiyalash, ular orasida xalq og'zaki ijodini keng targ'ib qilishni ham hormay-tolmay yo'lga qo'yib kelmoqda. Shunga ko'ra, opa qo'lida tarbiya topgan shogirdlari ham ustoz

yo'ldan bormoqda. Oyxon Yoqubovanning iste'dodli shogirdlari talaygina. Ustozidan o'rnak olgan Mahmuda Abdullayeva „Oyxon“ nomli folklor-etnografik ansambli tashkil etdi. Yana bir shogirdi Ro'zihol Xolboyeva ham opa izidan bormoqda.

O'zbek milliy an'ana va urf-odatlariga xos bo'lgan beshik asboblari, mis va jezdan yasalgan qadimgi zargarlik buyumlari va uy jihozlarini yig'ib, xalqimizning ajoyib o'tmish tarixi bilan oshno etayotgan yana bir shogirdi Saltanat Siddiqovadir.

Oyxon Yoqubova uzoq yillardan buyon xalqimizga o'z san'ati bilangina emas, balki o'zi yashab turgan mahalla xotin-qizlarining maslahatgo'yi bo'lib ham xizmat qilmoqda. U katta-yu kichikka barobar, yosh-u qariga qo'ldan kelgan yordami va maslahatini ayamasdi.

Xalqimizning sevimli san'atkori, milliy madaniyatimizning hormas targ'ibotchisi, 80 yoshni qoralayotgan Oyxon opa Yoqubova o'zining sevimli ansambli „Gavhar“ni yangi cho'qqilar sari yetaklamoqda.

„Gavhar“ ansambli dasturidan namunalar

Kampirlarni kampir demang, yor aylanay,
Tikilganda qilpillamang, yor aylanay.
Yoshiga qarab baho bermang, yor aylanay,
Yetmishda ham yuzlar tarang, yor aylanay.
Mard bo'lsangiz ana qarang, yor aylanay,
Qancha-qancha chollar qarang, yor aylanay.
Ishq-muhabbat bo'lmas bunday, yor aylanay,
Chol-kampirning sevgisidan o'zim o'rgilay.
Yosh-u qari baxtli bo'lsin, yor aylanay,
Yurtimizda to'ylar bo'lsin, yor o'rgilay.

Qirg'izcha „alla“

Oltinim-o' beshigim alde-yo,
Oltinim bolam-o' alde-yo.
Kumushim beshigim alde-yo,
Manasim bolam-o' alde-yo.

Tojikcha „alla“

Alla guyam jon bachcham,
Go'sh kun man alla.

Allash shirinamro shunida asta,
Orom gire alla.

Ba ro'yad chakidachi ba ob,
Xayron nashav alla-yo,
Ba baxti man kalon shav,
Xazon nashav alla-yo.

Qozoqcha „Alia“

Jat bolam uxta qo'zim,
Uyderde o'shdi shiraq.
Uxtar asalarilar,
Uxtar baliqtar tinshraq.

Ko'kte ay jaltiraydi,
Derezemdin qaraydi.
Ko'zdering jung'in qo'zim,
Avunshag'im kunduzim.
Uxta bolam-o uxta.

„Ha-yu, ha-yii, oppog'im, hey...“

Ha-yu, ha-yu, oppog'im, hey,
Qizlar kiysin qalpog'in-ey.
Ha-yu, ha-yu, oppog'im, hey,
Oydan to'lgan chirog'im-ey,
Et suymasa, suymasin-ey.

Ha-yu, ha-yu, oppog'im, hey,
Qachon tegar foydasi-ey.
Shunda tegar foydasi-ey...

„Aynalayin ay bolam-ey»

Ha-yu, ha-yu, ay bolam-ey,
Ko'ngling eng poy joy bolam-ey.
To'lishib o'sgan oyimsan,
Kichkina erkatoyimsan.
Aylanayin, ay bolam-ey
Shirin-shakar, ay bolam, bolam.

„KAMALAK“ XALQ FOLKLOR-ETNOGRAFIK ANSAMBLI

Umlar bo'ladiki, uning jonkuyarlik, fidoyilik bilan o'tgan har bir soniyasini oylar va yillar yakuniga teng hisoblash mumkin. Oramizda bunday purmano hayot kechirayotgan, hayotning har lahzasini el-yurt xizmatiga baxshida etgan insonlar ko'p. Ana shundaylardan biri „Kamalak“ xalq folklor-etnografik ansamblining rahbari va tashkilotchisi Saltanat opa Siddiqova bo'ladi. Opa yetmish yoshdan oshgan bo'lsalar-da kuch-g'ayrat, shijoat, mehnat va ijodda tinim bilmaydilar. Madaniy tadbirlar respublikaning qayerida o'tkazilmasin opa o'z ansambli bilan o'sha yerda faol ishtirok etadi. Kamalak yanglig' raqlari, xalqchil she'r, yor-yor, hamda laparlari bilan san'at shinavandalarini xushnud etadi:

Osmonda yulduz-u oylar ko'paysin,
Zaminda jilg'a-yu soylar ko'paysin,
El ichra sihat-u saxovatpesha
Qo'li ochiq bo'lgan boylar ko'paysin.

Ushbu lapardagi oxirgi ikki misra opaning o'ziga ham tegishli.

Yoshligida qattiq mehnatda pishgan Saltanat opa xalqimizning urf-odat, udumlari, qadriyatlariga katta e'tibor bilan yondashib keladi. Ota-bobolardan meros uy jihozlari, asbob-anjomlari turli xil eski qumg'on, xum, qilich, kosalar, o'ymakorlik buyumlari yillar mobaynida yig'ib, asrab-avaylab bebaho boylik orttirganki, biz yuqorida shunga ishora qilgan edik. Uy muzeyida yig'ilgan eksponatlar bir necha mingni tashkil etgan bo'lib, u ko'plab xorijiy sayyohlarning diqqatini tortgan. Opaga katta miqdorda pul ham taklif qilishgan. Biroq Saltanat opa boylikka uchmadi.

Opa bu haqda shunday fikr bildiradi: „Muzeyga Hindiston, Xitoy, Yaponiya, Amerika sayyohlari tashrif buyurishgan. Hatto ular ming mashaqqat bilan yiqqan ko'hna buyumlarini sotib olish uchun juda katta miqdorda pul ham taklif qilishgan. Men esa ko'nmadim, chunki arzimas matohdek ko'ringan bu buyumlar ajdodlarimizdan qolgan qimmatli yodgorlik. Bular mening ma'naviyatim, milliy qadriyatlarim“.

Opa tashkil etgan „Kamalak“ ansamblining nomlanishi bejiz emas. Eramizning VIII asridan tortib, XXI asrgacha taalluqli

tarixiy ashyolar xuddi kamalakdek tovlanib turadi. Opaning aytishicha, ansambl nomini ana shu ayollarga qarab tanlagan ekan.

— Yoshligimdan san'at shaydosiman, — deydi Saltanat opa. Urushdan keyingi yillarda kolxozda ishladim, traktor haydadim. O'shanda ham qo'shiq aytardim. Rahmatli turmush o'rtog'im Toshpo'lat aka Siddiqov ham to umrlarining oxirigacha qo'shiqlarimga shaydo bo'lganlar. Birin-ketin 12 farzandning onasi bo'ldim. Deyarli barcha qo'shiqlarimni o'zim to'qib kuyga solganman:

Gulim bor-u gulim bor,
Gulbargak ko'ylagim bor,
Yigitlarni sardori,
Meni suygan yorim bor.

Qizil gul shona-shona,
Qo'limda angishvona,
Angishvona demanglar,
Yordan qolgan nishona.

Saltanat opa „Kamalak“ ansambli va uning repertuarlari haqida so'zlar ekan, aksar qo'shiqlarini uy-muzeyida jamlangan buyum hamda ashyolarga qarab ijod etganligini alohida ta'kidlaydi. „Bular mening ijod bulog'imdir“, deydi Saltanat opa. Opa so'zi davomida unga san'at sirlarini o'rgatgan ustozlarining nomlarini jo'shib gapiradi. Saltanat Siddiqova ko'p yillar Akmal Ikromov tumanidagi „Hurriyat“ folklor ansambliga qatnashib katta tajriba orttiradi. Ustozlari Gavhar Rahimova, Kommuna Ismoilova, Oyxon Yoqubova tuman madaniyat bo'limi sobiq mudiri Muzaffar aka nomlarini hurmat bilan tilga oladi.

Saltanat Siddiqova tom ma'noda serqirra ijodkor inson. U xalqning urf-odat, udum va qadriyatlariga katta e'tibor bilan yondashadi.

Ota-bobolarimizdan o'tib kelayotgan uy jihozlari, asbob-anjomlarni qadrlab, asrab-avaylab yig'adi. Ularning xonadonida eski qumg'on, xum, qilich, kosa va turli o'ymakorlik asbob-anjom namunalari, rangdosh idishlar ko'p. Opa bu bebaho boyliklarni yanada ko'paytirib bormoqda. Uylariga borsangiz, bir muzeyga kirganday bo'lasiz. Turli shakl va andazadagi kichik-kichik xumlarni, XIV—XV asrga oid chiroqdon, shamdon,

ko'zalarni ko'rib, ko'zlaringiz quvonadi, hayratga tushasiz. Opaning bu sa'y-harakatlari, xalqimizning ko'hna madaniyati, tarixiga bo'lgan katta hurmatidan dalolatdir.

Opaning uyiga tashrif buyurgan kishining nigohi dastlab bo'sag'adan hatlab o'tishi bilan, oyoq ostiga to'shalgan guldor qadimgi kigiz, xona devorlariga osib qo'yilgan milliy yelpig'ich, quroq, turli shakllarda tikilgan milliy anjomlarga tushadi. Xonalarda osig'lik ayrim palaklar yuz, ikki yuz yillikdir. Shular orasida opaning o'z qo'llari bilan tikkanlari ham bor. Palaklardan tashqari qubbali do'ppidan tortib, sallagacha, banoras to'nidan tortib, ayollarning chakmonigacha, qo'ying-chi o'zbek millatiga xos milliy kiyimlarning bir necha turlari mavjud.

San'atkor opadagi g'ayrat-shijoat, chevarlik, intiluvchan va qiziquvchanlik, pazandachilik milliy qadriyatlarimizga bo'lgan hurmat-e'tibor, nigohlaridagi fayz-tarovat bu ayol qalbidagi orzularning olovlanib turganidan dalolat berib turadi.

Ellik ikki nevaraning buvisi Saltanat Siddiqova oilaviy folklor ansambli tashkil etib, qizlari, qudalari, nevaralari bilan Navro'z, Mustaqillik bayramlarida qo'shiqlar, kelin salom-u, yor-yorlar, laparlar kuylab kelmoqda. Bilganlarini nabiralariga o'rgatib, xalq qadriyatlarini ular qalb shuuriga singdirmoqda. Opa o'z ansambli bilan nafaqat mamlakatimiz bo'ylab, balki xorijiy mamlakatlarda ham safarlarda bo'lib turadi. Hindiston, Shri Lanka, Eron, Turkiyada ijodiy safarlarda bo'lgan. Turkiyada o'tkazilgan folklor ansambllari ko'rik-tanlovida ishtirok etib, birinchi o'rinni olishga muvaffaq bo'lgan. Ularning Turkiyada o'tkazilgan folklor ansambllari ko'rik-tanlovida ishtirok etib, birinchi o'rinni olishga muvaffaq bo'lishi Saltanat opa mehnatining xalqaro miqyosda e'tirof etilayotganligidan dalolat. Ansambl „Alla“, 2-an'anaviy Respublika ko'rik-tanlovining g'olibi, Turkiyada o'tkazilgan jahon festivalining ikki bor qatnashchisi hamdir.

„Kamalak“ folklor ansamblining rahbari Saltanat Siddiqova katta san'at iste'dodi sohibasi bo'lishi bilan birga mehmondo'st, milliy taomlar pishirishning ustasi hamdir. U kishining tayyorlagan sumalaklarini totib ko'rgan hamyurtlarimiz-u chet elliklar opaning pazandachilik mahoratiga yuqori baho berishgan.

O'z kuch-g'ayratini mehnatga, san'atga sarflagan, ko'p yillik faoliyatini bunyodkorlik va milliy qadriyatlarimizni targ'ib

qilish, ularni asrab-avaylash ishiga bag'ishlagan Saltanat opani hukumatimiz „Shuhrat“ medali bilan taqdirladi. Bugungi kunda Saltanat Siddiqova tuzgan folklor-etnografik ansambli to'y va tantanalarda, milliy bayramlarda o'zining milliy aytishuv, lapar va o'lanlari bilan el olqishiga sazovor bo'lmoqda va yangi rejalar ustida ijod qilmoqda:

Qizil guling bo'loyin,
Men chakkangda turoyin.
Seni sevib sevdrib,
Davru davron suroyin.

Oilaviy folklor ansambli „Kamalak“ka baxt-omad, kamalak jilolaridek rang-barang dasturga ega bo'lib, muxlislar qalbida joy olishlarini tilab qolamiz.

„Kamalak“ ansambli ijro etgan qo'shiqdan namunalar.

„Alla“

Alla bolam, alla-yo,
Jonim bolam, alla-yo.
Gul ichidan hidlab olgan,
Guli rayhonim bolam, alla-yo.
Tol ichidan tanlab olgan,
Toli chavkorim bolam, alla-yo.

Qizil gulni shohida, alla-yo,
G'unchamisan, normisan, alla-yo.
Vijdonimsan, orimsan, alla-yo.

Derazadan oy boqar, alla-yo.
Uyga sochib zarrin nur, alla-yo,
Allam senga xush yoqar, alla-yo,
Uxla jonim, qil huzur, alla-yo.

* * *

Boshimdagi tojim, alla,
Suyangan tog'im, alla.
Bog'-u chorbog'im, alla,
Mening arslonim, alla.

Osmonda oyim, alla,
Ko'zim gavhari, alla.
Belimning quvvati, alla,
Yuzlari shirmonim, alla.

Podshohim, sultonim, alla,
Sher kelbatli o'g'lonim, alla.
Osmonlarga uchguday, alla,
Asl lochin qanotim, alla.

Alla bolam, alla-yo,
Jonim bolam, alla-yo.
Ko'rar ko'zim, alla-yo,
Shirin so'zim, alla-yo.

* * *

Alla desam, bor bo'lg'in, alla,
Menga nomus-or bo'lg'in, alla.
Katta bo'lg'an chog'ingda, alla,
Xalqqa vafodor bo'lg'in, alla.

Ulg'ay bolam gul Vatanda, alla.
Xalqning butun mehri sanda, alla,
Seni ko'rib bu chamanda, alla,
Yayrab, quvnay shu Vatanda, alla.

Alla aytay tingla bolam, alla,
Gulzorimda gul-u lolam, alla.
Seni ko'rsam yuragimga, alla,
Kelmas sira g'am-alam, alla.

Kechalari chirog'imsan, alla,
Ko'zim nuri, qarog'imsan, alla.
Nur to'ldirding uyimga, alla,
Gul keltirgin qo'limga, alla.

Alla aytay adiga-yo, alla,
Suv keltirgin qadida-yo, alla,
Kadi boshi uzilsin-o, alla,
Kuyov bo'lib suzilsin-o, alla.

MUNDARIJA

Kirish. Folklor-etnografik ansambllar tarixi haqida	3
Folklor-etnografik ansamblarining repertuari	6
Milliy istiqlol va folklor an'analarining tiklanishi	11
An'ana va urf-odatlarni yoshlar turmush tarziga singdirishda folklor san'atining o'rni	15
„Gulyor“ xalq folklor-etnografik ansambli	23
„Boysun“ xalq folklor-etnografik ansambli	45
„Chavqi“ xalq folklor-etnografik ansambli	62
„Avazxon“ xalq folklor-etnografik ansambli	99
„Orazibon“ xalq folklor-etnografik ansambli	108
„Doston“ xalq folklor-etnografik ansambli	112
„Momogul“ xalq folklor-etnografik ansambli	119
„Gashtak“ xalq folklor-etnografik ansambli	131
„To'rg'ay“ xalq folklor-etnografik ansambli	138
„Bulbuligo'yo“ xalq folklor-etnografik ansambli	157
„Kabutar“ xalq folklor-etnografik ansambli	177
„Mohi sitora“ xalq folklor-etnografik ansambli	189
„Munojot“ xalq folklor-etnografik ansambli	211
„Qasri Orifon“ xalq folklor-etnografik ansambli	240
„Zarrin yaproqlar“ xalq folklor-etnografik ansambli	250
„Gavhar“ xalq folklor-etnografik ansambli	258
„Kamalak“ xalq folklor-etnografik ansambli	266

85.77(5Y)
Yo'-75

Yo'ldosheva S.

Folklor-etnografik ansamblari: Kasb-hunar kollejlari uchun qo'llanma/ S. Yo'ldosheva, G. Sattorova; O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. - T: O'qituvchi, 2007. 272 b.

I. Sattarova G.

BBK 85.77(5Y)

YO'LDOSHEVA SAODAT NAZAROVNA,
SATTOROVA GULRUH ESHBOYEVNA

FOLKLOR-ETNOGRAFIK ANSAMBLARI

Kasb-hunar kollejlari uchun qo'llanma

*„O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2007*

Muharrir *B. Qodirov*

Badiiy muharrir *G. Shoabdurahimova*

Texnik muharrir *S. Tursunova*

Musahhihlar *A. Ibrohimov, M. Mirsolihov*

Kompyuterda sahifalovchi *Sh. Yo'ldosheva*

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 28.11.2007. Bichimi 60×90 1/16. Kegli 11 shponli. Tayms garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi. Shartli b.t. 17,0+2,0 rangli vkl. Nashr t. 17,0+2,0 rangli vkl. 1000 nusxada bosildi. Buyurtma №145.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 129, Navoiy ko'chasi, 30-uy // Toshkent, Yunusobod dahasi, Murodov ko'chasi, 1-uy. Shartnoma № 12-105-07.